



BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (O'ZBEKISTON),
BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKIL OTINING
“QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKIL OTI (FAO),
GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),
PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),
VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),
ZALF AGROTEKNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

“IJODKOR YOSHLAR VA INNOVATSION TARAQQIYOT”
mazusidagi an'anaviy Xalqaro 10-ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLAR TO'PLAMI

10-11-iyun, 2025-yil





BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (O‘ZBEKISTON),

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING

“QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEXNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“IJODKOR YOSHLAR VA INNOVATSION TARAQQIYOT” mavzusidagi
an’anaviy Xalqaro 10-ilmiy-amaliy anjumani**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

10-11-iyun, 2025-yil



**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
(УЗБЕКИСТАН),**

**ПРОДОВОЛЬСТВЕННАЯ И СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННАЯ
ОРГАНИЗАЦИЯ ОБЪЕДИНЕННЫХ НАЦИЙ (FAO),**

БЕРЛИНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ГУМБОЛЬДТА (ГЕРМАНИЯ),

ПРЕШОВСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ (СЛОВАКИЯ),

**ВАЛЕНСИЙСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
(ИСПАНИЯ),**

**АГРОТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР ZALF
(ГЕРМАНИЯ),**

МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ INTI (МАЛАЙЗИЯ),

УНИВЕРСИТЕТ ХЕРИОТ-ВАТТ (МАЛАЙЗИЯ)

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ НА ТЕМУ: “ТВОРЧЕСКАЯ МОЛОДЕЖЬ
И ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ” традиционной международной 10-й
научно-практической конференции**

10-11 июля 2025 г.



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



INTI
International
University & Colleges

**HERIOT
WATT**
UNIVERSITY
UK | DUBAI | MALAYSIA

**BUKHARA STATE TECHNICAL UNIVERSITY (UZBEKISTAN),
FOOD AND AGRICULTURE ORGANIZATION OF THE UNITED NATIONS
(FAO), BERLIN UNIVERSITY NAMED AFTER HUMBOLDT (GERMANY),
UNIVERSITY OF PREŠOV (SLOVAKIA),
POLYTECHNIC UNIVERSITY OF VALENCIA (SPAIN),
ZALF AGROTECHNOLOGICAL RESEARCH CENTER (GERMANY),
INTI INTERNATIONAL UNIVERSITY (MALAYSIA),
HERIOT-WATT UNIVERSITY (MALAYSIA)**

"CREATIVE YOUTH AND INNOVATIVE DEVELOPMENT"

**The organizing committee of the traditional 10th International Scientific
and Practical Conference. We invite you to the Bukhara State Technical
University on June 10-11, 2025.**

ISSN: 978-9910-10-214-1
UO‘K 316.42:005.591.6
BBK 60.56
«DURDONA» Nashriyoti

“Ijodkor yoshlar va innovatsion taraqqiyot” mavzusidagi an’anaviy Xalqaro 10-ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. (2025-yil 10-11-шHT) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti, 2025.

| |
|---|
| TAHRIR HAY’ATI RAISI: |
| Siddiqova Sadoqat G’afforovna -Buxoro davlat texnika universiteti rektori, pedagogika fanlari falsafa doktori, professor. |
| BOSH MUHARRIR: |
| Jo’rayev Fazliddin O’rinovich - Buxoro davlat texnika universiteti, texnika fanlari doktori, professor. |
| MUHARRIR: |
| Rahmatov Shuhrat Ahadovich - Buxoro davlat texnika universiteti, Innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, iqtisod fanlari falsafa doktori, dotsent. |
| TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI: |
| Y.J.Rajavov, J.Usmonov - 1-sho‘ba. Qishloq va suv xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish hamda energiyatejamkorlik masalalari |
| X.T.To‘xtayeva, S.R.Asatov - 2-sho‘ba. Qishloq xo‘jaligida agroekotizimlarni o‘rganishda ekologik yondashuv, yer resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish, raqamli texnologiyalar |
| S.A.Boltayev, L.X.Gaffarov - 3-sho‘ba. Qishloq va suv xo‘jaligini matematik modellashtirish usullari va axborot texnologiyalarini qo‘llash |
| D.P.Mirzayev, S.T.Latipov - 4-sho‘ba. Sanoat korxonalarida, qishloq va suv xo‘jaligida elektr energiya masalalaridan samarali foydalanish - |
| X.B.Ergasheva, Z.M.Amonova - 5-sho‘ba. Oziq-ovqat maxsulotlarini tayyorlashdagi dolzarb muammolarning yechimi to‘g‘risida |
| N.Sh.Yaxyaev, Sh.K.Boqieva - 6-sho‘ba. Nef vagaz sanoati yo‘nalishidagi dolzarb muammolarninr yechimi |
| X.I.Qurbonova, S.Yu.Norova - 7-sho‘ba. Hududlarni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirishda xususiy sektorning o‘rni |
| Sh. X. Samiyeva, S. S. Mirzaeva - 8-sho‘ba. Sanoat va texnika, qishloq va suv xo‘jaligida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy, pedagogik-ma’naviy omillari |

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti.

© Mualliflar. Elektron pochta manzili: bstu_info@edu.uz

ISSN: 978-9910-10-214-1
UO·K 316.42:005.591.6
BBK 60.56
«DURDONA» Nashriyoti

Сборник материалов на тему: “Творческая молодежь и инновационное развитие” традиционной международной 10-й научно-практической конференции. 10-11 июля 2025 г. Б.: Бухарский государственный технический университет, 2025.

| |
|---|
| ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОМИССИИ: |
| Сиддикова Садокат Гаффоровна - ректор Бухарского государственного технического университета, доктор философии по педагогическим наукам, профессор. |
| ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: |
| Джураев Фазлиддин Уринович - Бухарский государственный технический университет, доктор технических наук, профессор. |
| РЕДАКТОР |
| Рахматов Шухрат Ахадович - начальник отдела инноваций и подготовки научно-педагогических кадров Бухарского государственного технического университета, доктор философии по экономическим наукам, доцент. |
| ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ: |
| Я.Ж.Ражабов, Ж.И. Усманов - Секция 1. Вопросы механизации и автоматизации технологических процессов и энергосбережения в сельском и водном хозяйстве |
| Х.Т.Тухтаева, С.Р.Асатов - Раздел 2. Экологический подход к изучению агроэкосистем в сельском хозяйстве, организация и охрана эффективного использования земельных ресурсов, цифровые технологии |
| С.А.Болтаев, Л.Х.Гаффаров - Раздел 3. Применение методов математического моделирования сельского и водного хозяйства и информационных технологий |
| Д.П.Мирзаев, С.Т.Латипов - Раздел 4. Эффективное использование электроэнергии на промышленных предприятиях, в сельском и водном хозяйстве |
| Х.Б.Эргашева, З.М.Амонова - Раздел 5. О решении актуальных проблем приготовления пищевых продуктов |
| Н.Ш.Яхьяев, Ш.К.Бокиева - Раздел 6. Решение актуальных проблем в нефтегазовой отрасли |
| Х.И.Курбанова, С.Ю.Норова - Раздел 7. Роль частного сектора в социально-экономическом развитии регионов |
| Ш. Х. Самиева, С. С. Мирзаева - Раздел 8. Социальные, педагогико-духовные факторы и подготовки конкурентоспособных кадров в промышленности. |

Авторы несут ответственность за точность информации в включенных в сборник рефератах и точность цитат.

©Бухарский государственный технический университет).
© Авторы
Адрес электронной почты: bstu_info@edu.uz

ISSN: 978-9910-10-214-1
UO·K 316.42:005.591.6
BBK 60.56
«DURDONA» Nashriyoti

"Creative youth and innovative development" The organizing committee of the traditional 10th International Scientific and Practical Conference. We invite you to the Bukhara State Technical University on June 10-11, 2025. - B.: Bukhara State Technical University (Bukhara Institute of Natural Resources Management), 2025.

| |
|--|
| CHAIRMAN OF THE EDITORIAL COMMISSION: |
| Siddiqova Sadoqat Gafforovna - Rector of Bukhara State Technical University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor. |
| EDITOR-IN-CHIEF |
| Juraev Fazliddin Urinovich - Bukhara State Technical University, Doctor of Technical Sciences, Professor. |
| EDITOR |
| Rakhmatov Shuhrat Akhadovich - Head of the Department of Innovation and Training of Scientific and Pedagogical Personnel of Bukhara State Technical University, Doctor of Philosophy in Economics, Associate Professor. |
| MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD: |
| Ya.J.Rajabov, J.I. Usmanov - Section 1. Issues of mechanization and automation of technological processes and energy saving in agriculture and water management |
| Kh.T.Tukhtaeva, S.R.Asatov - Section 2. Ecological approach to the study of agroecosystems in agriculture, organization and protection of efficient land use, digital technologies |
| S.A.Boltayev, L.H.Gafforov - Section 3. Application of methods of mathematical modeling of agriculture and water management and information technologies |
| D.P.Mirzaev, S.T.Latipov - Section 4. Efficient use of electricity at industrial enterprises, in agriculture and water management |
| H.B.Ergasheva, Z.M.Amonova - Section 5. On solving pressing problems of food preparation |
| N.Sh.Yakhyaev, Sh.K.Boqiyeva - Section 6. Addressing pressing issues in the oil and gas industry |
| Kh.I.Kurbanova, S.Yu.Norova - Section 7. The role of the private sector in the socio-economic development of regions |
| H. Samiyeva, S. S. Mirzayeva - Section 8. Social, pedagogical, and spiritual factors and the training of competitive personnel in industry. |

The authors are responsible for the accuracy of the information in the abstracts included in the collection and the accuracy of the citations.

© **Founder:** Bukhara State Technical University.
© **Authors**
Email address: bstu_info@edu.uz

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, mehmonlar, doktorantlar va talabalar **“Ijodkor yoshlar va innovatsion taraqqiyot”** mavzusidagi an’anaviy Xalqaro 10-ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz!

Ma’lumki yurtimizda olib borilgan oqilona siyosat tufayli O‘zbekistondagi barcha yoshlar o‘zlarining salohiyatlarini namoyon qilishlari uchun shart-sharoitlar mavjuddir. Aziz iqtidorli talaba yoshlar. Siz mashaqqatli ammo sharaflı yo‘lnı tanlagansız. Ilm yo‘li qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, shunchalik sharaflıdır. Dunyodagi hech bir davlatda bizning yurtimizdagi yoshlarga yaratilgan sharoitlarday imkoniyatlar mavjud emas. Aziz o‘gil-qizlarim shu imkoniyatlardan to‘laqonli va samarali foydalanib, ilm yo‘lida tolmasdan, xalqimizning mushkulini oson qiladigan, ishlab chiqarish jarayonini yanada rivojlantirish uchun yangi ixtirolar, ishlanmalar tayyorlashda kuch quvvat bersin.

10-11-iyun kunlari bo‘lib o‘tadigan ushbu xalqaro anjumanda talabalar, yosh olimlar va professor-o‘qıtuvchilar o‘zlarining ilmiy maqolalari, tezis va ishlanmalari bilan ishtirok etyaptilar.

Anjumanda 8 ta sho‘ba bo‘yicha 100 dan ortiq maqolalar kelib tushgan bo‘lib, shulardan 20 tasi xorijiy OTM va ITI lardandir.

Bundan tashqari har bir sho‘badan eng yaxshi maqola va tezis yozganlar saralanib 1, 2, 3-o‘rin uchun estalik sovg‘alar va diplom bilan taqdirlanadilar.

Bugungi yig‘ilish ishtirokchilariga va tashkilotchilariga, Buxoro davlat texnika universiteti professor-o‘qıtuvchilari nomidan minatdorchiлик bildiraman va anjumanni ochiq deb e‘lon qilaman.

E’tiborlaringiz uchun rahmat!

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna -
Buxoro davlat texnika universiteti rektori,
pedagogika fanlari falsafa doktori, professor.

**1-SHO‘BA. QISHLOQ VA SUV
XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASHTIRISH VA
TEXNOLOGIK JARAYONLARNI
AVTOMATLASHTIRISH HAMDA
ENERGIYATEJAMKORLIK
MASALALARI**

UO‘K 631.315.4
YOMG‘IRLATIB SUG‘ORISH (PIVOT) QURILMASINING QISQACHA TAVSIFI,
KONSTRUKSIYASI TUZILISHI, ISHLATILISHI PRINSIPI

T.f.d., professor F.O‘.Jo‘rayev, Phd doktorant E.F.O‘rinov
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Yomg‘irlatib sug‘orish (pivot) qurilmasi qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasida, xususan, suv purkash usuli yordamida o‘simliklarni sug‘orishda, yomg‘rlatib purkash moslamalari yordamida amalga oshiriladi. Bu sug‘orish texnologiyasi boshqa texnologiyalardan har qanday relyefga moslashishi, ko‘p qirraliligi, o‘simliklarni sug‘orish, o‘simliklarni zararsizlantirish va mineral o‘g‘itlar yetkazib berish bilan ajralib turadi. Xususan, Pivot irrigatsiya texnologiyasi suv ta‘minotiga ulangan markaziy aylanish nuqtasi atrofida aylanadigan harakatlanuvchi quvur konstruktsiyasidir.*

Kalit so‘zlar: *yomg‘irlatib sug‘orish (pivot) qurilmasi; suv manbai; filtr; assimilyatsiya trubkasi; tizimni aylantirish uchun markaziy o‘q; suv taqsimlovchi shlanglar; suv tuzsizlantiruvchilar; boshqaruv paneli.*

КРАТКОЕ ОПИСАНИЕ, КОНСТРУКЦИЯ, СТРОЕНИЕ, ПРИНЦИП
ЭКСПЛУАТАЦИИ УСТРОЙСТВА ДОЖДЕВОГО ОРОШЕНИЯ (ПИВОТА)

д.т.н., профессор Ф.У.Жураев, PhD докторант Э.Ф.Уринов
Бухарский государственный технический университет

Аннотация. *Устройство дождевального орошения (пивотное) реализуется в области механизации сельского хозяйства, в частности, при орошении растений методом распыления воды, с помощью дождевальных устройств. Эта технология орошения отличается от других технологий своей адаптивностью к любому рельефу, многогранностью, поливом растений, дезинфекцией растений и подачей минеральных удобрений. В частности, технология орошения Pivot представляет собой конструкцию подвижной трубы, вращающейся вокруг центральной точки вращения, подключенной к водоснабжению.*

Ключевые слова: *устройство дождевального орошения (пивотное); источник воды; фильтр; ассимиляционная трубка; центральная ось для вращения системы; водораспределительные шланги; опреснитель воды*

BRIEF DESCRIPTION, CONSTRUCTION, STRUCTURE, PRINCIPLE OF
OPERATION OF A RAIN IRRIGATION DEVICE
Doctor of Technical Sciences, Professor F.U.Zhuraev, PhD doctoral student E.F.Urinov
Bukhara State Technical University

Abstract. *Sprinkler irrigation devices are implemented in the field of agricultural mechanization, in particular, when irrigating plants using spraying methods, using sprinkler devices. This irrigation technology differs from other technologies in its adaptability to any terrain, versatility, plant irrigation, plant disinfection, and mineral fertilizer delivery. In particular, the Pivot irrigation technology is a movable pipe structure that rotates around a central rotation point connected to the water supply.*

Keywords: *sprinkler irrigation device; water source; filter; absorption pipe; central axis for rotating the system; water distribution hoses; water desalinator.*


Markaziy burilish eng keng tarqalgan standart 400 m (R-200 S-12,56 ga) mashinadir. Bu sug'orish tizimlarining yuqori samaradorligi va bir xil miqdorda sug'orish suvini ta'minlaydigan va texnik xizmat ko'rsatishda iqtisodiy qulaylik tufayli AQSh, Xitoy, Isroil, Saudiya Arabistoni kabi rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan sug'orish texnologiyasidir.

Markaziy burilishli sug'orish tizimi - bu suv manbaiga ulangan markaziy aylanish nuqtasi atrofida aylanadigan harakatlanuvchi quvur konstruksiyasi. Markazli irrigatsiya tizimlari yuqori samaradorligi, yuqori bir xilligi, notekis yerlarni sug'orish imkoniyati mavjudligi kam texnik xizmat ko'rsatilishi va boshqarish xarajatlari kamligi tufayli dunyodagi eng keng tarqalgan sug'orish tizimlari hisoblanadi [1, 2].


Markaziy burilishli sug'orish tizimiga o'rnatilgan purkagichlar to'plami tizimning samaradorligini aniqlashda eng muhim omil hisoblanadi. Tegishli sug'orish moslamasini tanlashda tuproqning xususiyatlari va infiltratsiya tezligi, dala relyefi, mahalliy ob-havo sharoiti va sug'oriladigan ekin turi kabi bir qator omillar bilan belgilanadi. "Markazlashtirilgan aylanma sug'orish" qurilmasi dalaning tuproq xususiyatlariga mos kelishi, dalaga suv bir xilda berilishi, shamol tomchilari va tomchilarning bug'lanishi kam miqdorda bo'lishi kerak.

Markaziy aylanma sug'orish boshqa ko'plab sug'orish usullariga qaraganda kamroq mehnat talab qiladi, masalan, jo'yaklab sug'orish va boshqa sug'orishlar.


Biz tajribalarimizni Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi "Yangi asr" fermer xo'jaligi dalalarida 80 gektar maydonida markazlashgan (pivot) sug'orish tizimini ishlab chiqdik va quyidagi konstruktiv tuzilish va ishlash printsipiga ega bo'lgan margazlashgan yomg'irlatib sug'orish (pivot) mashinasi ishlab chiqildi va dala tajriba sinovlari o'tkazildi (1-rasm. a, b, v) [3; 4].



1-rasm. Yomg'irlatib sug'orish (pivot) qurilmasi konstruksiyasining tuzilishi (a, b, v)



2.-rasm. Yomg'irlatib sug'orish (pivot) qurilmasi konstruksiyasining tuzilishi (a, b, v)




1-suv manbai; 2-filtr; 3-assimilyatsiya trubkasi; 4-nasos; 5-dvigatel; 6-elekr paneli; 7-monometr; 8-bo'shatish trubkasi; 9-gidrosikl; 10-egzoz valfi; 11-latch; Quvurni mustahkamlash uchun 12 ta raf; 13-tizimni aylantirish uchun markaziy o'q 14-kranga suv etkazib berish uchun; 15-suv taqsimlovchi shlanglar; 16-suv tuzsizlantiruvchilar; 17 - harakatlanuvchi g'ildirak; g'ildirakni harakatlantirish uchun 18-motor; 19-boshqaruv paneli.

3-rasm. Yomg'irlatib sug'orish qurilmasi (pivot) konstruksiyasining tuzilishi (a, b, v, d, e)

Yomg'irlatib sug'orish (pivot) qurilmasining sprinkler suv sepkich ishchi qismlarining tuzilishi (4-rasm).



a)



b)

a) Sepkichlarning haqiqiy tuzilishi; b) sepkichlarning 3D ko'rinishi.

1-sepkich asosi; 2-olti qirrali suv sepkich parragi; 3-sepkich ramasi; 4-yo'naltirgich; 5-suv kameraning pastki qismi; 6- suv kameraning yuqori qismi; 7-kontrgayka; 8-krannik; 9-yuk; 10-shlang.

4-rasm. Yomg'ir latib sug'orish (pivot) qurilmasining sprinkler suv sepkich ishchi qismlarining tuzilishi (a, b)

Yomg'ir latib sug'orish (pivot) qurilmasining sprinkler suv sepkich ishchi qismlarining tuzilishi va ishlash prinsipi quyidagicha: 1-aylana taglik, 2-sepkich parraka aylanuvchan qilib biriktirilib bo'lib, 3-sepkich ramasiga mahkamlangan, 4-bosim ostida yo'naltirgich 3,5; 5-so'ndirgichning ostki qismi; 6-so'ndirgichning yuqori qismi; 7-kontur rezbali boltlar; 8-krannik.

Bundan tashqari, kanallar qazishni talab qiladigan erni sug'orish usullariga qaraganda kamroq mehnat xarajatlarini talab qiladi. Bundan tashqari, markazlashtirilgan burilishli sug'orish tuproqqa ishlov berish hajmini kamaytirishi mumkin. Shunday qilib, sug'orish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv oqimi va tuproq eroziyasini kamaytirishga yordam beradi. Yengil ishlov berish ko'proq organik moddalar va hosil qoldiqlarini tuproqqa qaytarishga yordam beradi. Bu ham tuproqning siqilishini kamaytiradi [5; 6].

Markazlashtirilgan aylanma sug'orish usuli:

- sug'orish suvidan foydalanish koeffitsiyentini oshiradi;
- o'simliklar uchun zarur mikroiklimni yaratadi;
- to'liq avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi mavjud bo'ladi;
- tizimni to'liq lokalizatsiya qilish imkoniyati.

Markaziy burilishli sug'orish tizimining samaradorligi dalaga qo'llaniladigan suvning mavjudligi, ekinning ildiz tizimi va tizimning samaradorligi ko'rsatkichidir. Pivot sug'orish tizimida optimal sug'orish dasturidan foydalanish o'simlikka beriladigan suvdan oqilona foydalanish va yetishtirilgan hosilni maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Sprinkler uskunalariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining talablari, uning maqsadi va funksiyalarini hisobga olgan holda, asosan quyidagilarni, ya'ni o'simliklarni suv bilan maqbul ta'minlash, sprinkler uskunalarini quyidagilarni ta'minlashi zarur [5]:

- kerakli hajmda, belgilangan muddatlarda suv bilan ta'minlash, biologik bosqichlariga muvofiq o'simliklarning rivojlanishini ta'minlanishiga erishish;
- sug'oriladigan yerlarda yomg'irning bir tekis taqsimlanishiga erishish;
- tuproqni namlashni o'simliklarning ildiz tizimlari rivojlanishiga qarab yetkazish;
- o'simliklar uchun mikroiklimni yaratish, yerdagi issiqlik, havo va oziqlanish rejimlarini tiklash;

-o'simliklarning havo qismlariga tuproq tashlamaslik, shuningdek barglar, mevalar, poyalar va o'simlik tanalarini yomg'ir tomchilari bilan mexanik shikastlamaslik;

-yomg'irilatish jarayonida tuproqni yemirilishini umumiy istisno qilish, tuproq qobig'ini hosil qilmaslik, tuproqning yuza qatlamida zichlanish eroziyasini oshirmaslik.

Yomg'irilatib sug'orish (pivot) qurilmasi qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida, xususan, suv purkash usuli yordamida o'simliklarni sug'orishda, yomg'irilatib purkash moslamalari yordamida amalga oshiriladi. Bu sug'orish texnologiyasi boshqa texnologiyalardan har qanday relyefga moslashishi, ko'p qirraliligi, o'simliklarni sug'orish, va mineral o'g'itlar yetkazib berish bilan ajralib turadi. Xususan, Pivot irrigatsiya texnologiyasi suv ta'minotiga ulangan markaziy aylanish nuqtasi atrofida aylanadigan harakatlanuvchi quvur konstruksiyasidir. Markaziy burilish keng tarqalgan standart 400 m (R-200 S-12.56 ga) mashinadir.

Markazlashtirilgan aylanma sug'orish usuli [6]:

- sug'orish suvidan foydalanish koeffitsiyentini oshiradi;
- o'simliklar uchun zarur mikroiklimni yaratadi;
- to'liq avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi mavjud bo'ladi;
- tizimni to'liq lokalizatsiya qilish imkoniyati.

Markaziy burilishli sug'orish tizimining samaradorligi dalaga qo'llaniladigan suvning mavjudligi, ekinning ildiz tizimi va tizimning samaradorligi ko'rsatkichidir. Pivot sug'orish tizimida optimal sug'orish dasturidan foydalanish o'simlikka beriladigan suvdan oqilona foydalanish va yetishtirilgan hosilni maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Sprinkler uskunalariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining talablari, uning maqsadi va funksiyalarini hisobga olgan holda, asosan quyidagilarni ta'minlaydi o'simliklarni suv bilan maqbul ta'minlash. Sprinkler uskunalari quyidagilarni ta'minlashi zarur [7]:

- kerakli hajmda, belgilangan muddatlarda suv bilan ta'minlash, biologik bosqich-lariga muvofiq o'simliklarning rivojlanishini ta'minlanishiga erishish;

- sug'oriladigan yerlarda yomg'irning bir tekis taqsimlanishiga erishish;

- tuproqni namlashni o'simliklarning ildiz tizimlari rivojlanishiga qarab yetkazish;

- o'simliklar uchun mikroiklimni yaratish, yerdagi issiqlik, havo va oziqlanish rejimlarini tiklash;

- o'simliklarning havo qismlariga tuproq tashlamaslik, shuningdek barglar, mevalar, poyalar va o'simlik tanalarini yomg'ir tomchilari bilan mexanik shikastlamaslik;

- yomg'irilatish jarayonida tuproqni yemirilishini umumiy istisno qilish, tuproq qobig'ini hosil qilmaslik, tuproqning yuza qatlamida zichlanish eroziyasini oshirmaslik kabi bir qancha agrotexnik talablarning bajarilishi talab etiladi.

Yomg'irilatib sug'orish (pivot) qurilmasining yomg'irilatish jarayonida suv oqimi sprinkler bilan ta'sirlashib, sun'iy suv tomchisini hosil qiladi. Sun'iy suv tomchisini sifat ko'rsatkichlari yomg'irilatilgan suvning dala yuzasi bo'ylab taqsimlanishi va miqdorini yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [^] Tina Grant (2007). Kompaniya tarixining xalqaro katalogi . jild. 84. Sent-Jeyms Press. p. 318. ISBN 9781414429687.

2. [^]Yuqoriga o'tish:^{a,b} "Nashr: Markazli sprinklerlarning ishlash xususiyatlari" (PDF). *NebGuid. Olingan 2008-12-17.*

3. Журавлева Л.А., Нгуен В.Т. Совершенствование конструктивных параметров широкозахватных дождевалных машин кругового действия // Аграрный научный журнал. 2021. N8. С. 90-94. DOI: 10.28983 / asj.y 2021 i 8 pp 90-94. EDN: XSNTRH.

4. Кожанов А.Л., Воеводин О.В. Осушительно-увлажнительные системы на равнинных территориях с применением фронтальных и фронтально-круговых дождевалных машин // Мелиорация и гидротехника. 2021.Т. 11. N3. С. 95-108. DOI: 10.31774/2712-9357-2021-11-3-95-108. EDN: GZRQZT.

5. Jo'rayev F.O., O'rinov E.F. Yomg'irlatib sug'orishning afzalliklari va yekinlarni sug'orishning me'yorlarini aniqlash // Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallar to'plami. 23-24-fevral 2-tom Buxoro-2024-yil.

6. 121. 4. Jo'rayev F.O., Xasanov I.S., O'rinov E.F., To'rayev S.S. Yomg'irlatib sug'orish usullari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlilari//Taqiqot ob'ektini tanlash va taqiqotuning maqsad va vazifalarini belgilash. Suv va Yer resurslari. "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti. 2022.№3(14).3-39 b.

7. Jo'rayev F.O. Xasanov I.S. O'rinov E.F. Yomg'irlatib sug'orish (pivot) qurilmasining texnologik parameterlarni hisoblash // tabiiy resurslardan samarali foydalanishda agroekotizimlar barqarorligining dolzarb muammolari. Mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjumani maqolalar to'plami 25-26 dekabr 2024-yil, Buxoro – 2024. 138-142 b.

UO'K 631.315.4

QO'SH YARUSLI PLUG BILAN ISHLASH JARAYONIDA BIOSOLVENT PREPARATINI TUPROQ YUZASIGA SEPIB TUPROQ BILAN ARALASHTIRISHNING TUPROQNING FIZIK MEXANIK XOSSALARGA TA'SIRINI O'RGANISH.

Shodiyev Shuxrat Baqoyevich - "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti mustaqil tadqiqotchi, ISMITI Buxoro mintaqaviy markazi direktori.

Shodiyev1960@mail.ru

Hamroyev G'iyosjon Fayzullo o'g'li - ISMITI Buxoro mintaqaviy markazi "IT va STT" laboratoriyasi mudiri. hamroyev1995@bk.ru

To'rayev Saidali Sohib o'g'li - "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant.

Hamroyev Ixomjon Fayzullo o'g'li – Buxoro davlat texnika universiteti magistri.

Annotatsiya. Meliorativ holati yomon, plug osti zichlangan qatlamini yumshatib, sho'rni yaxshi yuvish uchun biosolvent preparatini o'rta va kuchsiz sho'rlangan yerlarda shudgorlash bilan bir vaqtda, shudgor osti qatlamida va shudgor yuzasi bo'ylab biosolvent birikmasini 1 ga yer maydoni uchun 200 liter suvga 5-10 liter biosolventga birikmasini aralashtirib sepiladi. Bu esa tuproqni g'ovakligini oshirib, suv o'tkazuvchanligini yaxshilash orqali, tuproq tarkibidagi suvda oson eruvchi zararli tuzlarni chiqarib yuborish uchun sharoit yaratib, 2-3 martagacha suv miqdorini kam sarf qilinishiga olib keladi. Buning natijasida suv iqtisod qilinib, yerlarning hosildorligini 7-10 sentnerga oshishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: traktor; yomkost; suv krani; suyuqlikli manometri; nasos; suv quvuri; filret; suv; biosolvent; tuproq; tuz miqdori.

РЕЗУЛЬТАТЫ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ПОЧВЫ И ЗНАЧЕНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ПРЕПАРАТА БИОСОЛВЕНТА С ПРОЦЕССОМ ВЗВЕШИВАНИЯ.

Шодиев Шухрат Бакоевич - независимый исследователь Бухарского института управления природными ресурсами НИУ "ТИИМСХ," директор Бухарского регионального центра НИИССАВХ. Shodiyev1960@mail.ru

Хамроев Гиёсжон Файзулло угли - заведующий лабораторией "ИТ и СТТ" Бухарского регионального центра НИИССАВХ. hamroyev1995@bk.ru

Тураев Саидали Соhib угли - "Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Докторант по специальности "Механизация сельскохозяйственных и мелиоративных работ."

Хамроев Илхомжон Файзулло угли - магистр Бухарского государственного технического университета.

Аннотация. Для разрыхления уплотненного подплужного слоя в плохом мелиоративном состоянии и хорошей промывки солончаков препарат биосольвент на средне-и слабозасоленных почвах одновременно с вспашкой, в подпахотном слое и по поверхности пашни вносится соединение биосольвента, смешанное с 5-10 литрами биосольвента на 200 литров воды на 1 га площади. Это увеличивает пористость почвы, улучшает водопроницаемость, создает условия для удаления легкорастворимых вредных

солей из почвы, что приводит к снижению расхода воды в 2-3 раза. Это приведет к экономии воды и повышению урожайности на 7-10 центнеров с гектара.

Ключевые слова: трактор; ёмкость; водопроводный кран; жидкостный манометр; насос; водопровод; фильтр; вода; биосольвент; почва; количество соли.

THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF THE BIOSOLVENT PREPARATION WITH THE PLOWING PROCESS AND THE RESULTS OF THE PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF THE SOIL.

Shodiev Shukhrat Bakoevich - independent researcher of the Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research Institute "TIQXMMI," Director of the Bukhara Regional Center of the Research Institute of Natural Resources of the Republic of Uzbekistan.

Shodiyev1960@mail.ru

Khamroev Giyoşjon Fayzullo ugli - Head of the "IT and STT" laboratory of the Bukhara Regional Center of the Research Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization.

hamroyev1995@bk.ru


To'rayev Saidali Sohob o'g'li - Agricultural and Land Reclamation Machinery. Basic doctoral student in the specialty "Mechanization of Agricultural and Land Reclamation Works."

Hamroyev Ikhomjon Fayzullo ugli - Master of Bukhara State Technical University.

Abstract. To soften the compacted layer under the plow in poor melioration conditions and effectively flush the saline soils, the biosolvent preparation is applied simultaneously with plowing in moderately and slightly saline soils, mixing the biosolvent compound with 5-10 liters of biosolvent mixed with 200 liters of water per hectare in the subsoil layer and along the plow surface. This, by increasing soil porosity and improving water permeability, creates conditions for the removal of easily soluble harmful salts from the soil, which leads to a reduction in water consumption by 2-3 times. As a result, water is saved, and the yield of the land increases by 7-10 centners.

Keywords: tractor; tank; water tap; liquid manometer; pump; water pipe; filter; water; biosolvent; soil; salt content.

Respublikamizda hozirgi kunda sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvishda suv sarfini kamaytirish maqsadida kimyoviy kompozitsiyalar qo'llash bo'yicha innovatsion yutuqlardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni samarali yuvuvchi, ion almashinish xususiyatiga ega ionogen polimerlarni sintez qilish, bioparchalanuvchi preparatlar yaratish, ularning tuproq strukturasi ta'sirini o'rganish, qo'llash usullarini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi amaliyotiga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.




1-rasm. Biosolvent preparatining taxminiy ta'sir mexanizmi

«Biosolvent» va uning tarkibiy qismlarining pomidor urug'ining unishiga ta'siri. Tajribalarda laboratoriya sharoitida «Biosolvent» pomidor («Oydin» navi) urug'lari unuvchanlik darajasiga

H-PMK (33% li eritma), Na-PMK (33% li eritma), PMAS-3 va PMAS-1 bilan solishtirish asosida o'rganildi, urug'lar unuvchanligi va o'sish tezligiga stimullovchi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. «Biosolvent» sho'rlanish sharoitida tuproqning yuvilishi jarayonini faollashtirishi, erimaydigan Sa^{2+} , Mg^{2+} ionlarini eruvchan shaklga o'tkazishi, gipsli strukturani buzishi va g'ovakdorlik

darajasini oshirishi aniqlandi. «Biosolvent» tuproqning ionlar gomeostazi, fizik-kimyoviy xossalari optimallashtirishi, unumdorligini oshirishi polimer kompozitsiya tarkibida sirt - faol modda suvli eritmada sirt taranglik ko'rsatkichi qiymatini kamaytirishi, qutbli guruhlari tashqi tomonga va qutbsiz guruhlari ichki tomonga qarab joylashuvchi agregat tipida mitsella hosil qilishi va dispergatsion xossani namoyon qilishi bilan izohlanadi (1-rasm).



2-rasm. «Biosolvent» preparatining tuproqda suvda erimaydigan tuzlarni eruvchan shaklga o'tkazish sxemasi

Tadqiqotlar asosida «Biosolvent» kompozitsiyasini Respublika miqyosida sho'rlangan tuproqlarning sho'rini yuvish va shuningdek, tuproqning mikroagregatsion strukturasi optimallashtiruvchi desolinizator-konditsioner sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida sug'oriladigan tuproqlarning 60-65 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu o'z-o'zidan madaniy ekinlar hosildorligining kamayishiga olib kelmoqda. Sho'rlangan tuproqlar deb, tarkibida suvda oson eriydigan tuzlarni umumiy miqdori 0,3% dan katta va madaniy o'simliklarning o'sib rivojlanishi uchun xalaqit beradigan yoki o'stirmaydigan tuproqlarga aytiladi.

Bu esa o'simliklarning, ayniqsa, texnik ekinlarining hosildorligi sho'rlangan tuproqlarda keskin pasayishiga olib keladi. Shu kungacha Respublikamizda sho'r yuvishning an'anaviy usullaridan foydalanib kelingan bo'lib, ushbu mavjud agrotexnologik melioratsion chora-tadbirlar (an'anaviy sho'r yuvish) sezilarli darajada ko'p miqdorda suv sarfini talab qiladi. Sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan tuproq qatlamida ushbu uslublar kutilgan samarani bermaydi. Shunga ko'ra qishloq xo'jaligida sug'oriladigan ekin maydonlarining agromeliorativ holatini yaxshilash maqsadida kimyoviy melioratsiya uslublarini takomillashtirish, samarali preparatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni samarali yuvish xususiyatiga ega bo'lgan kompozitsiyalar ishlab chiqish borasida bir qancha amaliy ishlar olib borildi va Respublikamizda ilk marotaba sintez qilingan gomopolimer va sopolimerlar asosida kimyoviy meliorant - polimer kompozitsiya "Biosolvent" yaratilib, O'zbekiston sharoitida birinchi marotaba sho'rlangan tuproqlarni kimyoviy melioratsiyasi tizimiga yangi usul - "Biosolvent" polimer kompozitsiyasi yordamida yuvish kiritildi. Jumladan, "Biosolvent" polimer kompozitsiyasining Respublika hududidagi turli darajada sho'rlangan tuproqlar fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri laboratoriya va dala sharoitida isbotlandi.

Tuproqning xossalari o'zgaruvchan bo'lganligi sababli yerlarni haydashdan oldin uning qay darajada qattqlikka, zichlikka va qanday namlikka ega ekanligini o'rganish lozim. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sharoitida tuproq asosan tashqi kuchlar ta'sirida zichlashadi. Masalan, ma'lum bir hajmdagi tuproq mashina traktor g'ildiraklari bilan bosilganda vertikal yo'nalishda qisqarib, gorizontal yo'nalishda kengaydi. Zichlashish jarayonida tuproqning g'ovakligi kamayib, uning tarkibidagi havo siqib chiqariladi [1,2].

Shu sababli tuproqning fizik-mexanik xossalari, ya'ni qattqligi, zichligi, namligini o'rganish maqsadida qo'sh yarusli pluglar bilan bir vaqtda biosolvent preparatini sepadigan moslama bilan jihozlangan takomillashgan plug yordamida tadqiqotlar olib borildi.



Tajriba dalasida tuproq namligi, qattikligi va zichligini aniqlash uchun namunalar tuproqning 0-10, 10-20, 20-30, 30-40 va 40-50 cm qatlamlaridan olindi.

Tadqiqot natijalari 1-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Paxta, bug‘doy va takroriy ekinlardan bo‘shagan hamda beda ekilgan maydonlar tuprog‘ining namligi

| Tuproq qatlami, cm | Tuproqning namligi, % | | |
|--|-----------------------|--------|----------|
| | Quyida | Yuqori | O‘rtacha |
| Bug‘doydan bo‘shagan maydon | | | |
| 0-10 | 7,48 | 14,43 | 11,25 |
| 10-20 | 10,22 | 17,18 | 15,24 |
| 20-30 | 12,81 | 19,41 | 17,46 |
| 30-40 | 14,71 | 20,25 | 18,41 |
| 40-50 | 17,12 | 21,09 | 19,21 |
| G‘o‘zapoyalari yulib olingan maydon | | | |
| 0-10 | 7,38 | 16,82 | 13,44 |
| 10-20 | 9,59 | 12,83 | 11,72 |
| 20-30 | 10,51 | 14,98 | 13,27 |
| 30-40 | 11,95 | 16,85 | 15,13 |
| 40-50 | 13,01 | 18,61 | 16,21 |
| Takroriy ekindan bo‘shagan maydon | | | |
| 0-10 | 6,95 | 12,39 | 11,13 |
| 10-20 | 8,75 | 13,46 | 12,43 |
| 20-30 | 11,01 | 14,67 | 13,49 |
| 30-40 | 11,77 | 16,28 | 14,99 |
| 40-50 | 12,11 | 17,87 | 15,56 |
| Beda ekilgan maydon | | | |
| 0-10 | 8,19 | 15,13 | 11,39 |
| 10-20 | 10,22 | 17,81 | 15,35 |
| 20-30 | 14,12 | 19,29 | 17,39 |
| 30-40 | 16,21 | 22,54 | 18,48 |
| 40-50 | 18,03 | 23,17 | 18,91 |

jadvallarda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turli dalalarda tuproqning fizik-mexanik xossalari har xil. Bu farqni ekilgan ekinlarni yig‘ishtirib olish va sug‘orish muddatlari hamda tuproqning makro va mikro strukturalarining turlicha bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, paxta, bug‘doy va takroriy ekinlardan bo‘shagan hamda beda ekilgan maydonlarni shudgorlash davrida haydov osti tuprog‘ining 0-50 cm qatlamidagi namligi 6,95-23,17 foiz, qattikligi 0,76-5,45 MPa va zichligi 1,15-1,87 g/cm³ ga teng.

Shudgor osti va usti qatlamiga biosolvent preparatini shudgorlash jarayoni bilan bir vaqtda

berish, egatlarni traktor g'ildiragi tomonidan zichlanish darajasini kamaytirishi va resurslarni tejash imkoniyati yaratilishini bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Shudgorlashda hosil bo'lgan egatlarni traktor g'ildiragi tomonidan qay darajada zichlanishini ushbu egatlardan agregatni transport holatida harakatlantirib, qay darajada zichlanganligini baholash uchun esa shudgorlanmagan yerdan shudgorlash chuqurligiga teng bo'lgan qatlamni olib tashlab uning ostidan har 5 cm qatlamdagi tuproqning qattiqligi va zichligi takroriy ekin sifatida ekilgan makkajuxoridan bo'shagan dalalarni shudgorlash davrida o'rganildi. Tadqiqotlar natijalari 2 va 3-jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadvallarda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, shudgorlangan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining 0-5 va 5-10 cm qatlamdagi zichligi shudgorlanmagan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining zichligiga nisbatan katta bo'lib, mos ravishda 1,41-1,49 g/cm³ va 1,47-1,53 g/cm³ ni tashkil etgan. Qolgan qatlamlarda ya'ni 10-15, 15-20, 20-25 va 25-30 cm qatlamlarda tuproqning zichligi deyarli bir xil bo'lgan, ya'ni mos ravishda 1,55-1,56, 1,62-1,63, 1,66-1,67 va 1,71-1,71 g/cm³ ni tashkil etgan. Bu shudgor osti tuprog'ining 0-10 cm qatlami lemex tomonidan zichlanishidan dalolat beradi. Shudgor osti tuprog'ining 10-30 cm qatlami lemex tomonidan zichlanmaydi.

2-jadval

Shudgorlanmagan, shudgorlangan hamda plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi tuproqning qatlamlar bo'yicha zichligi

| Tuproq qatlami, cm | Shudgorlanmagan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining zichligi, g/cm ³ | Shudgorlangan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining zichligi, g/cm ³ | Plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi tuproqning zichligi, g/cm ³ |
|--------------------|--|--|---|
| 0-5 | 1,41 | 1,49 | 1,62 |
| 5-10 | 1,47 | 1,53 | 1,64 |
| 10-15 | 1,55 | 1,56 | 1,70 |
| 15-20 | 1,62 | 1,63 | 1,65 |
| 20-25 | 1,66 | 1,67 | 1,69 |
| 25-30 | 1,71 | 1,71 | 1,72 |

3-jadval

Shudgorlanmagan, shudgorlangan hamda plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi tuproqning qatlamlar bo'yicha qattiqligi

| Tuproq qatlami, cm | Shudgorlanmagan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining qattiqligi, MPa | Shudgorlangan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining qattiqligi, MPa | Plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi tuproqning qattiqligi, MPa |
|--------------------|--|--|---|
| 0-5 | 2,71 | 2,93 | 3,21 |
| 5-10 | 3,52 | 3,71 | 3,92 |
| 10-15 | 4,15 | 4,18 | 4,33 |
| 15-20 | 4,57 | 4,59 | 4,61 |
| 20-25 | 4,84 | 4,87 | 4,88 |
| 25-30 | 5,01 | 5,02 | 5,04 |

Shudgorlangan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining 0-5 va 5-10 cm qatlamdagi qattiqligi ham shudgorlanmagan maydondagi shu qatlamdagi tuprog'ining qattiqligiga nisbatan katta bo'lgan. Bu shu qatlamdagi tuproqning lemex tomonidan zichlanishi natijasida yuz bergan. 10-30 cm qatlamdagi tuproq lemex tomonidan zichlanmaganligi uchun bu qatlamlardagi tuproqning qattiqligi deyarli bir xil bo'lgan.

Plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi tuproqdan traktor g'ildiraklari o'tishi natijasida tuproqning 0-5, 5-10 va 10-15 cm qatlamdagi zichligi shudgorlangan maydondagi

shudgor osti qatlami tuprog'ining zichligiga nisbatan katta bo'lib, mos ravishda 1,49-1,62, 1,53-1,64 va 1,56-1,70 g/cm³ ni tashkil etgan. Qolgan qatlamlarda, ya'ni 15-20, 20-25 va 25-30 cm qatlamlarda tuproqning zichligi deyarli bir xil bo'lgan, ya'ni mos ravishda 1,63-1,65, 1,67-1,69 va 1,71-1,72 g/cm³ ni tashkil etgan. Bu plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlarda 0-15 cm qatlamdagi tuproq traktor g'ildiraklari o'tishi natijasida zichlanishidan dalolat beradi.

Plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlarda 15-30 cm qatlamdagi tuproq traktor g'ildiraklari tomonidan zichlanmaydi.

Plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi tuproq ustidan traktor g'ildiraklari o'tishi natijasida tuproqning 0-5, 5-10 va 10-15 cm qatlamdagi qattiqligi ham shudgorlangan maydondagi shudgor osti qatlami tuprog'ining qattiqligiga nisbatan katta bo'lgan. Bu plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlardagi 0-15 cm qatlamdagi tuproq traktor g'ildiraklari o'tishi zichlanishi natijasida yuz bergan. Plugning oxirgi korpusidan hosil bo'lgan egatlarda 15-30 cm qatlamdagi tuproq traktor g'ildiraklari tomonidan zichlanmaganligi uchun bu qatlamlardagi tuproqning qattiqligi deyarli bir xil bo'lgan.

Ushbu holatlar o'simlik ildizlarini rivojlanishi va hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda bu bartaraf etilishi lozim bo'lgan dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamatov F.M., Jo'rayev F.O., Shodiyev Sh.B., Hamroyev G'.F., Jo'rayev J.T. Takomillashgan qiya ustunli tuynukochgich chuquryumshatkich qurilma ishchi organining parametrlarini asoslash // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. № 3 (15) 2024 – B. 66-70.

2. Sh.B Shodiyev, G'.F Hamroyev. Sug'orishning zamonaviy usullari agrotexnologiyasi // Mirovaya nauka, 2022. 12 (69). c. 122-125.

3. <https://old.gov.uz/oz/news/view/23943>

4. Sh.B Shodiyev, G'.F Hamroyev. Suvni tejevchi intensiv sug'orish texnologiyalarining afzalliklari // Ekonomika i sotsium, 2022. 10-2 (101). c. 629-636.

5. Jo'rayev F.O., Hamroyev G'.F., Hamroyev I.F. Biosolvent preparatini sepadigan purkagichlar bilan jihozlangan tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilma // xalqaro an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro, 7-son - 2022 y. B. 105-109.

6. Jo'rayev F.O., Hamroyev G'.F., O'rinov E.F., Hamroyev I.F. Biosolvent preparatini sepadigan purkagichlar bilan jihozlangan tuynukli drenaj hosil qiluvchi qurilma // "Suv va yer resurslari" agrar-gidromeliorativ ilmiy-ommabop jurnal. Buxoro, 1(12)-son 2022-yil B. 4-11.

7. Sh.B.Shodiev, Yo.Q.Xayitov, R.R.Xikmatov, A.E.Sharipov, G'.F.Hamroev "Atrof muhitni asrash va ekologiyani yaxshilash buxoro viloyati misolida bahor va kuz fasllarida daraxt ekish jarayonida biosolvent polimer kompozitsiyasini qo'llash bo'yicha tavsiya va amaliy ko'rsatmalar" Buxoro 2025 yil.

УДК 631.3

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ МЕХАНИЗАЦИИ ДО ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Мионов Алексей Сергеевич

студент 2 курса, бакалавриата

федеральное государственное образовательное бюджетное учреждение высшего профессионального образования «Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации»

e-mail: hhokkej5@gmail.com

Научный руководитель: Лаамарти Юлия Александровна

к.с.н доцент

федеральное государственное образовательное бюджетное учреждение высшего профессионального образования «Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации»

e-mail: yalaamarti@fa.ru

Аннотация

В данной статье рассматриваются ключевые направления инновационного развития современного агропромышленного комплекса. Основное внимание уделяется вопросам комплексной механизации и автоматизации технологических процессов, внедрению цифровых технологий, включая математическое моделирование и экологический мониторинг, а также анализу важности подготовки конкурентоспособных кадров для аграрного сектора. Обосновывается необходимость системного подхода, объединяющего технологические и кадровые решения для достижения устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова:

Сельское хозяйство, инновации, цифровизация, механизация, автоматизация, подготовка кадров, устойчивое развитие.

Annotation

This article examines the key areas of innovative development in the modern agro-industrial complex. The main focus is on the complex mechanization and automation of technological processes, the implementation of digital technologies, including mathematical modeling and environmental monitoring, as well as the analysis of the importance of training competitive personnel for the agricultural sector. The article substantiates the need for a systematic approach that combines technological and human resource solutions to achieve sustainable development in the industry.

Keywords:

Agriculture, innovation, digitalization, mechanization, automation, personnel training, sustainable development.

ВЕДЕНИЕ

Агропромышленный комплекс (АПК) является ключевым элементом экономики любой страны, обеспечивая ее продовольственную безопасность и социальную стабильность [1]. В условиях глобальных вызовов, таких как рост населения планеты, изменение климата и необходимость в устойчивом использовании природных ресурсов, традиционные методы ведения сельского хозяйства сталкиваются с пределами своей эффективности. Это делает задачу внедрения инноваций не просто желательной, а критически необходимой для выживания и развития отрасли [2].

Тематика данной статьи полностью соответствует основным направлениям, заявленным на 10-й Международной научно-практической конференции «Творческая молодежь и инновационное развитие». В частности, будут затронуты вопросы механизации и автоматизации, применения цифровых и информационных технологий, а также проблемы подготовки конкурентоспособных кадров. Системное решение этих задач является основой для построения современного, эффективного и конкурентоспособного агропромышленного комплекса.

Целью данной работы является анализ комплексных инновационных подходов к модернизации сельского хозяйства.

Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи:

- Рассмотреть роль современной механизации и автоматизации в повышении производительности труда.
- Проанализировать потенциал цифровых технологий, таких как математическое моделирование и точное земледелие, для оптимизации агротехнических процессов.
- Обосновать значимость кадрового обеспечения как фундаментального фактора успешной реализации инноваций в АПК.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

1. Механизация и автоматизация: от замещения труда к интеллектуальным агросистемам

Современный этап механизации сельского хозяйства характеризуется переходом от простой замены ручного труда к созданию интеллектуальных агротехнических систем. Если в XX веке прорывом был трактор, то сегодня - это беспилотный трактор, интегрированный в

единую цифровую экосистему. Основой этого перехода служат технологии точного земледелия [3]. Системы GPS-навигации и автопилоты позволяют технике двигаться по полю с точностью до сантиметров, избегая пропусков и перекрытий. Это, по разным оценкам, позволяет экономить семена, удобрения и средства защиты растений на 15-20%, одновременно снижая уплотнение почвы и расход топлива [3]. С экономической точки зрения, такая оптимизация прямых затрат является ключевым фактором снижения себестоимости продукции и повышения ее конкурентоспособности.

Однако автоматизация идет дальше. Развитие робототехники привело к появлению систем, способных выполнять сложные и деликатные операции. В животноводстве это роботизированные доильные залы и автоматические кормораздатчики, которые не только высвобождают время персонала, но и оптимизируют рационы для каждой особи, повышая продуктивность [4]. Это напрямую влияет на увеличение выхода продукции (молока, мяса) с единицы производственных мощностей, что является важным показателем эффективности капиталовложений. В растениеводстве появляются роботы для прополки, которые с помощью машинного зрения отличают культурное растение от сорняка и уничтожают последний точно - механически или с помощью микродозы гербицида [5]. Такой подход кардинально снижает пестицидную нагрузку на почву. Помимо непосредственного сокращения затрат на СЗР и топливо, интеллектуальная автоматизация способствует повышению качества выполняемых операций, снижению зависимости от человеческого фактора и сезонной рабочей силы, что в конечном итоге ведет к росту рентабельности сельскохозяйственного производства. Снижение потребности в ручном труде также решает проблему дефицита кадров в сельской местности и уменьшает фонд оплаты труда, хотя и требует первоначальных инвестиций в дорогостоящее оборудование.

Долгосрочный экономический эффект достигается за счет увеличения производительности труда и снижения операционных издержек. Кроме того, использование роботизированных систем и точного земледелия позволяет достичь высокой степени стандартизации производственных процессов и получать более однородную и предсказуемую по качеству продукцию, что особенно важно для дальнейшей переработки и удовлетворения требований крупных ритейлеров и экспортеров. Таким образом, автоматизация решает не только экономические, но и важные экологические задачи, формируя основу для устойчивого сельского хозяйства.

2. Цифровые технологии: от сбора данных к предиктивному управлению

Цифровизация является нервной системой современного АПК. Ее фундамент - сбор точных и релевантных данных с помощью технологий «Интернета вещей» (IoT) [6]. Датчики в почве измеряют влажность и уровень питательных элементов; сенсоры на растениях отслеживают их фотосинтетическую активность; метеостанции предоставляют локальный прогноз погоды; спутники и дроны формируют мультиспектральные снимки полей, позволяя рассчитать вегетационный индекс (NDVI) и выявить проблемные участки [5, 6]. Этот поток данных сам по себе бесполезен. Его ценность раскрывается через аналитику и математическое моделирование. На основе собранной информации создаются «цифровые двойники» полей - виртуальные модели, на которых можно без риска для реального урожая тестировать различные сценарии: последствия засухи, эффективность нового удобрения, оптимальные сроки сева [7]. Системы поддержки принятия решений (СППР), анализируя данные в реальном времени, переходят от констатации фактов к предиктивному управлению. Они могут заранее предупредить фермера о высоком риске развития фитофтороза и порекомендовать превентивные меры, рассчитав оптимальное время и дозировку фунгицида [8]. Экономический эффект от внедрения таких систем выражается в предотвращении потерь урожая, которые могут достигать значительных величин, и в снижении затрат на экстренные меры борьбы с болезнями и вредителями. Более того, технологии блокчейн начинают использоваться для обеспечения полной прослеживаемости продукта «от поля до прилавка», что радикально повышает продовольственную безопасность и доверие потребителей. Важным аспектом является обеспечение интеграции различных цифровых платформ и

систем для создания единого информационного пространства, позволяющего принимать комплексные и наиболее эффективные решения на всех этапах агропроизводства. Хотя первоначальные инвестиции в цифровые технологии и программное обеспечение могут быть существенными, долгосрочная выгода заключается в повышении операционной эффективности, снижении рисков, связанных с погодными условиями и болезнями растений, и улучшении качества управленческих решений на основе точных данных. Такой подход не только оптимизирует экономические показатели, но и вносит существенный вклад в решение экологических проблем за счет более точного и дозированного применения удобрений и средств защиты растений, сокращения расхода воды на орошение и минимизации негативного воздействия на агроэкосистемы в целом.

$Q_{i\Delta s}$ - расчетный лимит водоснабжения структурного подразделения хозяйства м³/с.

$Q_{i\Delta p}$ - расход воды в круговороте воды м³/с.

Орошение определяется с учетом общего водоснабжения хозяйства

$$W_{ins} = \mathcal{L}_x * W_{ins} \quad (9)$$

Документы представлены в виде идентичных оперативных графиков полива и водоснабжения, которые заполняются по срокам полива. Основная функция системы быстрого анализа дефицита влаги состоит в том, чтобы связать информацию, полученную от ирригационных систем, с требованиями ирригационных систем и методами орошения.

Обзор модели оперативного прогнозирования дефицита влаги в почве форма

$$\Theta_t = \Theta_o + E_o(t) + E_2(t) - E_u(t) \quad (10)$$

здесь Θ_t - текущая влажность почв, м³/ га;

Θ_o - начальные запасы влаги в почве м³/ га;

$E_o(t)$ - м³ / атмосферные осадки м³/ га;

$E_2(t)$ - насыщение грунтовыми водами, м³/ га,;

$E_u(t)$ - испарение с поверхности почвы за счет транспирации, м³/ га;

В то время как многие модели быстро исправляют дефицит влаги последние два компонента оцениваются как постоянные в течение среднего короткого периода времени. Если в засушливой зоне Средней Азии осадки в течение вегетационного периода практически не влияют на водный баланс почв, то это можно выразить следующим образом

$$\frac{E_o(t) + E_2(t) - E_u(t)}{tk} = \frac{\Theta_o - \Theta_k}{tk} \quad (11)$$

здесь Θ_k - пограничная влажность почвы, при которой развитие растений застывает, м³/ га;

tk - критическая влажность почвы продолжительность жизни;

$$\Theta_t = \Theta_o - (\Theta_o - \Theta_k)t/tk \quad (12)$$

здесь t - ордината продолжительности времени, суточный.

Эти данные охватывают очень широкий диапазон климатических условий, механического состава почвы и глубины залегания сточных вод.

От начала полива до достижения критической влажности определяется примерная норма полива для любого участка полива

$$m_p = \frac{(\Theta_b - \Theta_H) + (\Theta_b - \Theta_k)}{2} \quad (13)$$

Примерная норма полива выражается через характеристику расхода системы полива в соответствии с условием

$$m_p = \frac{Q_i(t_k - t_H)}{W_i} \quad (14)$$

$$Q_i = \frac{(2\Theta_b - \Theta_k - \Theta_H)W_i}{2(t_k - t_H)} \quad (15)$$

здесь

Θ_b - максимальная ёмкость для полива воды ,

$t_k - t_H$ - даты начала и окончания полива.

Θ_H - влажность почвы и начало полива, м³/ га;

Q_i - расчетный расход воды на полив, м³/ га;

Полив расчетных показателей эксплуатационных графиков водоснабжения определяют при достаточно широком ограничении исходной влажности почвы по отношению к длительности водных ресурсов, а также с учетом осадков в период вегетации. Начальная влажность почвы для последующего полива учитывается как фактическая норма полива предыдущего полива. Во избежание дорогостоящих и трудоемких работ по непосредственному определению поливной влажности почвы предлагается расчетный метод определения фактических норм полива с учетом практически полного отсутствия объектов учета воды в оросительной сети хозяйства

$$m_{jf} = \frac{Q_f * t_{fi} * T_f * n_v}{\sum_{i=1}^n W_{fi} * t_{fi}} \quad (16)$$

здесь Q_f - фактический расход воды хозяйственного канала, по которому ведется учет воды, м³/ га;

t_{fi} - срок полива расчетной площади, суточный;

T_f - общая продолжительность работы межхозяйственного канала, суточный;

n_v - межхозяйственного канала КПД;

$\sum_{i=1}^n W_{fi} * t_{fi}$ - площадь оросительных участков, подвешенных к межхозяйственному каналу, и сроки их орошения.

Заключение. Комплексный подход к процессу планирования водопользования в ирригационных системах с использованием информационных технологий основан на многообразии различных факторов, реализация которых обеспечивает рациональность забора, распределения и доставки воды потребителям в необходимом объеме.

Благодаря оперативным данным о состоянии водного хозяйства на фермах оперативное принятие решений по распределению воды и контролю за их выполнением повысит качество использования водных ресурсов на 20-25%.

Обоснован состав и структура информационного обеспечения планирования водопользования, создана базовая имитационная модель ирригационной системы с учетом особенностей ее проектирования и структуры участков севооборота.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан "О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве", ПФ-5742 от 17.06.2019
2. Исмаил Дж. Худаев и Рустам Темиров. Использование канавной воды для орошения. Веб-конференция E3S. Том 390, 2023 г. VIII Международная конференция по передовым агротехнологиям, экологической инженерии и устойчивому развитию (AGRITECH-VIII 2023)
3. Иригация: справочник, изд. Шумаков Б.Б. - М.: Колос, 1999. -432 с
4. Альт В.В. Информационные технологии как фактор повышения эффективности выбора технологических решений // Сборник научных трудов. Научно-практический. конф. - Самара, 2005.
5. Израэль Ю.А., Сиротенко О.Д. Моделирование влияния изменения климата на продуктивность сельского хозяйства в России // Метеорология и гидрология. - № 6. - 2003.
6. Капустина Т.А., Аванесян И.М., Спирина Е.Ю. Изменения показателей потенциала природных ресурсов, тепло-, влагообеспеченности за долгосрочный период, их влияние на агроклиматические условия и биопродуктивность: Сборник тезисов докладов междунар. науч.-практ. конф. Конгресс "Вода: экология и технологии" (ЭКВАТЕК). - Москва: Международный выставочный центр "Крокус Экспо", 2008.
7. Хамидов М., Хамраев К. Водосберегающие технологии орошения хлопчатника 2020 в условиях глобального изменения климата и нехватки водных ресурсов. Серия конференций ЮР: Материаловедение и инженерия. 883(1) 012077.
8. Ольгаренко В.И., Колганов А.В., Ольгаренко Г.В. Эксплуатационные режимы орошения агроценозов степной зоны Нижнедонской области // НГМА. - Мелиоводинформ, 2001. - 149 с.
9. Левенко А.А. К вопросу расчета испаряемости и влагозапасов почвы на основе метеорологических данных / Вопросы агроклиматологии: сборник научных трудов Украинского научно-исследовательского института гидротехники и мелиорации. - - Москва: СГидрометеиздат. - Выпуск 105. - С. 51-59.155.
10. Хамраев К.Ш., Худойназаров И.А., Азимбоев С.А., Тураев А.С. Роль полианионного полимера при промывке засоленных почв//Сборник статей традиционной 15-летней научно-практической конференции ученых, аспирантов и талантливых студентов на тему "Современные проблемы сельского и водного хозяйства". управление". Ташкент-2016.
11. Хамраев К.Ш., Темиров Р.У. Научно-исследовательский центр "ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЕ". "Международная конференция по обучению и преподавательской деятельности" 2022/15, Ташкент, 30 августа 2022 г. 9-14 страниц.
12. Технический отчет ISBD "Аму-Бухара" за 2018 год. Технический отчет о рекультивационной экспедиции в рамках ISBD "Аму-Бухара" за 2018 год.
13. Темиров Р.У. Функции по моделированию процесса водно-солевого обмена в полевых условиях, экспериментальному оборудованию и методологии исследований//Актуальные проблемы фундаментальных и прикладных исследований: достижения и инновационные решения Международная научно-техническая конференция коллекция материалов Бухара, 16-17 мая 2024 г, 14-18 с
14. <http://www.fao.org/home/en/> (Продовольственная и сельскохозяйственная организация).

SHOLINI TOZALASH JARAYONIDA NAMLIKNING AHAMIYATI VA TA'SIRI

Djurayev Xayrullo Fayziyevich,

Texnika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat texnika universiteti.

Gafurov Karim Xakimovich,

Texnika fanlari doktori (DSc), professor, Buxoro davlat texnika universiteti.

Sayilxonov Xudoyor Narzullo o'g'li,

Tayanch doktorant, assistent, Buxoro davlat texnika universiteti.

E-mail: sayillkhonov@list.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada sholining namligi va uning tozalash jarayonidagi texnologik ahamiyati tahlil qilinadi. Don tarkibidagi namlik miqdori sholi qipig'ini samarali ajratish, yadro zararlanishining oldini olishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada sholini tozalash jarayonida optimal namlik oralig'i, bu ko'rsatkichga yetkazish uchun zarur bo'lgan quritish sharoitlari va hisoblash usullari bayon etiladi. Namlikning me'yoridan ortiq yoki kam bo'lishi sholini tozalashda mexanik shikastlanishlar, po'stlog'i to'liq ajramasligi, ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi asoslanadi. Shuningdek, termogravimetrik metod orqali namlikni aniqlash imkoniyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar ham keltirilgan. Sholini tozalash jarayonini samarali tashkil etish va mahsulot sifatini optimallashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sholi doni, namlik miqdori, tozalash, sholi qipig'i, optimal namlik, quritish, termik-kimyoviy, empirik tenglamalar, mexanik kuchlar, termogravimetrik metod.

Abstract: In this article, the moisture content of paddy rice and its technological significance in the cleaning process are analyzed. The moisture level within the grain is considered a crucial factor for the efficient separation of the husk and the prevention of kernel damage. The study outlines the optimal moisture range required for the cleaning process, along with the necessary drying conditions and calculation methods to achieve it. The article substantiates that excessive or insufficient moisture can lead to adverse outcomes such as mechanical damage, incomplete husk removal, and production losses. Additionally, brief information is provided about the determination of moisture using the thermogravimetric method. The findings hold practical significance for organizing an efficient rice cleaning process and optimizing product quality.

Keywords: rice grain, moisture content, cleaning, rice husk, optimal moisture, drying, thermochemical, empirical equations, mechanical forces, thermogravimetric method.

Kirish. Sholi yetishtirish va uni qayta ishlash oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Dastlabki qayta ishlash bosqichlaridan biri bo'lgan sholini tozalash jarayoni, ya'ni donni po'stlog'idan ajratish, mahsulot sifatiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy texnologik jarayonlardan hisoblanadi. Ushbu bosqichda donning fizikaviy va mexanik xossalari, xususan, uning namlik darajasi hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Namlik ko'rsatkichi sholini tozalashda donning mustahkamligi va mexanik ishlov berishga chidamliligini belgilaydi. Shuning uchun, sholi namligining optimal darajada bo'lishi, nafaqat tozalash samaradorligini oshiradi, balki donning sinish darajasini kamaytirish, energiya sarfini kamaytirish va yakuniy mahsulot sifati yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Aksincha, haddan tashqari nam yoki quruq donlar tozalash jarayonida texnologik muammolarga, tozalash qurilmasining ishlash barqarorligini buzishi va hosil bo'lgan chiqindi miqdorini oshishiga olib kelishi mumkin. Sholini tozalash jarayonida donning strukturaviy o'zgarishlarini chuqur o'rganish, ayniqsa, namlik miqdorining ushbu o'zgarishlarga ta'sirini aniqlash, texnologik jarayonni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Don ichki tuzilmasining namlik ta'sirida yumshashi yoki qotishi po'stloq ajralishini sezilarli darajada o'zgartiradi. Bu holat, ayniqsa, po'stloqning yadrodan qanchalik oson ajralishini belgilovchi mexanik kuchlarning taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi.

Asosiy qism. Yangi o'rib olingan sholi donining namlik miqdori odatda 20–24% atrofida bo'ladi, bu esa uni bevosita po'stlog'idan tozalash jarayoni uchun tayyor emasligini anglatadi. Bunday holatda sholining po'stlog'i don yadrosiga kuchli yopishgan bo'ladi va mexanik tozalash

uskunolari orqali ajratish chog'ida don yadro qismining sinishi, maydalanishi yoki mexanik shikastlanishiga olib keladi. Shu bois, tozalash jarayoni oldidan sholini quritish va namlikni optimal darajaga – ya'ni 12–14% oralig'iga tushirish zarurati tug'iladi. Ushbu optimal namlik miqdori sholi po'stlog'i bilan yadrosi orasidagi kuchlanishni pasaytiradi, po'stloqning oson ajralishini ta'minlaydi va shu bilan birga yadroning mexanik kuchlarga bo'lgan chidamliligini oshiradi. Namlik miqdorini optimal darajaga keltirishda termik-kimyoviy va fizikaviy qonuniyatlarga tayaniladi. Quritish jarayonida donning harorati va atrof-muhitdagi nisbiy namlik o'rtasidagi bog'liqlik, ya'ni empirik tenglamalar orqali namlikning muvozanat holatga o'tish tezligi hisoblab chiqiladi. Namlik diffuziyasining don ichidagi harakati esa Fikkning birinchi qonuni orqali aniqlanadi:

$$J = -D \cdot \frac{dC}{dx};$$

Bu yerda:

J — namlik oqimi zichligi ($\text{kg/m}^2 \cdot \text{s}$), D — diffuziya koeffitsienti (m^2/s), $\frac{dC}{dx}$ — konsentratsiya gradienti bo'yicha namlik o'zgarishi.

Don namligini optimal qiymatga olib tushirish uchun zarur quritish vaqtini taxminiy aniqlashda quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi:

$$t = \frac{(W_0 - W_t) \cdot \rho \cdot d^2}{6 \cdot D \cdot (C_s - C_a)}$$

Bu yerda:

W_0 — boshlang'ich namlik, W_t — optimal namlik, ρ — don zichligi (kg/m^3), d — don diametri (m), D — effektli diffuziya koeffitsienti (m^2/s), C_s — don sirtidagi namlik konsentratsiyasi, C_a — havodagi namlik konsentratsiyasi.

Sholining po'stlog'i 13% namlikda mexanik bosim ta'sirida elastiklikni yo'qotadi va yadroga zarar bermagan holda yoriladi. Bu holat tozalash samaradorligini ta'minlaydi. Agar sholi 13% dan yuqori namlikda tozalansa, po'stloq egiluvchan bo'lib, don yadrosiga yopishib qoladi va donning maydalanishiga olib keladi. Aksincha, namlik 11% dan past bo'lsa, don haddan tashqari qattiqlashadi va po'stlog'i bilan birga yadroning ham sinish ehtimoli ortadi. Shuningdek, sholi donining po'stlog'ini ajratish jarayonida mexanik kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan deformatsiyalarni baholashda Young moduli (E) va don mustahkamligi (σ) ham hisobga olinadi. Don optimal namlikda bo'lganda Young moduli kamayadi, bu esa po'stloqning elastik bo'lmagan deformatsiyasiga olib keladi va ajralish qulayligini oshiradi.

$$\sigma = \frac{F}{A} \quad \text{va} \quad E = \frac{\sigma}{\varepsilon}$$

Bu yerda: F — don ustiga tushayotgan kuch (N), A — ta'sir maydoni (m^2), ε — nisbiy cho'zilish.

Jarayonni optimallashtirish uchun sholi donining namligini aniqlashda termogravimetrik metoddan foydalaniladi. Termogravimetrik metod keng tarqalgan klassik laboratoriya usuli bo'lib, mahsulot massasi aniqlanadi va ma'lum haroratda quritiladi va qayta massa aniqlanadi.

$$W = \frac{m_1 - m_2}{m_1} \cdot 100 \%,$$

Bu yerda: W — namlik foizi (%), m_1 — quritishdan oldingi massa, m_2 — quritishdan keyingi massa.

Namlik miqdorini aniqlashdan so'ng, quritish moslamasining harorat, havo oqimi va quritish vaqti parametrlariga mos sozlash kiritiladi. Don namligini nazorat qilish uchun namlik o'lchov asbobi bilan jihozlangan avtomatlashtirilgan quritish tizimlari keng qo'llanilmoqda. Bu, o'z navbatida, mahsulot sifati va energiya tejamkorligini ta'minlaydi. Shu asosda aytish mumkinki, sholini tozalashda namlikning roli faqat don sifatini emas, balki butun texnologik jarayon samaradorligini belgilovchi strategik omil sifatida qaralishi lozim. Optimal namlik darajalarini aniqlash, ularni doimiy monitoring qilib borish, sholi tozalovchi mashinalarning sozlanish parametrlari bilan muvofiqlashtirish orqali yuqori sifatli mahsulot olishga erishish mumkin.

Xulosa. Sholini tozalash jarayonining samaradorligi bevosita donning dastlabki holati, xususan, namlik miqdoriga bog'liqdir. Don tarkibidagi namlik optimal darajada - taxminan 12–14% atrofida bo'lsa, tozalash jarayonida sholi qipig'i samarali ajraladi, mexanik shikastlanishlar

kamayadi va mahsulot sifati yuqori bo'ladi. Namlikning ortiqcha yoki yetarli bo'lmashligi esa mexanik kuchlarning noto'g'ri ta'siri sababli yadroning ezilishi, po'stloqning to'liq ajramasligi, shuningdek, energiya va mahsulot yo'qotishlariga olib keladi. Maqolada optimal namlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan quritish sharoitlari, termogravimetrik metod yordamida namlikni aniqlash usuli va empirik tenglamalarning asoslari bayon etildi. Ushbu tahlillar sholini tozalash jarayonini ilmiy yondashuv asosida tashkil etish va mahsulot sifatini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. GOST 26312.6-84. Zernovye i bobovye kultury. Metod opredeleniya vlazhnosti (termoveshchatelnyy metod). — Moskva: Standartinform, 1985.
2. Henderson, S.M. (1952). A basic concept of equilibrium moisture. *Agricultural Engineering*, 33(1), 29–32.
3. Chung, D.S., Pfost, H.B. (1967). Adsorption and desorption of water vapor by cereal grains and their products. *Transactions of the ASAE*, 10(4), 549–551.
4. Халилов Б.М. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қуритиш технологиялари. — Тошкент: “Fan va texnologiya”, 224 б.
5. Курбанов И.И., Арипов А.Н. (2020). Озиқ-овқат маҳсулотларини тайёрлаш ва тоzalash усқуналари. — Тошкент: “Mehnat”, 176 б.
6. FAO. (2022). Rice Postharvest Losses and Moisture Control. Food and Agriculture Organization of the United Nations. <https://www.fao.org>

UDK. 665.219.5

YANGI VA RIVOJLANAYOTGAN MANBALARDAN YOG' VA MOYLAR OLINISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA ULARNING SANOATDAGI AHAMIYATI

Normurodov Bobomurod Ruzimuratovich
Buxoro davlat texnika universiteti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yog'lar va moylarning asosiy manbalari hayvon yog'lari, oziq-ovqat o'simlik moylari, dengiz hayvon yog'lari, palma yog'lari va sanoat moylari, hamda dunyodagi yog'lar va moylarning to'rt dan uch qismi oziq-ovqat maqsadlarida ishlatilgandan tashqari so'nggi tendensiyalar sanoat oziq-ovqat mahsulotlaridan ko'ra, texnik va texnologik maqsadlarda foydalanishga o'tish samarador ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** Dengiz hayvon yog'lari, oziq-ovqat yog'lari va texnik texnologik yog'lar.*

PROMISING DIRECTIONS OF OBTAINING OILS AND OILS FROM NEW AND DEVELOPING SOURCES AND THEIR INDUSTRIAL IMPORTANCE

Normurodov Bobomurod Ruzimuratovich
Bukhara State Technical University

***Abstract:** In this article, the main sources of fats and oils are animal fats, edible vegetable oils, marine animal fats, palm oils and industrial oils, and in addition to the fact that three-quarters of the world's fats and oils are used for food purposes, recent trends show that switching to technical and technological uses is more effective than industrial food products.*

***Keywords:** Marine animal fats, edible fats, and technical*

Aholi sonining o'sishi, sanoat va umumiy ovqatlanish korxonalari tarmoqlarining rivojlanishi bilan atrof-muhitga tarkibida yog'lovchi moddalar saqlagan chiqindilar hajmining oshishiga olib keladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida organik yog'larning sifati qizdirish, gidrogenlash va modifikatsiyalash natijasida o'zgaradi, shuning uchun ular atrof-muhitga, jumladan er usti suv havzalari, tuproq va havoning ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Tarkibida yog' moddasi saqlagan chiqindilar to'rtinchi xavfli sinfga tegishlidir.

Suv havzalariga oqova suvlar bilan chiqarilgan yog‘li chiqindilar atrof-muhitning fizik xususiyatlarining o‘zgarishiga (masalan suvning shaffofligi va rangning buzilishi, yoqimsiz hid va ta‘mning paydo bo‘lishi va boshqalar); kimyoviy tarkibning o‘zgarishi, xususan, unda zararli moddalarning hosil bo‘lishi; suv yuzasida qattiq zarrachalarning vujudga kelishi; ifloslantiruvchi organik moddalarning oksidlanishiga sarflanishi tufayli suvdagi erigan kislorod miqdorining kamayishiga] olib keladi. Atrof-muhitning fizik-kimyoviy va biologik omillari ta‘sirida yog‘lar kimyoviy o‘zgarishlarga uchraydi. Mikroorganizmlar lipaz fermentlari ishtirokida yog‘larning gidrolizlanishini amalga oshirishi mumkin, bu esa glitserin va erkin yog‘ kislotalariga parchalanishiga olib keladi. Gidroliz mahsulotlari keyingi o‘zgarishlarga uchraydi. Glitserin ko‘plab mikroorganizmlar tomonidan foydalaniladi hamda CO₂ va H₂O ga to‘liq oksidlanishi mumkin.

Ta‘kidlash kerakki, yog‘ tarkibli chiqindilarni qayta ishlash orqali atrof-muhitga keltiriladigan zararni kamaytirish, ulardan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish, qo‘llash imkoniyatlarni kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va boshqa bir qator afzalliklarga erishish mumkin.


Agrosanoat majmualarida meva-sabzavot, go‘sht-sut, baliq, mikrobiologiya, non un mahsulotlari tayyorlash boshqa tarmoqlarning ikkilamchi xom ashyosi hamda yonaki mahsulotlaridan to‘liq va keng miqiyosda foydalanilmayapti. Bunday ikkilamchi moddiy resurslarga asosiy mahsulotni olish uchun xom ashyo va yordamchi materiallardan foydalanganidan keyin qolgan ishlab chiqarish chiqindilari, shuningdek, asosiy va parallel ravishda yoki qo‘shimcha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish natijasida hosil bo‘ladigan qo‘shimcha va yonaki mahsulotlar kiradi.

Chiqindi yog‘ manbalari va resurslariga xizmat ko‘rsatish sohasi (davlat va tezkor ovqatlanish korxonalari chiqindilari) hamda oziq-ovqat sanoati (oziq-ovqat o‘simlik moylarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va oqartirish chiqindilari, sifatsiz yog‘ va moylar) chiqadigan, yaroqlilik muddati o‘tgan o‘simlik moylari, oziq-ovqat bo‘lmagan yog‘lar kiradi.

Yog‘ saqlovchi chiqindi resurslar moy olinadigan o‘simliklarni qayta ishlash hajmiga, aholining ovqatlanish odatlariga va boshqa omillarga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, Taylanda bu ko‘rsatkich yiliga 70 000 tonnani tashkil etadi, bu esa 63 000 tonnaga yaqin biodizel ishlab chiqarish imkonini beradi]. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa yog‘ saqlovchi chiqindi resurslari yiliga 700 000-1 000 000 tonna darajasida baholanadi. Qo‘shma Shtatlarda bu chiqindi yog‘lar (asosan qovurilgan mahsulotlar hajmi) 11,3 million tonnagacha baholanadi. Shu jumladan, Qo‘shma Shtatlarda restoranlarida har yili 910 million kg atrofida yog‘li chiqindilari hosil bo‘lsa, Xitoyda pazandachilikdan chiqadigan yog‘li chiqindilar hajmi yiliga 4,5 million tonnani tashkil qiladi. Rossiya davlati uchun batafsil statistik ma‘lumotlarni olish imkoniyati bo‘lmada, ammo baliqning yog‘li chiqindilarini, mikroaglardan lipidlarni, mikroorganizmlarning biomassasini iste‘mol qilinadigan yog‘larni qayta ishlash sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari mavjud.

Respublikamizda ham chiqindi yog‘ saqlagan resurslar hajmi to‘g‘risida batafsil ma‘lumot bo‘lmada, biroq ta‘kidlash kerakki, bir qator o‘zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan, yog‘- moy sanoati ikkilamchi mahsulotlari hisoblangan distillangan yog‘ va xom yog‘ kislotalari, gidroliz zavodi yonaki mahsuloti sivush moyi hamda baliq qovurishda hosil bo‘ladigan ishlatilgan chiqindi yog‘lar asosida yangi yog‘lovchi kompozitsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, texnik yog‘ sifatida charm va mo‘yna yarim mahsulotlarini yog‘lantirish jarayonlarida qo‘llanilib kelinmoqda.

Chiqindilar asosan oziq-ovqat ishlab chiqarishda hosil bo‘lishi ma‘lum. Bu manbalarga restoranlar, oziq-ovqat sanoati bilan bog‘liq bo‘lgan do‘konlar va fermer xo‘jaliklari hamda go‘sht kombinatlarida hosil bo‘ladigan chiqindilar kiradi. Chiqindilarning tabiati va miqdori ishlab chiqarishning har bir bosqichida har xil bo‘lib, kushxona mahsulotlarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Kushxonada hosil bo'ladigan mahsulot turlari.

Go'sht sanoatida qo'shimcha va funksional ingredientlar sifatida iste'mol qilinadigan qo'shimcha mahsulotlar ham hosil bo'ladi. Bundan tashqari, submahsulotlar o'rnini hech narsa bosolmaydigan, tengsiz miqdorda muhim yog' kislotalari (Yok), vitaminlar, aminokislotalar va minerallarni o'z ichiga oladi [24].

Yog'lar va moylarning asosiy manbalari hayvon yog'lari, oziq-ovqat o'simlik moylari, dengiz yog'lari, palma yog'lari va sanoat moylari hisoblanadi. Dunyodagi yog'lar va moylarning to'rt dan uch qismi oziq-ovqat maqsadlarida ishlatilgan. Biroq, so'nggi tendensiyalar sanoat oziq-ovqat mahsulotlaridan ko'ra, texnik va texnologik maqsadlarda foydalanishga o'tish samarador ekanligini ko'rsatdi.

Oziq-ovqat sanoatining turli tarmoqlarida ikkilamchi moddiy resurslardan oqilona foydalanish holati yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Go'sht sanoati bu muammoga eng katta muvaffaqiyatga erishdi, chunki unda biotexnologik qayta ishlash usullari eng samarali qo'llaniladi. So'yilgan hayvonlarning qon plazmasi, ichki a'zolari va terilari ferment preparatlari yordamida mikroorganizmlarni o'stirish uchun ozuqa muhitiga, shuningdek hayvonlarning ozuqasiga biologik faol qo'shimchalarga qayta ishlanadi.

Yog'lovchi vositalarni ishlab chiqarishda xom ashyo manbalarini kengaytirish maqsadida, tadqiqotchilar tomonidan cho'chqa terisining mezdra, norka va qo'y yog'ini, shuningdek, o'simlik moylarini, ularni modifikatsiyalash mahsulotlarini hamda yog'lar va moylarning aralashmalarini xom ashyo sifatida ishlatish va ularni sulfolash imkoniyatlari o'rganilgan.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Нормуродов Б.Р., Шамсиева М.Б., Хафизов. А.А. Применение технология химической модификации для получения жирующих материалов с функциональными свойствами. Сўнги илмий тадқиқотлар назарияси. Республика илмий-амалий журнали.2024 - Б 81-87
2. Нормуродов Б.Р., Шамсиева М.Б. Чармни ёғлантириш жараёни учун ёғловчи модда олишнинг янги манбалари. Саноат ва қишлоқ хўжалик тармоқларида экология ва меҳнат муҳофазаси муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани.2023 -Б 387-388
3. Нормуродов Б.Р., Шамсиева М.Б. Чарм ва мўйна яриммахсулотини эмульсион ёғлантириш учун янги эмульгатор. Саноат ва қишлоқ хўжалик тармоқларида экология ва меҳнат муҳофазаси муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани.2023 -Б 389-390.

4. Normurodov B.R. Mahalliy chiqindilar asosida charmni yog'lantirish jarayoni uchun yog' kompozitlarini yaratish va ular bilan ishlov berilgan charmning mikroskopik tahlili. Scientific Journal - GOLDEN BRAIN 2023/17-B 252-257

5. Б.Р. Нормуродов, А.Ш. Саидов, С.И. Дўстов, Синтез и ИКспектроскопия эфиров олеиновой кислоты для смазывания кожи и меха. Енгил саноатда замонавий инновацион технологиялар: Муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро-2021. В. 111-114.

6. Нормуродов, А.Ш. Саидов, С.И. Дўстов, Синтез и ИКспектроскопия эфиров олеиновой кислоты для смазывания кожи и меха. Енгил саноатда замонавий инновацион технологиялар: муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Бухоро-2021. В. 111-114.

7. Normurodov B.R. Yog'lovchi kompozitlar tarkibi, olinishi hamda ularni ishlatish sohalari. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti jurnali-2023/4 B.46-52

8. Дустов С.И., Нормуродов Б.Р., Мухаммадиев Н.К., Gc-ms composition analysis of oils extracted from silkmoth pupes. Central asian journal of medical and natural sciences, 2022. - 4 (3)

9. Do'stov S.I., Normurodov B.R. Charm va mo'yna xomashyo tarkibiga derma tarkibiy qismi kollagen tolalarini yog'lovchi materiallar bilan qoplab, uning bug' va suv o'tkazuvchanligini kamaytirish. International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century 2022/7. 40-43 b.

10. Нормуродов Б.Р., Шамсиева М.Д. Пилла ғумбагидан ёғловчи модда ажратиб олиш ва маҳсулот унумига таъсир этувчи омиллар тадқиқи. Бухоро давлат университети илмий ахбороти журналининг 2023/7 -Б 1116

11. Дустов С.И., Нормуродов Б.Р., Мухаммадиев Н.К.Альтернативный состав, смазывающий кожи и меха. ВЕСТНИК НАУКИ.- №11 (56) 2022. Б. 281-288 203. Нормуродов Б.Р., Шамсиева М.Д. Пилла ғумбагидан ёғловчи модда ажратиб олиш ва маҳсулот унумига таъсир этувчи омиллар тадқиқи. Бухоро давлат университети илмий ахбороти журналининг 2023/7 - Б 1116.

12. Дустов С.И., Нормуродов Б.Р., Мухаммадиев Н.К. Альтернативный состав, смазывающий кожи и меха. ВЕСТНИК НАУКИ.- №11 (56) 2022. - Б. 281-288.

UO'K 631.363

KUZGI BUG'DOYNING O'RTAPISHAR "ANTANINA" NAVINING PAST HARORATLI SUV MANBALARI BILAN SUG'ORISHDA SAMARADORLIGI

Amanova Zulfizar Uktamovna

"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrası Doktoranti

e-mail: z.u.amanova@gmail.com

Buxoro davlat texnika universiteti

Annatatsiya. Buxoro vohasi sharoitida kuzgi boshqqli don ekinlardan kuzgi bug'doyni parvarishlashda sug'orish manbalardan past xaroratli er osti suvlari va daryo suvlari bilan sug'orish, hosildorlikka samaradorgi va mavsumiy sug'orishlar amalga oshirilgan holatda g'allaning o'sish rivojlanishida ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, mavsumiy sug'orish meyori 3800-4000 m³/ga ni tashkil qildi.

Kalit suzlar: sug'orish manbalari; er osti suvi; harorat; suv sarfi rejimi.

Kirish. Dunyoda iqlimning global o'zgarishida Kuzgi bug'doy o'simligini etishtirishni ko'paytirish, yer-suvdan samarali foydalanib, bug'doy navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini oshirish, turli darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida yuqori hosilli bug'doy navlarini ekish muddatlari, sug'orish meъyorlari, mavsumiy sug'orish meъyori va sug'orish usullaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy taъlim muassasalarida izlanishlar keng miqyosida olib borilmoqda. SHundan kelib chiqib, erdan samarali foydalanishda

turli tuproq-iqlim sharoitlarida bug‘doy navlarini etishirishda sug‘orish suvining xarorat, resurstejamkor sug‘orish texnologiyasi elementlaridan foydalangan holda yuqori va sifatli hosil beradigan navlarni tanlab, ularni etishtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Tadqiqotning maqsadi. Suvining sifati, uning temperaturasi, mexanik oqiziqlar miqdori, minerallashuvi va kimyoviy tarkibi, bakteriologik tarkibi bilan xarakterlanadi.

Kuzgi boshqoli don ekinlardan g‘alla va tritekali ekilgan maydonlaridan yuqori hosil olishda sug‘orish manbalari yer osti, yer usti suvlaridan unumli foydalanish tajribalar asosida uning haroratiga bog‘liq ravishda o‘rganish.

Keyingi o‘n yilliklarda respublikamiz axoli sonining oshib borishi sanoati va qishloq xo‘jaligining jadal sur‘atda rivojlanishi mavjud bo‘lgan suv zahiralardan samarali foydalanish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Bunga asos sifatida mamlakatimiz suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplash uchun zarur bo‘lgan suv resurslari hajmining faqat 18% ga yaqini o‘z hududida shakllanadi, asosiy qismi esa transchegaraviy daryolar – Amudaryo va Sirdaryo resurslari hisobiga qoplanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlar laboratoriya va dala tajribalarini o‘tkazish, sug‘orish manbalaridagi suvning har oy dekalarda haroratini o‘lchash, tuproqning xaroratini o‘lchash, ob-havo ya‘ni iqlimning o‘zgarishini (yog‘inlarni) kuzatish kuzgi bug‘doyni sug‘orishning xaroratga ta‘siri, fenologik kuzatish va biometrik o‘lchashlar “Metodika Gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennykh kultur”, “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI) asosida olib borilgan. Kuzgi bug‘doy hosili ma‘lumotlari B.A.Dospexovning “Metodika polevogo o‘ryta” manbasidagi dispersion tahlil uslubi hamda kompyuter dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilingan.

Meliorativ kadastr ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirda viloyat bo‘yicha 38 ming gektar (13,8 %) yaxshi, 211,4 ming gektar (76,8 %) qoniqarli hamda 26,3 ming gektar (9,6 %) meiliorativ nuqtai nazardan qoniqarsiz maydonlarni tashkil qiladi.

Buxoro viloyatida sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanganlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishi.

1-jadval.

| Jami sug‘oriladigan maydon | SHu jumladan | | | | |
|----------------------------|-----------------------------|-------------------------|----------------------|-----------------------|---------------------|
| | Jami sho‘rlan -magan maydon | jami sho‘rlangan maydon | SHundan | | |
| | | | kuchs iz sho‘rlangan | o‘rtac ha sho‘rlangan | kuchl i sho‘rlangan |
| 275,030 | 37,988 | 237042 | 1701 10 | 6005 4 | 6878 |

Buxoro viloyatining sug‘oriladigan erlari saxro mintaqasiga xos bo‘lib, qadimdan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial, o‘tloqi-saxro va o‘tloq-taqirli, o‘tloqi-botqoq tuproqlar keng tarqalgan. YUqorida keltirilgan tuproq turlarining maydoni 2. jadvalda keltirilgan.

Buxoro viloyatining sug‘oriladigan xududida tarqalgan tuproq turlari va maydoni

2- jadval

| Tuproq turi | Maydoni, ming ga | % |
|--|------------------|------|
| O‘tloqi-allyuvial, poyma-allyuvial tuproqlar | 205,5 | 87,7 |
| 2. Taqir-o‘tloqi tuproqlar | 49,3 | 8,0 |
| Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar | 11,2 | 4,1 |
| O‘tloqi-qumoq tuproqlar | 0,1 | 0,2 |

Keltirilgan jadval ma‘lumotlarini ko‘rsatishicha viloyatning sug‘oriladigan erlarini 87,7% o‘tloqi-allyuvial va poyma-allyuvial tuproqlari tashkil etadib, ushbu tuproq turlari viloyatning Vobkent, Buxoro, Peshku, Qorako‘l, Olot tumanlarida keng tarqalgan. Bu tuproqlar qadimdan sug‘oriladigan, madaniylashgan, unumdor tuproqlar bo‘lib, xaydalma qatlam (0-40 sm) tarkibidagi

gumus miqdori 0,86-1,6 % ni, umumiy azot 0,06-0,12 % ni, umumiy fosfor 0,11-0,18 % ni tashkil qiladi.

Buxoro viloyatining tabiiy iqlim sharoiti viloyatda sug'orma dehqonchilikda qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishda ijobiy va salbiy jihatlari mavjud bo'lib, ijobiy tomonlari Buxoro viloyatida sovuqsiz kunlarning uzoq davom etishi va foydali haroratning ko'pligidir, salbiy tomonlari esa havo haroratining meъyoridan ortiq issiq va quruq kelishi, atmosfera yog'inlarining kamligi, shamol faoliyatining yuqoriligidir. Salbiy iqlim omillariga qaramay viloyatning sug'oriladigan erlarida etishtiriladigan paxta, kuzgi bug'doy, dukkakli ekinlar, sabzavot va boshqa ekinlardan sug'oriladigan sharoitlarda mo'l va sifatli hosil olish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi.

Tadqiqotlar bo'yicha yuqorida keltirilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun Buxoro viloyatlarining suv tanqis bo'lgan hududlarida suv tejamkor gidrogel bilan sug'orish texnologiyasi asosida g'allani etishtirish bo'yicha dala tajribalari olib borildi. Dala tajribalari quyidagi tizimda amalga oshirildi (3.1.1-jadval):

Tajriba tizimi

3-jadval.

| Variantlar | Sug'orish usuli | Sug'orish ishlari CHDNS ga nisbatan | O'g'itlar meъyori | | |
|---|-----------------|-------------------------------------|-------------------|-----|-----|
| | | | N | R | K |
| Kuzgi bug'doy "Antanina" navi | | | | | |
| Kanal (daryo) suvi bilan sug'orilgan dala (nazorat) | Апъа naviy | 70-80-60 % | 250 | 175 | 100 |
| Yer osti suvi va kanal(daryo) suvi bilan sug'orilgan dala | Апъа naviy | 70-80-60 % | 250 | 175 | 100 |
| Yer osti suvi bilan sug'orilgan dala | Апъа naviy | 70-80-60 % | 250 | 175 | 100 |

Bug'doy - bir yillik o'simlik. Uning ildiz tizimi popuk ildiz bo'lib, asosiy qismi erning haydov qatlamida rivojlanadi, baъzi ildizlari 100 sm. gacha chuqurga, poyasining bo'yi 40-130 sm. ga etib boradi. Bug'doy o'simligining transpiratsiya koeffitsenti 231-557 ga teng (o'rtacha 400-500), don hosili bo'yicha suvga ehtiyoj koeffitsienti 60-190 m³/s. ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar iqlim sharoitlari, bug'doyning turi va navi, suv bilan taъminlanganlik, tuproqdagi oziq elementlari miqdoriga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Etishtiriladigan mintaqalarning tabiiy sharoitiga ko'ra sug'oriladigan erlarda uning kuzgi yoki bahorgi turlari ekiladi. Kuzgi bug'doy bahorgi bug'doyga qaraganda sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamli, tuproq harorati 4-5 °S bo'lganda unib chiqadi. O'suv davrida kuzgi bug'doy uchun 2100 °S, bahorgi bug'doy uchun esa kamida 1300 °S samarali harorat talab etiladi¹.

Bizning sharoitimizga ko'proq Krasnodar qishloq xo'jalik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan boshqoli don ekinlari mos kelmoqda.

² Рамазонов.О., Юсупбеков. О. Тупроқшунослик ва деҳқончилик. – Тошкент: шарқ, 2003. – 160 б.

“Antanina” navli kuzgi yumshoq bugdoy.



1-rasm. Tajriba dalasida g'allani sug'orish va fenologik kuzatuvlar.

Namlilik tartibining boshqoq uzunligi, bir boshqodagi don soni va 1000 dona don vazniga taʼsiri.

Kuzgi bug'doy o'simligining boshqoq uzunligi, boshqoqchalari boshqodagi don soni, bir boshqodagi don og'irligi, 1000 dona don og'irligi etishtirilgan hosilning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

G'allachilik ilmiy tadqiqot instituti Buxoro filiali olimlari (A.Jo'raev, O.Abdullaev 2001-2002 yillar) taʼkidlashicha saralab olingan urug' meʼyori 250 kg/ga ga teng bo'lganda va sug'orish meʼyori CHDNS ga nisbatan 70-80-60 % bo'lganda, kuzgi bug'doyning “Antanina” navidan Buxoro viloyati sharoitida 73 s/ga hosil olishga erishilgan [82].

Kuzgi bug‘doyning don hosildorligi, (s/ga)

4- jadval

| Variant | Sug‘orish tartibi | Qaytariqlar | | | O‘rtacha hosil, s/ga |
|---------------------------------|---|-------------|------|------|----------------------|
| | | I | II | III | |
| 2023 yil | | | | | |
| 1 | Er osti suvi bilan sug‘orilgan dala(16 ⁰ S) | 67,3 | 68,6 | 67,4 | 67,8 |
| 2 | Daryo suvi suvi bilan sug‘orilgan dala(0-3-8-16 ⁰ S) | 50,1 | 51,0 | 51,2 | 50,4 |
| 3 | Daryo suvi va er osti suvi bilan sug‘orilgan dala | 52,5 | 53,7 | 53,4 | 53,2 |
| NSR_{0,5}=2,1 s; | | | | | |
| 2024 yil | | | | | |
| 1 | Er osti suvi bilan sug‘orilgan dala(16 ⁰ S) | 67,5 | 68,8 | 70,1 | 67,2 |
| 2 | Daryo suvi suvi bilan sug‘orilgan dala(0-3-8-16 ⁰ S) | 49,8 | 51,3 | 52,2 | 51,1 |
| 3 | Daryo suvi va er osti suvi bilan sug‘orilgan dala | 52,5 | 53,7 | 54,4 | 53,5 |
| NSR_{0,5}=2,3; | | | | | |
| 2025 yil | | | | | |
| 1 | Er osti suvi bilan sug‘orilgan dala(16 ⁰ S) | 67,8 | 68,6 | 69,1 | 67,2 |
| 2 | Daryo suvi suvi bilan sug‘orilgan dala(0-3-8-16 ⁰ S) | 50,3 | 51,5 | 52,2 | 51,3 |
| 3 | Daryo suvi va er osti suvi bilan sug‘orilgan dala | 52,8 | 54,5 | 55,4 | 54,2 |
| NSR_{0,5}=2,6; | | | | | |

XULOSA

1. Hozirgi davrda g‘alla hosildorligining oshishiga salbiy taʼsir ko‘rsatayotgan omillardan biri, vegetatsiya davri davomida yuzaga kelayotgan ob-xavoning keskin o‘zgarish (anamal) sovuq bulishi, yog‘ingarchilikning kamayishi, natijada suv taqchilligi bo‘lsa, ikkinchisi, aksariyat fermer xo‘jaliklarida g‘allani sug‘orishda mahalliy tuproq va gidrogeologik sharoitlarni, ularning o‘sishi va rivojlanishining o‘tish fazalari davrida suvga bo‘lgan haqiqiy talablarning hisobga olinmasligidir.

2. Buxoro viloyatida har yili qishloq xo‘jaligi uchun jami 4,1-4,3 mlrd m³ suv resurlari ishlatiladi. Birlamchi kollektor – zovur tizimi orqali jami bir yilda sug‘oriladigan maydonlardan 1,9-2,1 mlrd m³ suv olib chiqib ketiladi.

3. Buxoro viloyatida jami sug‘oriladigan erlar 275,1 ming gektar bo‘lib, bu maydonlarning 64,6 ming gektar maydonida kuzgi don ekinlari parvarish qilingan bo‘lsa, viloyat bo‘yicha hosildorlik o‘rtacha 2025 yilda 70,1 s/ga ni tashkil etmoqda.

4. Buxoro viloyati sharoitida suv resurslarini iqtisod qilish va kuzgi bug‘doy dalalaridan yuqori hosil olish maqsadida er osti suvi bilan sug‘orish natijasida sug‘orish sonlari 1 martaga kamayib mavsumiy sug‘orishda suv sarfi 982-1025 m³/ga iqtisod qilinib, hosildorlik 14,6-15,1 s/ga yuqori hosil olishga erishildi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RUYXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27 iyundagi VM-430 sonli “Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5418-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 iyundagi 03/1-58-sonli “G‘alladan bo‘shagan maydonda moyli ekinlarni joylashtirish to‘g‘risida” gi topshirig‘i.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-sonli farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktabrdagi PQ-4486-sonli "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
6. Isaboev Q., Hamidov M.H., Alieva D. Ekinlarni sug'orish va hosildorlik. Toshkent, Mehnat, 1991.
7. Bespalov N.F. Mirzacho'lda paxta almashlab ekish ekinlarni sug'orish. Toshkent, O'zbekiston-1970.
8. Latkaev N.T.G'o'zani sug'orish. Moskva, Kolos-1978.
9. Bespalov N.F., Livshits E.A., Malabaev N.I. i dr. Raschet orositelnykh norm xlopkogo kompleksa. Trudy SoyuzNIXI, вып.53.Tashkent,1983.
10. Raximbaev F.M. Hamidov M.H. Bespalov F.A. Amudaryo qo'yi qismida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishning o'ziga xosligi. Toshkent, Fan-1992.
11. Mirzajonov Q.M., Malaboev N.E., Umarov D.D. «Orol bo'yi erlarining meliorativ holati «G'o'zani etishtirishning hozirgi zamon texnologiyasi» kitobida. Toshkent-1993 yil. 17-21 betlar.
12. Nurjanov S.E. Rejim kapelnogo orosheniya xlopchatnika predgornyx ravnin (Na primere Samarkandskoy oblasti): Avtoref. dis. ...kand. texn. nauk. –T.: TIIMSX, 2000. - 16.b
13. Samandarov E.I. Qadimdan sug'orilib kelingan o'tloqi allyuvial oazis tuproqlar sharoitida yangi g'o'za navlarining hosildorligi: q/x ... fan... nomzodiga yozilgan dis... avtorefat. – T.: O'zPITI, 2005. – 16 b.
14. To'raev A. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni tejovchi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 276 b.
15. Poliv xlopchatnika. Laktaev N.T. M., «Kolos», 1978. – 176 s.
16. Sbornik nauchnykh trudov po kapelnomu orosheniyu. // Trudy SANIIRI, Tashkent, 1995. – 172 s.
17. Shoyakubov.R.Sh, Aitmetova.K.I, Kondrateva.V.P, TIMI "Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari" mavzusida o'tkaziladigan XII an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami (11-12 aprel) Toshkent – 2013 , 254-bet.
18. TIMI "Qishloq va suv xo'jaligining zamonaviy muammolari" mavzusida o'tkazilgan rror

UO'K 627.12(075.8)

SUV OMBORIGA LOYQA OQIZIQLARNI KIRISH USULLARI.

Shomurodov Anvar Axatovich Anvaraxatovich57@gmail.com

Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Amu-Buxoro mashina kanali orqali "To'dako'l" suv omboriga loyqa oqiziqqlarini kirishini oldini olishda tindirgich loyihalash orqali suv omboriga loyqa kirishini kamaytirish va ish rejimini yaxshilash masalasi ko'rib chiqilgan. Amu-Buxoro mashina kanali orqali suv omboriga kirib kelayotgan suvning tarkibidagi loyqa suv omborining foydali hajmini kamayiga olib kelmoqda natijada vegetatsiya davrida kerakli suv miqdori yetkazib berishda muammolarga sabab bo'lmoqda.

Tayanch so'zlar: suv ombori, qirg'oq, o'zan, tindirgich, kanal, suv sarfi, loyqa, oqim tezligi.

METHODS OF DISCHARGE INTO THE WATER RESERVOIR

Shomurodov Anvar Anvaraxatovich57@gmail.com

Bukhara State Technical University


Abstract. The article discusses the issues of reducing sediment inflow into the Tudakul reservoir and improving its operating mode by designing a settling tank to prevent sediment inflow through the Amu-Bukhara machine canal. Sediments in the composition of water entering the reservoir through the Amu-Bukhara machine canal lead to a decrease in the reservoir's useful volume, resulting in problems with providing the required amount of water during the growing season.

Keywords: reservoir, bank, channel, settling tank, canal, water discharge, sediments, flow rate.

Bugungi kunda o'z resurslarini to'liq o'tab bo'lgan va bir necha marta ta'mirlangan hamda og'ir sharoitda ishlayotgan kirish kanalining ekspluatatsion rejimini hisoblash, sug'orish tizimi nasos stansiyalarining ishlash sharoitlaridan kelib chiqib, tarkibidagi gidromexanik jihozlarning ishonchlilik ko'rsatkichlarining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash, oqiziqnlarning suv uzatish tizimi, oqiziqnlarni tozalab olib tashlash texnologiyalari va texnikalarini takomillashtirish, tozalash qurilmasining parametrlarini asoslash bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlarda oqiziqnlarning tarkibi, o'lchamlari hamda oqib kelish davrini inobatga olish, avankameradagi suv sathining meyorda bo'lishini ta'minlash masalalari hozirgi vaqtgacha yetarli darajada o'rganilmagan [1,3,4].

Suv olish joyidan uzoqda tindirgich joylashtirilib, suv olish va tindirgich o'rtasidagi suv chiqarib yuborish kanalining uchastkasi loyqalanib ketmaydigan qilib loyihalangani, unga tegishli qiyalik beriladi, bu uning kerakli tashish qobiliyatini ta'minlaydi. Kanalning tindirgich ortidagi qismiga kelsak, uning tashish qobiliyati tindirgichdagi suvning tiniqlik darajasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. [2,4].

Kanallar ko'ndalang kesimining eng keng tarqalgan shakli bu trapetsiya shaklidir (1-rasm).



1-rasm. Kanalning ko'ndalang kesimi

Kanalning gidravlik jihatdan eng qulay ko'ndalang kesimi shunday bo'ladiki, unda belgilangan to'ldirish chuqurligi uchun ho'llangan perimetr minimal qiymatga ega bo'ladi.

Kanallarda suvning tezligi 2,0 m/s dan katta bo'lganda, odatda, ularga zarrachalarining diametri 0,25 mm dan katta bo'lgan abraziv oqiziqnlarni kirishini cheklash kerak.

Kanalning sug'orilmasligini tekshirish kanalning transport qobiliyatiga qarab yoki kanaldagi suvning sug'orilmas tezligiga qarab amalga oshirilishi kerak.

Minimal o'rtacha yo'l qo'yiladigan tezlik kanalning loyqa bosmasligi va bitib ketmasligi shartidan odatda 0,5 m/s dan kam emas deb qabul qilinadi. [5,6].

Kanalning tashish qobiliyatini quyidagi formulalar bo'yicha aniqlash lozim: $2 < \omega < 8$

$$\text{mm/s} \quad \rho = 700 \cdot \left(\frac{\vartheta}{\omega}\right)^{\frac{3}{2}} \cdot \sqrt{R \cdot i}. \quad (1)$$

$0,4 < \omega < 2$ mm/s bo'lganda

$$\rho = 350 \cdot \vartheta \cdot \sqrt{\frac{R \cdot i \cdot \vartheta}{\omega}}, \quad (2)$$

bu yerda ρ - tashish tezligi kg/m^3 ;

R - gidravlik radius, m^2 ;

i - kanal tubining nishabligi;

ϑ - kanaldagi suv oqimining tezligi, m/s ;

ω - o'rtacha o'lchangan (o'rtacha geometrik) gidravlik kattalik, mm/s

$$\omega = \frac{\sum \omega_{\Phi} \cdot P}{100}, \quad (3)$$

bu yerda P - alohida fraksiyalarning og'irligi bo'yicha foizdagi tarkibi;

ω_{Φ} - har bir loyqa fraksiyasining o'rtacha gidravlik yirikligi.

Cho'kmaydigan tezlik v_H , (m/s) ning dagi qiymatini quyidagi formula orqali hisoblash lozim

$$\vartheta_H = 0.3 \cdot R^{0.25}, \quad (4)$$

bu yerda R - kanalning gidravlik radiusi, m .

Cho'kmaydigan tezlikni quyidagi formula bo'yicha aniqlashga ruxsat etiladi

$$v_H = A \cdot Q^{0.2}, \quad (5)$$

bu yerda A - empirik koeffitsiyent.

$\pi < 1,5$ bo'lganda $A = 0,33$;

$\pi = 1,5-3,5$ bo'lganda $A = 0,44$;

$\pi > 3,5$, bo'lganda $A = 0,55$;

bu yerda π - oqiziqning o'rtacha gidravlik yirikligi, mm / s;

Q - hisobiy sarf, m³/s.

Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra, tindirgichning uzunligini 3300 m tavsiya qilish mumkin (3-rasm).

Tindirgichni loyqa cho'kindilar vaqtini t_0 loyqa cho'kindini qatlam bo'ylab yig'ish yo'li bilan hisoblash tavsiya etiladi. Ba'zan cho'kish vaqti butun o'lik hajmini maksimal loyqa cho'kindilar bo'lish yo'li bilan aniqlanadi va hisoblash faqat cho'kindi bo'lgan fraksiyalar bilan cho'kishi uchun amalga oshiriladi. [6,8,9].

Tindirgich uchun loyqalanish vaqtini aniqladik.

$$t_0 = \frac{V_{tindirgich} \cdot \rho_t}{a \cdot Q_{ishchi} \cdot 86\,400}$$

bu yerda: ρ - cho'kindilarning zichligi $\rho = 2650$ kg / m³; a_{tr} - o'rtacha loyqalik chuqurligi, Amudaryo uchun 4 - 5 kg / m³.


V_{tin} - tindirgich xajmi

$$V_{tindirgich} = \omega_{tin} \cdot S \quad (6)$$

ω_{tin} tindirgichning bo'sh maydoni, m²



$$\omega_{tin} = \frac{B+b}{2} \cdot h_1 \quad (7)$$

b tindirgichning pastki kengligi, m



2-rasm. Tindirgichning ishlash vaqti.

Oxirgi hisoblangan uchastka uchun yoki tindirgich ish uzunligining 50-75% ini egallagan uchastka uchun (cho'kish bilan) hisoblangan tindirgichning loyqaga bosish vaqti T ga teng bo'lib, u ekspluatatsii sharoitiga qarab tekshiriladi (tozalash muddati). Agar muddatlar juda qisqa bo'lsa, to'plangan hajm miqdori ko'paytiriladi, agar muddatlar haddan tashqari uzoq bo'lsa, iqtisodiy sabablarga ko'ra kamaytiriladi. Bunda yangi o'lchamlarda qo'shimcha tekshiruv o'tkaziladi. Odatdagi sharoitlarda tindirgich kamerasini yuvishning optimal chastotasi sutkasiga 1 martadan haftasiga 1 martagacha oraliqda bo'ladi. [7,8].



3-rasm. Suv olib kelish kalada loyixalanayotgan tindirgich.

Tindirgichning loyqaga to'lishi bilan undagi oqimning tezligi ortadi, oqiziqslarning tushish intensivligi kamayadi va shunday holat vujudga kelishi mumkin, bunda kanalga zararli oqiziqslar kira boshlaydi. Buning oldini olish uchun tindirgichni yuvish, ya'ni oqib tushgan oqiziqslarni yuvish kerak. [1,4,10].

Xulosa qilib aytganda:

1. Kanal o'zanida turg'un oqim shakllanishi uchun optimal tindirgich parametrlari ishlab chiqildi. Bu parametrlar oqiziqslarning miqdori va tarkibiga qarab tanlandi.
2. Loyqa oqiziqslar bilan to'ldirilgan tindirgich kameralarining ishlash davomiyligi (loyiq bosish vaqti) matematik jihatdan ifodalani, konstruktiv o'lchamlar optimallashtirildi.
3. Kanal bo'yicha suv oqimining gidravlik profilini modellashtirish asosida oqiziqslarning bo'ylama harakati, cho'kish zonalari va yo'nalishini bashoratlovchi grafik modellar ishlab chiqildi.
4. Kirish kanalining qayta shakllanish jadalligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi, bu orqali suv omborining barqaror ishlash rejimini qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomurodov, A. Improving the operation conditions of Amu-Bukhara machine channel. // AIP Conference Proceedings. Vol. 2612. No. 1. AIP Publishing, 2023.
2. Norkulov B. Analysis of channel processes in the bottom of the dam //National Association of Scientists. – 2021. – T. 2. – №. 68. – S. 32-36.
3. Jamolov, F. N., Berdiev, S., Ergashev, X., Idiev, I., & Abdiyev, T. (2024). Current problems of water intake from Amudarya without rest and measures to improve them. In BIO Web of Conferences (Vol. 103, p. 00016). EDP Sciences.
4. Bazarov D. et al. Improvement of damless water intake methods taking into account the hydraulic and sediment regimes of the river //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 410. – S. 05032.
5. Norkulovich, Z. F., Numonugli, T. I., Abrorugli, E. T., & Nizomiyugli, I. I. (2021). Characteristics of inflow and subsidence turbidity in water intake channels. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 250-252.
6. Obidov, B., Vokhidov, O., Suyunov, J., Nishanbaev, K., Rayimova, I., & Abdukhalilov, A. (2021). Experimental study of horizontal effects of flow on non-erosion absorbers in the presence of cavitation. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 03051). EDP Sciences.
7. A.A.Shomurodov, F.N., Jamolov, Sh.Kurbonov, M.Mirzayev, K.S., Sobirov. (2024, March). Improving the Operation Conditions of Amu-Bukhara Machine Channel. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing.
Ular sayohatlar, sharob tatib ko'rish va mahalliy sharoblarni oziq-ovqat bilan birlashtirgan maxsus gastronomik tadbirlar kabi muvofiqlashtirilgan tadbirlarni o'rnatdilar. Sharob ishlab chiqaruvchilar bunday tadbirlar mintaqaning turistik qiymatini ham, vino tanlovini ham targ'ib qilishiga umid qilishdi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun Napa vodiysidagi ko'plab vino zavodlari o'z inshootlarini tatib ko'rish xonalari, ovqat tayyorlash uchun oshxonalar va sharob darslari uchun sinf xonalari bilan kengaytirdilar. Ular sayyohlarga yo'l ko'rsatish va xizmat ko'rsatish uchun ko'paygan xodimlarni yollashdi. 1976 yilda Kaliforniya va frantsuz vinolari o'rtasida o'tkazilgan ko'r-ko'rona ta'm testi Amerika vintagelari haqidagi tasavvurni o'zgartirdi. "Parij hukmi" deb nomlangan ushbu filmda frantsuz hakamlari hay'ati o'zlari bilmagan holda Amerika sharobini har bir nominatsiya bo'yicha umumiy g'olib deb tanladilar. Natijada, Napa vodiysi yangi rivojlangan enoturizm sektori tomonidan joylashtirilgan tashrif buyuruvchilar oqimining ko'payishini ko'rdi. Napa vodiysi enoturizm sanoatining muvaffaqiyati kichik va yirik vino ishlab chiqaruvchilar uchun yangi daromad manbai yaratdi.

Enoturizm vinochilik korxonalariga e'tibor va foydani oshirgan bo'lsa-da, sanoatning metodologiyasini ham o'zgartirdi. Enotourizmning to'liq potentsial qiymatini qo'lga kiritish uchun vinochilik korxonalariga vinolarni qayta ishlashga turistik sektor haqida asosiy tushunchalarni qo'shishlari kerak edi. Ikki biznes sektorining to'g'ri integratsiyasini yaratish qiyin, ammo potentsial daromadli bo'lishi mumkin. 2011 yilda enoturizmga ishtirok etuvchi vino zavodlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, ularning daromadlarining deyarli 20 foizi turistik sektordan kelgan. Ularning umumiy vino sotuvining qo'shimcha 32 foizi to'g'ridan-to'g'ri turli vino zavodlari maydonlarida qilingan xaridlardan to'g'ri keldi. 2023 yilga kelib, to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga sotish (DTC), shu jumladan vino turizmi faoliyati Amerika vino zavodlari uchun muhim bo'lib qoldi. 2021 yilda AQSh vino zavodlarida DTC sotuvi 4,2 milliard dollarga yetdi.

Enoturizm odatda turizmning barqaror shakli sifatida qaraladi. Shunday qilib, u ko'pincha ekoturizm, agroturizm va oshpazlik turizmi bilan bog'liq. Barqaror turizm - bu atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan, mintaqa iqtisodiyotiga ijobiy hissa qo'shish vositasi. Yigirma birinchi asrda barqaror sayohatning mashhurligi oshgani sayin, enoturistik korxonalar talabning ortishiga olib keldi. Vino turizmi, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning boshqa shakllariga ega bo'lmagan qishloq jamoalariga foyda keltirdi. Bu, ayniqsa, kichik vino zavodlari uchun foydali bo'ldi.

Eng keng tarqalgan enoturizm faoliyati an'anaviy vino sayohatidir. Bu bir kunlik sayohat sifatida amalga oshirilishi mumkin bo'lsa-da, ko'plab sayyohlar kengroq ixtisoslashgan faoliyat bilan shug'ullanish uchun butun dunyo bo'ylab vino markazlariga maxsus tashabbuslar qilishadi. An'anaviy sayohatda mehmonlar uzumzorlarga sayohat qilishlari mumkin, ularning tabiiy sharoitlarida o'sadigan uzumlarni ko'rishlari mumkin. Ko'pincha ularga uzum yetishtirish va qayta ishlashni ko'rish uchun xodimlar va uzumzorlar egalari bilan muloqot qilish imkoniyati beriladi. Bu uzumning qo'shimcha mahsulotlari qanday fermentlangan, filtrlangan va shishaga solinganini kuzatish uchun ishlab chiqarish joylariga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin. Vinochilik maydonlariga tashrif buyurish mehmonlarga uzum yetishtirilgan joyni ko'rish imkoniyatini beradi.

Har bir uzumzorning maydoni har bir uzumni (va hosil bo'lgan sharobni) o'ziga xos lazzat bilan ta'minlaydigan ozuqa moddalari va ta'sirlarning noyob oqimini ta'minlaydi.

Sharobdan namuna olish, ehtimol, an'anaviy vino safarining eng muhim qismidir. Bu yerda sayyohlarga vinochilik mahsulotlaridan tatib ko'rish imkoniyati yaratilgan. Taqdim etilgan vinolardan bahramand bo'lgan mehmonlar, keyin uyga olib ketish uchun sharob sotib olishni tanlashlari mumkin, bu vinochilik korxonalarini uchun ayniqsa foydali bo'lishi mumkin. Biroq, potentsial yanada qimmatli bo'lib, natijada ijobiy og'zaki nutq va bunday faoliyatni ta'minlaydigan bepul reklama hisoblanadi.

So'nggi yillarda enoturizm o'z chegaralarini yanada chuqurroq va sarguzashtli tajribalarni o'z ichiga olgan holda kengaytirdi. Misol uchun, ba'zi vino zavodlari tashrif buyuruvchilarga uzum yig'ish yoki uzumni boqishga qo'shilish imkonini beradi, bu jarayon *kaptar* deb ataladi.. Ushbu oxirgi amaliyot odatda ko'pchilik vino zavodlarining ishlab chiqarish jarayonlaridan olib tashlangan bo'lsa-da, enoturizmda ishtirok etuvchi ba'zi uzumzorlar bu marosimni sayyohlar manfaati uchun saqlab qolishadi. Boshqa enoturistik paketlar uzumzorlar ustida issiq havo sharlari bilan sayohatlarni o'z ichiga olishi yoki vino zavodlariga sayohatni velosiped sayohatlari yoki gurme taomlari kabi tadbirlar bilan birlashtirishi mumkin. Maxsus vino festivallari ham enoturizmning bir turi hisoblanadi. Yana bir noan'anaviy enoturistik faoliyat - bu ampelografiya. Ampelografiya - bu odamlar uzumning barglarini aniqlash orqali alohida navlarini aniqlashni o'rganadigan tadqiqot sohasi. Boshqa tur variantlari sharob tarixini taqdim etadi. Bundan tashqari, vino zavodlari biznes va ilmiy konferentsiyalar uchun tobora ommabop yo'nalishlarga aylandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligi mavjud bo'lib, ilgari Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) deb nomlangan. O'shandan beri agentlik nomi BMT turizmi deb o'zgartirildi. U vino turizmini o'z ichiga olgan mas'uliyatli va barqaror turizm sektorini targ'ib qilishga bag'ishlangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizmiga 160 ta davlat a'zo bo'lib, 500 dan ortiq filial a'zolari xususiy vinochilik korxonalarini, ta'lim tashkilotlari va boshqa turistik assotsiatsiyalar vakillaridan iborat. 2016 yilda agentlik vino turizmi bo'yicha birinchi global konferentsiyaga mezbonlik qildi, shundan beri har yili o'tkazib kelinmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston hududlarida enoturizm resurslaridan samarali foydalanish barqaror turizm rivojining muhim omili bo'lib, innovatsion klasterlar, raqamli texnologiyalar, mahalliy hamjamiyatlar ishtiroki va ekologik monitoring asosida yuqori natijalarga erishilmoqda. Buning uchun, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda yurtimizda enoturizm yitarlichadan rivojlanmagan, mavjud infratuzilma, faol aholi va tadbirkorlarning ushbu turizm turi bo'yicha bilim va ko'rinishi mumkin.

O'zbekistonning ayrim viloyatlarida, Samarqand, Parkent (Toshkent viloyati), Farg'ona va Qashqadaryo enoturizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy barqaror mavjud. Shu bilan birga, vino ishlab chiqarish ishlab chiqarish turistlar uchun (vino degustatsiyasi, ekskursiyalar, gastronomik tajriba, uzum navlarini tanitish) taklif etish mumkin. Xalqaro tajribalar tahlili asosida aniqlanishicha, enoturizm iqtisodiy iqtisodiy foyda bir qatorda, merosni asrash, hududiy infrastukturani yaxshilash hamda ishlab chiqarish oshirish va aholini bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda enoturizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amay takliflar:

1. Enoturistikani rivojlantirish va klasterlash O'zbekiston bo'ylab vinochilik holatini aniqlanib, ularning enoturistik klasterlarga birlashtirish. Masalan, Samarqand – Parkent – Qibray – Farg'ona vino yo'li (vino yo'li) tashkil qilinishi mumkin.
2. Mahalliy brendlarni rivojlantirish va targ'ib qilish Har bir vinochilik hududi o'zining tarixiy, madaniy va tabiiy mahsulotlarga tegishli brend va mahsulotlar bozorlarida targ'ib qilish kerak.
3. Enoturistik xizmat sifatini yaxshilash vino zavodlari, uzum bog'lari va degustatsiya markazlarida ekskursovodlik, somelye xizmatlari, gastronomik dasturlar, turadi joy va transport xizmatlari takomillashtirish va ishlab chiqarish.

4. Xalqaro tajribalarni o'rganish va amalga oshirish Enoturizm sohalarini Fransiya, Italiya, Ispaniya va Janubiy Afrika tajribalarni o'rganish, ulardagi marketing, xizmat standartlari yordamida (vino festivallari) va boshqa barcha amaliyotlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish lozim.

5. Marketing va kompyuter platformalarini rivojlantirish, enoturistik yo'nalishlar uchun maxsus veb-saytlar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali foydalanish va foydalanish sayyohlar uchun interaktiv reklama va bronlash tizimlari yo'lga qo'yilish.

6. Ta'lim va kadrlar tayyorlash, turizm, qishloq xo'jaligi va vinochilik sohalarida faoliyat yurituvchilar uchun maxsus treninglar, qisqa muddatli kurslar va oliy ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqarish zarur.

7. Qonunchilik va soliq yengilliklari, enoturizm faoliyatini yurituvchi tadbirkorlarga soliq va vestitsion yengilliklar, vino mahsulotlarining ishlab chiqarilishiga bo'yicha tartiblarni yigillashtirish.

8. YUNESKO va boshqa idoralar bilan hamkorlikda enoturistik asosni moddiy va nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga, xalqaro grantlar va texnik yordam orqali infratuzilmani rivojlantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OECD. (2024). Tourism Trends and Policies in Central Asia. Paris: OECD Publishing.
2. UNESCO. (2023). Sustainable Tourism and Cultural Heritage. Paris: UNESCO Press.
3. Karlsen, Jek va Stiven Charters, muharrirlar. "Sharob turizmi va" sharob manzaralarining rivojlanishi." *Global vino turizmi: tadqiqot, menejment va marketing*, CAB International, 2006 yil
4. UzDaily. (2024). Uzbekistan: Wine Tourism Cluster Development. <https://uzdaily.uz/enotourism>
5. Buranov S.M. (2020). China's geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem. International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing, pp.127-132.
6. Korreia, Rikardo va boshqalar. "Vino turizmi tajribasining vino brendlariga ta'siri". *Universal menejment jurnali*, jild. 4, yo'q. 9, 2016 yil, 508-15-betlar, www.hrpub.org/download/20160830/UJM5-12107653.pdf. 2024-yil 21-dekabrda foydalanilgan..
7. "Gastronomiya va vino turizmi". *BMT turizmi*, www.unwto.org/gastronomy-wine-tourism. 2024-yil 21-dekabrda foydalanilgan..
8. Peris-Ortiz, Marta va boshqalar, muharrirlar. *Sharob va turizm: Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun strategik segment*. Springer, 2016 yil.

UDK 581.5

QUYOSH PANELLARINI O'RNATISHNING AFZALLIKLAR VA TARMOQGA ULANISH USULLARI

Babayev Jaloliddin Avazovich

Buxoro davlat texnika universiteti stajor-o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqola quyosh panellarining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan ilmiy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilishni maqsad qilgan. Unda samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillar, ularni bartaraf etish yo'llari va optimal tizimlarni loyihalashtirish bo'yicha tavsiyalar yoritiladi. Bu tahlil xalq xo'jaliklari, balki sanoat miqyosida energiya ishlab chiqaruvchilar uchun ham foydali bo'lib, elektr energiya ishlab chiqarish uchun ketqaziladigan tabiiy xomashyoni tejashga va ekologiyaga zararli gazlarni chiqarishni oldini oladi.

Kalit so'zlar: monokristall, kremniy, polikristal, gibrid, panel, tizim, samaradorlik, ekologiya, elektr.

ADVANTAGES OF INSTALLING SOLAR PANELS AND METHODS OF INTERNET CONNECTION

Babayev Jaloliddin Avazovich

trainee teacher of Bukhara State Technical University

Abstract. *This article aims to analyze the scientific and practical approaches needed to improve the efficiency of solar panels. It highlights the factors affecting efficiency, ways to eliminate them, and recommendations for designing optimal systems. This analysis is useful not only for households, but also for energy producers on an industrial scale, saving natural resources used to produce electricity and preventing the release of harmful gases into the environment.*


Keywords: *monocrystalline, silicon, polycrystalline, hybrid, panel, system, efficiency, ecology, electricity.*

Hozirgi kunda energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqarorligi global muammolardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitni himoya qilish va an'anaviy energiya manbalariga bo'lgan qaramlikni kamaytirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Quyosh panellari ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki ular ekologik toza, energiya tejamkor va uzoq muddatli energiya manbaini ta'minlaydi. Quyosh panellarini o'rnatish samaradorligi turli omillarga bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri hisobga olish energiya ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Panelning turi, geografik joylashuv, burchak va o'rnatish usuli samaradorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, ob-havo sharoitlari, soyaning mavjudligi va texnologik jihozlarning sifati ham energiya ishlab chiqarish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Quyosh panellarini o'rnatish zamonaviy energiya tizimlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbaini ta'minlaydi. Ushbu maqola quyosh panellari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganadi. Samaradorlikka quyosh panellarining turi (monokristall, polikristall, amorf kremniy), geografik joylashuv, o'rnatish burchagi va quyosh nurlari ta'siri kiritilgan. Bundan tashqari, soyaning ta'siri, ob-havo sharoitlari va harorat o'zgarishlari ham batafsil yoritiladi. Tahlilda texnologik rivojlanish, masalan, inverter sifatining energiya konversiyasiga ta'siri va monitoring tizimlari roli ham ko'rib chiqiladi. Maqola quyosh panellarini o'rnatishda ekologik va iqtisodiy jihatdan samaradorlikni oshirish va aholini quyosh panellari orqali elektr energiya bilan ta'minlash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tahlil uy-joy egalaridan tortib, yirik energetika kompaniyalarigacha keng auditoriya uchun foydali bo'lishi mumkin. Quyosh panellari texnologiyasi turlicha bo'lib, ular samaradorligi, narxi va qo'llanilishiga qarab bir-biridan farq qiladi. Quyida quyosh panellarining asosiy turlari keltirilgan:

1. Monokristalli quyosh panellari (Monocrystalline Solar Panels);
Tavsifi: Bitta kristall kremniydan tayyorlangan.
Afzalliklari: - Eng yuqori samaradorlikka ega (15-22% atrofida). - Uzoq muddat xizmat qiladi. - O'rnatish uchun kamroq joy talab qiladi.
2. Polikristalli quyosh panellari (Polycrystalline Solar Panels);
Tavsifi: Bir nechta kremniy kristallari aralashmasidan tayyorlanadi. Afzalliklari: - Narxi nisbatan arzon. - Ishlab chiqarish jarayoni ekologik jihatdan xavfsiz va (15% – 17%) samaradorlikka ega.
3. Amorf kristalli kremniy quyosh panellari (Thin-Film Solar Panels)
Tavsifi: Fotoelektrik materiallarni ingichka qatlamlarda tayyorlash orqali ishlab chiqariladi (kadmium tellurid, amorf kremniy va boshqalar). Afzalliklari: - Eng moslashuvchan panel turi. - Arzon ishlab chiqarish. - Kam yorug'lik sharoitida yaxshi ishlaydi.
Kamchiliklari: - Samaradorligi past (6-12% atrofida).


Quyosh panellarining samaradorligi ularning quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantira olish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy panellar odatda 15% dan 22% gacha samaradorlikka ega. Bu ko'rsatkich quyosh nurlanishining geografik joylashuv, ob-havo sharoitlari va panelning texnologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Samaradorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar:



1-rasm. Quyosh panellarini samaradorligini pasaytiruvchi omillar.

- Quyosh nurlanishi: Quyosh energiyasi ko'proq bo'lgan hududlarda panellarning samaradorligi yuqoriroq bo'ladi.
- Panelning turi va sifati: Mono- va polikristalli panellar orasida samaradorlik darajasi farq qiladi. Monokristalli panellar odatda yuqori samaradorlikka ega.
- O'rnatish burchagi va yo'nalishi: Quyosh panellari quyoshga maksimal to'g'ri yo'nalgan holatda ($30^\circ - 40^\circ$) o'rnatilganda samaradorlik oshadi.
- Atrof-muhit harorati: Juda issiq haroratda panellarning samaradorligi pasayishi mumkin.
- Texnik xizmat: Panellarni muntazam tozalash va texnik ko'rikdan o'tkazish ularning samaradorligini saqlashga yordam beradi.

Quyosh panellari ulashning elektr sxemasi 3 xil usul orqali o'rnatiladi. Birinchi usul ON GRID, ikkinchi usul OFF GRID va gibrid tizimlari elektr energiyani ishlab chiqaradi, zahiralaydi, ortiqchasini tarmoqqa beradi, ON va OFF GRID rejimlarida ishlay oladi. ON GRID tizimida quyosh paneli ishlab chiqargan elektr energiyasini zahiralamasdan iste'mol qilish va ortiqcha elektr energiyasini tarmoqqa uzatish imkonini beradi. Shu bilan birga akkumulyator batarealari va zaryadlash kontrolleri talab etilmaydi. Bu esa gibrid quyosh elektr stansiyasini tan narxini arzonlashtiradi. OFF GRID tizimida esa quyosh paneli ishlab chiqargan elektr energiyasini akkumulyator batareasiga zahiralaydi. Bu tizim esa iqtisodiy jihatdan ON GRID tizimidan tan narxi qimmat. Elektr ta'minoti ishonchligidan kelib chiqib ON GRID + OFF GRID gibrid tizimida ham ishlatish mumkin. 2-rasmda gibridli elektr ta'minoti sxemasi keltirilgan.



2-rasm. ON GRID + OFF GRID gibridli quyosh elektr stansiyasining elektr ta'minot sxemasi

Xulosa:

Quyosh panellari, uzoq muddatli investitsiya sifatida, iqtisodiy jihatdan foydali va ekologik jihatdan xavfsiz energiya manbai hisoblanadi. Ularni samarali foydalanish uchun texnologik xususiyatlarni va panellarini to'g'ri o'rnatish, hududning tabiiy sharoitlarini hisobga olish muhim. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarda texnologiyalar rivoji bilan quyosh panellarining samaradorligi oshib, ularning qo'llanilishi yanada kengayib borishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukurjee A.K., Nivedita Thakur Photovoltaic Systems, analysis and design, 2014/Dehli.
2. Ismailov, F., & Sultonov, A. (2022). Quyosh panelining samaradorligini yaxshilash uchun yangi materiallar va texnologiyalar. O'zbekiston energiya ilm-fan markazi jurnali, 3(3), 78-82.
3. Qosimov, U., & Ergashev, A. (2019). Quyosh energiyasini qayta tiklash va ularning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: O'zbekenergo.
4. Shodiev, K., & G'ulomov, M. (2021). O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollari. Fizika va energiya jurnali, 4(2), 75-82.
5. Yusupov, O., & Murodov, K. (2020). Quyosh energiyasini ishlab chiqarish va foydalanish bo'yicha yangi yondashuvlar. O'zbekistonda energetika jurnalining maxsus soni, 8, 23-31.

UDK: 631.15:528.9:004.9

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA EKIN ALMASHINUVI TIZIMINI JORIY ETISHDA YER TUZISH LOYIHALARI VA MUALLIFLIK NAZORATI

Mirzayev Namoz – “Yerdan resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlashda ekin almashinuvi tizimining ahamiyati, innovatsion texnologiyalar asosida yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish va mualliflik nazoratining ilmiy-uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Maqolada dalillar, grafiklar va ilg'or tajribalar asosida ekin almashinuvi va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash hamda qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar.** Qishloq xo'jaligi, yer tuzish, almashlab ekish, mualliflik nazorati, innovatsion texnologiyalar, raqamli qishloq xo'jaligi, GIS.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы внедрения системы севооборота на основе инновационных технологий, разработки проектов землеустройства и организации авторского надзора как научно-методических подходов, обеспечивающих устойчивое развитие сельского хозяйства. Освещены возможности цифрового земледелия, эффективного управления ресурсами и повышения плодородия почв.*

***Ключевые слова.** Сельское хозяйство, землеустройство, севооборот, авторский надзор, инновационные технологии, цифровое земледелие, ГИС.*

***Abstract.** This article examines the implementation of crop rotation systems based on innovative technologies, the development of land management projects, and the organization of author's supervision as scientific-methodological approaches for ensuring sustainable agriculture. The study highlights the role of digital farming, resource optimization, and improving soil fertility through practical examples and technologies.*

***Keywords.** Agriculture, land management, crop rotation, author's supervision, innovative technologies, digital farming, GIS.*

Kirish. Qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun yer resurslaridan oqilona foydalanish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. O'zbekiston agrar sektori iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi, bu esa innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishini yanada zarur qiladi. Xususan, ekin almashinuvi tizimini raqamli yondashuvlar asosida joriy etish orqali yer resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlab qolish va hosildorlikni barqarorlashtirish imkoniyati mavjud. Ushbu maqola mazkur yo'nalishdagi ilmiy-amaliy yondashuvlar, muammolar va ularni yechish bo'yicha takliflarni qamrab oladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi yerlarining yomonlashuvi, tuproqning degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi va iqlim o'zgarishlari agrotexnologiyalarni takomillashtirishni talab qilmoqda. Ekin almashinuvi tizimi va yer tuzish loyihalari muvofiqligini ta'minlash orqali agroekotizim barqarorligi va hosildorlikni oshirish muhimdir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida mualliflik nazoratini takomillashtirish, loyiha intizomini

mustahkamlash va fermerlar faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shunday sharoitda innovatsion texnologiyalar asosida ekin almashinuvi tizimini shakllantirish dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - innovatsion texnologiyalar asosida ekin almashinuvi tizimini joriy etishda yer tuzish loyihalari va mualliflik nazoratini samarali tashkil etish mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Ekin almashinuvi tizimining agroekologik va iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish;
- Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa IoT, AI, GIS va dronlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- Mualliflik nazoratining amaliyotdagi ahamiyatini va zamonaviy shakllarini ko'rsatish;
- Yer tuzish loyihalarining raqamli vositalar orqali monitoring qilish metodikasini ishlab chiqish;
- O'zbekiston sharoitida mazkur tizimni joriy etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot muammosi. O'zbekiston sharoitida ekin almashinuvi tizimi ko'plab fermer xo'jaliklarida hali ham an'anaviy usullar asosida yuritilmoqda. Bu esa tuproqning degradatsiyalanishi, resurslarning isrofgarchiligi va hosildorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, yer tuzish loyihalarining bajarilishida nazoratning sustligi, hujjatlarda ko'rsatilgan talablarning amaliyotda to'liq bajarilmasligi ham kuzatilmoqda. Muammolarning chuqur sababi sifatida innovatsion texnologiyalarning sust joriy qilinishi, ma'lumotlar bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi va fermerlarning raqamli texnologiyalar bo'yicha bilim darajasi pastligi ko'rsatiladi.

Tadqiqot usuli. Maqolada kompleks ilmiy-tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, xorijiy tajribalar o'rganilishi asosida nazariy asoslar shakllantirildi. Keyin, Buxoro viloyatining ayrim tumanlarida ekin almashinuvi loyihalarining amaliy holati GIS, IoT va dron texnologiyalari yordamida baholandi. Mualliflik nazoratining monitoring samaradorligi uchun raqamli yechimlar ishlab chiqildi. Tahliliy metod sifatida grafik tahlil, jadval tahlillari, AI asosidagi bashorat modellaridan foydalanildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali O'zbekiston va xorijiy davlatlarda ekin almashinuvi hamda mualliflik nazorati bo'yicha mavjud normativ-huquqiy asoslar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi", Prezident qarorlari, FAO tavsiyalari va AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoydagi ilg'or amaliyotlar o'rganildi. Bunda ekin almashinuvi majburiyati, yer degradatsiyasi va monitoring tizimlariga doir me'yorlar tahlil qilinib, O'zbekistonda ularni implementatsiya qilish imkoniyatlari baholandi.

Xorijiy tajribalarni o'rganish AQShda "Precision Agriculture" konsepsiyasi, Yevropada CAP doirasidagi sovooborot talablari va Xitoyda AI bilan boshqariladigan ekin aylanishi modellari tahlil qilindi. Har bir davlatda innovatsion texnologiyalar ekin almashinuvi tizimining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, dronlar, yer namligini o'lchash sensorlari, raqamli agroplatformalar almashlab ekish monitoringida faol qo'llanilmoqda. Bu tajribalar O'zbekistonga moslashtirish uchun takliflar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.


GIS, IoT va dron monitoringi Buxoro viloyatining G'ijduvon va Jondor tumanlarida ekin almashinuvi amalga oshirilayotgan hududlar dronlar yordamida masofadan tahlil qilindi. GIS texnologiyasi orqali almashlab ekish konturlari xaritalashtirildi, IoT sensorlar yordamida tuproq namligi va pH darajalari aniqlandi. Dron tasvirlari va GIS qatlamlar birlashtirilib, loyiha joylarida muvofiqlik darajasi 85% aniqlandi. Natijada tuproq degradatsiyasi xavfi yuqori bo'lgan joylar tezda aniqlanib, takliflar berildi.

Raqamli yechimlar. Mualliflik nazoratini kuchaytirish uchun loyiha bosqichlarini raqamli tarzda nazorat qilish imkonini beruvchi platforma prototipi ishlab chiqildi. U orqali fermerlar, loyiha mualliflari va nazoratchilar real vaqt rejimida o'zaro ma'lumot almashadi. Loyihaning har bir bosqichi, ekin ekish jadvali va sug'orish sxemalari AI yordamida avtomatik ravishda tekshirildi. Bu yechim monitoring jarayonini soddalashtirib, insoniy xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Grafik va jadval tahlillari. Ekin almashinuvi natijalari bo'yicha tuproq unumdorligi, suv sarfi, hosildorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, jadval va grafik shaklida tizimlashtirildi. 3 yillik davrda almashlab ekilgan maydonlarda tuproqdagi azot va fosfor miqdori barqaror holatda saqlangan, hosildorlik esa 12–17% ga oshgan. Suvdan foydalanishda tomchilatib sug'orish natijasida 25% tejamkorlikka erishilgan.

AI asosidagi bashorat modellar. Yig'ilgan ma'lumotlar (dron, sensor, agroplatformalar) asosida sun'iy intellekt algoritmlari yordamida ekinlar holati, zararkunanda xavfi va hosildorlik prognozi ishlab chiqildi. Model o'zida quyosh nuri, namlik, harorat, almashlab ekish davriyligini hisobga olib 92% aniqlikda bashorat berdi. Bu fermerlar uchun qaror qabul qilishda kuchli yordamchi vosita bo'ldi.

1-rasmda maqolada qo'llanilgan ilmiy-tadqiqot usullarining samaradorlik darajasi foizda ifodalangan. Har bir metodning bahosi uning tadqiqotdagi qo'llanilish chastotasi, axborot aniqligi, tahlilning chuqurligi va amaliyotga joriy etishdagi imkoniyatlari asosida belgilandi. Ko'rinib turibdiki, AI asosidagi bashorat modellar (92%) eng yuqori samaradorlikka ega bo'lib, bu texnologiyaning ekin almashinuvi tizimida qaror qabul qilishdagi rolini yaqqol namoyon etadi. GIS, IoT va dron monitoringi (90%) esa bevosita dala holatini aniqlash va loyihani kuzatishda muhim omil bo'lmoqda. Grafik, jadval tahlillari va huquqiy asoslarning puxtaligi esa ilmiy yondashuvga asos bo'ldi.



1-rasm. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar samaradorligi grafigi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekin almashinuvi tizimini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va ularni yer tuzish loyihalari orqali hududiy jihatdan asoslash, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu natijalar to'liq yoritilgan:

1. Raqamli monitoring vositalarining samaradorligi oshdi

Buxoro viloyati misolida olib borilgan amaliy tahlillarda GIS, IoT va dron texnologiyalaridan foydalangan holda almashlab ekish maydonlarining holati real vaqt rejimida kuzatildi. Bu usullar orqali:

– Ekin maydonlarining joylashuvi, yer sathining o'zgarishlari va tuproq unumdorligi xaritalashtirildi;

– Tuproq namligi va pH ko'rsatkichlari bo'yicha IoT sensorlar yordamida 24/7 ma'lumotlar yig'ildi;

– Dronlar orqali nazorat qilinayotgan 10 ta fermer xo'jaligida aniqlangan 35 ta muammoli uchastkaning 70% i ilgari ko'zdan qochgan holatlar bo'lgan;

– Tahlillar natijasida almashlab ekish uchun noto'g'ri tanlangan joylarda 15–20% hosil yo'qotilishi aniqlangan.

2. AI asosidagi bashorat modellari natijalari yuqori aniqlikda baholandi

Tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari, ob-havo ma'lumotlari, o'simlikning o'sish bosqichlari haqidagi ma'lumotlar asosida AI algoritmlar ishlab chiqildi. Bu modellarning aniqligi quyidagicha baholandi (1-jadval).

1-jadval.

| Modell nomi | Bashorat aniqligi (%) | Qo'llanilgan soha |
|--------------------------------|------------------------------|--|
| AI-Hosildorlik modeli | 92 | Almashlab ekish natijalarini prognozlash |
| Sug'orish optimallashtirish AI | 88 | Tomchilatib sug'orish rejimlari |
| Kasallik va zararkunanda AI | 85 | Erta ogohlantirish tizimi |

Bashorat modeli orqali 3 oy oldin aniq qilingan tahminlar amaliyotda 90% moslikni ko'rsatdi. Bu esa AI texnologiyalarining agrotexnologik qarorlar qabul qilishda kuchli vosita ekanligini tasdiqladi.

3. Mualliflik nazorati jarayonlarida shaffoflik va aniqlik oshirildi

Yer tuzish loyihalarining amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida mobil platformalar va real-time kuzatuv texnologiyalarining joriy etilishi quyidagi natijalarni berdi:

– Loyihalardagi og'ishlar dron kuzatuvlari orqali 7 kun ichida aniqlanmoqda (avval 20–30 kun);

– Sensor va mobil ilovalar yordamida fermer va loyiha mualliflari o'rtasida o'zaro aloqa 80% soddalasdi;

– AI yordamida loyiha natijalarining rejalarga mosligi avtomatik baholandi, bu esa insoniy xatoliklarni 30% ga kamaytirdi.

4. Innovatsion texnologiyalar hosildorlik va resurs tejamligini ta'minladi

– Almashlab ekilgan maydonlarda o'rtacha hosildorlik 17% ga oshdi;

– Suvdan foydalanish tomchilatib sug'orish orqali 25% ga kamaydi;

– Tuproqdagi azot va fosfor miqdori barqaror holatda saqlanib, tuproq degradatsiyasi belgilari kamaygan.

5. Tizimli yondashuvlarning umumiy bahosi grafik asosida ifodalandi

Yuqoridagi 1-rasmda tadqiqotda qo'llanilgan usullar va ularning samaradorlik darajalari keltirilgan.

– AI algoritmlari – 92%

– GIS, IoT va dron monitoringi – 90%

– Grafik va jadval tahlillari – 88%

– Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili – 85%

– Xorijiy tajriba tahlili – 80%

– Raqamli platformalar – 75%

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Innovatsion texnologiyalar asosida ekin almashinuvi tizimini joriy etish – qishloq xo'jaligida barqarorlik, tuproq unumdorligini saqlash va resurslardan oqilona foydalanishning asosiy omilidir. Ayniqsa, no-till va siderat uslublarining mahalliy sharoitga moslashtirilgan qo'llanilishi ijobiy natijalar berdi.

2. Yer tuzish loyihalarining raqamli asosda ishlab chiqilishi – almashlab ekish joylarini ilmiy asoslash, tuproq-tahlil xaritalari asosida tanlash, kontur chegaralarini aniq belgilash imkonini yaratadi.

3. Mualliflik nazoratiga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish – monitoringning shaffofligi va aniqligini oshirib, loyiha natijalarini avtomatik baholash imkoniyatini beradi. Bu, o‘z navbatida, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

4. AI va IoT texnologiyalari yordamida hosildorlik prognozi va agrotexnik chora-tadbirlar samaradorligi ilmiy asosda aniqlanib, dalil bilan tasdiqlandi.

5. Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va moslashtirish – O‘zbekiston sharoitida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim yo‘nalishlardan biridir.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda almashlab ekish tizimi majburiy tarkibiy qism sifatida inobatga olinishi lozim. Loyihalarda tuproq-tahlil xaritalari, gidromeliorativ sharoit va agroklimatik omillar integratsiyalashgan bo‘lishi kerak.

2. Mualliflik nazoratini raqamlashtirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Bunda, har bir loyiha uchun AI asosida muvofiqlikni baholovchi algoritmlar yaratilishi zarur.

3. Fermer xo‘jaliklari uchun mobil agroplatformalar ishlab chiqish – loyiha talablari, agroxizmatlar va nazorat natijalarini bir joyda boshqarish imkonini beradi.

4. Qishloq xo‘jaligi mutaxassislari va yer tuzuvchilar uchun raqamli agrotexnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Qishloq xo‘jaligida AI, GIS, IoT va dron texnologiyalariga oid milliy konsepsiyani ishlab chiqish – bu orqali yurtimizda “raqamli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasi tizimli asosda joriy etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Земельный кодекс Республики Узбекистан. – Ташкент: Министерство юстиции РУз, 1998. – 54 с.
2. О мерах по дальнейшему реформированию и устойчивому развитию сельского хозяйства. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-5006 от 23.12.2021 г. – Ташкент: Национальная база данных законодательства, 2021.
3. Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4231-son, 13.03.2019. – T.: Lex.uz, 2019.
4. FAO. Guidelines for Sustainable Crop Production Intensification. – Rome: FAO Publishing, 2011. – 98 p.
5. Craig, W. GIS and Crop Rotation Management in the United States. // Journal of Precision Agriculture. – 2017. – Vol. 18(4). – P. 289–302.
6. Zhang, W. Artificial Intelligence in Smart Farming: Practice and Future. // Agricultural Systems. – 2020. – Vol. 177. – P. 102713.
7. European Commission. Common Agricultural Policy (CAP) and Sustainable Land Use. – Brussels: EU Publications Office, 2020. – 76 p.
8. Халилов Б.А., Рахимов Ш.Р. Геоинформационные технологии в землеустройстве. – Ташкент: Фан, 2021. – 124 с.
9. Yusupov, A.A. Yer resurslaridan foydalanishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. // “Qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmuasi” ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – №3. – B. 21–26.
10. Bobojonov I., Djanibekov N. Digital agriculture and smart farming in Central Asia. // Journal of Agrarian Development. – 2022. – Vol. 14. – P. 75–86.
11. National Resources Conservation Service (NRCS). Conservation Crop Rotation. Code 328. – Washington, D.C.: USDA, 2021. – 34 p.
12. Маматов У.Р. Цифровое сельское хозяйство и устойчивое развитие. – Т.: Иқтисодиёт, 2022. – 152 с.
13. ICARDA. Climate-Smart Agriculture in Drylands. – Beirut: ICARDA Publication, 2020. – 83 p.
14. Воронова Л.М., Емельянов С.В. Мониторинг плодородия почв с использованием беспилотных систем. – М.: КолосС, 2021. – 172 с.

UDK 660.01:665.3.048

O'SIMLIK MOYINI BARBOTAJ QATLAMIDAGI FAZALAR GIDRODINAMIKASINI TADQIQ QILISH

Ismoyilov H.B.

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotasiya. Maqolada mualliflar tomonidan halqalardan yig'iladigan zanjir nasadkalar o'rnatilgan barbotaj qatlami gidrodinamikasini tadqiq qilishning tajriba qurilmasini ishlab chiqilgan. Paxta moyini dezodorasiyalash jarayoni uchun zanjir nasadkalarining samarali o'lchamlari tanlash, gidrodinamik parametrlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Dezodoratordagi ishchi bosim (vakuum), moy harorati, suv bug'i sarfi hamda yig'ilgan moy qatlamidagi nasadkalarining o'lchamlari va sonini moy tarkibidan engil uchuvchan komponentlarni ajratish darajasiga ta'siri ma'lumotlar olingan.

Kalit so'zlar; konsentrasiya, massaalmashinish, suyuqlik-bug'-zanjir nasadka, o'tkir suv bug'i, komponent, faza, dezodorasiya.

Annotasiya. В статье представлена разработка экспериментальной установки для исследования гидродинамики барботажного слоя с кольцевыми цепными насадками. Даны рекомендации по выбору эффективных размеров цепных насадок для процесса дезодорации хлопкового масла, а также гидродинамических параметров. Получены рабочее давление (вакуум) в дезодораторе, температура масла, расход водяного пара, а также влияние размера и количества насадок в собираемом слое масла на степень выделения легких летучих компонентов из состава масла.

Ключевые слова: концентрация, массообмен, жидкостно-пароцепная насадка, острый водяной пар, компонент, фаза, дезодорация.

Abstract. In this article, the authors have developed an experimental setup to study the hydrodynamics of a barbotage layer equipped with chain-type packings assembled from rings. Recommendations are provided for selecting the effective dimensions of the chain packings and hydrodynamic parameters for the process of cottonseed oil deodorization. Data were obtained on the influence of operating pressure (vacuum), oil temperature, steam consumption, as well as the size and number of packings in the collected oil layer, on the degree of removal of light volatile components from the oil composition.

Keywords: concentration, mass transfer, liquid-vapor-chain packing, superheated steam, component, phase, deodorization.

O'simlik moylarini dezodorasiyalash jarayoni moy ishlab chiqarish texnologik tizimidagi yakuniy jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda moy tarkibidagi unga tam va hid beruvchi komponentlar ajratib olinishi talab qilinadi. Komponentlarni ajratib olish o'tkiri suv bug'i bilan haydash asosida olib boriladi. Moylarni dezodorasiyalashda ajratib olinadigan komponentlar ularni qaynash haroratida amalga oshiriladi. Komponentlar qaynash haroratlari yuqori bo'lganligi uchun, ushbu jarayon chuqur vakuum ostida olib boriladi, aksariyat uskunalari uzlukli usulda ishlaydi. Ushbu jarayonni uzluksiz usulda olib borish texnologik rejimlari va uskunasi ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.


Aralashmalarni o'tkir suv bug'i bilan haydash murakkab massaalmashinish jarayonlaridan hisoblanib, jarayon samaradorligi qatanashayotgan fazalar gidrodinamikasi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa aralashmani barbotaj qatlamda haydashda o'tkir suv bug'i suyuqlik qatlami pastki qismidan berilishi, pufakchalar shakllanib suyuqlik qatlami balandligi bo'yicha harakatlanishida, moy tarkibidagi engil uchuvchan komponent o'tkir suv bug'iga o'tishi orqali kechadi. Demak fazalarni uchrashish yuzasi pufakchalar soni, o'lchami va tezliklari orqali xarakterlanadi.

Olimlar tomonidan turli shakllarga, o'lchamlarga ega nasadkalardan barbotaj qatlamlarida massaalmashinish jarayonlarni takomillashtirishda qo'llanilgan bo'lib, jarayonlarni intensivlashtirishga va samarasini oshirishga erishilgan.

Ushbu nasadkalar barbotaj qatlamidagi suyuqlikda suzib yurgan yoki stasionar xolda joylashtirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki qo‘llanilgan nasadkalarini solishma yuzalarini kattaligi va suyuqlik qatlamida hosil qiladigan gidravlik qarshiliklari yuqoriligi massalmashinish samarasini pasaytirgan.



Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni barbotaj qatlamlaridagi massalmashinish jarayonlarida bartaraf qilish maqsadida, biz ilmiy izlanishlarimizda yangi turdagi zanjir nasadkalaridan foydalanishni taklif qilamiz.

Zanjir nasadkalarini tayyorlash juda oson va kam sarf xarajatli hisoblanadi. Ularni umumiy ko‘rishlari quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm

a -5 mml zanjir b -10 mml zanjir v- 20 mml zanjir d -30 mml zanjir

 *suv bug‘i ta’sirlashmaydigan yuza*
 *suv bug‘i ta’sirlashmaydigan yuza*


Zanjir nasadkalar barbotaj qatlami ko‘ndalang kesimi bo‘yicha kichik kenglikda erkin haraklanishi mumkin, suyuqlik qatlami balandigi bo‘yicha yuqori bo‘lmagan gidravlik qarshilik hosil qilishi, solishtirma yuzasini kattaligi, barbotaj qatlami balandligi bo‘yicha shakllangan o‘tkir suv bug‘i pufakchalari bilan to‘qanashib ularni maydalanishini ta’minlashi bilan ajralib turadi.

Quyidagi jadvalda zanjir nasadkalarini texnik xarakteristikalarini 1-jadvalda keltirilgan.

Zanjir halqali nasadkalarini texnik kattaliklari jadval.1

| No | Xal ka dia metri mm | Bitta halqa yuzasi m ² | Zanjir nasadk qatorlar soni | Zanjir nasadk adagi halqalar soni | Qatlamdagi zanjir halqalar umumiy yuzasi m ² | Zanjir nasadkalar xajmi m ³ | nasadkalar solishtirma xajmi m ³ /m ³ | ishlatilgan simning narxi sum | Sim ulchami | Zanjir materiali |
|----|---------------------|-----------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|---|--|---|-------------------------------|-------------|--------------------------------------|
| 1 | 5 | 0,0000985 | 24 | 1440 | 0,142 | 0,000071 | 0.12 | 8307 | 2mm | Zanglamaydigan metaldan tayyorlanadi |
| 2 | 10 | 0,000197 | 20 | 480 | 0,0945 | 0,00004731 | 0.081 | 5535 | | |
| 3 | 20 | 0,000394 | 16 | 105 | 0,0414 | 0,000021 | 0.036 | 2457 | | |
| 4 | 30 | 0,00059 | 10 | 50 | 0,0295 | 0,000015 | 0.026 | 1755 | | |

Barbotaj qatlamidagi fazalar gidrodinamikasini tadqiq qilish uchun uzluksiz ishlaydigan dezodorator barbotaj qismini quyidagi 2-rasm keltirilgan fizik modelini ishlab chiqdik. Zanjirsimon nasadkalar joylashtirilgan suyuqlik qatlamidan gazni oqib o‘tishini, uni hosil qiladigan gidravlik qarshiliklarni aniqlash maqsadida quyidagi tajriba qurilmasi va halqalari har xil diametrli, halqa kesim yuzasi bir xil bo‘lgan (5mm, 10 mm, 20 mm, 30 mm) zanjirlar tayyorlandi.




2-rasm . Barbotaj qatlamidagi fazalar gidrodinamikasini tadqiq qilish tajriba qurilmasi sxemasi.

1-Kompressor; 2-bosimni ko'rsatuvchi manometr; 3- rostlovchi kran 4-klapan; 5-sochib beruvchi barbotyor; 6-sochib beruvchi zanjirlar; 7-zanjirlarni tutib turuvchi tutqich; 8-havoni chiqarib yuboruvchi quvur; 9-shlang; 10- ikki naychali monometr.

Tajriba uskunasini tuzilishi quyidagicha; diametri 50 mm va balandligi 500 mm bo'lgan shaffof shisha idish, shisha idishning pastki qismida gazni shisha kesim yuzasi bo'yicha teng taqsimlash uchun barboter, zanjirli nasadkalar shisha idish ichida ushlab turuvchi ikkita moslama pastda va tepada, suyuqlik kelishi quvuri, suyuqlik ketishi quvuri, jarayonga berilayotgan va apparatdan chiqib ketayotgan havo bosimni o'lchash monometrlari. Tajriba uskunasida suyuqlik qatlami 30-35 sm atrofida ushlab turiladi.

Olingan natijalar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, nasadka qatlam balandligi va halqalari diametrlari o'zgarishi bilan, ularning hosil qiladigan gidravlik qarshiliklari juda katta qiymatga ega emas, ayniqsa halqa diametri kattalashib borgan sari qatlam pastidan beriladigan gaz qatlamdan o'tib chiqqunga qadar sezilarli bosim yo'qotishlariga uchramaydi. Buni grafiklardagi zanjir nasadkalar qarshiligini ularni halqalari diametrlaridan va qatlam balandligidan bog'liqligi chiziqlari ko'rinishidan aniq ko'rish mumkin.



Grafik-1. zanjir nasadkalar qarshiligini ularni halqalari diametrlaridan va qatlam balandligiga bog'liqligi

Olingan tajriba natijalari bo'yicha paxta moyini dezodorasiyalash jarayoni uchun zanjir nasadkalarining samarali o'lchamlari tanlandi, gidrodinamik parametrlari bo'yicha xulosalar olindi. Dezodoratordagi ishchi bosim (vakuum), moy harorati, suv bug'i sarfi hamda yig'ilgan moy qatlamidagi nasadkalarining o'lchamlari va sonini moy tarkibidan engil uchuvchan komponentlarni ajratish darajasiga ta'siri chuqur o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rukovodstvo po texnologii polucheniya i pererabotki rastitelnix masel i jirov / Pod red. A.G.Sergeeva. V 2-x t. - L.: VNIJ, 1974. T. 1, kn.2. - 591 s.
2. Kasatkin A.G. Osnovnie processi i apparati ximicheskoy texnologii: Uchebnik dlya vuzov. - 8-e izd., pererab. - M.: Ximiya, 1971. - 783 s.
3. Yusupbekov N.R., Nurmuxamedov X.S., Zokirov S.G. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. - T.:Sharq, 2003. - 644 b.
4. Artikov A.A., Mamatuklov A.X., Narziev M.S., Nosirov X.E., Dadaev K.O., Jumaev K.K.. Avtorskoe svidetelstvo № 1747468, 15 marta 1992 goda. "Sposob dezodorasii forpressovogo xlopkovogo masla".
5. A.A.Artikov. Kompyuternie metodi analiza i sinteza ximiko-texnologicheskix sistem // Uchebnik dlya magistrrov teologicheskix spetsialnostey. Tashkent: Voris nashriyot. 2012. -S.120-135
6. A.A Artikov, M.S Narziev, H.B. Ismoyilov O'simlik moyini dezodorasiyalashda engil uchuvchan komponentlarning muvozanat konsentrasiyalarini aniqlashning matematik ifodalanishi iqro indexing 288-293
7. A.A.Artikov, M.S.Narziev, & H.B.Ismoyilov. Uzluksiz ishlaydigan zanjir nasadkali o'simlik moyini dezodorasiyalash apparati tizimli taxlili. Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences, 4 (2), 40-44. doi: 10.5281/zenodo.10776155
8. Ismoyilov H.B. Matematicheskaya model gidrodinamicheskogo rejima gazojidkogo sloya v barbotajnom apparate International Bulletin of Applied Science and Technology 34-41
9. 4. AA Artikov, MS Narziev, HB Ismoyilov Mathematical representation of determination of equilibrium concentrations of light volatile components in multicomponent mixtures International Multidisciplinary Journal for Research & Development 190-194
10. Siddikov, I. K., Fayziev, S. I., Ismoyilov, K. B., & Uvayzov, S. K. SYNTHESIS OF THE NEURO-FUZZY ADAPTIVE CONTROL SYSTEM OF A DYNAMIC OBJECT. The Journal of Test Engineering and Management, 83, 11236-11246.

**3-SHO‘BA. QISHLOQ VA SUV
XO‘JALIGINI MATEMATIK
MODELLASHTIRISH USULLARI VA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI
QO‘LLASH**

UDK: 687.1.016.5
AGROSANOAT SOHASI UCHUN MAXSUS KIYIMNING AHAMIYATI, TURLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI
N.Z Gaybullayeva¹, Sh.A Axtamova²

¹Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
nargizagaybullayeva103@gmail.com

Buxoro davlat texnika universiteti 304-24 DIZ (LG) guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada agrosanoat sohasi uchun maxsus kiyimlarning ahamiyati, ularning turlari va rivojlanish tendentsiyalari tahlil qilinadi. Agrosanoat – mehnat muhiti xavfsizligi va samaradorligi yuqori darajada ta'minlanishini talab qiluvchi sohalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar ta'sirida maxsus kiyimlar dizayni, materiallari va funksional imkoniyatlari qanday rivojlanayotgani ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Agrosanoat, maxsus kiyim, texnika, ishchi, material, talab, agronom, fermer, moda, tendensiya.

Аннотация. В статье анализируется значение специальной одежды для агропромышленного комплекса, ее виды и тенденции развития. Агропромышленный комплекс относится к отраслям, требующим высокого уровня безопасности и эффективности производственной среды. В нем также показано, как под влиянием современных технологий меняются дизайн, материалы и функциональность специальной одежды.

Ключевые слова: Агропромышленный комплекс, спецодежда, оборудование, работник, материал, спрос, агроном, фермер, мода, тенденция.

Абстракт. This article analyzes the importance of special clothing for the agro-industrial sector, its types and development trends. Agro-industrial sector is one of the sectors that requires a high level of safety and efficiency of the working environment. It also highlights how the design, materials and functionality of special clothing are developing under the influence of modern technologies.

Keywords: Agro-industrial sector, special clothing, equipment, worker, material, demand, agronomist, farmer, fashion, trend.

Agrosanoat sohasi jahon iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi va qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati hamda logistika sohalarini qamrab oladi. Bu sohada mehnat faoliyati turli xavf omillari bilan bog'liq bo'lib, xodimlarning xavfsizligini ta'minlash katta ahamiyatga ega. Mehnat sharoiti va tabiiy iqlim omillari sababli maxsus ish kiyimlaridan foydalanish zarur bo'lib qoladi. Maxsus kiyimlar nafaqat ishchining sog'lig'ini muhofaza qilish, balki mehnat samaradorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda agrosanoat sohasi uchun maxsus kiyimlar ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar va yuqori sifatli materiallardan foydalanish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Agrosanoat sohasida mehnat faoliyati qiyin va o'zgaruvchan tabiiy sharoitlarda olib boriladi. Qishloq xo'jaligida ishlovchi xodimlar issiqlik, sovuqlik, yomg'ir, shamol, toshlar va boshqa mexanik ta'sirlar kabi omillarga duch keladilar. Shu sababli maxsus kiyimlar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- Haroratni muvofiqlashtirish va terlashni kamaytirish;
- Ish harakatlarini erkin bajarish imkoniyatini ta'minlash;
- Mehnat samaradorligini oshirish va jarohatlar xavfini kamaytirish.

Maxsus kiyimlar qishloq xo'jaligida nafaqat muhofaza funksiyasini bajaradi, balki ishchi estetikasini ta'minlash va korporativ madaniyatni shakllantirishda ham ahamiyatga ega. Maxsus kiyimlar agrosanoat sohasidagi faoliyat turiga va ish sharoitiga qarab farqlanadi. Dala ishlari yuqori harorat, chang va namlik sharoitida bajariladi. Bunday sharoit uchun nafas oluvchi, yengil va namlikka chidamli matolardan tayyorlangan kiyimlar mos keladi. Ular quyosh nurlaridan himoya qiluvchi va havo aylanishini ta'minlovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Traktor va boshqa agrotexnika bilan ishlovchilar uchun maksimal darajada mexanik shikastlanishlardan himoya qiluvchi mustahkam materiallardan tayyorlangan kiyimlar talab etiladi. Bunday kiyimlarda maxsus kuchaytirilgan tikuvlar, metall yoki plastmassa elementlari bo'lishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida sanitar-gigiyenik talablarga mos keluvchi, oson tozalanadigan va antiseptik qoplamali maxsus kiyimlar ishlatiladi. Bu kiyimlar mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda agrosanoat uchun maxsus kiyim ishlab chiqarishda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

Innovatsion materiallardan foydalanish:

Bionik, antibakterial va namlikni qaytaruvchi matolar keng qo'llanila boshladi. Bu matolar tanadagi terini tezda quritish va tashqi omillardan yaxshi himoya qilish imkonini beradi.

Intellectual funksiyali kiyimlar

Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan maxsus kiyimlarga sensorlar o'rnatilib, ishchi sog'ligi va atrof-muhit sharoitini kuzatish imkoniyati yaratilmoqda. Bunday intellectual kiyimlar yordamida xodimning yurak urishi, tana harorati va harakat faoliyati nazorat qilinadi.

Hozirgi vaqtda agrosanoat uchun maxsus kiyimlar ishlab chiqishda biologik parchalanuvchi va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Maxsus kiyimlarni to'g'ri tanlash va qo'llash orqali quyidagi iqtisodiy samaralarga erishish mumkin:

Ishchilarning sog'lig'i yaxshilanadi, mehnatga layoqatlilik davri uzayadi;

Mehnat jarayonidagi jarohatlar soni kamayadi, ishdan bo'sh holatlari qisqaradi;

Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni samaradorligi va mahsulot sifati oshadi;

Korxonaga uchun sug'urta va jarohatlar bilan bog'liq xarajatlar kamayadi.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli maxsus kiyimlarga sarflangan xarajatlar qisqa muddat ichida o'zini oqlaydi va korxonaning umumiy rentabelligini oshiradi.

Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, Agrosanoat sohasida maxsus kiyimlar ishchilarning xavfsizligi, samaradorligi va ish sharoitiga moslashuvchanligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu turdagi kiyimlar ish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavflar — kimyoviy moddalar, havo harorati, mexanik ta'sirlar va biologik omillardan himoya qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947- son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi qarori

2. С.У. Пулатова, Н.З. Гайбуллаева. Анализ деятельности сельскохозяйственных кластеров Узбекистана. Материалы международной научной конференции «Инновационные решения инженерно-технологических проблем современного производства». Бухара, 14-16 ноября 2019 г. 1-том, стр. 610-612.

3. С.У. Пулатова, Н.З. Гайбуллаева. Изучение условий труда работающих в сельскохозяйственных кластерах с целью проектирования спецодежды. Материалы международной научной конференции «Инновационные решения инженерно-технологических проблем современного производства». Бухара, 14-16 ноября 2019 г. 2-том, стр. 617-619.

4. Гайбуллаева, Н. З., & Раджабова, Ф. А. (2016). Виды припусков при конструировании швейных изделий. *Молодой ученый*, (7), 58-60.

5. Пулатова, С. У., Закиряева, Н. Г., Ташпулатов, С. Ш., Черунова, И. В., & Алимухамедова, Б. Г. (2022). Разработка методологии проектирования одежды специального назначения.

УДК 664.762

МОДЕЛИРОВАНИЕ РЕЦЕПТУРЫ СУХАРЕЙ СДОБНЫХ ДИАБЕТИЧЕСКИХ С ДОБАВКАМИ

Мухамедова М.Э., Адизов Р.Т.

Бухарский государственный технический университет

Аннотация. Работа посвящена моделированию рецептурного состава сухарей сдобных диабетических, то есть предназначенных для больных сахарным диабетом. Обоснован выбор сырья для частичной замены муки пшеничной сортовой в рецептуре сухарей и сахара с низким гликемическим индексом, то есть не способствующего повышению сахара в крови больного: пшеничные отруби, топинамбур, ферула и стевия. С использованием программы ортогонального планирования, предусматривающей наличие факторного плана типа 2^3 , определены оптимальные дозировки исследуемого сырья.

Ключевые слова: сахарный диабет, сухари, пшеничные отруби, топинамбур, ферула, стевия, рецептура, оптимизация.

MODELING THE RECIPE FOR DIABETIC SUGAR WITH ADDITIONS

Mukhamedova M.E., Adizov R.T.

Bukhara State Technical University

Abstract. The work is devoted to modeling the recipe composition of sweet, diabetic, i.e., diabetic bread. The selection of raw materials for partial replacement of varietal wheat flour in the recipe for dried apricots and sugar with a low glycemic index, i.e., not contributing to an increase in blood sugar in the patient, is substantiated: wheat bran, Jerusalem artichoke, Ferula, and Stevia. Using the orthogonal planning program, which provides for the presence of a factor plan of type 2^3 , the optimal dosages of the studied raw materials were determined.

Keywords: diabetes mellitus, dried apricots, wheat bran, Jerusalem artichoke, Ferula, Stevia, recipe, optimization.

В настоящее время во всём мире, особенно в индустриально развитых государствах, отмечается стабильная динамика роста заболевания населения сахарным диабетом, в 98,0% случаях это не инсулинозависимый сахарный диабет 2-го типа. Согласно оценкам экспертов GBD (*Global burden of disease*), в период с 2021 по 2050 год распространённость данного заболевания в мире увеличится на 59,7%, то есть жить с этим заболеванием будет 1,31 млрд. человек. На 49,6% этот рост, по мнению экспертов, обусловлен проблемой ожирения, а остальные 50,4% объясняются демографическими сдвигами [1;с.41-47, 2]. Не обошла данная проблема и Узбекистан, где количество больных сахарным диабетом составляет более 245 тысяч, из них более 2300 детей и 879 подростков [3;с.625-627].

Одним из важнейших методов лечения больных сахарным диабетом (СД) II-типа является диетотерапия с использованием продуктов с низким гликемическим индексом, что позволит в определённой степени компенсировать метаболические нарушения и значительно улучшить качество жизни больных [4;с.16-22]. Однако, выпуск продукции диабетического назначения довольно ограничен, поэтому исследования по целевой модификации состава продуктов массового потребления путём обогащения их комплексом физиологически функциональных ингредиентов в настоящее время являются весьма актуальными.

Особый интерес в данном аспекте представляют мучные изделия, в частности сухарные. Сухари для диабетиков должны быть специально приготовлены с учётом особенностей их рациона, включая минимальное содержание сахара и быстро усваиваемых углеводов. Основная задача — обеспечить низкий гликемический индекс продукта, что поможет контролировать уровень сахара в крови. Сухари для диабетиков — это не только полезная, но и вкусная альтернатива традиционным изделиям, если подходить к выбору ингредиентов грамотно.

Целью работы является моделирование рецептуры сухарей сдобных диабетических с композитной смесью из вторичных продуктов переработки зерновых культур (отруби), овощное сырьё (топинамбур), биодобавки из лекарственных растений (ферула, стевия) с низким гликемическим индексом.

В качестве прототипа была использована рецептура сдобных сухарей «Дорожные». Данные добавки вносили в составе композитной смеси с заменой части муки и сахара.

Была спланирована и реализована программа ортогонального планирования, предусматривающая наличие факторного плана типа 2^3 . Статистическая обработка экспериментальных данных была выполнена с помощью корреляционно-регрессивного анализа.

В качестве варьируемых факторов были выбраны: дозировка порошка из пшеничных отрубей (X_1 , в % к массе муки), топинамбура (X_2 , в % к массе муки) и смеси ферулы и стевии (X_3) (в соотношении 1,0 : 0,5). Параметрами оптимизации являлись: органолептические показатели качества (y_1 , балл), как один из определяющих факторов конкурентоспособности продукции; удельный объём сухарных плит (y_2 , $\text{см}^3/100 \text{ г}$).

Органолептические показатели качества сухарных изделий определяли по 20-балльной шкале; удельный объём плит - по ГОСТ 8494-96. Экспериментальные данные подвергали математическому и графическому анализу с использованием стандартных программ MS Excel и Math CAD.

Усреднённые данные дублированных опытов приведены в таблице.

Матрица планирования и результаты эксперимента ПФЭ 2^3

| № опыта | Факторы | | | | | | Результаты эксперимента | | | | | |
|---------|--------------|-------|-------|-------------|-------|-------|--------------------------------|---------|---------|---|---------|---------|
| | кодированные | | | натуральные | | | Органолептическая оценка, балл | | | Удельный объём, $\text{см}^3/100 \text{ г}$ | | |
| | x_1 | x_2 | x_3 | z_1 | z_2 | z_3 | y^1_1 | y^2_1 | y^3_1 | y^1_2 | y^2_2 | y^3_2 |
| 1 | -1 | -1 | -1 | 10 | 3 | 4 | 17,6 | 18 | 18,1 | 350 | 348 | 351 |
| 2 | -1 | -1 | +1 | 10 | 3 | 10 | 16 | 15 | 16 | 328 | 329 | 330 |
| 3 | -1 | +1 | -1 | 10 | 7 | 3 | 18 | 19 | 18 | 357 | 360 | 358 |
| 4 | -1 | +1 | +1 | 10 | 7 | 10 | 10 | 8 | 9 | 305 | 302 | 307 |
| 5 | +1 | -1 | -1 | 30 | 3 | 4 | 16 | 15 | 16 | 327 | 328 | 326 |
| 6 | +1 | -1 | +1 | 30 | 3 | 10 | 15 | 14 | 14 | 315 | 316 | 314 |
| 7 | +1 | +1 | -1 | 30 | 7 | 4 | 8 | 10 | 8 | 302 | 303 | 305 |
| 8 | +1 | +1 | +1 | 30 | 7 | 10 | 6 | 7 | 5 | 276 | 278 | 280 |

Получено регрессионные уравнения (1, 2) по зависимости органолептических показателей качества (y_1) и удельного объёма сухарных плит (y_2) от дозировки исследуемого сырья в кодированных значениях:

$$y_1 = 13,195 - 2,0291x_1 - 2,695x_2 - 1,945x_3 - 1,1375x_1x_2 + 0,945x_1x_3 - 1,0541x_2x_3 + 0,7208x_1x_2x_3 \quad (1)$$


$$y_2 = 320,195 - 14,791x_1 - 9,541x_2 - 13,958x_3 - 5,625x_1x_2 + 4,625x_1x_3 - 5,791x_2x_3 + 2,458x_1x_2x_3 \quad (2)$$

В натуральном выражении данные уравнения имели следующий вид:

$$Y_1 = 12,6933 + 0,2814z_1 + 2,7017z_2 + 0,8014z_3 - 0,141z_1z_2 - 0,0286z_1z_3 - 0,416z_2z_3 + 0,012z_1z_2z_3 \quad (3)$$


$$Y_2 = 337,2 + 0,2818z_1 + 13,346z_2 + 1,1865z_3 - 0,568z_1z_2 - 0,0507z_1z_3 - 1,7845z_2z_3 + 0,041z_1z_2z_3 \quad (4)$$

По полученным уравнениям регрессии были построены поверхности отклика в частных случаях (рис. 1,2).




Зависимость дозировки порошка из пшеничных отрубей (X_3) от X_1 и X_2

$Z_1 = 20,0\%$ к массе муки



Зависимость дозировки топинамбура (X_2) от X_1 и X_3


$Z_2 = 5,0\%$ к массе муки



Зависимость дозировки ферулы и стевии (X_3) от X_1 и X_2


$Z_3 = 7,0\%$ к массе муки

Рисунок 1 - Поверхности отклика, характеризующая зависимость органолептических показателей качества сухарей от дозировки исследуемого сырья




Зависимость дозировки порошка из пшеничных отрубей (X_3) от X_1 и X_2

$Z_1 = 20,0\%$ к массе муки



Зависимость дозировки топинамбура (X_2) от X_1 и X_3

$Z_2 = 5,0\%$ к массе муки



Зависимость дозировки ферулы и стевии (X_3) от X_1 и X_2

$Z_3 = 7,0\%$ к массе муки

Рисунок 2 - Поверхности отклика, характеризующая зависимость удельного объёма сухарных плит от дозировки исследуемого сырья

По результатам математической обработки экспериментальных данных были установлены оптимальные дозировки исследуемого сырья для использования в рецептуре сдобных диабетических сухарей: отруби пшеничные – 20,0%, топинамбур – 5,0% , ферула – 5,0% к рецептурному количеству муки, стевия – 2,0% к рецептурному количеству сахара (при соотношении ферулы и стевии 1,0 : 0,5) при влажности теста 45,0...46,0%.

Список использованной литературы

1. Токмакова А.Ю. Поражения нижних конечностей при сахарном диабете/ А.Ю. Токмакова [и др.]// Ожирение и метаболизм. – 2017. №14(1). – С.41-47.
2. Костарнова Н. Диабет пошел на мировой рекорд/ Н. Костарнова. - URL: <https://www.kommersant.ru/doc/6068812#:~:text=> (дата обращения: 14.12.2024).
3. Салиева Ш.Б. Профилактика и лечение сахарного диабета II-типа в Узбекистане/ Ш.Б. Салиева// Экономика и социум. – 2023. - №10(113)-1. – С.625-627.
4. Веселова А.Ю. Нетрадиционное сырьё в производстве хлебных палочек для больных сахарным диабетом/ А.Ю. Веселова // Вестник НГИЭИ – 2013. – №8(27). - С.16-22.

UDK: 631.563

HARORAT, NAMLIK, HAVO TEZLIGI VA VAQTNING KOMBINATSION QURITISH JARAYONIGA TA’SIRI

Djurayev Xayrullo Fayziyevich

Texnika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat texnika universiteti,

Sadullayev Azizbek Nasillo o‘g‘li,

Tayanch doktorant, o‘qituvchi-stajyor, Buxoro davlat texnika universiteti,

azizbeksadullayev98@gmail.com

Аннотация: Mazkur ilmiy ishda xurmo mevasining quritilishiga harorat, havo nisbiy namligi, havo oqimi tezligi va quritish davomiyligi kabi asosiy fizik omillarning ta’siri ilmiy asosda tahlil etildi. Quritish jarayoni ikki bosqichli kinetik model asosida baholandi: birinchi bosqichda erkin namlik bug‘lanishi, ikkinchi bosqichda esa bog‘langan namlik chiqarilishi sodir bo‘lishi aniqlandi. Natijalar boshqa quritish usullari bilan taqqoslab tahlil qilindi va kombinatsiyalangan (konvektiv + infraqizil) quritish usuli yuqori samaradorlikka ega ekani isbotlandi. Tadqiqot mahsulot sifatini saqlagan holda energiya tejamkorligini ta’minlovchi quritish texnologiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Quritish, harorat, nisbiy namlik, havo tezligi, quritish vaqti, xurmo mevasining saqlanishi, quritish kinetikasi, kombinatsiyalangan quritish, namlik yoʻqotish tezligi, energiya samaradorligi, mahsulot sifati.

Abstract: This research investigates the effects of key physical parameters—temperature, relative humidity, air velocity, and drying time on the drying process of persimmon (*Diospyros kaki* L.). The drying kinetics were analyzed using a two-stage model, comprising the rapid evaporation of free moisture in the initial stage and the gradual release of bound moisture in the latter phase. Comparative analysis showed that hybrid drying methods, particularly convective combined with infrared drying, outperformed conventional methods in terms of drying speed and energy efficiency. The findings of this study provide a solid theoretical and practical foundation for developing energy-efficient drying technologies while maintaining product quality.

Keywords: Drying, temperature, relative humidity, air velocity, drying time, persimmon preservation, drying kinetics, hybrid drying, moisture loss rate, energy efficiency, product quality.

Kirish. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va ularning isteʼmolga yaroqlilik muddatini uzaytirish bugungi kunda oziq-ovqat sanoatining eng muhim muammolaridan biridir. Shu jihatdan mahsulotlarni quritish jarayoni ularning saqlanish muddati, mikrobiologik barqarorligi, tashish va qadoqlash imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Quritish jarayonida turli fizik parametrlar – harorat, nisbiy namlik, havo tezligi va vaqt – mahsulotdagi namlikni yoʻqotish darajasiga bevosita taʼsir qiladi. Mazkur parametrlarning oʻzaro uygʻunligi mahsulot sifatining saqlanishi va energiya samaradorligining oshirilishini taʼminlaydi. Ilmiy manbalarga koʻra, quritish jarayonining kinetikasi va mahsulotdagi suv miqdorini kamaytirish darajasi asosan issiqlik va massa almashinuvi sharoitlariga bogʻliq boʻlib, bu parametrlar mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlariga turlicha taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, harorat va havo tezligi ortishi bilan quritish tezligi oshadi, biroq haddan tashqari yuqori harorat mahsulot sifatini buzishi mumkin. Shuningdek, nisbiy namlikning yuqoriligi mahsulotdan namlik ajralishini sekinlashtiradi, vaqt omili esa quritish jarayonining ikki asosiy bosqichi — birlamchi (erkin namlikni yoʻqotish) va ikkilamchi (bogʻlangan namlikni chiqarish) bosqichlarining davomiyligiga taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, quritish jarayonining optimal parametrlarini aniqlash orqali mahsulot sifatini saqlagan holda, energiya sarfini kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari mavjud. Mahsulotni sifatli quritish orqali ularning transport va saqlash xarajatlarini kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, zamonaviy va energiya tejavchi quritish usullarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biridir.

Asosiy qism. Quritish – bu qattiq yoki yarim suyuq moddalardan issiqlik yordamida namlikni chiqarib yuborish jarayoni boʻlib, asosiy maqsad mahsulotning saqlanish muddatini uzaytirish, ogʻirligini kamaytirish va mikrobiologik barqarorligini taʼminlashdan iborat. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun bu jarayon mahsulotni qadoqlash, tashish va saqlashni yengillashtiradi. Quritish natijasida suv miqdori pasayadi, bu esa fermentativ va mikroorganizmlar faolligini toʻxtatadi. Quritish jarayoni odatda 2 bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich erkin erkin yaʼni adsorbsiyalangan namlik chiqariladi, bu bosqichda bugʻlanish tezligi yuqori boʻladi. 2-bosqichda esa bogʻlangan yaʼni kapillyar va kimyoviy bogʻlangan namlik ajraladi, bu bosqichda quritish jarayoni sekinlashadi. Quritish kinetikasi – bu vaqtga bogʻliq holda mahsulotdan namlik chiqishining tezligi boʻlib, uni tavsiflovchi tenglama quyidagicha koʻri ishda boʻladi:

$$\frac{dX}{dt} = -k(X - X_{eq});$$

Bu yerda:

X - mahsulotdagi hozirgi namlik miqdori;

X_{eq} - muvozanatdagi namlik miqdori;

k - quritish tezlik koeffitsienti.

Yuqoridagi matematik tenglama yordamida turli parametrlarning quritish tezligiga taʼsiri baholanadi. Quritish jarayoni issiqlik va massa almashinuvi asosida kechadigan murakkab fizik jarayondir. Ushbu jarayonga bir nechta asosiy parametrlar – harorat, havo nisbiy namligi, havo harakat tezligi va vaqt – kuchli taʼsir koʻrsatadi. Har bir omil quritish kinikasini, mahsulot sifatini, energiya sarfini va umumiy texnologik samaradorlikni belgilaydi. Harorat quritish jarayonining eng

muhim omillaridan biridir. Harorat oshishi bilan suv bug‘lanish tezligi ortadi. Bu jarayonda Issiqlik uzatish qonuni va Arrenius tenglamasi ishlatiladi:

$$k = A \cdot e^{-\frac{E_a}{RT}}$$

Bu yerda:

k - quritish tezlik koeffitsienti;

E_a - aktivatsiya energiyasi;

T -harorat;

R -gaz doimiysi.

Harorat oshgan sari quritish tezlashadi, ammo mahsulot sifati pasayishi mumkin. Optimal harorat har bir mahsulot uchun alohida aniqlanishi lozim. Havo nisbiy namligi quritish jarayonida bug‘ bosimi gradientini belgilaydi. Nisbiy namlik yuqori bo‘lsa, mahsulot yuzasidan bug‘lanish sekinlashadi. Har bir mahsulot o‘ziga xos muvozanat namligiga ega – ya’ni tashqi havoning nisbiy namligi oshgan sari mahsulotdan bug‘lanish to‘xtaydi. Quritish jarayonida mahsulot ichidagi namlik tashqi muhitga tarqaladi. Ammo bu bug‘lanish jarayoni mahsulotning hozirgi namlik miqdori bilan atrof-muhitdagi havo nisbiy namligi o‘rtasidagi farq asosida sodir bo‘ladi. Har bir mahsulot muvozanat namligi degan qiymatga ega bo‘lib, bu shunday holatki, mahsulotdagi namlik miqdori bilan havo namligi muvozanatda bo‘ladi va namlik harakati to‘xtaydi. Agar mahsulotning namligi muvozanat qiymatidan yuqori bo‘lsa u bug‘lana boshlaydi ya’ni quriydi. Aksincha, agar mahsulot muvozanatdan past bo‘lsa u atrof-havodan namlik yuta boshlaydi ya’ni reabsorbsiya yuz beradi. Albatta quritish jarayonida havo tezligi bevosita mahsulot yuzasidan bug‘larni olib chiqib ketish samaradorligini belgilaydi. Havo oqimi oshsa, massa almashinuvi ortadi. Optimal havo tezligi 0.5-2.5 m/s atrofida bo‘lishi maqadga muvofiq. Havo tezligi ortishi bilan quritish tezlashadi, ammo juda baland tezlik energetik jihatdan samarasiz bo‘ladi. Quritish davomiyligi mahsulot ichki va tashqi namlik ajralish jarayoniga bog‘liq. Bu parametr energiya sarfi va mahsulot sifati bilan bevosita bog‘liq. Vaqt o‘tishi bilan quritish tezligi kamayadi. Sekin quritish bosqichda mahsulotning deformatsiyasi ehtimoli ortadi. Quritish vaqti yetarli bo‘lishi lozim, lekin uzoq davom etadigan jarayonlar mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Optimal vaqt – harorat va havo sharoitiga bog‘liq ravishda aniqlanadi [4].

Quritish jarayoni bir vaqtning o‘zida bir nechta fizik omillar ta’siri ostida kechadigan ko‘p omilli issiqlik-massa almashinuvi jarayonidir. Har bir parametr alohida ta’sir qilishi bilan birga, ular o‘zaro ta’sirlashadi va bu esa quritish samaradorligiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Shuning uchun harorat, havo nisbiy namligi, havo tezligi va vaqtning o‘zaro uyg‘unligi asosida optimallashtirish zarur. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish quyidagi jadval tuzildi [5].

1-jadval.

| Parametrlar juftligi | O‘zaro ta’sir holati | Natijaviy ta’sir |
|------------------------------------|------------------------------------|--|
| Yuqori harorat+yuqori havo tezligi | Bug‘lanish tezligi kuchayadi | Quritish tezlashadi, lekin sifat yomonlashishi mumkin. |
| Yuqori harorat+ko‘p vaqt | Haddan ortiq quritish | Mahsulot qattiqlashadi, pigmentlar parchalanadi |
| Yuqori harorat+past namlik | Issiqlik va bug‘ uzatish kuchayadi | Tez quritish, yuzasi qotish mumkin. |
| Past harorat+ko‘p vaqt | Sekin quritish | Sifat saqlanadi, lekin energiya sarfi ortadi |
| Yuqori harorat+yuqori namlik | Bug‘lanish bosimi pasayadi | Quritish tezligi pasayadi |

Xulosa. Ushbu tadqiqotda harorat, nisbiy namlik, havo tezligi va vaqtning quritish jarayoniga ta’siri ilmiy-nazariy va eksperimental asosda chuqur o‘rganildi. Quritish jarayoni issiqlik va massa almashinuvi bilan kechuvchi murakkab fizik hodisa bo‘lib, uning samaradorligi bir nechta parametrlarning uyg‘unligiga bog‘liqligi aniqlashtirildi. Tadqiqotlar natijasida quritishning ikki bosqichli kinetikasi erkin va bog‘langan namlik yo‘qotish ilmiy asoslari o‘rganildi va har bir

bosqichning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, harorat oshishi bilan bug'lanish tezligi ortadi, biroq yuqori harorat mahsulot sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Havo tezligining optimal darajada bo'lishi bug'lanishning barqaror kechishini ta'minlaydi, nisbiy namlik esa quritish tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Quritish vaqti esa mahsulotdagi namlik tarkibining to'liq chiqarilishi va energiya samaradorligi nuqtai nazaridan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, quritish jarayonining optimal parametrlarini aniqlash orqali mahsulot sifati va saqlanish muddati yaxshilanadi, energiya sarfi kamayadi hamda zamonaviy, samarali quritish texnologiyalarini ishlab chiqishga ilmiy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azimov, M. (2018). Quritish jarayonlari va ularning fizik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Qosimov, Sh. (2020). Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash texnologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Yusupov, B. N. (2022). Xurmo mevasini kombinatsiyalangan quritishda fizik parametrlar tahlili. O'zbekiston meva-sabzavotchilik ilmiy-amaliy jurnali, 2(15), 34–39.
4. Mujumdar, A. S. (2014). Handbook of Industrial Drying (4th ed.). CRC Press.
5. Kim, H. J., Lee, J. Y., & Park, S. M. (2019). Optimization of persimmon drying using hybrid drying technologies. Journal of Food Engineering, 240, 113–120. <https://doi.org/10.1016/j.jfoodeng.2018.07.021>.
6. Kholikov, R. R., & Toshpulatov, A. M. (2021). Kombinatsiyalangan quritish texnologiyalarining energiya samaradorligini oshirish yo'llari. Texnika va texnologiyalar muammolari, 3(7), 21–27.
7. Barnwal, P., Tiwari, G. N., & Ghosal, M. K. (2015). Drying of agricultural products: recent trends and applications. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 44, 452–468.

UDK 004.02

EKINLAR NAMLIGINI NAZORAT QILISHDA DASTURLANUVCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH

U.Z.Narziyev Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti.

***Annotatsiya:** Maqolada Buxoro viloyatining agroiklim sharoitida ekin maydonlarida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va dasturlash vositalari yordamida yer namligini nazorat qilishning zamonaviy usullari, ularning samaradorligi va amaliy natijalari bayon qilinadi. Shuningdek, dasturlashtirilgan tizimlar, sensor qurilmalar, IoT, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi monitoring yondashuvlari bilan bog'liq tajribalar haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiya, sensor, veb-interfeys, sun'iy intellekt, Python tili, geoinformatsion tizim.*

USE OF PROGRAMMABLE TOOLS FOR CONTROLLING CROP MOISTURE

U.Z.Narziyev Associate Professor of Bukhara State Technical University.

***Abstract.** The article analyzes the issue of rational use of water resources in sown areas in the agro-climatic conditions of the Bukhara region. Modern methods of monitoring soil moisture using information and communication technologies (ICT) and programming tools, their effectiveness and practical results are described. Experiments related to programmed systems, sensor devices, IoT, mobile applications, and monitoring approaches based on artificial intelligence will also be discussed.*

***Keywords:** digital technology, sensor, web interface, artificial intelligence, Python language, geoinformation system.*

Buxoro viloyatida dehqonchilik faoliyati tabiiy iqlim va suv resurslariga bevosita bog'liqdir. Iqlimiy sharoitlar asosan qurg'oqchil bo'lib, yillik yog'ingarchilik miqdori kam, bug'lanish darajasi

esa yuqori. Bu esa ekinlar uchun suv resurslarining to'g'ri taqsimoti va nazoratini talab qiladi. Ayniqsa, suv tanqisligi sharoitida an'anaviy sug'orish usullari bilan yuqori hosildorlikka erishish qiyinlashmoqda. Shu sababli, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarga asoslangan nazorat tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali har bir maydonda yer namligini doimiy ravishda o'lchab borish, suv sarfini kamaytirish, o'simlik ehtiyojiga mos tarzda sug'orishni amalga oshirish mumkin bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qishloq xo'jaligiga joriy qilinishi bu boradagi dolzarb muammolarning echimini topishga yordam bermoqda. Bunda yerga o'rnatiladigan namlik sensorlari, ularning ma'lumotlarini uzatadigan qurilmalar, markaziy serverlar va mobil ilovalar muhim rol o'ynaydi.

Misol uchun, oddiy YL-69, SHT10 yoki DHT22 kabi sensorlar tuproqdagi namlik va haroratni aniqlab, ushbu ma'lumotlarni Arduino yoki Raspberry Pi mikrokontrollerlariga uzatadi. Dasturchilar ushbu qurilmalarni C++, Python yoki MicroPython tillarida dasturlash orqali real vaqqli monitoring tizimini tashkil etadilar. Bu sensorlar yordamida 10–30 sm chuqurlikdagi tuproq namligi aniqlanib, belgilangan me'yordan past bo'lsa, sug'orish tizimi avtomatik tarzda ishga tushiriladi.

Ushbu tizimlarga mobil ilovalar yoki veb-interfeyslar qo'shilsa, dehqon yoki mutaxassis istalgan joyda internet orqali dalaning holatini ko'rishi, nazorat qilishi va boshqarishi mumkin bo'ladi. Bunday yondashuv Buxoro kabi suv tanqis hududlarda suvdan unumli foydalanishga xizmat qiladi. Mobil ilovalarda Thingspeak, Firebase yoki Blynk platformalari asosida ishlab chiqilgan monitoring tizimlari ishlatiladi. Tizim real vaqt rejimida grafik ko'rinishda namlik o'zgarishini ko'rsatadi va foydalanuvchiga ogohlantirish yuboradi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida hosildorlikni prognozlash, ob-havo sharoitini tahlil qilish, optimal sug'orish jadvalini tuzish imkoniyati mavjud. Misol uchun, Python tilida TensorFlow kutubxonasi orqali tuproq namligiga, haroratga va nurlanishga asoslangan sug'orish modeli yaratiladi. Model ma'lumotlarni o'rganadi va kelgusidagi talabni aniqlashda yordam beradi. Bu esa inson omilini kamaytirib, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishga olib keladi.

Buxoro tumanlarining ayrim xo'jaliklarida o'tkazilgan amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, AKT va dasturlashga asoslangan sug'orish tizimlari suv tejamliligini 20–25% ga oshirgan, hosildorlik esa 10–15% ga ko'tarilgan. Bu tizimlar yordamida insoniy xatolik kamaygan, nazorat aniq va uzluksiz bo'lgan. Sug'orish nazorati bilan birga bu texnologiyalar yordamida agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish, kasalliklar ehtimolini tahlil qilish, hosilni hisoblash kabi funksiyalarni ham bajarish mumkin.

E'tiborga molik jihatlardan biri shundaki, ushbu tizimlar uchun dasturlarni o'zbek tilida, mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan tarzda ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, soha mutaxassislarini raqamli savodxonlik bo'yicha tayyorlash, ularni dasturlash asoslariga o'rgatish va mahalliy dasturchilar bilan bog'lanish muhim hisoblanadi. Shuningdek, geoinformatsion tizimlar (GIS) yordamida ekin maydonlarini xaritalash, sensorlar joylashuvi va namlik darajasini fazoviy tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu orqali boshqaruv yanada qulay va intuitiv ko'rinishda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlash asosidagi nazorat tizimlari qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu yondashuvlar suv resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish va agrotexnik tadbirlarni avtomatlashtirish orqali umumiy iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Kelgusida bunday tizimlarni yanada ommalashtirish, ularni hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ilmiy izlanishlar bilan boyitish va ta'lim tizimida keng joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. FAO. *Digital Agriculture for Drylands: Guidelines for Central Asia*. Rome 2023.
2. A.Qosimov, M.To'xtasinov Buxoro viloyatida irrigatsiya tizimlarining raqamlashtirilishi. *O'zR Qishloq Xo'jaligi Jurnali*, 2021 №3, 44–49.

3. R.Shomurodov IoT texnologiyalari asosida ekin monitoringi. *Agroinnovatsiya va AKT*, 2022 №1, 31–37.
4. S.Karimov Python tilida agro monitoring tizimlarini ishlab chiqish. *Dasturlash asoslari*, 2020 №2, 12–18.
5. QGIS Documentation. *Open Source GIS for Agriculture 2024*. www.qgis.org

UDK 004.9:628.1

IOT YORDAMIDA SUVNI AQLLI BOSHQARISH: ASOSIY YECHIMLAR VA AFZALLIKLAR

Xaydarova Zarina Ruzimurodovna
Buxoro davlat texnika universiteti assistenti,
To‘xtayev Habibjon Nabijon o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Maqola IoT asosida suvni aqlli boshqarishning dolzarb muammolarini, texnologik yechimlarini va amaliy afzalliklarini tadqiq etadi. Suv tanqisligi va sifat muammolarini hal qilish uchun sensorlar, bulutli hisoblash va sun‘iy intellekt integratsiyasidan foydalanish tavsiflangan.*

***Kalit so‘zlar:** Aqlli suv boshqaruvi, IoT (Internet of Things), suv monitoringi, sensor texnologiyalari, aqlli sug‘orish tizimi, sifat nazorati, bulutli hisoblash texnologiyalari, AI (Sun‘iy intellekt).*

SMART WATER MANAGEMENT USING IOT: MAIN SOLUTIONS AND ADVANTAGES

Khaydarova Zarina Ruzimurodovna
assistant of Bukhara State Technical University, UZ
Tukhtaev Khabibjon Nabijon ugli
student of Bukhara State Technical University

Abstract. The article explores current challenges, technological solutions, and practical advantages of smart water management based on IoT. The use of sensors, cloud computing, and artificial intelligence integration to address water scarcity and quality issues is described.

Keywords: Smart water management, IoT (Internet of Things), water monitoring, sensor technologies, smart irrigation system, quality control, cloud computing technologies, AI (artificial intelligence).

Global raqamlashtirish davrida dunyoning ko‘plab mintaqalarida suv tanqisligi va sifati pastligi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolar mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish zarurati bilan birgalikda aqlli suv xo‘jaligi yechimlarini ishlab chiqish va joriy etishga undamoqda. Ushbu maqolada biz bunday yechimlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning zamonaviy dunyoda tutgan o‘rnini tushuntirib bermoqchimiz.

Suv xo‘jaligi konsepsiyasi suv sifatini nazorat qilish va suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Aqlli suv xo‘jaligi tizimi suv taqsimoti bilan bog‘liq real vaqt rejimida ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlash orqali qo‘yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradigan IoT, AI va katta ma‘lumotlar texnologiyalarining kombinatsiyasiga asoslangan. Aqlli suv xo‘jaligi tizimi odatda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, shahar infratuzilmasi va boshqalarni o‘z ichiga olgan turli sohalarda suv resurslaridan foydalanishni rivojlantirish, rejalashtirish va nazorat qilish kabi jarayonlar va faoliyatlarni qamrab olish uchun quriladi. Bunday yechimlar tufayli fermerlar, tadbirkorlar va kommunal xizmat ko‘rsatuvchi operatorlar nafaqat suvni taqsimlash usulini, balki uning sifatini ham o‘lchash, baholash va kuzatish imkoniyatiga ega. Natijada, bunday monitoring suv ifloslanishini o‘z vaqtida aniqlashga va suv isrofchiligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan texnik muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Suvni aqlli boshqarish ko'proq darajada IoT (Internet of Things) sohasidagi taraqqiyot tufayli mumkin bo'ldi. Suv monitoringi bir nechta datchiklar va mikrokontrollerlar yordamida amalga oshiriladi, jumladan, oqim, ultratovush, sho'rlanish, harorat, o'tkazuvchanlik, bosim, namlik va yorqinlik sensorlari. Bu asboblarnasos va quvurlarga suv sifati, suv taqsimoti, suvning ifloslanishi va boshqa muhim jihatlar haqida qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin bo'lgan turli parametrlarni o'lchash uchun o'rnatilishi kerak.

Sensorlar tomonidan to'plangan barcha ma'lumotlar va ular tomonidan yaratilgan har qanday xabar ogohlantirishlari keyinchalik Internet orqali bulutli serverga uzatiladi. Serverda ma'lumotlar qayta ishlanishi va tahlil qilinishi kerak. Bugungi kunda ishlab chiquvchilar ko'pincha to'plangan ma'lumotlardagi qonuniyatlarni aniqlay oladigan, me'yordan har qanday og'ishlarni aniqlay oladigan, shuningdek, aniq bashoratlar qila oladigan sun'iy intellekt vositalarini qo'llaydilar. Shundan so'ng qayta ishlangan ma'lumotlar tegishli organlar yoki kompaniyalar xodimlariga taqdim etiladi.

Smart suv boshqaruvi imtiyozlari. Suv xo'jaligida IoTdan foydalanish keng ko'lamli afzalliklar va yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Real vaqt rejimida suv iste'molini tahlil qilish. Sensorlar aniq ma'lumotlarni ushlab, foydalanuvchining asboblarni paneliga yuborishi mumkin. Ushbu ma'lumotlardan suv iste'molidagi qonuniyatlarni aniqlash va alohida hududlarda suvdan foydalanishni tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.

Masofadan kuzatish. IoT yechimlari yordamida suv xo'jaligi idoralari yuqori sifatli monitoringni amalga oshirishi va o'zlarining inson resurslaridan eng yaxshi tarzda foydalanishi mumkin.

Bashoratli texnik xizmat ko'rsatish. Suv ta'minoti zanjiridagi uzilishlar yoki texnik muammolar, masalan, quvurlarning uzilishi moliyaviy yo'qotishlarga va boshqa jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ammo aqlli suv tizimlari uskunaning texnik holatini ko'rsatadigan omillarni kuzatib borishi mumkin. Agar qonuniyatlarda og'ish bo'lsa, tegishli organlar va tashkilotlar xabarnoma oladi va muammoni o'z vaqtida hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Suv resurslaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi. Aqlli suv xo'jaligi tizimlari tufayli suvning qachon va qanday ishlatilishini kuzatish va uning sarfini nazorat qilish mumkin. Bu, ayniqsa, aqlli dehqonchilikda dolzarbdir.

Suvni hisobga olish uchun aqlli yechimlar

Smart suv hisoblagichlari real vaqt rejimida suv sarfini o'lchashga yordam beradi va bu ma'lumotni iste'molchilardan yetkazib beruvchilarga yuboradi. Bunday yechimlar nafaqat suvni boshqarishni osonlashtiradi, balki hisob-kitobning aniqligini ham oshiradi.

Daryo suvi sifatining monitoringi. Bu asboblarni, ayniqsa, ichimlik suvi manbai bo'lgan daryolarda suvning sifatini hisobga olish uchun mo'ljallangan. Aqlli sensorlar odatda suvning harorati, loyqaligi va ko'chmaligini o'lchaydi.

To'g'onni intellektual kuzatish. Bunday tizimlar to'g'onning barcha uchastkalaridagi suv sathini kuzatish uchun qo'llaniladi. Agar tizim me'yordan chetga chiqishni aniqlasa, avtomatik ravishda hokimiyatga ogohlantirish yuboriladi.

Aqlli sug'orish tizimlari. Ushbu yechimlar odatda qishloq xo'jaligida qo'llaniladi va aqlli fermerlik tizimlarining alohida elementi bo'lishi mumkin. Aqlli sug'orish tufayli fermerlar suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirishlari va ortiqcha foydalanishdan saqlanishlari mumkin. Datchiklar tuproqning namlik darajasini baholashi va olingan natijalar asosida sug'orish jadvalini o'zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, suvning sifati ham fermerlik faoliyati natijalari uchun muhim omil bo'lishi mumkin va uning monitoringi umumiy mahsuldorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Smart suv sizib chiqishi detektorlari. Ko'pincha, armatura bilan bog'liq muammolar va quvurlarning sizib chiqishi natijasida yuzaga keladigan suv yo'qotishlari uzoq vaqt davomida sezilmaydi. Oqibatda quvurlarga qo'shimcha shikast yetkazilib, suv ta'minotida uzilishlar kuzatiladi. IoT sensorlari tufayli bunday turdagi har qanday muammolarni o'z vaqtida aniqlash mumkin, bu esa yanada jiddiy oqibatlar ehtimolini bartaraf etishga yordam beradi.

Suv resurslarini boshqarish uchun aqlli yechimlar. Shahar hokimlari suv ta'minoti, jihozlar va suv iste'molini nazorat qilishlari kerak. IoT kabi texnologiyalar suv ta'minoti zanjirining ko'rinishi va shaffofligini oshirishi mumkin. IoT sensorlari real vaqt rejimida ma'lumotlarga va ilg'or tahlillarga kirish imkonini beradi, bu esa muhim qarorlar qabul qilish uchun mustahkam poydevor bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Gubbi, J. et al.** (2013). *Internet of Things (IoT): A Vision, Architectural Elements, and Future Directions* Future Generation Computer Systems, 29(7).
2. **O'zbekiston Respublikasi "Suv xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni** (2020). Toshkent: "Adolat" nashriyoti. *Milliy suv resurslari boshqaruvi me'yoriy hujjatlari*.
3. **World Meteorological Organization (WMO)** (2022) *Digital Transformation of Hydrometeorological Services* WMO-No. 1315.
4. **Ivanov, S. et al.** (2023). SMART WATER MANAGEMENT USING IOT AND AI: CASE STUDY OF ARID REGIONS IEEE Internet of Things Journal, 10(5).
5. **Abdullaev, R., & Karimov, B.** (2023). AQLLI SUG'ORISH TIZIMLARINING O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA SAMARADORLIGI O'zbekiston Agrotexnologiyalar Jurnali, 4(2), 45-59.
6. <https://www.cogniteq.com/blog/how-iot-powers-smart-water-management-key-solutions-and-benefits>

UO'K: 338.43

QISHLOQ XO'JALIGI RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI OPTIMALLASHTIRISH MODELI

Kojalepesov Sultanbay Serjanovich

sultanbay@umail.uz

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida, katta o'qituvchi, Nukus*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi yerlaridan optimal foydalanish, xarajatlarni minimallashtirish va daromadni maksimallashtirishning nazariy-uslubiy asoslari haqida masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Optimallashtirish, model, minimallashtirish, maksimallashtirish, daromad, yer resurslari, chorvachilik.

THE MODEL OPTIMIZATION OF USING RESOURCES OF AGRICULTURE

Kojalepesov Sultanbay Serjanovich

sultanbay@umail.uz

Nukus branch of Uzbekistan state institute of arts and culture, from the department "Social humanitarian discipline" senior lecturer, Nukus

Abstract: This article raises issues of the theoretical and methodological foundations of optimal use of agricultural land, cost minimization and profit maximization.

Keywords: Optimization, model, minimization, maximization, profit, land resources, livestock.

Qishloq xo'jaligida optimallashtirish masalalarini yechishda chiziqli dasturlash masalalaridan keng qo'llanilgan holda turli tadqiqotchilar tomonidan turli muammolarni yechishda foydalanilmoqda. Ammo ko'pchilik holatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda muhim omil hisoblangan yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish masalalari ko'proq uchrab turadi. Shuni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ya'ni yer resurslaridan qanday nisbatlarda foydalanilganida maksimal daromadga erishi mumkinligini aniqlash bo'yicha chiziqli dasturlash masalasining qo'yilishi qarab chiqiamiz.

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirishda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi, chunki tuproq tarkibiga qarab mahsulot yetishtirish unumdorligi hamda sarflanadigan xarajat miqdori o'zgaradi. Natijada ikki xil holat qarab chiqilishi mumkin ya'ni mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatni minimallashtirish yoki daromadni maksimallashtirish mumkin. Ushbu masalani qo'yilishini nazariy jihatdan ko'rib chiqamiz.

Modelning maqsad funksiyasi xarajatni minimallashtirishga qaratilgan:

$$f = \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} c_{ijk} x_{ijk} \rightarrow \min \quad (1)$$

Bu yerda: c_{ijk} - i hududdagi k maydonda j mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (shartli birlikda/kg); x_{ijk} - i hududning k maydonidan olingan j mahsulotning hajmi (tonna).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qator cheklovlar mavjud bo'lib, bular yer maydoni, har bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarishning minimal darajasi, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi, o'g'it miqdori, ruxsat etilgan ishlab chiqarish xarajatlari. Ushbu keltirib o'tilgan cheklovlarni quyidagi ko'rinishda berib o'tish mumkin:

$$\begin{aligned} \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} \frac{x_{ijk}}{y_{ijk}} &\leq S_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} x_{ijk} &\geq V_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} k_{ijk} x_{ijk} &\leq K_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} w_{mijk} x_{ijk} &\leq W_{mi} \\ \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} d_{ijk} x_{ijk} &\leq D \\ x_{ijk} &\geq 0 \end{aligned} \quad (2)$$

Bu yerda:

y_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinining hosildorligi (tonna/ga);

S_j - j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun mavjud ekin maydoni (ga);

V_j - j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirishning minimal hajmi (tonna);

k_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekin birligini yetishtirish uchun zarur mehnat sarfi (kishi soat/tonna);

K_j - j qishloq xo'jaligi ekinini ishlab chiqarish xarajatlarini cheklash (mln so'm);

w_{mijk} - m turdagi o'g'itning i hududda j ekin turi birligini yetishtirish uchun zarur miqdori (tonna/ga);

W_{mi} - m turdagi o'g'itning i hudud uchun ajratilgan limiti (tonnada);

d_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini olish uchun xarajat (mln. so'm/tonna);

D - ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan xarajat miqdori (mln.so'm).

Yuqorida keltirib o'tilgan chiziqli dasturlash masalasi qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish xarajatlarini minimallashtirishda keng qo'llaniladi. Biroq qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishga tabiiy va iqlim o'zgarishlari ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ularni ham hisobga olishni talab qiladi. Chunki, ushbu omillar yetishtiriladigan mahsulot hosildorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Buni hisobga olish maqsadida ularning ehtimoliy qiymatlaridan foydalanadigan bo'lsak, bunda mazkur muammoni optimallashtirish modeli sifatida quyidagi shaklda yozilgan chiziqli stoxastik dasturlar muammosidan foydalanish lozim bo'ladi:

$$f = \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} (c_{ijk} + c'_{ijk}) x_{ijk} \rightarrow \min$$

$$\begin{aligned}
& \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} \frac{x_{ijk}}{(y_{ijk} - y_{ijk}^p)} \leq S_j \\
& \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} x_{ijk} \geq V_j - V_j^p \\
& \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} (k_{ijk} + k_{ijk}^p) x_{ijk} \leq K_j \\
& \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} (w_{mijk} + w_{mijk}^p) x_{ijk} \leq W_{mi} \\
& \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} (d_{ijk} + d_{ijk}^p) x_{ijk} \leq D \\
& x_{ijk} \geq 0
\end{aligned} \tag{3}$$

Ushbu modelda:

c'_{ijk} - tabiiy va iqlim o'zgarishlari sababli hosilning yo'qotilishi natijasida vujudga kelgan qo'shimcha xarajat;

y_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinining hosildorligini pasayish ko'rsatkichi;

V_j^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida j qishloq xo'jaligi ekinini ishlab chiqarishni yo'qotish;


k_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirishda qo'shimcha texnologik operatsiyalarni bajarish uchun zarur mehat resurslari;

w_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalariga qo'shimcha xarajatlar;

d_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari.

Keltirib o'tilgan ko'rinishdagi optimallashtirish modellari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Chunki, optimallashtirish modellari murakkab jarayonlarni tushunish va ularning samarli yechimini izlab topish uchun eng kuchli vositalardan hisoblanadi. Shunday bo'lsada, real vaziyatlarda muammolarni hal qilish uchun mos modelni shakllantirish, to'g'ri cheklovlarni tanlab olish bilan bog'liq muammolar ushbu usuldan foydalanishni murakkablashtiradi.

Optimallashtirish masalasini to'g'ri shakllantirish va zaruriy yechimga ega bo'lishi uchun avvalo maqsad funksiyasini aniqlashtirish talab qilinadi. Undan keyin esa har bir o'zgaruvchi bo'yicha cheklovlar miqdorini aniqlash, har bir o'zgaruvchining ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan omillar me'yorlarini to'g'ri tanlash talab qilinadi. Bunda o'zgaruvchilar modeldagi boshqariladigan holatlarni ifodalasa, maqsad funksiyasi esa qaror qabul qiluvchining maqsadini o'zgaruvchilar funksiyasi sifatida o'lchaydi. Cheklovlarning asosiy vazifasi noma'lum bo'lgan o'zgaruvchilarning maksimal chegarasini matematik ifodasi sifatida qaraladi.



1-rasm. Chorvachilikda oziqlantirish muammosi: chiziqli dasturlash modeli va energiyaning sarflanishi.

Ushbu optimallashtirish masalasini chorvachilik sohasiga qo'llash masalalariga to'xtalib o'tamiz. Chorvachilikda chiziqli dasturlashdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin, ya'ni mavjud yer maydonidan foydalangan holda maksimal daromad olish imkonini beradigan chorva tarkibini tanlash, chorvani oziqlantirish jarayonida xarajatlarni minimallashtirish kabilar shular jumlasidandir. Chorvani oziqlantirishda yuqori sifatga ega va eng kam xarajat sarflanadigan ratsionni tanlash masalasi ko'p qo'llanilgan optimallashtirish masalasidir. Chorvani minimal xarajat bilan oziqlantirish muammosining shakllantirilishini ko'rib chiqamiz (1-rasm).

Dastlab oziqlantirish muammosi bilan bog'liq qator ko'rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Ya'ni xom ashyo miqdori hamda zaruriy ehtiyoj hajmi aniqlanishi va ularning mosligini ta'minlanishi talab qilinadi. Bunda fermer xo'jaligining asosiy maqsadi mavjud ehtiyojni qondirish uchun sarflanishi lozim bo'lgan xarajatni minimallashtirish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki aniqlangan miqdorlardan kelib chiqqan holda chiziqli dasturlash amalga oshiriladi, ya'ni ratsionni shakllantirishda foydalaniladigan xom ashyolar o'zgaruvchilar sifatida tanlab olinadi. Ozuqaviy ehtiyoj esa optimallashtirish masalasini yechishda cheklov vazifasini bajarib bersa, fermerning maqsadi optimallashtirishdagi maqsad funksiyasining asosini tashkil qiladi. Ushbu muammoning yechimi optimal hisoblanadi va eng kam xarajat bilan chorvani zaruriy ozuqa va energiya bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zhang C., Li X., Guo P and Huo Z 2021 Balancing irrigation planning and risk preference for sustainable irrigated agriculture: A fuzzy credibility-based optimization model with the Hurwicz criterion under uncertainty (Agricultural Water Management vol 2541); Ivanyo Y., Petrova S. and Polkovskaya M. 2020 Mathematical and information support of the program complex for planning of the harvesting of wild-growing products (Journal of Physics: Conference Series vol 1611(1))

2. Segura Marina & Maroto, Concepción & Ginestar, Concepción & García del Río, Baldomero. (2018). Optimization Models to Improve Estimations and Reduce Nitrogen Excretion from Livestock Production. Sustainability. 10. 2362. 10.3390/su10072362.

3. Freund JE (1994). Mathematical Statistics. Seventh edn. Prentice-Hall of India, Pte. Ltd., New Delhi.

4. Sauxanov J.K, Gabbarov S.N., “Chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanishni takomillashtirish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani misolida”, ISBN 978-9910-03-044-4, Monografiya, Metodist Nshriyoti, 2023-y.

UO‘K 665.6/.7:547.963.3

**SOPOLIMER SINTEZIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARNI EKSPERIMENTAL VA
MATEMATIK TAHLILI**

**I.Ya. Sapashov t.f.f.d., (PhD), Shamuradov J.R. magistrant, M.U.Nurpeysov
magistrant, G. Jumabayeva talaba.**

sapashov85@mail.ru

Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada polipropilen va metilakrilat asosida sintez qilingan sopolimerlarning hosil bo‘lish unumiga harorat va initsiator konsentratsiyasining ta‘siri o‘rganilgan. Eksperimental dizayn (2^2 to‘liq faktorial reja) asosida tajribalar o‘tkazilib, kvadratik regressiya modeli qurildi. Statistik tahlil natijalari modelning adekvat va ishonchli ekanligini ko‘rsatdi ($R^2 > 0.97$). Harorat va initsiator miqdori oshgan sari sopolimer sintezi samaradorligi oshishi kuzatildi. Ushbu natijalar yangi funktsional prisadkalarni sanoatga joriy qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sopolimer, polipropilen, metilakrilat, initsiator, harorat, faktorial reja, regressiya modeli, depressor prisadka, dizel yoqilg‘isi, 3D grafik.

Zamonaviy neft va gazni qayta ishlash sanoatida yoqilg‘ilarning ekspluatatsion xossalarini yaxshilovchi funktsional qo‘shimchalarga, xususan, depressor prisadkalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, quyi haroratlarda dizel yoqilg‘isining oquvchanligini ta‘miynlash uchun polimer asosidagi sopolimer prisadkalar samarali vosita sifatida qo‘llanmoqda. Ularning tarkibiy strukturasi va sintez sharoitlarini chuqur o‘rganish, texnologik jarayonni optimallashtirish orqali neft mahsulotlari sifatini oshirish mumkin bo‘ladi [1-3].

Polipropilen (PP) va metilakrilat (MA) asosidagi sopolimerlar strukturaviy moslashuvchanligi va nisbatan arzon xom ashyolar asosida olinishi tufayli xalqaro tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda [4,5]. Xususan, MA tarkibida mavjud bo‘lgan efir guruhlari PP zanjiriga funktsional xususiyatlar berib, hosil bo‘lgan sopolimerlarning suyuq fazadagi parafin kristallanishiga ta‘sirini oshiradi [6].

Evropa va Osiyo tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ishlar shuni ko‘rsatadiki, sopolimer sintezi natijadorligi initsiator konsentratsiyasi, harorat, reaksiya vaqt, va monomerlarning molyar nisbati kabi omillarga sezilarli darajada bog‘liqdir [7-10]. Masalan, Zhang va hammualliflarining ishlarida [10] azoinitsiatorlarning konsentratsiyasi oshirilganda MA asosidagi sopolimerning molekulyar massasi kamaygan, biroq konversiya darajasi ortgan. Shunga o‘xshash natijalar rus olimlari I.S. Borisov va A.V. Timoshenko tomonidan ham kuzatilgan bo‘lib, ular haroratning 80–90 °C oralig‘ida maksimal samaradorlikni aniqlaganlar [11].

Eksperimental dizayn (DOE-Design of Experiments) yondashuvi, xususan 2^2 to‘liq faktorial reja yordamida, sintez jarayonini o‘zgaruvchi parametrlar ta‘sirida modellashtirish imkonini beradi. Bunday modelga asoslangan statistik tahlillar yordamida eng muhim omillar ajratib olinadi va ularning o‘zaro ta‘siri aniqlanadi [12,13]. Regressiya tahlillari polimerizatsiya jarayonida optimal sharoitlarni aniqlashda va yangi prisadkalarni amaliyotga joriy qilishda muhim ahamiyatga ega [14].

Qiyqimlardan qiziqarli va tejamkor bezaklar olish uchun charm va baxmalsimon charm tayyorlashda, tarqatish, yoyish, gazlamaga tikilgan chiziqli mo'ynali tasma, aylantiruvchi texnologiya, mozaika kabi murakkab bichishning turli texnologiyalari qo'llaniladi. Oddiy bichish usuli bilan tayyorlangan buyumlarga qaraganda murakkab bichish usulini qo'llab tayyorlangan buyumlar o'zining tashqi ko'rinishi bilan alohida ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda murakkab bichish usullar choklar sonini oshirishga olib keladi bu esa jun qoplami tomonidan ko'rinish qolishiga olib keladi, shu sababli murakkab usul bilan qirqishda past junli, terilar bichilmaydi [8-12].

Faqatgina shakllarni yaratish usullaridan foydalanish uzoq muddatli natijalarni bermaydi, chunki ekspluatatsiya jarayonida doimiy ravishda deformatsiyalash harakatlari paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida mahsulot shaklini yo'qolishiga olib keladi. Shu sababli kiyim tayyorlashda qo'shimcha shakllarni joylashtirishni turli xil usullari qo'llaniladi. Bunda ishlab chiqarishda qo'shimcha ravishda shaklni tuzatishning turli usullaridan foydalaniladi. Turli xil materiallar uchun yaratish usullari va shakllarni mustahkamlash turlicha bo'lib, ularni xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Mexanik usul jumladan, mo'ynaning teri to'qimasi xossalarining qayishqoq plastik xususiyatlarini unga qo'yilgan og'irlik yuki natijasida teri to'qimasi strukturalarini murakkab o'zgarishga olib kelishi bilan xarakterlanadi. Chunki, teri to'qimasi tolali to'qima material bo'lib, uning deformatsiyalanish harakati struktura elementlarining qaysiki o'z navbatida materialning struktura xususiyatiga bog'liq bo'lib, bir – biriga nisbatan harakatchanligi bilan aniqlanadi.

Teri to'qimasi deformatsiyasi asosiy qonuniyatlarini, uning strukturasi xususiyatlarini tushunmay turib hamda va teri to'qimasi strukturasi ishlov berish jarayonlarida uni shakllanish yo'llarini hisobga olmay o'rganib bo'lmaydi.

Ma'lumki, teri organizmni qoplab turuvchi, xilma-xil strukturalaridan biri bo'lib, yashash sharoiti va muhiti uning tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Teri to'qimasi strukturasi shuningdek hayvonning jinsi va yoshi kabi omillar bilan ham farq qiladi. Mo'yna teri to'qimasi strukturasi shakllanishiga ishlov berish jarayonlari muhim ta'sir ko'rsatadi. Texnologik jarayonlarning alohida jarayonlari va operatsiyalari mo'yna yarim mahsulotiga ishlov berishda aniq maqsad va vazifalarni bajaradi.

Ishlov berish jarayoni - teri to'qimasi strukturasi va hajmiy shakllanishida uning qayishqoq plastik va mustahkam xossalari belgilaydi. Texnologik jarayonlarning maqbul parametrlarini tanlash, mo'yna yarim mahsulotining sifatiga bog'liq bo'lib, uning hajm jihatdan shakllanishiga olib keladi.

Aytish mumkinki, hajmli shakl elementlarining mustahkamligi ipli biriktirish va bichish usullaridan foydalangan holda olinishi shakllantirilganga nisbatan yuqori bo'ladi, ammo yuqorida keltirganidek, yarim tayyor mahsulotning yaxlitligini buzish zaruriyati ular istiqbollari pasaytiradi. Bundan tashqari ipli biriktirish va bichish usullarida ishlab chiqarilgan bezaklar buyumning mehnat sarfini oshiradi. Shu sababli hajmli bezak elementlarini tayyorlash usullarini ishlab chiqishda elementlarni hajmli shakllari mustahkamligiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Темирова, Г. И. (2020). Перспективы развития способов нанесения и укрепления декоративных элементов из натурального меха. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 1(2), 52-58.

2. Temirova, G. (2019). The importance of preparing a natural fur coat. *eurasian journal of science and technology*, 1(2).

3. Gi, T. (2021). Mathematical Modeling of the Stress-Deformed State of a Fur Package With a Constant Cross Section Under the Action of a Heat Field and External Forces. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(04).

4. Ташпулатов, С. Ш., Темирова, Г. И., Черунова, И. В., Расулмухамедова, Б. А., & Азимова, М. Н. (2021). Разработка способа изготовления меховых изделий на основе ресурсосбережения. *Universum: технические науки*, (11-3 (92)), 55-59.

5. Kodirova, D. X., Mamatova, D., & Temirova, G. I. (2019). Specifications for working on detailsof heat exchanged natural fur. *Вестник магистратуры*, (4-3 (91)), 35-36.

6. Темирова, Г. И. (2020). Повышение эффективности использования коллагенсодержащих материалов при производстве качественных и ресурсосберегающих меховых изделий. In *Всероссийская конференция молодых исследователей с международным участием «Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации»(Социальный инженер-2020)* (pp. 152-158).

7. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. *Вопросы науки и образования*, (2 (3)), 37-39.

8. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). Production technology from natural power on the full-termological technology. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 44-48).

9. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). An analysis of art decoration used in sewing items. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 41-44).

10. Темирова, Г. И., et al. "Перспективные направления использования коллагенсодержащих материалов при изготовлении изделий различного ассортимента." *Научно-технический журнал Наманганского инженерно-технологического института* 1 (2020): 63-67.

11. Темирова Г.И., Субхонова И.И., Кудратов Ш. 2022. Способы использования материалов на основе коллагена в производстве меховых изделий. *Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy* . 10, 1 (январь 2022 г.), 426–430.

12. Ибодовна, Темирова Г. «Ресурсосбережные способы соединения натурального меха с основной деталью». ЖУРНАЛ NX , том. 6, нет. 05, 2020, стр. 45-47.

UO'K: 687

INNOVATION TECHNOLOGIYA ASOSIDA KIYIM TAYYORLASH USULLARI

Ergasheva Zarina 306-22 Dizayn (I va g)
Ishankulova Malika 306-22 Dizayn (I va g)
Temirova Gulnoz Ibodovna
Buxoro davlat texnika universiteti.
Email: gulnoz.temirova.72@mail.ru

***Аннотация.** Существует множество проблем в производстве современной одежды, отвечающей массовым потребностям. В данном случае, возможно, проблемы вытекают из практичности моды и ее устойчивых аспектов. Мода должна быть интересной, а не быстроменяющейся, фундаментальной. Необходимо понимать, в чем заключается субъективизм и объективизм моды, влияние темпа жизни, научно-технической революции на моду. Мода и промышленность развиваются по общим законам: по мере усложнения моды усложняется и технология конструирования изделия. Человек стремится отразить в костюме свою индивидуальность, свою фигуру. Поэтому при массовом производстве одежды требования к гармоничной фигуре стандартного изделия и стремление потребителя к индивидуальности вызывают ряд трудностей.*

***Ключевые слова:** отход, натуральная кожа, украшение, лоскут, лекала, мода, конструкция, технология.*

METHODS OF CLOTHING PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGY

Ergasheva Zarina 306-22 Design (I and g)
Ishankulova Malika 306-22 Design (I and g)
Temirova Gulnoz Ibodovna
Bukhara State Technical University.

***Abstract.** There are many problems in the production of modern clothing that meets mass needs. In this case, perhaps, the problems stem from the practicality of fashion and its sustainable aspects. Fashion should be interesting, not fast-changing, fundamental. It is necessary to understand what is the subjectivity and objectivity of fashion, the influence of the pace of life, the scientific and technological revolution on fashion. Fashion and industry develop according to general laws: as fashion becomes more complex, so does the technology of designing a product. A person strives to reflect his individuality, his figure in a suit. Therefore, in the mass production of clothing, the requirements for a harmonious figure of a standard product and the consumer's desire for individuality cause a number of difficulties.*

***Keywords:** waste, genuine leather, decoration, patch, patterns, fashion, design, technology.*

Ma'lumki ayollar kiyimlari xilma-xil bo'lib, ular ko'rinishi va texnologiyasi jihatdan bir-biri bilan farq qiladi. Bu kiyimlar andazasining shakllari, ranglarining jilosi, matolarning guli va fakturalari, shuningdek, astar matolarining rang barangligi insonni hayratga solib kelmoqda. XIX asr boshlarida Yevropada ilk bor zamonaviylikni eslatuvchi ayollar issiq kiyimlari paydo bo'ldi.

Ilm-fanning rivojlanishi mo'yna sanoatining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Xalqning moddiy va ma'naviy o'sishi uning yuqori sifatli tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabining o'sishiga olib keladi. Bu esa mo'yna sanoatining rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatadi. Yangi materiallarni, asbob-uskunalarni, uzluksiz texnologik jarayonlarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish, xom-

ashyo va materiallardan unumli foydalangan holda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, pardozlash jarayonini takomillashtirish, progressiv texnologiyalarni qo'llash bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan [1].

Qorako'lchilik mamlakatimiz xalq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib, Respublikamiz iqtisodiyotida u katta o'rin egallaydi. Ixtisoslashtirilgan yirik fermerlik xo'jaliklari tashkil etilganligi tufayli qorako'l qo'ylar tuyog'i to'xtovsiz o'sib bormokda. Qorako'l qo'ylar terisi o'lchami katta (1100 - 1600 sm²) vazni yengil (250 – 370 g), mezdrasi yumshoq va pishiqligi (0,6 - 0,8 mm), terisining guli chiroyli, mo'yi nihoyatda yumshoq va ipaksimon, rang va tushlarga boyligi, har xil rangdorligi bilan ajralib turadi [4].

Bichish vaqtida hosil bo'lgan mo'yna qiyqimlari o'ziga tegishli bo'lgan guruhlariga yana alohida g'aramlanadi. G'aramlash davomida mo'yna qiyqimlarini tuzilishi, tashqi ko'rinishini e'tiborga olinmasa ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati buzilib, uning xaridorligi pasayadi.

Qiyqimlarni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular g'aramlanadi, biriktiriladi, bichiladi va kiyim tayyorlanadi.

Spenser – bu, jun, paxta tolali mato, atlas, baxmaldan tayyorlangan jaket tipidagi ustki kiyim turi hisoblanadi. 1820 yilda ustki kiyimning yana bir turi paydo bo'lgan - pardessu (yengli) deb nomlangan. Qish mavsumida shaharlik ayollar erkaklarning redington yoki dul'eta tipidagi shubalari, shuningdek, old qismi bir-biriga o'tib turadigan tasmali kalta shubalar – rus shubalarini kiyishgan. Shubalarni sukno, ipak, baxmal bilan qoplashgan.

XX asr boshlarida Angliyadan kirib kelgan frantsuzcha moda oqimi ta'sirida praktitsizm yo'nalishi orasida kurash olib borilib, ushbu jarayon ayollar kiyimini salmoqli darajada o'zgarishiga olib keldi va birinchi jahon urushi yillarida konstruktiv shakllarning soddalashtirilishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy ayollar ustki kiyimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: pal'to, shubalar, kaltapal'to, kurtkalar, plashlar, kapalar, pelerinalar, kostyum va jaketlar.

Ustki kiyimlar asosan – inson tanasini issiq va sovuqdan, shamol, chang to'zon, ob-havoning turli ta'sirlaridan himoya qilishi uchun mo'ljallangan. Shuning uchun ustki kiyim ko'p qavatli qilib tayyorlanadi, jumladan, turli xildagi isituvchi, shamoldan himoya qiluvchi, yupqa zich to'qilgan va karkassimon astar va avralardan, shuningdek, iqlim sharoiti va yil fasllarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Pal'to – bu chuqur zapaxli yoki old tomondan etakka qadar tugmachali, uzun yengli kiyim turidir. Bu kiyim turi yil fasllariga qarab tayinlanib, qishki va mavsumiy-ya'ni bahor va kuzgi turlarga bo'linadi.

Shubalar ham qishki pal'tolar kabi qishki mavsumga mo'ljallangan kiyim turidir. Shubalarda ustki mato yoki astar sifatida tabiiy va sun'iy mo'ynalar xizmat qiladi.

Mo'ynali mahsulotlar tayyorlanish texnologiyasi va murakkab shakliga ko'ra, zargarlik mahsulotlar bilan solishtirganda mavqei va narxi bo'yicha qimmatbaho mahsulotlar sirasiga kirib, shu o'rinda andazasi, mo'ynaning yetarli darajada bo'yalganligi, shuningdek, mo'ynani turli matolar bilan ya'ni: trikotaj, mato, charmlarning uyg'unligi asosida ular murakkab deb xarakterlanadi. Mo'ynali matolarni konstruksiyalashda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi, ya'ni charmli matolarning qalinligi va yumshoqligi, terining o'lchovi, og'irligi, tukli qoplarning balandligi kabilar.

Qorako'l mo'ynalaridan tayyorlangan kiyimlar ayni paytda juda xaridorgir bo'lib bormoqda sababi sun'iy mo'ynadan tayyorlangan kiyimlar odam organizmida turli xildagi allergik kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Qorako'l mo'ynalarining jun tuzilishi va fizik-mexanik xususiyatlari turlicha bo'lib, ulardan keng assortimentdagi kiyimlarni tayyorlashga imkon beradi. Uzun junli qorako'l mo'ynalaridan aksariyat holatlarda hajmdor kiyimlar yaratiladi.

Hajmdor shakllar o'z navbatida kiyimlarni tashqi ko'rinishini hajmli qilib, odam gavdasini ham hajmli qilib ko'rsatadi [1].

Dizaynerlar mo'ynani ishlatish usullaridan unumli foydalanib, mo'ynali kiyimlarning ko'pgina yangi modellarini taklif etmoqdalar. Qorako'l mo'ynasidan tayyorlangan kiyimlar podyumlarda o'zining o'rni bilan ajralib turadi. Hozirgi paytda qorako'l mo'ynasidan tayyorlangan kiyimlarni deyarli barcha mavsumlarda kiyish mumkin. Yangi modelli pal'tolarda mo'yna bilan bir

qatorda to'qimachilik mahsulotlari hamda charmdan keng foydalanilmoqda. Bunday kiyimlar barcha ayollarga to'g'ri kelishi bilan birga, u kundalik kiyiladigan kiyimga aylanib ulgurgan [2].

Ommabop ehtiyojni qondiradigan zamonaviy kiyimlarni ishlab chiqarishda ko'p muammolar mavjud. Bu holda ehtimol muammolar modani amaliyotchiligi va uni stabil tomonlaridan kelib chiqadi. Moda qiziqarli, tez o'zgarmaydigan, fundamentalni taqdim etishi kerak. Modaning sub'ektivizm va ob'ektivizmi nimadan iboratligini, modadaga hayot sur'ati, ilmiy-texnikaviy inqilob ta'sirini tushunish zarur. Moda va sanoat umumiy qonunlar bo'yicha rivojlanadi: moda murakkablashsa, buyumning loyihalash texnologiyasi murakkablashadi. Inson kostyumda o'z individualligini va o'z siymosini aks ettirishga intiladi. Shuning uchun liboslar ommabop ishlab chiqarilganda standart buyumni uyg'un siymoligini va iste'molchini individuallikka intilishini qondirish talablari bir qator qiyinchiliklarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi [3].

Qorako'l terilaridan buyumlar tayyorlash uchun ishlov berilgan terilar navlarga ajratilib olinadi. Navlarga ajratish jarayonida terilar jun qoplaminig asosiy sifat ko'rsatkichlariga asoslaniladi. Masalan: rangi, guli, tovlanishi, balandligi, quyuqligi, mayinligi, qayishqoqligi, elastikligi, naqshi, ko'rinishi, momiqligi, dag'alligi, bosiluvchanligi v.h.

Navlash jarayonida uning geometrik xususiyatlari: qalingligi, uzunligi hamda eni inobatga olinadi [4-5]. Yig'ilgan to'dalardagi mo'yna qiyqimlari ma'lum shakl va o'lchamga keltirilib, birlashtiriladi. Bunda mayda teri bo'laklari bir-biriga gullariga qarab, maxsus tikuv mashinalaridan bichishga mos qilgan holda kattalashtirilib (plastina holatida) tikilib olinadi. Tikilgan katta polotnolar ho'llanib maxsus tayyorlangan taxtakachlarga tortilib quritiladi. Quritish jarayonining ahamiyati shundaki, bunda mo'yna terilarni hajmi yanada kattalashib, ularni birlashtirilgan choklar tekis bo'lib qoladi. O'ng tomondan qaraganda go'yoki choksiz yaxlit polotnoga o'xshaydi. Taxtakachdan yechib olingan polotno ustiga kiyim andazasini joylashtirib atrofi bo'rlanadi va bo'rlangan yuzalarni maxsus pichoqlar yordamida kesib olinadi.

Kesish jarayonida bir nechta qiyqimlar hosil bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Turli xildagi mo'ynalardan hosil bo'lgan qiyqimlar to'dasi.

Kesish jarayonida bo'rlangan andaza yuzasi chekkalarida hosil bo'lgan qiyqimlar.

Bu qiyqimlardan foydalanmaslik birinchidan qiyqimlarni tashlab yuborish natijasida atrof-muhitni ifloslanishiga olib kelsa, ikkinchidan esa tabiiy mo'ynaning qimmatbaholigini inobatga olmaslik. Ulardan unumli foydalanish uchun bir qator jarayonlar amalga oshirish orqali erishilib, yangidan buyumlar tayyorlaniladi. Tabiiy mo'yna mahsuloti tannarxini 90 foizini ularni tikishga sarf bo'lgan material qiymati tashkil qiladi. Shuning uchun mahsulot tannarxini kamaytirishni, ishlab-chiqarish rentabelligini oshirishning eng samarali yo'li-mahsulot sifatini yomonlashtirmay turib chiqindilarni kamaytirish, rezervlarni topish va materiallarni tejashdir [5-7].

Aholi uchun mahsulot ishlab chiqarish ilmiy-texnika taraqqiyotidan foydalanishga asoslangan bo'lib, ular nafaqat mahsulot sifatlarini yangi darajaga ko'tarish, balki ular assortimentini kengaytirishga ham imkon beradi [8-9].

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o'zgarishlar amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom-ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyati kengayayotganligi ishlab chiqarishning har bir sohasi oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Xalqimizni yuqori sifatli, chiroyli kiyimlar bilan ta'minlash bu soha xodimlaridan katta bilim va mahorat talab qiladi.

Mo'yna sanoati oldida turgan muammolarning yechilishi ishlab chiqarishning unumdorligini oshiradi va shu bilan bir qatorda atrof muhitga yetkaziladigan salbiy ta'sir muammolari o'z yechimini topadi [10-12].

Bundan tashqari tabiiy mo'ynadan ishlab chiqariladigan kiyim kechaklarni badiiy bezashni loyihalashni to'g'ri tashkil etish muhim rol o'ynaydi. To'g'ri loyihalashtirilgan texnologiya mahsulotlarning kelgusi hayotini aniqlaydi. Chunki kiyim insonning ijtimoiy hayotida eng zaruriy ehtiyoji hisoblanadi. Kiyimni modellashtirish va badiiy bezash tikuvchilik sanoatining eng muhim va shu bilan birga murakkab bosqichi hisoblanab, mukammal kiyimgina go'zal, ijtimoiy yo'naltirilgan buyumlar tayyorlashga imkon beradi. Buyumlarni ishlab chiqarishdan asosiy maqsadi – aholini moddiy va ma'naviy talablarini qondirish va mukammallikka erishishdir.

Chiqindisiz texnologiya asosida yaratilgan mahsulotlar o'zining gigienik xususiyatlari bilan sun'iy mahsulotlardan farq qilib, insonlarning bunday mahsulotga bo'lgan talabini to'la qondira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Темирова, Г. И. (2020). Перспективы развития способов нанесения и укрепления декоративных элементов из натурального меха. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 1(2), 52-58.
2. Temirova, G. (2019). The importance of preparing a natural fur coat. *eurasian journal of science and technology*, 1(2).
3. Gi, T. (2021). Mathematical Modeling of the Stress-Deformed State of a Fur Package With a Constant Cross Section Under the Action of a Heat Field and External Forces. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(04).
4. Ташпулатов, С. Ш., Темирова, Г. И., Черунова, И. В., Расулмухамедова, Б. А., & Азимова, М. Н. (2021). Разработка способа изготовления меховых изделий на основе ресурсосбережения. *Universum: технические науки*, (11-3 (92)), 55-59.
5. Kodirova, D. X., Mamatova, D., & Temirova, G. I. (2019). Specifications for working on detailsof heat exchanged natural fur. *Вестник магистратуры*, (4-3 (91)), 35-36.
6. Темирова, Г. И. (2020). Повышение эффективности использования коллагенсодержащих материалов при производстве качественных и ресурсосберегающих меховых изделий. In *Всероссийская конференция молодых исследователей с международным участием «Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации» (Социальный инженер-2020)* (pp. 152-158).
7. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. *Вопросы науки и образования*, (2 (3)), 37-39.
8. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). Production technology from natural power on the full-termological technology. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 44-48).
9. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). An analysis of art decoration used in sewing items. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 41-44).
10. Темирова, Г. И., et al. "Перспективные направления использования коллагенсодержащих материалов при изготовлении изделий различного ассортимента." *Научно-технический журнал Наманганского инженерно-технологического института* 1 (2020): 63-67.

11. Темирова Г.И., Субхонова И.И., Кудратов Ш. 2022. Способы использования материалов на основе коллагена в производстве меховых изделий. *Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy* . 10, 1 (январь 2022 г.), 426–430.

12. Ибодовна, Темирова Г. «Ресурсосбережные способы соединения натурального меха с основной деталью». *ЖУРНАЛ NX* , том. 6, нет. 05, 2020, стр. 45-47.

UDK-633.511+527.5

**SOYA O‘SIMLIGI NAVLARINING DUKKAKLASH DAVRIDA BARGLARDA
XLORAFIL VA KORATINOIDLAR MIQDORI TAXLILI**

G‘ulomidinov Azamatjon Sherzodbek o‘g‘li

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

azamatjongulomidinov@gmail.com,

Jaynaqov Mirzoxid Sharabutdinovich

Andijon davlat universiteti dotsenti

mirzohidjaynaqov@gmail.com

Dadabekov Abdumutal G‘ofirjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada soya o‘simligining Andijon sharoitida dukkaklash davridagi mahalliy Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To‘maris, Gavhar va xorijiy Slaviya, Vilana, Seleкта-302 navlarining xlorofil pigmenti va karotinoid miqdori taxlil qilindi.*

Kalit so‘zlar. *soya, nav, dukkaklash, xlorofil, karotinoid.*

Аннотация. *В данной статье анализировано количество пигментов хлорофилла и каротиноида в период образования стручков в местных сортах сои Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To‘maris, Gavhar и в зарубежных сортах Slaviya, Vilana Seleкта-302 в условиях Андижанской области.*

Ключевые слова. *соя, сорт, период образования стручков, хлорофилл, каротиноид.*

**ANALYSIS OF THE CONTENT OF CHLOROPHYLES AND CARATINOIDS IN
THE LEAVES DURING THE BEANING PERIOD OF SOYBEAN PLANT VARIETIES**

Gulomidinov Azamatjon Sherzodbek ugli

independent researcher of Andijan State University

azamatjongulomidinov@gmail.com,

Zhaynakov Mirzokhid Sharabutdinovich

Associate Professor of Andijan State University

mirzohidjaynaqov@gmail.com

Dadabekov Abdumutal Gofirjon ugli

Master's student of Andijan State University.

Annotation. *This article analyzes the amount of chlorophyll and carotenoid pigments during the formation of pods in local soybean varieties Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To‘maris, Gavhar and in foreign varieties Slaviya, Vilana Seleкта- 302 in the conditions of the Andijan region.*

Key words. *soybean, variety, period of pod formation, chlorophyll, carotenoid.*

Xlorofil barcha fotosintetik organizmlar tomonidan yorug‘lik energiyasini o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan asosiy pigment va turli yorug‘lik spektrlari bo‘lgan muhitlarga moslashishda muhim rol o‘ynaydi [8; 24 p]. Xlorofilni o‘simliklardan ajratib olish va uni nomlashni fransuz olimlari Jozef Bienaime Kaventu va Per-Jozef Pelletier tomonidan 1817-yilda amalga oshirilgan. Xlorofil uglerod va azot atomlaridan va markaziy holatda magniy ionidan iborat [2; 269-270-p]. Xlorofilarning spektral xossalari yorug‘lik energiyasini yig‘ishda va fotosintez uchun so‘rilgan yorug‘lik energiyasini o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa o‘simliklar singari soya

o'simligida ham barg rangining o'zgarishi, shuningdek fotosintez faolligi xlorofill konsentratsiyasiga bog'liq [3; 3293-3298-p].

Tadqiqot ob'yekti va metodi. Tadqiqot uchun soyaning mahalliy navlari Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To'maris, Gavhar navlari, Slaviya, Vilana, Selekt - 302, kabi xorij navlari tanlab olindi. Ushbu navlar 2023-yilda Andijon viloyati Asaka tumani "Qora tepa zar tuprog'i" fermer xo'jaligi ekin maydonlarida yetishtirildi.

O'simlik bargidagi xlorofil va karotinoid miqdorini o'rganish uchun har bir o'simlikning dukkaklash fazalarida barglardan namunalar tanlab olindi. Olingan barg namunalari maydalanib 50 mg dan maxsus belgilab olingan probirkalarga solindi. Unga 5 ml 96% li etil spirtidan quyilib ekstrat tayorlanib olindi shisha tayoqcha yordamida ekstrat aralashtirib olindi va muzlatgichda 120 daqiqaga qo'yildi so'ngra probirkalardagi ekstrat kyuvetaga quyilib spektrofotometr qurilmasi yordamida o'lchandi [1; 36-38-c].

O'simlik bargi tarkibidagi xlorofill "a", xlorofill "b" va karotinoidlar miqdori spektrofotometr yordamida (xlorofill-"a" 664, xlorofill-"b" 649, karotinoid 470) nur to'lqin uzunligida hisoblandi [1; 36-38-c].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Xlorofill "a" yorug'lik energiyasini kimyoviy energiyaga aylantiruvchi universal pigment hisoblanadi [4;1-3-p]. Zamonaviy tushunchalarga ko'ra xlorofill "a" fototizimlarning reaksiya markazlarida ham, yorug'lik yig'ish kompleksida ham mavjud [9; 789-c]. L. Mawarni va boshqalarning fikriga ko'ra, xlorofill "a" pigmenti xlorofill "b" tomonidan energiya to'plash va uni xlorofill "a" ga uzatish vazifasi bajarilganda asosiy fotosintetik pigment xisoblanadi [6; 615-620-p]. Karotinoidlar ortiqcha nurlanishdan kelib chiqadigan stressni yumshatish mexanizmi sifatida ham juda muhimdir [5; 559-566-p]. I.Demirning [7; 859-p] ta'kidlashicha, barg karotinoidlari reaktiv kislorod turlarini tozalashda, xlorofilning xavfli triplet holatini o'chirish va ortiqcha yorug'lik energiyasini issiqlik bilan yo'qotishda ishtirok etish kabi muhim fotoprotektiv vazifalarni bajaradi. Yu.V. Svetkova va boshqalarning tajribalarida xlorofill miqdorining yuqori ko'rtkichi tadqiq qilina navlar orasida Gallek navida aniqlangan, Pripyat navli o'simligida esa xlorofil miqdori kamroq ekanligi qayd etilgan [10; 13-c].

Tajriba uchun soya o'simligining tanlab olingan namunalari dukkaklash (1-jadval) fazalarida o'simlik barglaridagi xlorofill "a", xlorofill "b", karotinoidlar miqdori tadqiq qilindi va quyida keltirilgan natijalar aniqlandi.

Dukkaklash davriga kelib mahalliy navlardan Ustoz MM-60, (2,05±0.23 mg/g) Genetik-1 (2,04±0.21 mg/g) hamda Gavhar navlarida, (2,03±0.10 mg/g) Xorijiy navlardan Slaviya (2,24±0.30 mg/g) va Vilana (2,26±0.32 mg/g) navlarida barglardagi xlorofill "a" miqdorining yuqori ko'rsatkichli ekanligi kuzatildi. Nisbatan past ko'rsatkich namayon qilgan navlar mahalliy Orzu, (1,69±0.20 mg/g) Oyjamol (1,55±0.03 mg/g) va Baraka (1,40±0.03 mg/g) navlari ekanligi aniqlandi. [1-jadval].

Ushbu davrida barglaridagi xlorofill "b" miqdorini o'rganish natijasiga ko'ra, mahalliy navlardan Orzu, (1,44±0.71 mg/g) Ustoz MM-60 (0,91±0.12 mg/g) va Gavhar (0,87±0.06 mg/g) xorijiy navlardan Slaviya (0,87±0.14 mg/g) va Vilana (0,91±0.17 mg/g) navlari yuqori ko'rsatkichda ekanligi aniqlangan bo'lsa, nisbatan past ko'rsatkich bilan mahalliy Sochilmas, (0,70±0.01 mg/g) Oyjamol (0,67±0.07 mg/g) va Baraka (0,56±0.03 mg/g) navlarida qayd etildi. [1-jadval].

Ushbu davrida barglaridagi karotinoidlar miqdori o'rganilganda, mahalliy navlardan Ustoz MM-60, (0,93±0.12 mg/g) Genetik-1 (0,91±0.11 mg/g) xorijiy navlardan Vilana (1,08±0.20 mg/g) va Slaviya (1,05±0.13 mg/g) navlarida yuqori ko'rsatkich nomoyon qilgan bo'lgan bo'lsa, nisbatan past ko'rsatkich bilan mahalliy navlardan Zamin, (0,76±0.05 mg/g) Oyjamol (0,72±0.02 mg/g) va Baraka (0,64 ± 0.07mg/g) o'simligida qayd etildi (jadval).

Dukkak xosil qilish fazasidagi xlorofill miqdori (mg/g da)

| | Navlar | Xlorofill “a” mg/g | Xlorofill “b” mg/g | Karotinoidlar mg/g |
|----------|--------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| | Orzu | 1,69 ± 0.20 | 1,44 ± 0.71 | 0,80 ± 0.09 |
| | Sochilmas | 1,84 ± 0.06 | 0,70 ± 0.01 | 0,78 ± 0.03 |
| | Baraka | 1,40 ± 0.03 | 0,56 ± 0.03 | 0,64 ± 0.07 |
| | Ustoz MM-60 | 2,05 ± 0.23 | 0,91 ± 0.12 | 0,93 ± 0.12 |
| | Gavhar | 2,03 ± 0.10 | 0,87 ± 0.06 | 0,90 ± 0.07 |
| | Oyjamol | 1,55 ± 0.03 | 0,67 ± 0.07 | 0,72 ± 0.02 |
| | Zamin | 1,68 ± 0.10 | 0,66 ± 0.06 | 0,76 ± 0.05 |
| | Genetik-1 | 2,04 ± 0.21 | 0,83 ± 0.11 | 0,91 ± 0.11 |
| | To‘maris | 1,84 ± 0.23 | 0,71 ± 0.11 | 0,83 ± 0.13 |
| 0 | Vilana | 2,26 ± 0.32 | 0,91 ± 0.17 | 1,08 ± 0.20 |
| 1 | Selekta- 302 | 2,10 ± 0.13 | 0,80 ± 0.05 | 0,97 ± 0.09 |
| 2 | Slaviya | 2,24 ± 0.30 | 0,87 ± 0.14 | 1,05 ± 0.13 |

Jadval ma'lumotlaridan shu ma'lum bo'ldiki, o'simlikning dukkaklash fazasida mahalliy navdalardan Ustoz MM-60, Genetik-1 va Gavhar, xorijiy navlardan Vilana navlari barglaridagi xlorofill “a”, xlorofill “b” va karotinoidlar miqdori nisbat yuqori ekanligi aniqlangan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bo'yicha past natija namoyon qilgan mahalliy Baraka va Oyjamol navlari, xorijiy Selekt-302 navi ekanligi aniqlandi.

Andijon viloyati sharoitida tadqiqot uchun tanlab olingan soya o'simligi navlarining 2023-yilgi dukkaklash fazalarida bargdagi xlorofill “a”, xlorofill “b” va karotinoidlar miqdori olib borilgan tajribalar asosida aniqlanganda mahalliy navlarga nisbatan xorijiy navlarda (Vilana, Selekt-302) yuqori ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- O. M. Храменкова. Практикум по Физиологии Растений. 2017-й 36-38 с
- S.Pareek, N.A.Sagar, S.Sharma, V.Kumar, T.Agarwal, Gustavo A. Gonzalez-Aguilar and Elhadi M. Yahia. Chlorophylls: Chemistry and Biological Functions Chlorophylls: Chemistry and Biological Functions: Chemistry and Human Health, 2nd Edition 269 -270 p.
- V.D.Chaturvedi, N.Dubey, V.Kumari, R.Thakur and P. K.Singh. Chlorophyll a and b content along with carotenoids in M3 generation of Him Palam Hara Soya 1 variety of soybean [Glycine max (L.) Merrill]. The Pharma Innovation Journal 2023; 12(5): 3293-3298 p
- E. V Gureeva, and O V Levakova. Remote monitoring of chlorophyll content in soybean crops in the conditions of the Ryazan region. B IO Web of Conferences 71 CIBTA-II-2023 1-3 p
- J.P.G. Rigon, S. Capuani, D.M. Fernandes, And T.M. Guimarães. A novel method for the estimation of soybean chlorophyll content using a smartphone and image analysis. Photosynthetica 54 (4) 2016 : 559-566 p
- L. Mawarni, T. Chairun , J. A. Napitupulu, Karyudi. Determination of leaf status of soybean varieties on shading. Biodiversitas Volume 20 Number 2, February 2019 615-620 p
- I. Demir. Relationship Between Photosynthetic Pigments And Seed Yield Components In Soybean Cultivars In A Semi-Arid Region. Pak. J. Bot., 53(3): 2021.859p
- A. J. Simkin, L .Kapoor, C. George Priya Doss, T. A. Hofmann, T. Lawson, S. Ramamoorthy. The role of photosynthesis related pigments in light harvesting, photoprotection and enhancement of photosynthetic yield in planta. Photosynthesis Research (2022) 24-p

9. В. Т. Синеговская, С. Е. Низкий, Е. Е. Науменко. Хлорофилл как критерий устойчивости растений сои к длительному затоплению почвы. 2022 й. 789-с

10. Ю.В. Цветкова, М.У. Ляшко, И.И. Стражникова. Влияние применения инокулянта «Ризоторфин» на содержание хлорофилла в листьях интродуцированных сортов сои и их урожайность. RUDN Journal of Agronomy and Animal Industries. 2020; 15 (1): 7-18-с.

UDK-633.511+527.5

SOYA O‘SIMLIGI NAVLARINING GULLASH DAVRIDAGI BARGLARDA XLORAFIL VA KORATINOITLAR MIQDORI TAXLILI

G‘ulomidinov Azamatjon Sherzodbek o‘g‘li

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

azamatjongulomidinov@gmail.com,

Jaynaqov Mirzoxid Sharabutdinovich

Andijon davlat universiteti dotsenti

mirzohidjaynaqov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada soya o‘simligining mahalliy Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To‘maris, Gavhar va xorijiy Slaviya, Vilana Selekt-302 navlarining Andijon sharoitida gullash davridagi xlorafill pigmenti va karotinoid miqdori tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar. soya, nav, gullash, xlorofill, karotinoid.

Аннотация. В данной статье анализируется количество пигментов хлорофилла и каротиноида в период цветения в местных сортах сои Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To‘maris, Gavhar и в зарубежных сортах Slaviya, Vilana Selekt-302 в условиях Андижанской области.

Ключевые слова. соя, сорт, цветение, хлорофилл, каротиноид.

ANALYSIS OF THE CONTENT OF CHLOROPHYLES AND CARATINOIDS IN THE FLOWERING LEAVES OF SOYBEAN PLANT VARIETIES

Gulomidinov Azamatjon Sherzodbek ugli

independent researcher of Andijan State University

azamatjongulomidinov@gmail.com,

Zhaynakov Mirzokhid Sharabutdinovich

Associate Professor of Andijan State University

mirzohidjaynaqov@gmail.com

Annotation. This article analyzes the amount of chlorophyll and carotenoid pigments during the flowering period in local soybean varieties Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To‘maris, Gavhar and in foreign varieties Slaviya, Vilana Selekt-302 in the conditions of the Andijan region.

Ключевые слова. соя, сорт, цветение, хлорофилл, каротиноид.

Respublikamiz xalq xo‘jaligi uning dexqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi juda muximdir. Dexqonchilik sohasida keyingi yillarda don ishlab chiqarishni oshirish bo‘yicha ko‘pgina qarorlar qabul qilindi va don ishlar chiqarishda muayyan yutuqlarga erishildi. Bugungi kunda yetishtirilayotgan mavjud don respublikamiz aholisi talabini to‘la qondira oladi. Ammo don chorvachilikni rivojlantirish uchun ham zarur. Bunda donli ekinlar biologiyasini o‘rganish, seleksiya va urug‘chilik ishlarini kuchaytirish, shuningdek donli yem-xashak ekinlarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish juda muhim [10. 3-b].

2020-yilda dunyoda soya ekilgan maydon 122 mln gektardan ko‘proqni tashkil etgan, o‘rtacha xosildorlik gektaridan 28 sentinerni tashkil etgan. Respublikamizda esa joriy yilda jami

39617 gektar maydonga sug'oriladigan yerlardan unumli foydalanish maqsadida soya o'simligi asosiy ekin sifatida ekilmoqda [8.3-5-b].

Tadqiqot ob'yekti va qo'llanilgan uslublar. Tadqiqot uchun soyaning mahalliy navlari Orzu, Oyjamol, Zamin, Ustoz MM-60, Baraka, Genetik-1, Sochilmas, To'maris, Gavhar navlari, Slaviya, Vilana, Selekt - 302, kabi xorij navlari tanlab olindi. Ushbu navlar 2024-yilda Andijon viloyati Asaka tumani "Qora tepa zar tuprog'i" fermer xo'jaligi ekin maydonlarida yetishtirildi.

O'simlik bargidagi xlorofill va karotinoid miqdorini o'rganish uchun har bir o'simlikning gullash va gullash fazalaridagi barglari tanlab olindi. Olingan barg namunalari maydalanib 50 mg dan maxsus belgilab olingan probirkalarga solindi. Unga 5ml 96% li etil spirtidan quyilib ekstrat tayorlanib olindi shisha tayoqcha yordamida ekstrat aralashtirib olindi va muzlatgichda 120 daqiqaga qo'yildi so'ngra probirkalardagi ekstrat kyuvetaga quyilib spektrofotometr qurilmasi yordamida o'lchandi [7; 36-38-c]. Xlorofilni o'simliklardan ajratib olish va uni nomlashni fransuz olimlari Jozef Bienaime Kaventu va Per-Jozef Pelletier tomonidan 1817-yilda amalga oshirilgan. Xlorofill uglerod va azot atomlaridan va markaziy holatda magniy ionidan iborat [9; 269-270-p].

O'simlik bargi tarkibidagi xlorofill "a", xlorofill "b" va karotinoidlar miqdori spektrofotometr yordamida (xlorofill-"a" 664, xlorofill-"b" 649, karotinoid 470) nur to'lqin uzunligida hisoblandi [7; 36-38-c].

D.Vishva, D.Namo, va boshqalarning takidlashicha. Xlorofillar fotosintez jarayonida o'simliklar uchun eng muhim yashil pigmentlardir [1. 3293-3298-p]. Xlorofill o'simliklarning yorug'lik energiyasini yutishi va undan foydalanishi uchun asosiy pigment hisoblanadi. Xlorofill miqdorining o'zgarishi boshlang'ich fotosintetik reaksiyaning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatadi. Ayniqsa, xlorofill "a" fotosintetik faollikka bevosita ta'sir qiladi va xlorofill hamda Pn darajasini oshiradi [2.9-p] Asosiy komponent fotosintetik kompleksda xlorofill - o'simliklarning yashil pigmenti mavjud, fotosintez jarayonida yetakchi rol o'ynaydi va umuman o'simlik organizmining metabolizmida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, xlorofilla fototizimlarning reaksiya markazlarida ham, yorug'lik yig'ish kompleksida ham mavjud. Xlorofil b qo'shimcha pigment hisoblanadi. Xlorofillarning nisbati a va b o'simliklarning turiga va o'sish sharoitlariga qarab o'zgaradi.[4.788-795-c] Xlorofill miqdorini aniqlash – o'simliklarning mahsuldorligini baholashning bilvosita usuli bo'lib, fotosintez jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Xlorofill miqdori bargning rivojlanishi bilan ortadi, keyinchalik qarish jarayonida kamayadi. Subtropik mevali daraxtlarning gullash va meva hosil qiluvchi shoxlarida fotosintez darajasi hosil bermaydigan shoxlarga qaraganda yuqori bo'ladi. Biroq, pigmentlar soya mutatsiyalariga uchragan o'simliklarda barg rangining o'zgarishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ushbu tadqiqot Himso 1685 naviga mansub soya mutatsiyalarining pishgan barglarida xlorofill miqdorini baholash maqsadida, Hindistonning Himachal-Pradesh shtati, Kangra tumani, Palampur hududida olib borildi.[1.3293-3298-p] Xlorofill miqdori yer osti suvlari yetishmovchiligi yoki ortiqchaligi sharoitida kamayadi. Suv yetishmovchiligiga eng sezgir xlorofill turi – xlorofill a bo'lib, u xlorofill b ga qaraganda tezroq kamayadi.[3.5-p] Karotenoidlar o'simliklarning antioksidant tizimining bir qismi bo'lib, ortiqcha qo'zg'alish energiyasi va ortiqcha reaktiv kislorod turlari bo'lgan taqdirda himoya funksiyasini bajaradi.[5.89-96-c]

Xlorofillar asosiy fotosintetik pigmentlardir. xlorofill "a"- yorug'lik energiyasini zaryadni ajratish energiyasiga aylantiradigan universal pigment, ya'ni kislorodli fotosintez jarayonida energiya konvertatsiyasining birinchi bosqichi. xlorofill "b" yorug'lik yig'uvchi antenna komplekslarining maxsus xlorofili bo'lib, past yorug'lik darajasida yorug'lik to'plaminiko'paytirishga va yuqori yorug'lik darajasida ortiqcha so'rilgan energiyaning tarqalishiga yordam beradi. Karotenoidlar yorug'lik yig'ish va yorug'likdan himoya qilish funksiyalarini bajaradi, ortiqcha qo'zg'alish energiyasini olib tashlaydi . Xlorofill miqdori o'simliklarning fotosintez intensivligini vabiologik mahsuldorligini belgilovchi omil hisoblanadi . Fotosintezning birlamchi, engil bosqichidaxlorofill tomonidan so'rilgan quyosh energiyasi kimyoviy bog'lanish energiyasiga aylanadi. Xloroplastlarda ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydigan reaksiyalar uchun zarur bo'lgan NADPH va ATP hosil bo'ladi. Yorug'lik energiyasini saqlashning birlamchi jarayonlari o'simlik hujayralariningmetabolizmi bilan bog'liq bo'lib, o'simliklarning nafaqat

yorug'lik sharoitlariga, balki boshqa atrof-muhitomillariga moslashishida ishtirok etishi mumkin. Sifatida Barglardagi pigmentlarning miqdori va nisbati o'simliklarning umumiy barqarorligi ko'rsatkichlari sifatida ishlatiladi. Fotosintetik apparatlarning, xususan, uning pigment kompleksining o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga moslashish qobiliyati o'simlik barqarorligi va moslashuvining eng muhim xususiyatidir [6.74-78-c].

Tadqiqotning 2024-yilida soya o'simligining gullash davridagi barglardagi xlorofil "a" miqdori o'rganildi o'rganishlar natijasida mahalliy navlardan Genetik-1 ($2,17 \pm 0,04$ mg/g), Gavhar ($1,68 \pm 0,12$ mg/g), va Sochilmas ($1,64 \pm 0,27$ mg/g) navlari yuqori ko'rsatkich qaydt etildi. Ustoz MM-60 ($0,90 \pm 0,05$ mg/g), va Baraka ($1,11 \pm 0,22$ mg/g) navlarida malum miqdorda past ko'rsatkichni namoyon qildi. Xorijiy Vilana ($1,43 \pm 0,13$ mg/g) va Selekt- 302 ($1,24 \pm 0,07$ mg/g), o'simlik navida yuqori ko'rsatkich nomoyon bo'ldi. Slaviya ($0,68 \pm 0,07$ mg/g) navi esa nisbatan past ko'rsatkichni namoyon qildi. [1-jadval.]

Kuzatishlarimizning 2024-yilda soya o'simligining gullash davridagi xlorofill "b" miqdori tahlili natijalarga ko'ra dastlabki yilda mahalliy navlardan Genetik-1 ($0,75 \pm 0,02$ mg/g), Sochilmas ($0,67 \pm 0,08$ mg/g) va Gavhar ($0,59 \pm 0,03$ mg/g). Xorijiy navlardan Vilana ($0,51 \pm 0,03$ mg/g), Selekt- 302 ($0,49 \pm 0,006$ mg/g). navlarida yuqori ko'rsatkich nomoyon bo'ldi. Mahalliy navlardan Ustoz MM-60 ($0,37 \pm 0,02$ mg/g), Orzu ($0,45 \pm 0,02$ mg/g). Xorijiy Slaviya ($0,30 \pm 0,02$ mg/g) o'simlik navlarida esa nisbatan past ko'rsatkichlar kuzatildi (jadval).

Tadqiqotni 2024-yilda o'simligining gullash davridagi karotinoidlar miqdori tahlili natijalarga ko'ra dastlabki yilda mahalliy navlardan Genetik-1 ($0,93 \pm 0,005$ mg/g), Sochilmas ($0,80 \pm 0,11$ mg/g) va Oyjamol ($0,77 \pm 0,06$ mg/g). Xorijiy navlardan Vilana ($0,67 \pm 0,05$ mg/g), Selekt- 302 ($0,59 \pm 0,03$ mg/g) o'simlik navlarida nisbatan yuqori. Mahalliy navlardan Ustoz MM-60 ($0,43 \pm 0,02$ mg/g), Baraka ($0,52 \pm 0,10$ mg/g). Xorijiy navlardan Slaviya ($0,32 \pm 0,03$ mg/g) o'simligida nisbatan past ko'rsatkich nomoyon qildi (1-jadval).

jadval

Yalpi gullash fazasidagi xlorofill miqdori (mg/g da)

| № | Navlar | Xlorofill "a" mg/g | Xlorofill "b" mg/g | Karotinoidlar mg/g |
|----|-------------|-----------------------|--------------------|-----------------------|
| 1 | Orzu | $1,28 \pm 0,101$ | $0,45 \pm 0,02$ | $0,60 \pm 0,04$ |
| 2 | Sochilmas | $1,64 \pm 0,27$ | $0,67 \pm 0,08$ | $0,80 \pm 0,11$ |
| 3 | Baraka | $1,11 \pm 0,22$ | $0,53 \pm 0,06$ | $0,52 \pm 0,10$ |
| 4 | Ustoz MM-60 | $0,90 \pm 0,05$ | $0,37 \pm 0,02$ | $0,43 \pm 0,02$ |
| 5 | Gavhar | $1,68 \pm 0,12$ | $0,59 \pm 0,03$ | $0,76 \pm 0,05$ |
| 6 | Oyjamol | $1,61 \pm 0,11$ | $0,63 \pm 0,04$ | $0,77 \pm 0,06$ |
| 7 | Zamin | $1,52 \pm 0,05$ | $0,57 \pm 0,01$ | $0,70 \pm 0,02$ |
| 8 | Genetik-1 | $2,17 \pm 0,04$ | $0,75 \pm 0,02$ | $0,93 \pm 0,005$ |
| 9 | To'maris | $1,22 \pm 0,30$ | $0,52 \pm 0,07$ | $0,58 \pm 0,14$ |
| 10 | Vilana | $1,43 \pm 0,13$ | $0,51 \pm 0,03$ | $0,67 \pm 0,05$ |
| 11 | Selekt- 302 | $1,24 \pm 0,07$ | $0,49 \pm 0,006$ | $0,59 \pm 0,03$ |
| 12 | Slaviya | $0,68 \pm 0,07$ | $0,30 \pm 0,02$ | $0,32 \pm 0,03$ |

Jadval ma'lumotlaridan shu ma'lum bo'ldiki, o'simlikning gullash fazasida mahalliy navlardan Genetik-1 va Sochilmas, xorijiy navlardan Vilana navlari barglaridagi **xlorofill "a"**, **xlorofill "b"** va **karotinoidlar** miqdori nisbat yuqori ekanligi aniqlangan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bo'yicha past natija namoyon qilgan mahalliy Ustoz MM-60 navlari, xorijiy Slaviya navi ekanligi aniqlandi.

Andijon viloyati sharoitida 2024-yilda tadqiqot uchun tanlab olingan soya o'simligi navlarining gullash fazalarida bargdagi **xlorofill "a"**, **xlorofill "b"** va **karotinoidlar** miqdori olib borilgan tajribalar asosida aniqlanganda xorijiy navlarga nisbatan mahalliy navlarda (Genetik-1 va Sochilmas) yuqori ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vishva D.Ch, Namo D, Vedna K, Ronika T. Piyush K. S. Chlorophyll a and b content along with carotenoids in M3 generation of Him Palam Hara Soya 1 variety of soybean [Glycine max (L.) Merrill] The Pharma Innovation Journal 2023; 12(5): 3293-3298-p

2. Yuanfang Fan, Junxu Chen, Zhonglin Wang, Tingting Tan, Shenglan Li, Jiafeng Li, Beibei Wang, Jiawei Zhang, Yajiao Cheng, Xiaoling Wu, Wenyu Yang and Feng Yang Soybean (Glycine max L. Merr.) seedlings response to shading: leaf structure, photosynthesis and proteomic analysis Fan et al. BMC Plant Biology (2019) 9-p

3.2 M Hamawi, E Rosanti and R A A Rahma. Total chlorophyll and root nodules at various ages of soybean plants (Glycine max L.) in the wet-dry season The 6th International Conference on Agriculture, Environment and Food Security 5-p

4. В. Т. Синеговская, С. Е. Низкий, Е. Е. Науменко. Хлорофилл как критерий устойчивости растений сои к длительному затоплению почвы. <https://doi.org/10.30766/2072-9081.2022.23.6.788-795-c>

5. Головина Е.В., Зеленов А.А. Физиологические особенности сортов сои северного экотипа, возделываемых в условиях ЦЧР <https://doi.org/10.32634/0869-8155-2020-343-11-89-96-c>

6. Е.В. ГОЛОВИНА, ЭКОЛОГО - ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ СОДЕРЖАНИЯ ПИГМЕНТОВ В ЛИСТЬЯХ СОРТОВ СОИ СЕВЕРНОГО ЭКОТИПА Научно – производственный журнал «Зернобобовые и крупяные культуры» №3(31)2019 г. 74-78-с

7. О. М. Храменкова. Практикум по Физиологии Растений. 2017-й 36-38

8. R.I.Siddiqov, S.O.Abduraxmonov, I.N.Xoshimov, A.A.Mo'minov Soya biologiyasining ilmiy asoslari.

9. S.Pareek, N.A.Sagar, S.Sharma, V.Kumar, T.Agarwal, Gustavo A. Gonzalez-Aguilar and Elhadi M. Yahia. Chlorophylls: Chemistry and Biological Functions Chlorophylls: Chemistry and Biological Functions: Chemistry and Human Health, 2nd Edition 269 -270 p

10. М.Саггаров, Р.Саитканова, Н.Отамирзаев, Б.Қодиров, Ҳ.Идрисов, Н.Туйғунов, Б.Қаландаров, М.Ахтамов, М.Ҳайитов, М.Рахмановлар Андижон вилоятида соя етиштириш агротехнологияси. ТОШКЕНТ – 2017

UDK-633.511+527.5

SOYA NAVLARI DONIDAGI YOG' MIQDORI TAHLILI

G'ulomidinov Azamatjon Sherzodbek o'g'li

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

azamatjongulomidinov@gmail.com,

Jaynaqov Mirzoxid Sharabutdinovich

Andijon davlat universiteti dotsenti

mirzohidjaynaqov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada soya o'simligi navlari doni tarkibidagi yog' miqdorlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari hamda dunyo olimlarining bu borada olib borgan ilmiy izlanishlari bo'yicha e'lon qilingan ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Soya, don, erkin yog' kislotalar, agrotexnik tadbir, Oyjamol.

Аннотация: В статье представлены результаты исследований по содержанию масла в семенах различных сортов сои, а также обобщены данные научных исследований, проведенных учеными мира в данной области.

Ключевые слова: соя, семена, свободные жирные кислоты, агротехнические мероприятия, Ойжамол.

ANALYSIS OF THE FAT CONTENT IN THE SEEDS OF SOYBEAN VARIETIES

Gulomidinov Azamatjon Sherzodbek ugli
independent researcher of Andijan State University
azamatjongulomidinov@gmail.com,
Zhaynakov Mirzokhid Sharabutdinovich
Associate Professor of Andijan State University
mirzohidjaynaqov@gmail.com

Annotation: This article presents the findings of research conducted on the oil content in the seeds of various soybean cultivars. It also summarizes data from scientific studies carried out by researchers worldwide in this field.

Keywords: soybean, seed, free fatty acids, agrotechnical practices, Oyjamol.

Soya dunyoda yog' ishlab chiqarishda foydalaniladigan yog'li o'simliklarning asosiy qismini tashkil qiladi [12; 2-18 p]. Soya oqsilli-moyli ekin bo'lib, aholini to'liq oqsil, ko'p to'yinmagan yog'li kislotalar va boshqa ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlashda xalqaro miqyosda tan olingan yetakchi xom ashyo hisoblanadi. Soya doni tarkibida o'rtacha miqdorda 37-42% protein, 18-22% yog', 30% gacha uglevodlar, shuningdek vitaminlar (A, D, C, E, B guruhi), vitamanga o'xshash birikmalar, mineral va biologik faol moddalar mavjud [2; 52 c.].

Soya o'simligi doni tarkibidagi oqsil, moy va boshqa muhim organik moddalar hamda turli makro va mikro elementlarning miqdori va nisbati uni har xil tarmoqlarda qo'llashga imkon beradi. Yer yuzida ishlab chiqarilayotgan o'simlik moyining 40 % ini soya moyi tashkil etadi [1; 95 b.].

Soya donida oqsil (30-50%), barcha almashinmaydigan aminokislotalar, yog' (18-25%, xolesterol saqlamaydi), uglevodlar (10-25%), vitaminlar (karotin, tiamin (B₁), riboflavin (B₂), C, D₁, D₃, E, K, piridoksin (B₆), niatsin (PP), panpotenat kislota (B₃), xolin, biotin, folin) hamda har xil mikro va makro elementlar saqlaydi. Soya o'zining turli tuman va boy kimyoviy tarkibi tufayli oziq-ovqat, yem-xashak texnik ekin sifatida keng foydalaniladi [3; 64 c], [4; 101-108 c]. Ko'p to'yinmagan yog' kislotalarning yuqori miqdori tufayli u eng qimmatli yog'li o'simliklardan biri hisoblanadi [11; 46 p].

V.S. Petibskayaning [5; 71 c] tadqiqot natijalarida soya yog'ida 95-97% triglitseridlar, 1,5-2,5% fosfolipidlar, 1,6% yaroqsiz yog'lar, 0,33% sterollar, 0,15-0,21% tokoferollar va 0,3-0,7% erkin yog' kislotalar borligi hamda 1 gr soya yog'i parchalanganda 9,29 kkal energiya ajralishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ko'p to'yinmagan yog' kislotalarning yuqori miqdori tufayli u eng qimmatli yog'li o'simliklardan biridir. Uning yuqori ozuqaviy qiymati va tuproqqa foydali ta'siri tufayli Polshada, ayniqsa uning janubiy hududlarida soya yetishtirishga qiziqish ortib bormoqda [6; 45-57-p].

Yog'lar – organizmdagi barcha moddalar almashinuv jarayonlarida qatnashadi hamda uni jadallashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Odam organizmidagi yog'larning ko'p qismi energiya materiali sifatida sarflanadi. Ayrim yog'lar esa hujayra membranasi tarkibiga kirib, uning qurilishida ishtirok etadi. Bundan tashqari lipidlar organizmdagi oqsillar, mineral tuzlar va vitaminlardan foydalanishga ta'sir qiladi. Ovqatlanish me'yorida yog' miqdorining ortishi bilan organizmdan kalsiy va magniy tuzlari hamda yog' kislotalarning chiqarilishini ko'paytiradi va organizmga so'rilishini kamaytiradi, suyaklarda kalsiy va fosfor moddalarining to'planishini kamayishiga olib keladi [7; 672-c.], [8; 110-112-c], [9; 120-c], [10; 150-c].

Ushbu tadqiqot ishida obyekt sifatida soya o'simligining mahalliy navlaridan Zamin, Oyjamol, To'maris, Orzu, Baraka, UstozMM-60, Gavhar xorijiy navlardan esa Selekt-302, Slaviya va Vilana kabi navlari tanlab olingan.

Quyida soya navlari donidagi yog' miqdorlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar va ularning tahlili bilan tanishamiz.

jadval

Soya navlari donidagi yog' miqdorlari

| O'simlik navlari | Yog' miqdori % da | |
|------------------|-------------------|----------|
| | 2023-yil | 2024-yil |
| | | |

| | | |
|-------------|------|------|
| Zamin | 23.4 | 11 |
| Oyjamol | 22.9 | 15.7 |
| Ustoz MM-60 | 24.5 | 13.9 |
| To'maris | 24.8 | 13.2 |
| Gavhar | 22.8 | 15.9 |
| Orzu | 22 | 15.8 |
| Baraka | 23.4 | 14.2 |
| Slaviya | 24.2 | 18.2 |
| Selekta-302 | 27.6 | 13.6 |
| Vilana | 23.9 | 11.6 |

Tadqiqot natijalari bo'yicha o'rganilgan navlar orasida dastlabki yili (2023 y.) eng yuqori ko'rsatkichlarni mahalliy navlardan To'maris navi (24.8 %), Ustoz MM-60 navi (24.5%) ni namoyon qilgan bo'lsa Xorijiy navlardan Selekta-302 navi (27,6 %), ko'rsatkichni namoyon qilmoqda. Eng quyi ko'rsatkich mahalliy Orzu navi (22%) ni xorijiy navlardan vilana navi esa (23.9 %) ni namoyon qildi.

murakkabligini inobatga olish zarur. Buning uchun skin-faktor (S_d) o'zgartirilgan formulasi, quduq osti bosimi, poroznost, o'tkazuvchanlik gradienti, eruvchanlik koeffitsienti kabi parametrlar kompleks ko'rinishda baholanadi [1]:

$$S_d = \left(\frac{k}{k_d} - 1 \right) \cdot \ln \left(\frac{r_d}{r_w} \right)$$

bu yerda:

k – qatlamning asosiy o'tkazuvchanligi;

k_d – quduq atrofi zonasining o'tkazuvchanligi;

r_w – quduq radiusi;

r_d – quduq atrofi zonasi radiusi.

3. O'zbekiston konlari misolida quduq atrofi zonasi o'zgarishlari

Sultonrabad strukturasi, masalan, T5 gorizont bo'yicha ikkita blokka ajralgan: birinchi blok 4.3×1.7 km, ikkinchisi 3.8×2.3 km maydonni egallaydi, amplitudalari esa mos ravishda 300 m va 255 m. Bu kabi keskin o'zgaruvchanlik quduq atrofi zonasining keskin filtratsion nomutanosibligini bildiradi, natijada har bir kislotali ishlov berish shakliga alohida hisob-kitoblar talab etiladi.

Shomolikamda esa yuqori Yuqori Yura davri ohaktoshlari bo'yicha XV-NR va XV-P gorizontlari dominanta hisoblanadi. Aynan ushbu qatlamlarda chervotochina shakllanishi kuzatiladi va kislotali ishlovning asosiy effekti ro'y beradi.


KISLOTALI ISHLOVNING KIMYOVIY VA FIZIK ASOSLARI

1. Karbonat jinslar va ularning kislotali reaksiyaga bo'lgan ta'siri

Karbonat kollektorlar tarkiban asosan kaltsit (CaCO_3) va dolomit ($\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$) minerallaridan tashkil topgan. Ushbu minerallar kislotali eritmalar bilan reaksiyaga kirishganida eriydi, natijada qatlamda yangi filtratsiya kanallari – chervotochinalar shakllanadi. Aynan shu hodisa quduqni qayta jonlantirish, deb ataluvchi stimulyatsiya texnologiyasining asosini tashkil qiladi [2].

Tuz kislotasining karbonat jinslar bilan reaksiyalari quyidagi ko'rinishda kechadi:

Kaltsit bilan:



Dolomit bilan:



Bu jarayonlar natijasida kislotaning bir qismi mineralni eritishda ishtirok etadi, qolgan qismi esa mahsulot sifatida chiqadigan gaz (CO_2), ionli tuzlar (CaCl_2 , MgCl_2) va suvga aylanadi.

2. Kislotalarning erituvchanlik koeffitsiyenti va eritma xossalari

Kislotali eritmalarining karbonat jinslarni eritish qobiliyati – ya'ni erituvchanlik koeffitsiyenti (β) – quyidagicha aniqlanadi [2]:

$$\beta_{\text{CaCO}_3} = \frac{M_{\text{CaCO}_3}}{2M_{\text{HCl}}} = \frac{100.09}{2 \times 36.46} \approx 1.373$$

$$\beta_{\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2} = \frac{184.4}{4 \times 36.46} \approx 1.264$$

Bu shuni bildiradiki, 1 kg sof HCl 1.373 kg kaltsit yoki 1.264 kg dolomitni to'liq eritishi mumkin. Amaliyotda esa odatda 15% li tuz ishlatiladi, bu holda erituvchanlik:

Kaltsit uchun: $0.082 \text{ m}^3/\text{m}^3$

Dolomit uchun: $0.071 \text{ m}^3/\text{m}^3$


Bundan tashqari, eritmaning fizik xossalari (qovushqoqlik, zichlik) ham harorat va bosimga bog'liq ravishda o'zgaradi. 15% HCl eritmasi 20°C da 1.26 mPa·s qovushqoqlikka ega bo'lib, bu suvga nisbatan biroz ko'proqdir.

3. Chervotochina (erigan kanal) shakllanishi va ularning fizik modeli

Kislotali ishlov paytida kislotaning karbonat qatlamda harakati doimiy emas, balki yoʻnalgan erish yoʻllari orqali sodir boʻladi. Maʼlum kritik tezlikda kislotani qatlam ichida tor, uzun, yuqori oʻtkazuvchanlikka ega “chervotochina” (wormhole) hosil qiladi.

Laboratoriya tajribalari va modellashtirish natijalariga koʻra, quyidagi chervotochina turlari farqlanadi:

1. **Kompakt erish** (kam tezlikda) – koʻproq kislotani talab qiladi.
2. **Konus tipidagi chervotochina** – noqulay tuzilma.
3. **Dominant chervotochina** – optimal yechim.
4. **Tarqoq tarmoqli chervotochina** – yuqori tezlikda yuzaga keladi.
5. **Yassi yoki diffuz erish** – yuqori bosim va oqim tezligida.



2-rasm. Chervotochina shakllanishining turlari.

(Manba: Karakas & Tarik modeli asosida grafik tavsif) [6]

Modellashtirishda Damköhler raqami (Da) va Pekle raqami (Pe) asosiy koʻrsatkichlar hisoblanadi:

$$Da = \frac{\text{erish tezligi}}{\text{reaksiyaga kirish tezligi}}$$

$$Pe = \frac{\text{konveksiya}}{\text{diffuziya}}$$

Optimal chervotochina hosil boʻlishi uchun Damköhler raqami $Da_{opt} \approx 0.29$ boʻlishi kerak.

4. Eritma yetkazib berish va CO₂ gazi chiqishining fizik-texnik ahamiyati

Reaksiya natijasida hosil boʻladigan CO₂ gazi ham katta rol oʻynaydi. U eritmada qisman eriydi (15–160 m³/tonnagacha), ammo ortiqcha miqdorda ajralib chiqadi va qoʻshimcha bosim hosil qiladi. Bu bosim esa chervotochinalarning chuqurlikka kirib borishini tezlashtiradi, ammo haddan ortiq boʻlsa, nojoʻya oqibatlar (qatlam yorilishi, radial yoyilish) keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun, kislotaning konsentratsiyasi, harorati, bosimi va quyish tezligi aniq hisoblab chiqilishi kerak. Har qanday noaniqlik yoki notoʻgʻri parametrlar kislotali ishlovning butun samaradorligini yoʻqqa chiqarishi mumkin.

MODELLASHTIRISH METODOLOGIYASI VA DASTURIY YONDASHUV


1. Quduq atrofi zonasi strukturaviy kompleksligini modellashtirish zarurati

Karbonat kollektorlar uchun samarali kislotali ishlov berishni loyihalashda oddiy radial geometrik model (yagona oʻrtacha qiymatlar asosida) yetarli emas. Quduq atrofi zonasining real holati koʻp zonali, gorizont va vertikal yoʻnalishda oʻzgaruvchan boʻlib, filtratsion va

kollektorlik xossalari bo'yicha sezilarli nomutanosibliklar mavjud. Aynan shuning uchun matematik modelda bu murakkablikni aks ettirish zarur.

Quduq atrofi zonasining bunday tuzilmasini hisobga olish uchun quyidagi elementlar modellashtirishga jalb etiladi:

- Subzonalarning turli o'tkazuvchanliklari: k_1, k_2, \dots, k_n
- Radius bo'yicha zonalanish: $r_w < r_1 < r_2 < \dots < r_n$
- Skin-faktorning zonali yondashuvi (kompozit model)



3-rasm. Quduq atrofi zonasida kislotaning radial va zonal modellashtirish usuli bo'yicha tarqalishi

(A — radial oqim modeli; B — zonal yondashuv asosidagi modellashtirish)

Bu yondashuv asosida kombinatsiyalashgan skin-faktor formulasi ishlab chiqilgan:

$$S_{\text{komp}} = \sum_{i=1}^n \left(\frac{k}{k_i} - 1 \right) \ln \left(\frac{r_{i+1}}{r_i} \right)$$

Bunda har bir i -zonadagi o'tkazuvchanlik k_i bo'yicha alohida baho beriladi.

2. "StimPet" modeli va chervotochina rivojlanishini simulyatsiya qilish

Ushbu matematik yondashuv amalda "StimPet" nomli dasturiy modelda joriy etilgan bo'lib, u Karacas & Tarik modelining soddalashtirilgan versiyasi asosida ishlaydi [6]. Model quyidagi submodellardan tashkil topgan:

- 1) **Quyish bosimi va oqim tezligi submodeli** – darcy qonuni asosida.
- 2) **Chervotochina rivojlanish submodeli** – Damköhler va Pekle sonlariga asoslangan.
- 3) **Skin-faktor submodeli** – zonal skin-faktor hisoboti bilan.
- 4) **Quduq atrofi zonasida suyuqlik tarqalish modeli** – fazaviy permeabilite bilan.
- 5) **Perforatsiya oqim samaradorligi** – filtratsiya chiziqlari bilan.

Chervotochina uzunligi quyidagi korrelyatsion formula orqali baholanadi:

$$R_{\text{worm}}(V) = \left(\frac{b \cdot V \cdot N_a}{\pi h \varphi} \cdot Pe^{-\frac{1}{3}} \right)^{1/d_f}$$

Bu yerda:

V – quyilgan kislotaning hajmi,

N_a – kislotaning soni,

h – qatlam qalinligi,

φ – poroznost,

$d_f \approx 1.6$ – fraktal o‘lcham.

Model tajribaviy koeffitsiyentlar bilan kalibrlanadi va Sultonrabod, Shomolikam, Sagirtau kabi real strukturalarda sinovdan o‘tkazilgan. Natijalar qatlam holatiga mos kelgan.

3. O‘zbekiston konlari misolida testlash va optimallashtirish

“Gazprom neft”ning “Badra” maydonida (Iroq) testlangan model keyinchalik O‘zbekiston janubidagi strukturaviy murakkab kollektorlar – ayniqsa, Dehqonobod egilmasi ichida joylashgan konlarda sinovdan o‘tkazildi. Jumladan:

- Sultonrabod maydonida optimal quyish tezligi $2.5 \text{ m}^3/\text{min}$ bo‘lishi tavsiya etildi.
- 15% HCl eritmasi ishlatilgan hollarda chervotochina uzunligi 3.2–4.8 m oralig‘ida bo‘ldi.
- Skin-faktor boshlang‘ich $S_d = +3.1$ dan $S_d = -1.2$ gacha kamaygani kuzatildi.
- Ushbu natijalar shuni ko‘rsatdiki, kompleks strukturani hisobga olgan modellashtirish:
- Kislotali ishlov berish samaradorligini 30–45% gacha oshiradi;
- Quduq atrofi zonasini yaxshiroq “qamrab olish”ni ta’minlaydi;
- Quduqni ishlatish bosimini kamaytiradi.

NATIJAR VA MUHOKAMA


1. Quduq atrofi zonasi strukturasi inobatga olingan holatda kislotali ishlov berish samaradorligi

O‘tkazilgan matematik modellashtirish va amaliy sinovlar shuni ko‘rsatadiki, quduq atrofi zonasining geologik tuzilmasi va filtratsion o‘zgaruvchanligini inobatga olgan holda kislotali ishlov berish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. An’anaviy uslubda bir xil parametrlar asosida butun qatlamga kislotali eritma yuborilgan bo‘lsa, bu yondashuvda qatlamning har bir zonasi uchun individual o‘tkazuvchanlik va poroznost ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

Sultonrabod strukturasi misolida olib borilgan tajribalarda:

- Quduqqa 15% HCl eritmasi $2.5 \text{ m}^3/\text{min}$ tezlikda yuborilganida skin-faktor:
- $S_{boshlang'ich} = +3.1 \rightarrow S_{yakuniy} = -1.2$
- ya’ni kislotali ishlov berish natijasida quduqning filtratsion qarshiligi butunlay bartaraf etilgan (manfiy skin-faktor samaradorlik belgisi hisoblanadi).
- Chervotochina uzunligi modellashtirilgan holda 3.8–4.6 m oralig‘ida bo‘lib, bu kislotaning samarali ta’sir radiusi bilan mos tushadi.
- quduq atrofi zonasining zonali modellashtirilishi orqali kislotaga kamroq hajm bilan ko‘proq ish bajargan. An’anaviy usulda 15–20 m^3 kislotaga kerak bo‘lgan bo‘lsa, modellashtirilgan yondashuvda 10–12 m^3 yetarli bo‘ldi.

Bu holat quyidagi 1-rasmdagi grafik bilan ifodalanadi:



4-rasm. Skin-faktor o‘zgarishi modellashtirish natijasi grafigi (Sultonrabod strukturasi misolida)

2. Turli tuzilmadagi konlar bo'yicha solishtirma natijalar:

| Kon nomi | Qatlam gorizonti | Kislota turi | S_d (oldin) | S_d (keyin) | Chervotochina uzunligi (m) |
|-------------|------------------|--------------------------------|---------------|---------------|----------------------------|
| Sultonrabod | XVa | 15% HCl | +3.1 | -1.2 | 4.2 |
| Shomolika m | XV-RO | 12% HCl + CH ₃ COOH | +2.4 | -0.7 | 3.6 |
| Sagirtau | XV-RU | 10% HCl | +2.7 | 0.0 | 3.1 |

Bu natijalar shuni tasdiqlaydiki:

- 1) Har bir qatlamda kislotali ishlov samaradorligi quduq atrofi zonasining geologik va fiziko-kimyoviy holatiga bog'liq.
- 2) Kombinatsiyalashgan skin-faktor formulasi yordamida har bir zona uchun individual yechim taklif qilish mumkin.
- 3) Solishtirma testlar kislotali ishlov samaradorligini 30–45% gacha oshirganini ko'rsatdi.

3. Muhokama va yondashuvning amaliy ahamiyati

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qatlamga nisbatan bir xillikka asoslangan klassik yondashuvlar ko'plab konlarda kutilgan natijani bermaydi [10]. Ayniqsa, karbonat kollektorlarida qatlam strukturasi yuqori darajada bir jinsli bo'lmaganligi sababli:

- 1) Kislota noto'g'ri zonaga kiradi;
- 2) Samarali erish yuz bermaydi;
- 3) Chervotochina deformatsiyalanadi yoki yo'nalishi noto'g'ri bo'ladi.

Quduq atrofi zonasi modellashtirishga asoslangan yondashuvda esa:

- ✓ Kislotalarning ta'sir zonasi aniq prognozlanadi;
- ✓ Kamroq reagent bilan ko'proq natija olinadi;
- ✓ Quduqni ishga tushirish tezlashadi;
- ✓ Energiya va moddiy xarajatlar kamayadi.

Shunday qilib, O'zbekiston sharoitida ham, ayniqsa Sultonrabod va unga o'xshash strukturalarda, bu yondashuv samarali deb e'tirof etiladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot orqali karbonat kollektorlarda quduq atrofi zonasining geologik tuzilishini inobatga olgan holda kislotali ishlov berish jarayonini modellashtirishning nazariy va amaliy asoslari chuqur yoritib berildi. Quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Quduq atrofi zonasi murakkab strukturaviy tuzilishga ega bo'lib, uni oddiy radial model orqali baholash natijasida kislotali ishlov yetarli samaradorlikka ega bo'lmaydi. Zonal yondashuv – bu strukturaviy tafovutni ifodalay oluvchi asosiy modellashtirish tamoyilidir.

2. Karbonat jinslarning kimyoviy tarkibi va kislotali eritmalarga bo'lgan javobi aniq ifodalandi. Kaltsit va dolomit jinslarining HCl bilan reaksiyalari, erituvchanlik koeffitsiyentlari, shuningdek, Damköhler va Pekle sonlari asosidagi modellar orqali chervotochina shakllanishi simulyatsiya qilindi.

3. Skin-faktor kombinatsiyalangan formulasi yordamida har bir zonadagi filtratsion o'zgarishlar aniqlik bilan hisobga olindi. Sultonrabod, Shomolikam va Sagirtau konlarida o'tkazilgan modellashtirishda skin-faktor ijobiydan manfiygacha o'zgarib, mahsuldorlikni oshirishga erishildi.

4. “StimPet” dasturiy modeli asosida ishlab chiqilgan modellashtirish amaliy sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. O'zbekiston konlari sharoitida bu yondashuv yordamida:

- Reagent sarfi 25–40% gacha kamaydi;
- Samarali chervotochina uzunligi aniq prognozlandi;
- Quduqlarni ishga tushirish muddati va xarajatlari sezilarli darajada kamaytirildi.

5. Quduq atrofi zonasi modellashtirishini ishlab chiqish orqali:

- Kislotali ishlov berish ning mintaqaviy optimallashtirilgan dizaynini ishlab chiqish mumkin;

- Har bir quduq uchun individual texnologik reja tuzish imkoniyati yaratiladi;
- O‘zbekiston sharoitida karbonat kollektorlarni chuqurroq o‘zlashtirish uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqildi.

Umumiy xulosa: “Quduq atrofi zonasining geologik tuzilishini inobatga olgan holda kislotali ishlov berishni modellashtirish” yondashuvi nafaqat ilmiy asosga, balki kuchli amaliy samara ham beradi. Bu yondashuvni O‘zbekistonning boshqa murakkab kollektorlariga ham tadbiq qilish orqali uglevodorod qazib olishning yangi bosqichiga o‘tish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хужин Р.А. Моделирование процессов кислотных обработок скважин в карбонатных коллекторах: дис. ... канд. техн. наук. – Уфа: УГНТУ, 2019. – 187 с.
2. Багиров Р.А. Кислотные обработки в карбонатных коллекторах. – М.: Недра, 2005. – 215 с.
3. «Султонработ» нефть-газ конларининг геологик-технологик паспорти: Қидирув, геофизик тадқиқотлар, гидродинамик ҳисоботлар. – Тошкент: O‘zGASHKL, 2020. – 124 б.
4. Qosimov A.A., Usmonov M.K. O‘zbekiston neft va gaz konlarining geologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2017. – 244 b.
5. Антипов И.Ф., Ковалев А.Н. Моделирование фильтрационных процессов в зоне призабойного пространства. – СПб.: Нефтегаз, 2012. – 165 с.
6. Karakas M., Tarik S.M. Modeling of Acid Wormholing in Carbonate Reservoirs // SPE Journal. – 1991. – Vol. 6, No. 3. – P. 292–300.
7. Economides M.J., Nolte K.G. Reservoir Stimulation. – 3rd ed. – Houston: Wiley, 2000. – 830 p.
8. Liu Y., Nasr-El-Din H.A. Modeling Acidizing in Heterogeneous Formations // Journal of Petroleum Science and Engineering. – 2004. – Vol. 42. – P. 1–15.
9. Alekseev A.A. Geologicheskoe stroenie i modelirovanie zon PZ // Геология нефти и газа. – 2013. – №4. – С. 41–45.
10. Иванов В.П. Стимулирование притока в сложнопостроенных коллекторов. – Уфа: УГНТУ, 2016. – 192 с.

UDK 677.024.017

ZAMONAVIY VINTLI TOZALAGICHNING JUNNI TOZALASH JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING NAZARIY TADQIQI.

Qo‘ldoshev E.I, Ismoyilov F.B, Ismoyilov I.B, Salomov I.S.

Buxoro davlat texnika universitet

***Annotasiya.** Maqolada yangi vintli tozalagichni vazifasi, jun tolasini tozalash samarasini oshirish yo‘llari, jun tolalar tutamini titilishini texnologiyasidagi kuchlarni to‘rli yuzalar tomonidan ta’sir etuvchi kuchlarni asta sekin oshirib borish yo‘llari, tozalangan tolalarni mashinaning past tomonidan tepaga xarakatlantiruvchi shnek va parrakli qoziqchalari hosil qiladigan havo oqimi bilan tashkil etilishi va shu orqali mashinaning ish unumdarlogini oshirish yo‘llari haqida fikr yuritilgan .*

***Kalit so‘zlar:** jun tolasi, titish-tozalash, sig‘im, ifloslik, zichlik, tezlik, saqlash, to‘rli yuza, shnek, ishqalanish, taminlagich.*

THEORETICAL STUDY OF FACTORS INFLUENCING THE WOOL CLEANING PROCESS OF A MODERN SCREW CLEANER.

Kuldoshev E.I., Ismoilov F.B., Ismoilov I.B., Salomov I.S.

Bukhara State Technical University

***Annotation.** The article discusses the function of the new screw cleaner, ways to increase the efficiency of wool fiber cleaning, ways to gradually increase the forces exerted by the mesh surfaces in the technology of combing wool fibers, ways to organize the cleaned fibers from the bottom of the machine to the top by an air flow formed by a screw and fan blades, and thus ways to increase the efficiency of the machine.*

Keywords: wool fiber, cleaning, capacity, dirt, density, speed, storage, mesh surface, screw, friction, feeder.

Yangi konstruksiyadagi vintli tozalagichni loyihalashning zarurati shundaki, mavjud qiya tozalagichga ko'ra tozalash samaradorligini oshirish va yaroqsiz qiltiq tolasini samarali ajratishni o'z ichiga oladi. Mashinani loyihalashda xomashyoning xususiyatlari hamda ifloslik darajasi hisobga olindi.

Mashinani loyihalashda prototip sifatida junni tozalashga mo'ljallangan qiya tozalagichi olingan. Mazkur ON- 6 qiya tozalash mashinasining kamchiligi tadqiqot ishining birinchi bobida keltirilgan bo'lib, yangi konstruksiyadagi mashinani loyihalashda quyidagi kamchiliklar asos bo'ldi: junga dastlabki ishlov berilganda uning tolalari shikastlanadi, bunga sabab tolalarga ishlov berayotganda tituvchi barabanlar ostidagi kolosniklar bilan birgalikda bir xil (monoton) ishlov berishda, qolaversa barabanlar uzunasi bo'ylab tolalar bir xil bir va tekisda yoyila olmaydi. Natijada tolalar tarkibidagi iflosliklar baraban uzunasi bo'yicha bir tekisda chiqarilmaydi va mashinaning tozalash samarasini oshira olmaydi. Bundan tashqari bu mashinalarda kolosniklar, barabanni aylanasi bo'yicha to'liq qoplamaydi, shu sababli uning ishchi zonasi (junni tozalash zonasi) to'liq emas. Avval tolalar bo'lagi katta bo'lib, unga ishlov bergan sari u kichrayib boradi, ammo xomashyo kichraygan sari unga o'ziga xos ta'sir etuvchi kuchni taminlab berishi lozim. Mavjudda bunday imkoniyat yo'q.


Mazkur yangi vintli tozalagichni vazifasi shundaki, tozalash samarasini oshirish uchun, jun tolalar tutamini titilishini texnologiyasidagi kuchlarni birdaniga emas, to'rtli yuzalar tomonidan ta'sir etuvchi kuchlarni asta sekin oshirib borishda, tozalangan tolalarni mashinaning past tomonidan tepaga xarakatlantiruvchi shnek va parrakli qoziqchalari hosil qiladigan havo oqimi bilan tashkil etish.

Qo'yilgan vazifasini bajarilishi shundaki junni qiya tozalash mashinasida ta'minlovchi lenta, ta'minlovchi valik, qoziqli barabanlar, kolosnikli panjaralar, ajratib oluvchi valik, tepa va past ajratgichlar SHu bilan farqlanadiki tozalovchi vintli baraban vertikal joylashgan, hamda u aylanuvchi konussimon shnek perimetrda qoziqchalar mavjud va konus yuzaga parallel holatda to'rtli sirt o'rnatilgan, past va tepa qismida quvurlar o'rnatilgan.

To'rtli sirt bilan shnek qoziqchalari orasidagi tirqishni o'zgaruvchan qilsa bo'ladi.

Xomashyo kirish kuvuri tomonida kolosniklar orasidagi qadami tabiiyki kichkina bo'lganda titiluvchi tolalar tutami katta bo'ladi, to'rtli sirt o'lchami kichkina bo'lsa qarshilik katta bo'ladi va tolalar tutami tezroq maydalashadi. Bunday jarayon tolalar tutami tepaga ko'tarilishida nitensivlashadi (bir-biridan ajralishi), to'rtli sirt teshiklari orasidagi masofa oshgan sari, tolalar tutamining zarbalanishi oshadi, natijada iflosliklarni ajralishi osonlashadi. Tolalarni teppaga ko'tarilishi xam oson kechadi.


Mazkur loyihalangan mashinal-rasmda keltirilgan. Mashina quyidagicha ishlaydi: jun tolalar tutami mashinaning xomashyo kiradigan quvur 1dan aylanib turgan qoziqchali vint 2ga kelib qoziqcha 3ga ilinadi va u bilan birga aylana boshlaydi. Mashinani ichiga vint 2 tayanch 5ga birlashtirilgan holatda bo'ladi. Quvur 1dan kelayotgan havo oqimi hamda aylanib turgan vint 2ning parraklari hosil qilayotgan havo oqimi birgalikda mashinaning tepa qismidagi tozalangan junni tolasini chiquvchi quvur 9dan tashqariga chiqadi. Natijada tolalar tutami to'rtli sirt 4ni yusiga urilib sirpanib yuqoriga ko'tarila boshlaydi va tolalar tutami parchalanib (ya'ni tolalar bir-biridan ajralib) boshlaydi. Parchalangan sari har bir parchaning massasi to mashinani tepasiga yetib borguncha kamayib boradi. Har bir zarba, shu parchalanish paytida tolalar tutamidagi iflosliklarni to'rtli sirt teshiklari orasidan tashqarisiga chiqarib yuboradi.



1-rasm. Yangi vintli tozalagichning umumiy ko'rinishi.

1-xomashyoni kirish quvuri, 2-vint, 3-vint qoziqchasi, 4-to'rli sirt 5- vint tayanchi 6-shkivlar, 7-motor, 8-vintni ushlab turuvchi podshipniklar, 9-tozalangan jun tolalarini chiquvchi quvur, 10-iflosliklar yig'iluvchi sig'im.

O'z-o'zidan ma'lumki vint atrofidagi havo oqimi va to'rli sirt atrofidagi havo oqimi ham tepaga harakatlanadi. Ajratilgan iflosliklar mashinaning pastidagi iflos aralashmalari yigiluvchisig'im10 ga yig'iladi. Motor 7 va shkiv 6 mashinani harakatga keltiradi. 8-vintni ushlab turuvchi podshipnik.



2-rasm. Yangi vintli tozalagichning yuqoridan kesim ko'rinishi.

Rasm 2 da mashinaning A-A bo'yicha kesimi keltirilgan. Rasmda qoziqchali shnekni urinma chizig'iga nisbatan to'rli sirtni joylanishi ko'rsatilgan.

Ko'rinib turibdiki mashinani pastki qismida hali tola tutamlarining massasi kattalikda unda iflosliklar kam ajratiladi, ayniqsa tutam ichidagilar chiqolmaydi. Tepaga harakatlangan sari tutam massasi parchalanishi sababli, kamayadi va tutam ichidagi iflosliklar yuzaga chiqib qoladi. Yana

tepaga harakatlanganda tutam massasi kichraygan sari, uni harakat tezligi oshadi, natijada tolalar mashinadan chiqib ketishida tepa qismida tiqilib qolish (zaboy holati) bo'lmaydi.

Mazkur yangi vintli tozalagichning ahamiyati shundaki ON- 6 junni tozalash mashinasida ta'minlovchi bunker, ta'minlovchi valik, qoziq plankali barabanlar, kolosnikli panjaralar, ajratib oluvchi yuqori to'sin shu bilan farqlanadiki, tozalovchi vint vertikal joylashgan, undagi aylanuvchi konussimon vint perimetrda qoziqchalar mavjud va konus shaklidagi to'rtli yuza parallel qilib o'rnatilgan, past va tepa qismida quvurlar o'rnatilgan. Ubdan tashqari mashina shu bilan farqlanadiki vintni konusligi 25^0 - 35^0 gradus bo'ladi, to'rtli sirt bilan vint qoziqchalari orasidagi tirqish (zazor) past tomonida kattaroq ($t=a$) va tepa qismida torroq ($t=b$) bo'ladi.

Jun titish-tozalash mashinasi mavjud mashinalardagi kamchiliklarni yo'qotish maqsadida taklif etilib, mashinada jun tolalarini tozalash samarasini oshirish hamda shikastlanishni yo'qotish maqsadida yangi konstruktsiya taklif etilmoqda. Unda tozalovchi vint vertikal joylashadi, aylanuvchi konussimon vint parametrda qoziqchalar mavjud bo'lib ularning aylanishiga parallel qilib qo'zg'almas to'rtli yuza o'rnatilgan. Zarur holda to'rtli sirt bilan qoziqchali vint orasidagi tirqishni o'zgartirib zarbani boshqarish mumkin. Mazkur taklif etilayotgan mashina junga dastlabki ishlov berish korxonalarida qo'llaniladi. Tozalanayotgan xomashyoni texnologik ko'rsatgichlariga qarab mashinani tozalash tezligi, tirqish o'lchamini ishchi organlari bir-biriga nisbatan joylashishini boshqarish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. F.B Ismoyilov "Jun tolalarini dastlabki ishlash texnologiyasi" darslik Buxoro: "UMID" nashriyoti, 2023 y. 290 b.

2. F.B.Ismoyilov., Junni dastlabki ishlashda takomillashtirilgan texnologik jarayonni tadqiq qilish., diss PhD., Buxoro. BMTI., 2021. 41-b.

3. F. Ismoyilov, E. Kuldashev, A. Abrorov, I. Ismoyilov, R. Bozorov Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber *E3S Web of Conferences* 390, 01010 (2023)

5. F. B. Ismoyilov, E. I. Kuldashev, N. N. Sattarova and R. R. Bozorov Significance of using a screw cleaner at pretreatment of wool *AIP Conf. Proc.* 2969, 060029 (2024).

УДК 622.276.012

НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕЗВРЕЖИВАНИЯ НЕФТЕШЛАМОВ

А.З. Шодиев.

Бухарский государственный технический университет, докторант

e-mail: azimbeksodiev24@gmail.com

К.К. Джумаев.

Бухарский государственный технический университет, профессор

Аннотация

В представленной работе рассматривается проблема обезвреживания нефтешламов — сложных по составу многокомпонентных отходов, образующихся при переработке нефти и эксплуатации нефтепромыслов. Основное внимание уделено классификации нефтешламов по источникам происхождения, их компонентному составу и физико-химическим свойствам. Приведены данные о массовой доле компонентов в различных типах шламов, их плотности, вязкости, температуре воспламенения и затвердевания. Показано, что высокая устойчивость эмульсионных структур, изменчивость состава под воздействием внешней среды и длительное самовосстановление создают значительные трудности в утилизации данных отходов. Также проанализировано негативное влияние длительного хранения шламов на окружающую среду, включая загрязнение грунтовых вод и атмосферного воздуха.

Ключевые слова: нефтешлам, утилизация, физико-химические свойства, загрязнение окружающей среды, углеводороды, осадочные шламы, шламохранилища, эмульсии, асфальтены, устойчивые дисперсные системы.

THE NEED FOR OIL SLUDGE DISPOSAL

A.Z. Shodiev.

Bukhara State Technical University, PhD student

K.K. Djumaev.

Bukhara State Technical University, professor

Abstract:

This paper addresses the issue of oil sludge disposal — a complex multi-component waste generated during oil refining and field operations. The study focuses on the classification of oil sludges based on their origin, their compositional makeup, and physicochemical properties. Data are presented on the mass fraction of components in various sludge types, as well as their density, viscosity, flash point, and solidification temperature. It is shown that the high stability of emulsion systems, the variability of composition under environmental influences, and the prolonged natural recovery process significantly complicate sludge treatment and utilization. The negative environmental impacts of long-term sludge storage are also analyzed, including groundwater contamination and hydrocarbon emissions into the atmosphere.

Keywords: oil sludge, utilization, physicochemical properties, environmental pollution, hydrocarbons, sedimentary sludge, sludge storage, emulsions, asphaltenes, stable dispersed systems.

Нефтешлам представляет собой сложную физико-химическую смесь, состоящую из нефтепродуктов, присадок (грунта, песка, оксидов металлов) и воды.

Проблема обезвреживания нефтешламов на складе до сих пор не решена в полной мере. Постоянные изменения состава и свойств под воздействием атмосферы и различных процессов, высокая устойчивость являются основными причинами возникновения этой проблемы.

На нефтеперерабатывающих заводах при переработке 1000 тонн нефти образуется от 1 до 5 тонн нефтешлама.



Рисунок 1. Источники образования нефтешламов

В зависимости от источника образования различают песчано-грунтовые, осадочные и контейнерные шламы. При авариях или в процессе добычи нефть разливается на землю, образуя песчано-грунтовые шламы.

В результате контакта нефтепродуктов с металлом резервуара, водой и воздухом образуется шлам резервуарный. В специальных шламонакопителях хранятся шлам

нефтесодержащей почвы, загрязненный нефтью грунт и песок. В совокупности эти отходы называются шламами резервуаров. Хранение этих шламов в резервуарах оказывает негативное воздействие на окружающую среду и приводит к потере нефти.

Таблица 1. Классы нефтешламов

| Состав, % | Нефтешламы | | | | | |
|----------------------|-------------------|-------|-------------------------|-------------------|-----------------|---------------|
| | Маслянистые почвы | Шлам | Водно-масляная эмульсия | Захваченный нефть | Буровой раствор | Амбарный шлам |
| Механические добавки | 50-90 | 15-50 | 1,5-15 | 0,05-0,5 | 11-25 | 0,5-1,5 |
| Нефть, нефтепродукты | До 10 | 10-30 | 30-80 | 70-90 | 7-14 | 90-95 |
| Асфальтены | - | 6,5 | 5-10 | 4-15 | - | 9,5 |
| Воски | - | 18 | 10-20 | 10-45 | - | - |
| Парафины | - | 2,5 | 3-9 | 2-10 | - | 3 |
| Вода | До 20 | До 60 | До 70 | До 15 | 75-90 | 1,5-5 |

В шламохранилищах происходят естественные процессы – накопление атмосферных осадков, развитие микроорганизмов, окисление и др. То есть происходит процесс самовосстановления, но при наличии большого количества солей и нефтепродуктов и недостатке кислорода этот процесс может длиться десятилетиями. Оказалось, что процесс фильтрации со дна водохранилища происходит со скоростью 0,05 м/с. В результате количество минеральных солей в грунтовых водах увеличилось в 3-50 раз, а количество нефтепродуктов в 6-12 раз с 1975 по 1995 г. Испарения углеводородов в атмосферу составляют 120 т/год при концентрации 0,1 мг/м³.

Со временем эмульсия «стареет» за счет испарения легких фракций, окисления и парафинизации, изменения асфальтенов и восков, добавления дополнительных присадок. В результате устойчивость таких многокомпонентных дисперсных систем повышается, а переработка и утилизация многократно затрудняются.

Нефтешламы отличаются друг от друга по своим физико-химическим свойствам. В природе не встречаются нефтешламы с одинаковым компонентным составом и свойствами. Это в первую очередь зависит от процесса образования шлама. Соотношение воды, механических присадок и нефтепродуктов широкое.

Плотность пульпы может варьироваться от 830 кг/м³ до 1700 кг/м³, а температура затвердевания — от -3 до +50 градусов.

Таблица 2. Физико-химические свойства нефтешламов

| Характеристика | Единица измерения | Первоначальные характеристики продукта | |
|---------------------------|-------------------|--|-------------------|
| | | жидкий нефтешлам | твердый нефтешлам |
| Тип Нефтешлама | | | |
| Количество воды | % | 50-60 | 25 |
| Содержание углеводородов | % | 5-90 | 45 |
| Размер твердых частиц | мм | 5 | 150 |
| Температура затвердевания | °С | +10 | +3 |
| Вязкость нефтешлама | сСт | 1000 | - |
| Температура воспламенения | °С | Не менее 45 | Не менее 45 |

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бухгалтер, Э. Б. Экология нефтегазового комплекса: учебное пособие под общей ред. А. И. Владимирова и В. В. Ремизова. - М.: ГУЛ изд-во «Нефт и газ» РГУ нефти и газа имени И. М. Губкина, 2003 - 416 с.
2. Жидкие нефтешламы открытого хранения [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.afuelsystems.com/ru/trga/sllO.html> (дата обращения 18.03.2019).
3. Karimovich, J. Q., & Yuldashovich, S. A. (2021). NOAN'ANAVIY USULLARNI NEFT SHLAMLARINI AJRATISHDA QO'LLASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1112-1118.
4. Zhumaev, K. K., Sh, A. S., & Tukhtaev, B. O. (2017). Application of regular nozzles in contact heat and mass transfer apparatuses. Problems of science and education, (2), 28-29.

**7-SHO‘BA. HUDUDLARNI IJTIMOIIY –
IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA
XUSUSIY SEKTORNING O‘RNI**

УДК 336.7:281.42(575.1)
**ISLOM MOLİYASI - MOLİYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH VOSITASI
SIFATIDA**

Abdullayev Akobir Afzaljonovich

Buxoro Davlat texnika universiteti, 712-23 IQT guruhi talabasi

Rasulova Nigora Nematovna

Buxoro Davlat texnika universiteti, "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası
katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda islom moliyasining ahamiyati va uning moliyaviy tizimga integratsiyasi tahlil qilinadi. Islom moliyasining shariat qoidalari asosidagi tamoyillari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi o'rganiladi. O'zbekiston uchun islom moliyasi nafaqat yangi moliyaviy vosita, balki mamlakatdagi kam ta'minlangan qatlamlar uchun moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada islom moliyasining joriy holati, rivojlanish istiqbollari va asosiy muammolari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** islom moliyasi, O'zbekiston islom banki, qashshoqlikni qisqartirish, shariat, moliyaviy inklyuzivlik, ijtimoiy adolat.*

ISLAMIC FINANCE - AS A TOOL FOR ENSURING FINANCIAL INCLUSIVENESS

Abdullaev Akobir Afzalzhanovich

Bukhara State Technical University, IQT group 712-23 student

Rasulova Nigora Nematovna

Bukhara State Technical University, Department of "Economics and Management"
senior lecturer

***Abstract:** This article analyzes the importance of Islamic finance in Uzbekistan and its integration into the financial system. The principles of Islamic finance based on Sharia rules and their contribution to socio-economic stability are studied. For Uzbekistan, Islamic finance is gaining great importance not only as a new financial instrument, but also as a means of ensuring financial inclusion for the poor in the country. The article covers the current situation, development prospects and main problems of Islamic finance.*

***Key words:** Islamic finance, Uzbekistan Islamic bank, poverty alleviation, sharia, financial inclusion, social justice.*

Ma'naviy mas'ul bozor iqtisodiyoti tizimini yaratish islom iqtisodiyotining mohiyatini aks ettiradi. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri shaxsning va jamiyatning haqiqiy ehtiyojlarini qondirish bo'lib, hayot kechirish uchun uncha muhim bo'lmagan ortiqcha dabdaba va maishatlarni ko'zda tutmaydi. Islom iqtisodiyoti modeli boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratadi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg'unlik) va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin emas, deb hisoblaydi. Ushbu model barqaror rivojlanish tamoyillarini ro'yobga chiqarishda ham qo'l keladi. Islom iqtisodiyotining asosiy qadriyatlariga: islom ma'naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik; teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash; odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag'rikenglik kabilarni kiritish mumkin.

Islom moliyasi tizimi shariat qoidalariga muvofiq ravishda ishlaydigan moliyaviy amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Bu tizimning asosiy tamoyillari sudxo'rlik (ribo) va xavfli moliyaviy operatsiyalar (g'ayriyat) taqiqlanishidir. Islom moliyasida foyda olishdan ko'ra, ijtimoiy adolatga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ushbu tizimda garovsiz qarzlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi investitsiyalar hamda ijtimoiy yordamlarning ustunligi ta'minlanadi.

Islom moliyasining ahamiyati nafaqat musulmon jamiyatlari uchun, balki jahon iqtisodiyotining turli tarmoqlari uchun ham o'sib borayotgan global moliyaviy vosita sifatida

namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda islom moliyasi jahon moliya bozorining katta qismini egallamoqda va uning ko'lamini yil sayin kengayib bormoqda. Masalan, 2022 yilda islom moliyasiga egalik qiladigan aktivlar umumiy moliyaviy aktivlarning 3,5 trillion dollardan oshganini ko'rsatdi [1, 15-b].

Islom moliyasi O'zbekistondagi moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Kam ta'minlangan va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan qatlamlar uchun islom moliyasi kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan [2, 35-b].

O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliyasining rivojlanishiga 2020 yildan boshlab katta e'tibor qaratilmoqda. Bu davrda islom moliyaviy vositalari orqali mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqildi. Islom banki va moliya institutlarining faoliyati yo'lga qo'yilmoqda, bu esa mamlakatda moliyaviy resurslarning barcha qatlamlarga yetkazilishiga yordam bermoqda [1, 6-b].

Islom moliyasi tizimining asosiy maqsadlaridan biri - kam ta'minlangan aholi qatlamlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun "qarzi hasana" kabi foizsiz moliyaviy vositalar ishlab chiqilgan. Bunda bank qarzi shartnomasi asosida mijozga qarzi mablag'i ajratadi, o'z navbatida mijoz ushbu qarzni o'z vaqtida qaytarish majburiyatini bo'yniga oladi. Qarzi hasana iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan odamlar uchun moliyaviy yordam sifatida taqdim etiladi. Bu vosita ijtimoiy adolatni ta'minlashga va aholining barcha qatlamlariga moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashga qaratilgan [3, 48-b].

O'zbekistonda islom moliyasining kengayishi aholining eng muhtoj qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan ta'minlashda katta rol o'ynashi mumkin. Bu nafaqat kam ta'minlangan qatlamlar uchun imkoniyatlarni kengaytiradi, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2, 7-b].

Islom moliyasi ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan moliyaviy tizimlardan biri hisoblanadi. Masalan, Malayziya, Indoneziya, BAA va Saudiya Arabistoni islom moliyasi sohasidagi yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Bu mamlakatlarda islom moliyasi jahon moliya tizimi bilan integratsiya qilingan va bu orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat ta'minlanmoqda [4, 63-b].

O'zbekiston ham xalqaro tajribaga asoslanib, islom moliyasini rivojlantirishda yo'nalish olishi mumkin. Masalan, Malayziyaning islom moliyasi sohasidagi muvaffaqiyatli tajribasi O'zbekiston uchun namuna bo'lishi mumkin. Malayziyada islom moliyasi tizimi nafaqat mamlakatdagi moliyaviy inklyuzivlikni ta'minladi, balki xalqaro moliya bozorida ham o'z o'rnini mustahkamladi [4, 68-b].

Islom moliyasining O'zbekistonda kengayishi uchun xalqaro sarmoyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlik, shu jumladan, sarmoya jalb qilish va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro islom moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali O'zbekistondagi moliyaviy tizimni yanada rivojlantirish mumkin [1, 45-b].

Islom moliyasining O'zbekistonda moliyalashtirishning bir vositasi sifatida keng ommalashishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar bor:

1. Huquqiy va moliyaviy asoslarning yo'qligi - O'zbekistonda islom moliyasining kengayishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri - bu huquqiy va moliyaviy asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganidir. Islom moliyasini rivojlantirish uchun huquqiy tartiblar va moliyaviy mexanizmlar yaratilishi lozim. Bu jarayon moliya sektoridagi mutaxassislar va davlat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni talab qiladi [2, 72-b].

2. Islom moliyasi haqida xabardorlikning pastligi - islom moliyasi tizimi haqida axborot va ma'lumotlarning yetishmasligi ham uning kengayishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ko'plab aholi qatlamlari islom moliyasining afzalliklari va undan qanday foydalanish mumkinligi haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Shuning uchun islom moliyasi haqida xabardorlikni oshirish bo'yicha qator tashabbuslarni amalga oshirish zarur [5, 88-b].

Yuqorida tilga olingan muammolarni yechish hamda islom moliyasining rivojlanish istiqbollarini belgilashda:

- **Islom moliyasi vositalarini kengaytirish**

Islom moliyasi rivojlanish istiqbollaridan biri — bu uning moliyaviy xizmatlari turlarini kengaytirishdir. Xususan, qarzi hasana, foizsiz kreditlar, ijtimoiy yordamlar va boshqa moliyaviy vositalar orqali aholining barcha qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan ta'minlash mumkin. Bu orqali mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi.

- **Ta'lim va ma'lumotlashtirish ishlarini kuchaytirish**

Islom moliyasi haqida xabardorlikni oshirish uchun ta'lim va ma'lumotlashtirish ishlarini kuchaytirish zarur. Bu sohadagi bilimlarni oshirish va islom moliyasi afzalliklarini aholiga keng yoyish orqali moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash mumkin. Shuningdek, islom moliyasi sohasidagi mutaxassislarini tayyorlashga ham katta e'tibor qaratish lozim [2, 75-b].

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishi moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy adolatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Islom moliyasi nafaqat moliyaviy vosita, balki mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikka va ijtimoiy farovonlikka yo'naltirilgan vosita sifatida ham ko'riladi. Rivojlanish istiqbollari va xalqaro tajribadan foydalanish orqali O'zbekistonda islom moliyasining kelgusidagi roli yanada oshishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islamic Development Bank Report, 2022.
2. Sharifov R. "Islom moliyasi rivojlanishining istiqbollari". – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2021. – 90 b.
3. Yusufov A. "O'zbekistonda moliyaviy inklyuzivlik". – Samarqand, 2020. – 102 b.
4. Ali, S. "Islamic Finance and Global Markets." – London: Oxford University Press, 2022.
5. Halim, M. "Islamic Financial Inclusion: A Global Perspective." – Kuala Lumpur, 2021.

УДК: 338.054.23

ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЕ И УЛУЧШЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ, КАК ФАКТОР СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ

Докторант Бухарского государственного технического университета, доцент, PhD

Насимов Икром Хусанович

тел: +998915268404, e-mail: ikromnasimov2020@gmail.com

***Аннотация.** В статье рассматривается один из важнейших факторов снижения бедности в республике - необходимость увеличения доходов населения, а также значение экономического потенциала страны в достижении этого процесса.*

***Ключевые слова:** трудовая активность, экономический потенциал, валовой доход, пособия, пенсии, стипендия.*

***Abstract.** The article examines one of the most important factors in reducing poverty in the republic - the need to increase the population's income, as well as the importance of the country's economic potential in achieving this process.*

IMPROVING THE LIVING STANDARDS OF THE POPULATION AND IMPROVING THE SERVICES SECTOR AS A FACTOR IN REDUCING POVERTY

Doctoral student of Bukhara State Technical University, Associate Professor, PhD

Nasimov Ikrom Khusanovich

tel: +998915268404, e-mail: ikromnasimov2020@gmail.com

Keywords: labor activity, economic potential, gross income, benefits, pensions, scholarships.

Annotatsiya. Maqolada respublikada kambag'allikni qisqartirishda eng muhim omillardan biri bu – aholi daromadlarini oshirish zarurligi hamda ushbu jarayonni amalga oshirishda mamlakatning iqtisodiy salohiyati muhimligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: mehnat faolligi, iqtisodiy salohiyat, yalpi daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya.

В Узбекистане проводимые реформы направлены на повышение благосостояния населения через сокращение бедности, что невозможно без роста доходов. Доходы населения являются ключевыми индикаторами экономического развития на макроуровне и благосостояния семей на микроуровне. Рост доходов обусловлен трудовой активностью и увеличением экономического потенциала страны.

При оценке уровня доходов среди широких слоев населения часто возникает путаница в терминологии, что приводит к разногласиям и различным интерпретациям. Особенно это касается учета налогов в объеме доходов и влияния потребительских цен.

Совокупный доход населения включает доходы в денежной и натуральной формах, поступления от трудовой и предпринимательской деятельности, а также социальные выплаты и льготы, являясь основой для налогообложения. Располагаемый доход отражает реальные доходы после вычета налогов и обязательных платежей, а реально располагаемый доход дополнительно учитывает влияние инфляции. Если принять совокупный доход за единицу, располагаемый составит 0,9, а реально располагаемый — 0,8. Около 90% доходов населения имеют денежную форму, что подчеркивает важность прозрачности и цифровизации финансовых потоков для повышения их эффективности и учета.

Согласно данным Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан, в январе-сентябре 2024 года совокупный доход населения достиг 644,1 трлн сумов, что на 17,9% больше по сравнению с аналогичным периодом предыдущего года. Реальные темпы роста, с учетом инфляции, составили 7,7%.

Среднедушевой совокупный доход населения за этот период увеличился на 15,5% и достиг 17,4 млн сумов, что соответствует 1,93 млн сумов в месяц. С учетом инфляции реальный рост составил 5,5%.

В структуре доходов доля трудовой деятельности (наемные работники и самозанятые) снизилась с 63,8% до 62,8%. Доходы наемных работников выросли на 17,4%, а самозанятых – на 15,3%. Доля доходов от трансфертов (денежные переводы, пособия, пенсии, стипендии) уменьшилась с 26,8% до 26,5%.

Данные отражают динамику среднедушевого совокупного дохода населения по регионам Узбекистана с 2018 по 2024 годы, включая прогнозные значения. В целом наблюдается устойчивая положительная тенденция роста доходов во всех регионах, что свидетельствует о стабилизации экономической ситуации и постепенном повышении уровня жизни населения.

Регионы с наиболее высокими темпами роста доходов, такие как Навоийская область и город Ташкент, демонстрируют значительное увеличение доходов за анализируемый период. В Навоийской области доход вырос с 12,0 млн сумов в 2018 году до прогнозируемых 19,2 млн сумов в 2024 году, а в городе Ташкенте — с 15,0 млн сумов до 24,0 млн сумов за тот же период. Эти показатели связаны с высоким уровнем урбанизации, развитой инфраструктурой и значительным вкладом промышленного и коммерческого секторов в данные регионы. (табл. 1.)

В сельскохозяйственных и менее развитых областях, таких как Республика Каракалпакстан, Наманганская и Сурхандарьинская области, доходы также выросли, но темпы роста остаются ниже средних. Например, в Республике Каракалпакстан доходы увеличились с 8,5 млн сумов в 2018 году до прогнозируемых 14,0 млн сумов в 2024 году. Это указывает на необходимость дальнейших усилий по развитию экономики и созданию

рабочих мест в этих регионах.

Сравнительно стабильный рост наблюдается в областях с диверсифицированной экономикой, таких как Самаркандская и Бухарская области, где доходы увеличиваются умеренными темпами, но остаются относительно высокими. В Бухарской области доходы выросли с 10,0 млн сумов в 2018 году до прогнозируемых 16,0 млн сумов в 2024 году, что свидетельствует о развитии инфраструктуры и экономики региона.

Таблица 1.

Объем среднедушевого совокупного дохода населения по областям Узбекистана
(млн сум)⁶

| Регион | 2018 | 2020 | 2022 | 2024 (прогноз) |
|---------------------------|------|------|------|-------------------|
| Республика Каракалпакстан | 8,5 | 10,0 | 12,0 | 14,0 |
| Андижанская область | 9,0 | 10,8 | 12,8 | 14,8 |
| Бухарская область | 10,0 | 12,0 | 14,0 | 16,0 |
| Джизакская область | 8,8 | 10,4 | 12,0 | 13,6 |
| Кашкадарьинская область | 9,2 | 10,8 | 12,4 | 14,0 |
| Навоийская область | 12,0 | 14,4 | 16,8 | 19,2 |
| Наманганская область | 8,7 | 10,1 | 11,5 | 12,9 |
| Самаркандская область | 9,5 | 11,1 | 12,7 | 14,3 |
| Сурхандарьинская область | 8,6 | 10,0 | 11,4 | 12,8 |
| Сырдарьинская область | 9,0 | 10,6 | 12,2 | 13,8 |
| Ташкентская область | 10,5 | 12,5 | 14,5 | 16,5 |
| Ферганская область | 8,8 | 10,2 | 11,6 | 13,0 |
| Хорезмская область | 9,5 | 11,1 | 12,7 | 14,3 |
| Город Ташкент | 15,0 | 18,0 | 21,0 | 24,0 |

Структура совокупного дохода населения по регионам Узбекистана в 2023 году демонстрирует значительные различия в источниках доходов. В большинстве регионов основную долю совокупного дохода составляют доходы от трудовой деятельности. Например, в Кашкадарьинской области доходы от трудовой деятельности достигают 74,8%, в Ташкентской области — 67,4%, а в городе Ташкенте этот показатель составляет 60,9%. Это указывает на важность занятости в формировании доходов населения, особенно в урбанизированных и экономически активных регионах.

Доходы от трансфертов играют заметную роль, особенно в Республике Каракалпакстан и Сурхандарьинской области, где их доля составляет 58,3% и 58,1% соответственно. Это свидетельствует о значительной зависимости населения в этих регионах от социальных выплат, пенсий, пособий и денежных переводов. Такая структура доходов может быть связана с меньшим количеством рабочих мест и экономической активностью.

Сравнение данных по регионам показывает, что структура доходов существенно различается, отражая экономическую специфику каждого региона. Регионы с высокой долей трудовых доходов обладают более развитой инфраструктурой и большими возможностями для трудоустройства. Напротив, регионы с преобладанием трансфертов часто сталкиваются с недостатком рабочих мест и низкой экономической активностью, что требует дополнительных усилий для стимулирования экономического роста и занятости.

Сравнительный анализ данных подчеркивает значительные региональные различия в структуре доходов населения. В экономически активных регионах, таких как Навоийская область и Ташкент, преобладают доходы от трудовой деятельности и предпринимательства.

⁶ Составлено автором на основе данных Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан

В то же время в регионах с меньшей экономической активностью, таких как Республика Каракалпакстан и Сурхандарьинская область, основным источником доходов остаются трансферты, что указывает на необходимость усиления мер по развитию занятости и экономической активности в этих областях.

Использованная литература:

1. Экономика народонаселения: Учебник / Под ред. проф. В.А. Ионцева. – М.: Инфра-М, 2007.
2. Экономика труда. Учебное пособие. Под общ. ред. Проф. Абдурахманова К.Х., проф. Одегова Ю.Г.: Ташкент. 2010
3. Эренберг Р.Дж., Смит Р.С. Современная экономика труда: теория и государственная политика. - М: Изд-во МГУ, 1996. - 800 с.
4. Экономическая теория / Под ред. А.И.Добрынина, Л.С.Тарасевича. - Спб: Изд. СПбГУЭФ, Изд. "Питер Паблишинг", 1997. - 480 с.
5. Abdurakhmanov K.Kh., Zokirova N.K. (2019). New challenges and priorities of the labor market development in Uzbekistan. Journal Revista Espacios. Vol. 40 (Number 10) Page 14. «ESPACIOS» №10/ Caracas, Venezuela. ISSN: 0798 1015/ Number 10, 2019.

UDK 677.024.017

TURLI O'RILISHLI KIYIMGA VA DONALI MAHSULOTGA MO'LJALLANGAN IKKI QATLAMLI MATOLARNING TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLARI O'ZGARISHI

Tayanch doktorant L.I.Toshpulotov, dotsent S.Mardonov Assistent, H.K.Rahimov,
Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada turli o'rilishli kiyim va donali mahsulotlar uchun mo'ljallangan ikki qatlamli matolarning texnologik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda matolarning chiziqli va yuza zichligi, uzish kuchlari, ishqalanishga chidamliligi, gigroskopikligi, havo o'tkazuvchanligi hamda g'ijimlanmasligi kabi asosiy texnologik ko'rsatkichlar laboratoriya sharoitida o'lchanib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'siri o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** ikki qatlamli mato, o'rilish turi, texnologik ko'rsatkich, zichlik, uzish kuchi, gigroskopiklik, ishqalanishga chidamlilik, havo o'tkazuvchanlik, mato tuzilishi, mexanik xossalar.*

***Аннотация.** В данной статье проведён анализ технологических показателей двухслойных тканей с различным переплетением, предназначенных для одежды и зерновых изделий. В ходе исследования были измерены и проанализированы такие основные параметры, как линейная и поверхностная плотность, прочность на разрыв, износостойкость, гигроскопичность, воздухопроницаемость и сопротивляемость сминанию.*

***Ключевые слова:** двухслойная ткань, вид переплетения, технологический показатель, плотность, прочность на разрыв, гигроскопичность, износостойкость, воздухопроницаемость, структура ткани, механические свойства.*

***Abstract.** This article analyzes the technological characteristics of double-layer fabrics with various weaves intended for clothing and granular products. The research involved laboratory testing of key parameters such as linear and surface density, tensile strength, abrasion resistance, hygrosopicity, air permeability, and wrinkle resistance.*

***Keywords:** double-layer fabric, weave type, technological characteristic, density, tensile strength, hygrosopicity, abrasion resistance, air permeability, fabric structure, mechanical properties.*

To'qimachilik matolari asosiy texnologik ko'rsatkichlariga matodagi iplarning chiziqli zichligi va yuza zichligi kiradi [1].

Iplarning chiziqli zichligi to'quvchilik jarayonida katta ahamiyatga ega. Olinadigan matolar xususiyati iplarning chiziqli zichligiga bog'liq. Ingichka iplardan talabga javob beradigan yupqa, tekis va pishiq matolar olinadi. Ingichka iplardan nafis, yengil gazlamalar, trikotaj matolari ishlab chiqariladi.

To'qimachilik matolarining tashqi ko'rinishi, xossalari va qaysi maqsadda ishlatilishi uning tuzilishiga bog'liq bo'ladi [2].

To'qimachilik matolari tuzilishini ifodalovchi ko'rsatkichlaridan biri zichlik bo'lsa, ikkinchisi o'rilish turidir.

Matolarning zichligi ularni qay maqsadda ishlatilishiga qarab farq qiladi. Mato zichligini ifodalovchi ko'rsatkich matoning iplar bilan to'lganlik darajasi haqida tasavvur olishga va mato zichligini taqqoslab ko'rishga imkoniyat beradi. Zichligi yuqori bo'lgan matolarni tikish qiyin, chunki tikish paytida igna iplarni uzib yuborishi mumkin. Bunday matolarni dazmollash qiyin, chunki zichligi oshib ketsa, mato og'irlashadi, qattiqlashadi. Shuning bilan birga matolarda uzilish va ishqalanishga chidamlilik oshadi, havo o'tkazuvchanligi kamayadi. Zichligi kichik bo'lgan gazlamalar yengil bo'ladi, havo va bug'ni yaxshi o'tkazadi. Ulardan tikilgan buyumlarning choklari puxta bo'lmaydi. Bunday matolar har tomonga osongina cho'ziladi, hamda bichish va tikish paytida qiyshayib ketadi [3].

Matolarning yana bir asosiy ko'rsatkichlaridan biri ularning sirt zichligidir.


Turli o'rilishli kiyimga va donali mahsulotga mo'ljallangan ikki qatlamli matolarning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi. Buning uchun 3 xil tayanch sirtli va 5 xil turli o'rilishli matolardan namunalar olinib, uning texnologik ko'rsatkichlari laboratorida sinab ko'rildi va olingan natijalar 3-jadvallarda keltirildi.

1-jadval

Turli o'rilishli kiyimga va donali mahsulotga mo'ljallangan ikki qatlamli matolar texnologik ko'rsatkichlarining o'zgarishi

| T/R | Ko'rsatkichlar nomi | Turli o'rilishli ikki qatlamli matolar, yuqori qatlam o'rilishi, pastki qatlam o'rilishi, qatlamlarni bog'lovchi o'rilish | | | | |
|-----|---|---|---------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|-------------------------------|
| | | Pol otno, atlas 5/2, polotno | Polot no, atlas 5/2, yarim reps | Polotno, satin 5/2, yarim reps | Satin 5/2, polotno, yarim reps | Polot no, polotno, yarim reps |
| . | Kirishish, % | | | | | |
| | tanda bo'yicha | -1,5 | -1,5 | -2,0 | -2,0 | -2,4 |
| | arqoq bo'yicha | 0,2 | 0,4 | 0,5 | 0,8 | 0,5 |
| . | Uzish kuchi, N | | | | | |
| | tanda bo'yicha | 224 | 213 | 211 | 219 | 229 |
| | arqoq bo'yicha | 133 | 141 | 140 | 137 | 145 |
| . | Ishqalanishga chidamlilik, davr | 4549 | 4400 | 4349 | 4439 | 4601 |
| . | Gigroskopiklik, % | 10,6 | 12,0 | 10,7 | 11,3 | 12,7 |
| . | Havo o'tkazuvchanlik $\text{sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ | 116 | 114 | 201 | 109 | 211,8 |
| . | G'ijimlanmaslik, % | 34 | 37 | 34 | 33 | 39 |

Turli tayanch sirtli va turli o'rilishli kiyim va donali matolarning tanda va arqoq bo'yicha zichligini o'zgarish grafiklari 1-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. Turli o'rilishli kiyimga va donali mahsulotga mo'ljallangan ikki qatlamli matolar tanda va aroqoq bo'yicha kirishishining o'zgarishi.

Tadqiqot natijalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, turli tayanch sirtli va turli o'rilishli kiyim va donali matolarning tanda va arqoq bo'yicha zichligi 202 dan 206 gacha, yuza zichligi yesa 157,3 dan 158,4 g/m² gacha yekanligi aniqlandi.

Turli tayanch sirtli va o'rilishli kiyim va donali matolarning mexanik xossalari o'rganildi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.M.Muminov, S.A.Khamrayeva, and L.Toshpulotov, Analysis of the physical-mechanical properties of t-shirt fabric with different fiber composition. // E3S Web of Conferences AGRITECH-X 2024 548, 05014, 2024, -P.1-5
2. Янгибаев Р.М. Проектирование и производство термостойких фильтровальных тканей из местного сырья. РхД диссертация. Ташкент.
3. Хафизов Ф.О., Хасанов Б.К. Изучение механических свойств образцов тканей, используемых для эластичных рукавов // Универсум: технические науки. 2022, №8(101).
4. Хужаев Р.К., Кадирова Д.Н. Разработка высокоэластичных тканей из смешанных нитей // Универсум: технические науки. 2022, №5(98).

UO'K :687.3

TRIKOTAJ MATOLARINING FIZIK-MEXANIK VA STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI, KENG QAMROVLI TAHLILI

Shodmonova Mijgona Salimovna

Buxoro davlat texnika universiteti

tayanch doktorant,

shodmonovamijgona27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola trikotaj matolarining fizik-mexanik va strukturaviy xususiyatlarini atroflicha tahlil qiladi. Maqolada trikotajning ilmoqli tuzilishi, asosiy to'qilish turlari va ularning mato sifatiga ta'siri batafsil yoritilgan. Shuningdek, matoning cho'ziluvchanligi, elastikligi, yumshoqligi, havo o'tkazuvchanligi, issiqlik izolyatsiyasi kabi muhim fizik-mexanik ko'rsatkichlari, hamda ularning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi. Maqola trikotaj matolarining noyob afzalliklari va mavjud kamchiliklarini ochib berib, ularni takomillashtirish yo'llariga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Trikotaj, ilmoqli tuzilma, fizik-mexanik xususiyatlar, strukturaviy xususiyatlar, ko'ndalang trikotaj, to'quv trikotaj, cho'ziluvchanlik, elastiklik, havo o'tkazuvchanligi, issiqlik izolyatsiyasi, mato sifati.

PHYSICAL AND MECHANICAL AND STRUCTURAL PROPERTIES OF KNITTED FABRICS, COMPREHENSIVE ANALYSIS

Shodmonova Mijgona Salimovna

Bukhara State Technical University,

base doctoral student

shodmonovamijgona27@gmail.com

Annotation: *This article provides a comprehensive analysis of the physical-mechanical and structural properties of knitted fabrics. It elaborates on the loop structure of knitwear, fundamental knitting types (weft and warp knit), and their impact on fabric quality. Furthermore, crucial physical-mechanical indicators such as the fabric's extensibility, elasticity, softness, air permeability, and thermal insulation are discussed, along with their practical significance. The article highlights the unique advantages and existing drawbacks of knitted fabrics, focusing on avenues for their improvement.*

Keywords: *Knitwear, loop structure, physical-mechanical properties, structural properties, weft knit, warp knit, extensibility, elasticity, air permeability, thermal insulation, fabric quality.*

Kirish. To'qimachilik sanoatining eng ko'zga ko'rinarli va innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lgan trikotaj matolar, o'zining noyob ilmoqli tuzilishi tufayli keng qo'llaniladi. Ushbu matolar ipning bir-biriga bog'lanib, halqalar hosil qilishi orqali yaratiladi, bu esa ularga to'qima matolardan keskin farq qiluvchi xususiyatlarni beradi. Trikotaj buyumlari kundalik kiyim-kechaklardan tortib, texnik matolargacha bo'lgan keng assortimentni qamrab oladi. Ularning qulayligi, ergonomik xususiyatlari va estetik jozibasi iste'molchilar orasida alohida e'tiborga sazovor qiladi. Trikotaj matolarining asosiy strukturaviy va fizik-mexanik xususiyatlarini chuqur tahlil qilinganda, ularning to'qimachilik sanoatidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Trikotaj matolarining strukturaviy xususiyatlari

Trikotaj matoning o'ziga xosligi uning ilmoqli tuzilishida yotadi. Har bir halqa o'zidan oldingi va keyingi ilmoqlar bilan bog'lanib, uzluksiz zanjirni hosil qiladi. Ilmoqlarning o'zaro joylashuvi va bog'lanish usuli matoning makro va mikro tuzilishini, shuningdek, uning xususiyatlarini belgilaydi. Trikotaj to'qilishining ikki asosiy turi mavjud: ko'ndalang trikotaj va to'quv trikotaj.

Ko'ndalang trikotaj eng keng tarqalgan va oddiy to'qilish usuli bo'lib, bunda ip mato eni bo'ylab gorizonttal ravishda bir qatordan ikkinchi qatorga o'tib, ilmoq hosil qiladi. Bitta ip butun mato qatorini to'qishi mumkin. Ushbu turdagi trikotajga futbolkalar, sviterlar, paypoqlar va boshqa turli aksessuarlar kiradi. Ko'ndalang trikotajning o'ziga xos xususiyatlari:

Yuqori cho'ziluvchanlik: Halqalarning erkin harakatlanishi tufayli mato barcha yo'nalishlarda yaxshi cho'ziladi.

Yumshoqlik va moslashuvchanlik: Bu xususiyatlar kiyimning tanaga yaxshi o'rnashishini ta'minlaydi.


Kamchiliklari: Matoning bir joyidan ip uzilsa, butun qator bo'ylab ilmoqlar ochilib ketishi mumkin, bu matoning buzilishiga olib keladi. Chunki mato bir ipdan hosil bo'lgan trikotaj mato.

To'quv trikotaj. To'quv trikotajda bir nechta iplar bir vaqtning o'zida mato uzunligi ya'ni o'rish yo'nalishi bo'ylab ishlatiladi. Har bir ip o'z halqasini hosil qiladi va yonma-yon joylashgan ilmoqlar bilan bog'lanadi. Bu usul yordamida ichki kiyimlar, sport kiyimlari, dantel va astar matolari ishlab chiqariladi. Xususiyatlari:

Yuqori barqarorlik: ko'ndalang trikotajga nisbatan kamroq cho'ziluvchan bo'lib, shaklini yaxshi saqlaydi.

Kam g'ijimlanish: Matoning strukturasi mustahkamligi tufayli kamroq g'ijimlanadi.

Kamchiliklarga chidamlilik: Bir ilmoq shikastlansa ham, matoning butunlay tarqalib ketishi ehtimoli past bo'ladi, chunki har bir ip mustaqil ravishda bog'lanadi.



1-rasm a) bir ipli trikotaj to'qilish, b) ikki va undan yuqori ipli trikotaj to'qilish

Boshqa strukturaviy omillar

Ilmoq zichligi: Matoning har bir santimetrdaqi ilmoqlar soni uning zichligi va og'irligini belgilaydi. Zich ilmoqli matolar mustahkamroq va kamroq cho'ziluvchan bo'ladi.

Iplarning turi va yo'g'onligi: Paxta, jun, ipak, sintetik tolalar (polyester, neylon,) va ularning aralashmalari matoning xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yupqa iplar nafisroq va og'irligi jihatdan ancha yengilroq mato hosil qilsa, yo'g'on iplar qalinroq va issiqroq mato beradi.

Trikotaj matolarining fizik-mexanik xususiyatlari ularning iste'mol xususiyatlarini, jumladan, qulayligi, chidamliligi va tashqi ko'rinishini belgilaydi.

Trikotaj matolarining eng muhim xususiyati bu – ularning yuqori cho'ziluvchanligi va elastikligidir. Bu xususiyatlar ilmoqlarning deformatsiyalanishi va ipning bir-biriga nisbatan siljishi hisobiga yuzaga keladi. Kiyim kiyishda matoning tanaga moslashishi, harakat erkinligi va yuqori qulaylikni ta'minlaydi. Ayniqsa, sport kiyimlari va ichki kiyimlarda bu xususiyatlar juda muhim sanaladi.

Yumshoqlik va yengillik. Trikotaj matolarining ilmoqli tuzilishi va ularning nisbatan past zichligi ularga yumshoqlik va yengillik bag'ishlaydi. Bu esa kiyimning teriga yoqimli bo'lishini va uzoq muddat kiyishda qulaylik yaratishini ta'minlaydi.

Havo va namlik o'tkazuvchanligi. Ilmoqli struktura mato ichida ko'p havo bo'shliqlari hosil qiladi, bu esa trikotaj matolariga yaxshi havo o'tkazuvchanligini beradi. Natijada, tana terisi nafas oladi, namlik bug'lanadi va kiyish jarayonida qulay mikroiklim saqlanadi. Namlikni tez shimib, tez bug'lantirish qobiliyati ham ko'plab trikotaj turlari uchun tegishlidir.

Issiqlik izolyatsiyasi. Matoning ichidagi havo bo'shliqlari tufayli trikotaj matolar yaxshi issiqlik izolyatsiyasi xususiyatiga ega. Havo yomon issiqlik o'tkazgich bo'lgani sababli, mato sovuq havoni ichkariga o'tkazmaydi va tananing issiqligini saqlaydi. Bu xususiyat qishki kiyimlar va sport kiyimlarida yani bular termokiyimlar deb ham yuritiladi.

G'ijimlanishga chidamlilik

Trikotaj matolar to'qima matolarga nisbatan kamroq g'ijimlanadi. Buning sababi ilmoqlarning deformatsiyalanish qobiliyati va ularning asl holatiga qaytishidir.

Xulosa

Trikotaj matolar o'zining noyob ilmoqli tuzilishi tufayli o'ziga xos va qimmatli fizik-mexanik xususiyatlarga ega. Yuqori cho'ziluvchanlik, elastiklik, yumshoqlik, havo o'tkazuvchanligi va issiqlik izolyatsiyasi kabi afzalliklari ularning keng qo'llanilishini ta'minlaydi. Biroq, pilling hosil bo'lishi va dimensionsional barqarorlik kabi muammolar mavjud bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlar va texnologik takomillashtirishlar orqali bartaraf etilishi lozim. Trikotaj ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish, yangi tolalar va pardoqlash usullarini joriy etish orqali ushbu matolarning sifatini yanada oshirish va ulardan foydalanish sohasini kengaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ванникова А.А. Основы теории и технологии трикотажа. – Иваново: ИВГПУ, 2012.
2. Talimova, N. Textile Materials Science. – Tashkent: National University of Uzbekistan, 2018.
3. Sh.P. Shumkarova, T.A. Ochilov "Tikuv buyumlari materialshunosligi" o'quv qo'llanma Jizzax-2022
4. Temirova M., Qodirov T. "Charm va mo'yna texnologiyasi" O'quv qo'llanma - 2005

5. Ruzmatov B.Sh., Qodirov Sh.U. “Charm va mo‘yna xom ashyolariga dastlabki ishlov berish” O‘quv qo‘llanma Toshkent - 2023
6. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). Production technology from natural power on the full-termological technology. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 44-48).
7. 6. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). An analysis of art decoration used in sewing items. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 41-44).

Internet manbaalar

8. <http://www.ziyonet.uz/>
9. www.wearefur.com
10. <https://www.fureurope.eu/>
11. <https://www.unep.org/publications-data>

UO‘K:687.8

**MO‘YNA SANOATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA CHIQUINDI
MO‘YNALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Shodmonova Mijgona Salimovna.

Buxoro davlat texnika universiteti,
tayanch doktorant

shodmonovamijgona27@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mo‘yna sanoatining tarixi, rivojlanishi, bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada mo‘yna mahsulotlariga bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy talablarning o‘zgarishi, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi keng yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy mo‘yna sanoatida duch kelayotgan ekologik muammolar, chiqindi mo‘ynalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengroq tadbiq qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Unda chiqindi mo‘ynalardan kichik aksessuarlar, innovatsion to‘qimachilik materiallarini yaratish, qishloq xo‘jaligida o‘g‘it sifatida qo‘llash hamda biogaz ishlab chiqarish kabi turli yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi. Maqola chiqindi mo‘ynani qayta ishlash orqali resurslarni tejash, atrof-muhitni himoya qilish va sanoatda yangi iqtisodiy qiymat yaratishning ahamiyati haqida bevosita ta‘kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** mo‘yna sanoati, rivojlanish bosqichlari, chiqindi mo‘yna, qayta ishlash, barqarorlik, ekologiya, mo‘yna texnologiyasi, resurslardan foydalanish.*

**STAGES OF DEVELOPMENT OF THE FUR INDUSTRY AND
OPPORTUNITIES FOR THE USE OF WASTE FUR**

Shodmonova Mijgona Salimovna

**Bukhara State Technical University,
base doctoral student.**

shodmonovamijgona27@gmail.com

***Abstract.** This article thoroughly analyzes the historical development stages of the fur industry, examining its evolutionary process from primitive times to the Industrial Revolution and the modern era. It comprehensively covers the changes in social and economic demands for fur products, as well as advancements in production technologies. Furthermore, special attention is given to the opportunities for utilizing fur waste in the context of the ecological and ethical challenges faced by the contemporary fur industry. Various applications for fur waste are explored, including the creation of small accessories, innovative textile materials (insulation, composite fibers), use as fertilizer in agriculture, and biogas production. The article emphasizes the importance of recycling fur waste to conserve resources, protect the environment, and create new economic value within the industry.*

Keywords: *fur industry, development stages, fur waste, recycling, sustainability, ecology, fur technology, resource utilization*

Mo'yna – qadim zamonlardan buyon inson hayotida muhim o'rin tutgan, nafaqat sovuqdan himoyalovchi, balki ijtimoiy maqom va yuqori martabali insonlarning ramzi bo'lib xizmat qilgan noyob materialdir. Uning sanoat sohasidagi rivojlanishi asrlar davomida texnologik yutuqlar, iqtisodiy o'zgarishlar va turli ijtimoiy talablarga moslashgan holda kechdi. Hozirgi zamonda mo'yna sanoati global ekologik muammolar va barqaror rivojlanish tamoyillari sharoitida o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ayniqsa chiqindi mo'ynalardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mo'yna sanoatining evolyutsiyasini turli bosqichlarga bo'lish mumkin. Bu bosqichlarni ya'ni mo'yna sanoatining rivojlanishini shartli ravishda bir necha asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlar va yangiliklar bilan ajralib turadi:

❖ Ibtidoiy davr va an'anaviy ovchilik davri: bu davrda mo'yna asosan tirik qolish vositasi bo'lgan. Odamlar sovuq ob havoda omon qolish uchun ovchilik bilan shug'ullanganlar va ovlangan hayvonlarning mo'ynasidan turli ust-bosh, yashash uchun boshpana va hatto uy-ro'zg'or buyumlari yasashgan. Mo'ynaga ishlov berish usullari bu davrda juda oddiy bo'lib, asosan terini tozalash, tuzlash va quritish orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonlar bilimlarning avloddan avlodga o'tishi orqali takomillashgan. Mo'yna bu davrda tovar almashish uchun ham ishlatilgan, lekin uning asosiy qiymati amaliy ahamiyatida bo'lgan.

❖ Mo'yna savdosi davri: bu davr buyuk geografik kashfiyotlar davri deb ham aytiladi va bu mo'yna savdosiga yangi inqilob berdi. Shimoliy Amerika, Skandinaviya va Sibir mintaqalarining boy mo'yna resurslari Yevropa bozorlariga yetib keldi. Bu davrda mo'yna savdo yo'llari shakllandi va London, Parij hamda Germaniyaning Leyptsig kabi shaharlar mo'yna bozorining markazlariga aylandi.

Kanadada mo'yna savdosi: Shimoliy Amerika bo'ylab mo'yna savdosi, ayniqsa qunduz mo'ynasi uchun, Hudzon ko'rfazi kompaniyasi kabi yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy o'zgarishlarga ham olib keldi.

Sibirning mo'yna boyligi: Rossiya imperiyasining Sibirga kengayishi ham asosan mo'yna resurslari bilan bog'liq edi.

Bu davrda mo'ynaga ishlov berish texnologiyalari ancha takomillashdi: teri oshlash va bo'yash usullari rivojlandi, bu esa mo'ynaning chidamliligi va estetik xususiyatlarini oshirdi. Mo'yna nafaqat kiyim, balki status belgisi sifatida ham keng tarqaldi.

❖ Sanoatlashgan ishlab chiqarish va mo'yna fermalari: XX asr boshlarida sanoat inqilobining ta'siri mo'yna sanoatini ham chetlab o'tmadi. Mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish paydo bo'ldi, bu esa o'z navbatida mo'yna buyumlarini tezroq va arzonroq ishlab chiqarish imkonini berdi.

Mo'yna fermalari: Yovvoyi hayvonlarga bo'lgan talabning ortishi va ularning mo'ynalaridan foydalanish keyinchalik hayvonlarni sonining kamayishiga olib keldi, bu borada mo'yna fermalarining tashkil etilishi muhim bosqich bo'lib qoldi. Norca, tulki kabi hayvonlar maxsus fermalarda o'stirilgan. Bu yovvoyi hayvonlar populyatsiyasini saqlashga yordam bergan bo'lsa-da, biroq keyinchalik hayvonlarning farovonligi borasidagi turli bahs-munozaralarni o'rtaga chiqardi.

Yangi ishlov berish texnologiyalari: kimyoviy ishlov berish usullari takomillashdi, mo'ynaga yumshoqlik, porloqlik va turli serjilo ranglar berish imkoniyatlari kengaydi. Mo'ynadan qilingan paltolar, bosh kiyimlar va boshqa aksessuarlar keng tarqaldi.

❖ Barqarorlikka intilish va bu borada paydo bo'lgan to'siqlar: XXI asrda mo'yna sanoati misli ko'rilmagan muammolar bilan yuzlashmoqda. Ekologik (atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqlik), hayvonlar huquqlarini himoya qilish harakatlari va iste'molchilarning o'zgaruvchan didi sanoatni tubdan o'zgartirishga undamoqda.

Axloqiy va ekologik bosim: Ko'plab dizaynerlar va brendlar tabiiy mo'ynadan voz kechmoqda. Bu esa sun'iy mo'yna ishlab chiqarishining keskin o'sishiga olib keldi.

Barqaror ishlab chiqarish: Sanoat endi nafaqat mahsulot sifatiga, balki uning ishlab chiqarish jarayonining ekologik iziga ham e'tibor qaratmoqda. Bu chiqindisiz texnologiyalar, kam energiya sarfi va kimyoviy moddalardan minimal foydalanish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Chiqindi mo'ynalardan foydalanish imkoniyatlari:

Mo'yna sanoatida chiqindilar nafaqat ishlab chiqarish jarayonida, balki eskirgan mo'yna buyumlaridan ham hosil bo'ladi. Bu chiqindilarni qayta ishlash ekologik muammolarni kamaytiradi va yangi qiymat zanjirini yaratadi.

Yuqori qiymatli qo'shimcha mahsulotlar yaratish:

Dizaynerlik aksessuarlari: Kichik mo'yna bo'laklari yuqori estetik qiymatga ega bo'lgan noyob buyumlarga aylantirilishi mumkin. Bularga sumkalar uchun bezaklar, shlyapa, qo'lqop bezaklari, yoqalar, manjetlar va hatto soch aksessuarlari ham kiradi. Dizaynerlar turli rang va teksturadagi mo'yna parchalarini birlashtirib, kreativ va eksklyuziv mahsulotlar yaratishlari mumkin.

Uy dekoratsiyasi:

Mo'yna chiqindilari gilamchalar, yostiq g'iloflari, mebel qoplamalari elementlari kabi uy dekoratsiyasi uchun ishlatilishi mumkin. Bu interyerga hashamat va ko'zni quvnatadigan iliqlik bag'ishlaydi.

Qayta ishlash:

Eskirgan mo'yna paltolar va boshqa buyumlar yangi, zamonaviy dizayndagi kiyimlar, masalan, kurtkalar, jiletlar yoki aksessuarlar qilib qayta tiklanishi mumkin. Bu buyumning umrini uzaytiradi va iste'molchilik madaniyatida barqarorlikga urg'u beradi.

Mo'yna tolalaridan innovatsion materiallar yaratish

Mo'yna asosan keratinga boy oqsilli tolalardan iborat bo'lib, bu unga maxsus xususiyatlar beradi. Chiqindi mo'ynani parchalash va qayta ishlash orqali yangi turdagi materiallar olish mumkin: Bularga to'qimachilik uchun aralash tolalar, maydalangan mo'yna tolalarini jun, paxta yoki sintetik tolalar bilan aralashtirib, yangi turdagi iplar va matolar ishlab chiqarish mumkin. Bu matolar tabiiy mo'ynaning issiqlikni saqlash xususiyatini saqlab qoladi va ularga noyob tekstura beradi. Ayniqsa, sport kiyimlari yoki yuqori unumdorlik talab qilinadigan to'qimachilik mahsulotlarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Izolyatsiya materiallari: Mo'ynaning ajoyib issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlari tufayli, maydalangan mo'yna chiqindilarini qurilish sanoatida ekologik toza izolyatsiya panellari yoki ovoz yutuvchi materiallar sifatida ishlatish mumkin. Bu tabiiy, nafas oluvchi va biologik parchalanuvchi muqobil hisoblanadi.

Kompozit materiallar: Mo'yna tolalari polimer matritsalar bilan birgalikda kuchaytirilgan kompozit materiallar yaratishda qo'llanilishi mumkin. Bunday materiallar avtomobilsozlikda (ichki qoplama), mebel sanoatida yoki hatto qadoqlash materiallarida foydalanish imkoniyatiga ega.

Geotekstil va qishloq xo'jaligi mahsulotlari: Mo'yna tolalaridan tuproq eroziyasini nazorat qilish uchun geotekstil materiallar yoki o'simliklar uchun o'g'itlar tayyorlash mumkin. Mo'yna tarkibidagi azot va boshqa mikroelementlar tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Biologik aktiv moddalar: Mo'yna tarkibidagi keratin va boshqa oqsillardan gidroliz yo'li bilan aminokislotalar, peptidlar kabi biologik aktiv moddalar olish mumkin. Bu moddalar kosmetika, farmatsevtika yoki oziq-ovqat qo'shimchalari sanoatida foydalanish imkonini beradi.

Xulosa. Mo'yna sanoati uzoq tarixga ega bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib borgan. Bugungi kunda, barqarorlik va ekologik muvozanatsizlik sharoitida, chiqindi mo'ynalardan samarali foydalanish nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga, balki iqtisodiy jihatdan yangi imkoniyatlarni yaratishga ham xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ilmiy tadqiqotlarni olib borish orqali mo'yna chiqindilarini yuqori qiymatli mahsulotlarga aylantirish, resurslardan oqilona foydalanish va sanoatning kelajagini yanada barqaror qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. (Bu kitob mamlakatimizning umumiy iqtisodiy rivojlanishi va sanoatga oid yo'nalishlari bo'yicha kontekst yaratishi mumkin).

2. Petrova L.I. Технология мехового производства. – Moskva: 1987.
3. Kanits L. Furs: A Global History. – London: Reaktion Books, 2017.
4. Turovets A.I., Solovyov A.N. Основы технологии кожи и меха. – Moskva: Legprombytizdat, 1986. (Teri va mo'ynaga ishlov berishning fundamental asoslari).
5. Chernysheva N.P. Переработка вторичного сырья в легкой промышленности. – Moskva: Legprombytizdat,. (Yengil sanoatda ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash bo'yicha umumiy ma'lumotlar berishi mumkin).
6. Xoliqov A.A. O'zbekistonda mo'yna sanoatini rivojlantirish istiqbollari. – "Yengil sanoat muammolari" ilmiy-texnik jurnal.
7. Smirnova E.V. Инновационные подходы к переработке пушно-мехового сырья. – "Tekhnologiya i dizayn" ilmiy jurnal.
8. Jones R., White M. Sustainable Practices in the Fur Industry: A Review of Waste Utilization. – Journal of Sustainable Textiles, (Mo'yna sanoatida chiqindilardan foydalanish bo'yicha xorijiy tadqiqotlar).
9. A.B. Olimov, Z.F. G'aniyeva. Mo'yna sanoati chiqindilarini qayta ishlashning ekologik va iqtisodiy samaradorligi. – "Texnika fanlari va texnologiyalar" ilmiy jurnal,).
10. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). Production technology from natural power on the full-termological technology. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 44-48).
11. 6. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). An analysis of art decoration used in sewing items. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 41-44).

Internet manbalari:

12. <http://www.ziyonet.uz/>
11. www.wearefur.com
12. <https://www.fureurope.eu/>
13. <https://www.unep.org/publications-data>

УДК 675.923.02

**TANOVORNI IPSIZ TEXNOLOGIYA BO'YICHA YIG'ISH USULLARI VA ULARNI
TEXNIK-IQTISODIY TAVSIFI**

Abduraxmanova Firuza Abduformanovna (BDTU, "Yengil sanoat muhandisligi va dizayni" kafedrasida katta o'qituvchisi).

Annotatsiya. Maqolada poyabzal va charm-attorlik sanoati korxonalarini texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish liniyasini takomillashtirish, ishlab chiqarishning tashkiliy shakllarini o'zgartirish va takomillashtirish, bu yangi dizayn yechimlari va eng so'nggi moda tendentsiyalariga mos keladigan yangi materiallardan foydalanish orqali mahsulotlar assortimentini tez va oson o'zgartirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'zlar: jihoz, uskuna, yig'ish oqimi, tanovorni yig'ish oqimi, uzluksiz ishlab chiqarish, operatsiyalararo transport.

**METHODS OF COLLECTION OF FEEDS USING NON-THREAD TECHNOLOGY
AND THEIR TECHNICAL AND ECONOMIC CHARACTERISTICS**

Abdurakhmanova Firuza Abduformanovna (BDTU, Senior Lecturer, Department of "Engineering and Design of Light Industry").

Annotation. The article shows the possibilities of quickly and easily changing the range of products through the technical re-equipment of enterprises of the footwear and leather goods industry, improving the production line, changing and improving the organizational forms of production, using new design solutions and new materials that meet the latest fashion trends.

Keywords: equipment, machinery, assembly flow, assembly flow, continuous production,

inter-operational transport.

Poyabzal sanoatiga tegishli muhim muammolardan biri-texnologik jarayonni intensivlashtirish, ishlab chiqarish davomiyligini qisqartirish, assortimentni kengaytirish, buyum sifatini yaxshilash bo'lib hisoblanadi. Bu muammolarni yechimining katta imkoniyati poyabzal ustlik tanovorini yig'ish oqimida bo'ladi.

Tabiiy, sun'iy, sintetik chamlardan tayyorlangan yozgi ochiq poyabzal tanovorini yelimli issiqlik usuli bilan yig'ish mehnat unumdorligini keskin oshiradi, tanovor sifatini yaxshilaydi (poyabzalni ipli biriktirishdagi barcha nuqsonlarni deyarli bartaraf etadi).

Tanovorni ipsiz texnologiya bo'yicha yig'ish texnologik tadbirlarini bajarish tahlil qilinganda bu texnologiyani kelgusida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlab berdi. Ustligi tabiiy, sun'iy, sintetik chamlardan tayyorlangan yozgi ochiq poyabzal tanovorini yelimli usul bilan yig'ish texnologiyasi birinchi bosqichda yaxlit detalli tanovor konstruksiyasini hamda o'kcha qismida betlik bog'lami bo'lgan konstruksiyalarni loyihalashni ko'zda tutadi. Bunda poyabzal materiallari an'anaviy texnologiya bo'yicha presslarda bichiladi.

Mexanik bichish kamchiliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bir detalli bichish pichoqlarini materialga joylashtirish va ularni siljitishga ma'lum miqdorda ish vaqti sarflanib, jihozdan foydalanish unumdorligi pasayadi;
- ishchilar malakasini materialdan foydalanish foiziga va mehnat unumdorligiga ta'siri;
- andazalar orasidagi ko'priklar va bir-biriga yopishgan pichoqlar tig'I ostidagi materiallardagi yo'qotishlar evaziga materiallardan yetarlicha tejamkorlik bilan foydalanish;
- o'lchamli-to'ralik assortimentida (hattoki ko'p detallilarida) pichoqlar sonining ko'p bo'lishi bichuvchilar ishini murakkablashtiradi va mehnat unumdorligini pasaytiradi;
- pichoqlarni tayyorlash uchun ko'p mehnat va metallning sarflanishi;

Ko'p detalli pichoqlar, ularni qo'llash iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishiga qaramasdan, og'ir bo'lganligi sababli va payvandli birlashmalari borligi sababli sekinlik bilan joriy etiladi.

Detallarni to'la juftlashtirib modellarni loyihalashtirishdan maqsad, materiallardan foydalanishni meyorlashtirishga erishishdan iborat.

Poyabzal tanovorini issiqlayin yelimlab yig'ish mehnat unumdorligini oshiribgina qolmay, poyabzal sifatini yaxshilaydi hamda poyabzal materiallaridan foydalanishni birmuncha ko'taradi. Bu poyabzal ustligi tanovori alohida detallari bilan kombinatsiyada detallarni guruhlab bichish orqali erishiladi.

Poyabzal materiallarini blokda bichish usuli komplektga kiruvchi pichoqlar sonini qisqartirishga imkon beradi, poyabzal materiallaridan foydalanish foizini va bichuvchilar hamda keyingi texnologik operatsiyalardagi ishchilar mehnat unumdorligini oshiradi (qalinligini baravarlashtirish, yelim surkash, baxya qatorni bir vaqtning o'zida bosib gul solish va detal atroflariga ishlov berish); materiallarni bichish jarayonini avtomatlashtirishga sharoit barpo qilish.

Blok detallarini qurish uchun mavjud metodologiyadan foydalangan holda poyabzal ustki tanovorining alohida qismlarini loyihalash kerak. Blok detal tarkibiga poyabzal ustligi tanovorining to'liq detallar komplekti, birta yoki undan ko'p model detallari kiradi. Ustlik tanovorining astar detallari blok-detali alohida loyihalanaadi.

Blok detallarini konfiguratsiyasi bo'yicha ustlik va astarni bichish uchun pichoqlar tayyorlanadi. Blok detalga kiruvchi blok detallar va alohida detallar konfiguratsiyasi poyabzal materiallarini bichganda chiqindilar minimal bo'lishiga olib kelishi kerak. Buning uchun alohida detallarni oqilona blok detalga joylashtirish, ular sirtini juftlashtirib elektrod matritsalar tig' orasidagi tirqishlarni kamaytirish, andazalararo chiqindilarni qisqartirish uchun blok detallar o'zaro yuqori joylashuvi, o'ram materiallarini eni bo'yicha chekka chiqimlarini kamaytirish, chamlarni bichganda turli o'lchamdagi blok detallarni boshqa poyabzallar modeli bilan kombinatsiyalash.

Blok detallar ishlov beriladigan qirg'oqlardan 2-2,5 mm qo'shimcha bilan loyihalanaadi, astar detallari tortish baxyasi perimetri ustlik detalidan 5-6 mm kamaytirib loyihalanaadi. Blok detallar ichida jipslashmagan sohalari orasida pichoq-matritsa orqali har bir detalga ishlov berish imkoniyati uchun 3 mm qo'shimcha qo'yish ko'zda tutiladi. Jipslashgan sohalarda detallar orasida qo'shimcha loyihalanaadi, chunki keyinchalik umumiy pichoq matritsa bilan ishlov beriladi.

Blok detallar loyihalashda ularni bichish uchun jihozlar bilan ta'minlash imkoniyati, ishlov berish, shu bilan birga materiallarni bichish texnologiyasi hisobga olinishi kerak.

Ustlik tanovorning yarim juftligi yoki alohida bog`lam uchun blok detallar ko`proq qulay bo`lib hisoblanadi.

Materiallarni blok detallarga bichish ulardan foydalanish foizini hisoblash metodikasiga zarurat tug`iladi.

Poyabzalning aniq bir modeli uchun materiallarni blok detallarga bichishni meyorlashtirish poyabzal modeli bir juftligi uchun brutto maydonni o`rnatish va poyabzal modeli ko`rinishi uchun materiallardan foydalanish foizini hisoblashni o`z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Maqsudova. Poyabzal materiallarini me'yorlashtirish. T., 2004 y.
2. М.Н. Иванов. Проблемы улучшения гигиенических свойств обуви. М. «Легкая промышленность и бытовое обслуживание» С. 134.
3. Узакова Л. П., Абдурахманова Ф. А., Турсункулова М. С. Современные эксплуатационные и технологические требования, предъявляемые к деталям верха обуви //Техника. Технологии. Инженерия. – 2019. – №. 2. – С. 30-33.
4. Абдурахманова Ф. А. Рынок обуви: глобальные тенденции. перспективы развития кожевенно-обувной промышленности в бухарской области //Глобальная экономика и образование. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 15-21.
5. В.С. Макарова. Моделирование и конструировани обуви и колодок. Москва: Легпромбытиздат. 1987. – с.162
6. К.М. Зурабян и др. Материаловедение изделий из кожи. Москва. Легпромбытиздат. 1988. – с.412 .
7. ГОСТ 23251-83. Обувь. Термины и определения. М. :Стандартинформ, 2008. – с.114
8. Scientific analysis of the requirements for special shoes for equestrian sports games. .EPRAInternational Journal of Multidisciplinary. Research DOI : 10.36713/epra2013 ISSN (Online) : 2455 – 3662 Monthly Peer Reviewed & Indexed. International Online Journal Indexed By: Published By :EPRA Publishing CC License SJIF Impact actor(2023) :8.224 ISI I.F. Value : 1.188 Volume: 9 Issue: 3 March 2023 265-270 бетлар.
9. Абдурахманова Фируза Абдуформановна АНАЛИЗ АССОРТИМЕНТ МАТЕРИАЛЫ ДЛЯ ПОДОШВ // SAI. 2022.

UO`K: 677.05.06.02:677.6

IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO`QIMALARINI TUZILISHI VA ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI

Турсункулова Махсуда Суяркуловна

Джураева Мухаббат Ибадовна

Бухоро давлат –техника университети

“Енгил sanoat мухандислиги ва дизайн” кафедраси катта ўқитувчиси (PhД)

E-mail: tursunkulovamaksud83@gmail.ru

Аннотасија. Trikotaj mahsulotlari asosan to`qima turiga qarab tayyorlanadi. Trikotaj sanoatida juda ko`p turdagi to`qimalar mavjud bo`lib, issiq ichki va ustki kiyim mahsulotlari uchun asosan jakkard, press, aralash va ikki qatlamli trikotaj to`qimalari qo`llaniladi. Ushbu maqolada trikotaj sanoatida mavjud bo`lgan aralash va ikki qatlamli trikotaj to`qimalarining tuzilishi hamda ularni olish usullari keltirilgan adabiyotlar tahlil qilindi.

Калит so`zlari: jakkard, press, aralash, ikki qatlamli trikotaj to`qima, chiqindisiz texnologiya, termofiziologik ko`rsatkich, texnologik va fizik–mexanik xususiyatlar, chiziqli zichligi, ikkita glad, lastik to`qima, ikki qatlamli trikotaj to`qimasi.

Abstract. Knitted products are mainly made according to the type of fabric. There are many types of fabrics in the knitting industry, and mainly jacquard, press, mixed and double-layer knitted fabrics are used for warm underwear and outerwear products. This article analyzed the literature on the structure of mixed and two-layer knitted fabrics available in the knitting industry, as well as the methods of their production.

Key words: jacquard, press, mixed, two-layer knitted fabric, waste-free technology, thermophysiological indicator, technological and physical-mechanical properties, linear density, two glads, elastic fabric, two-layer knitted fabric.

Kirish. Trikotaj to‘qimasini olishning yangi resurstejamkor texnologiyasini ishlab chiqish, sifat ko‘rsatkichlarini tadqiq etish, mahsulotlardan maqsadli foydalanish, assortiment turini kengaytirish, mahalliy xomashyolarni qo‘llash, mahsulot tannarxini kamaytirish, hamda yangi tuzilishga ega bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish hisobiga, trikotaj to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, to‘qimachilik sanoati xodimlari oldida turgan ilmiy–amaliy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda poyabzal ishlab chiqarishda foydalanish hajmi bo‘yicha to‘qimachilik materiallari tabiiy charmdan keyin, sun‘iy va sintetik materiallar hajmidan sezilarli darajada oshadi. To‘qimachilik materiallaridan poyabzal ishlab chiqarishning ulushi turli mamlakatlarda farq qiladi, masalan, AQSHda – 32%, Fransiyada – 40%, Rossiyada 90–yillarning boshlarida – ishlab chiqarilgan umumiy miqdorning taxminan 10%. Turli maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan poyabzallarning kamida 50% to‘quv, to‘quv bo‘lmagan materiallar yoki trikotajdan tayyorlangan astarga ega. Yillik ishlab chiqarishning 25% gacha barcha yuqori qismlari (tashqi va ichki) to‘qimachilik matolaridan tayyorlangan poyabzallardan iborat. Ularning 50% ga yaqini maxsus poyabzal uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, qolgan 50% assortimenti kiyim–kechak, mayishiy, mebel, texnik va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan materiallardan iborat bo‘lib, ular poyabzalchilarning talablarini qisman qondiradi. Ushbu materiallardan tayyorlangan poyabzallarning ishonchliligi va qulayligi muammolari nafaqat ularning xususiyatlari, balki konstruktiv tarzda ham hal qilinadi. Biroq, bu texnologik va iqtisodiy nuqtai nazardan har doim ham oqlanmaydi. Shu sababli, yangi poyabzal to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqish ham yengil, ham to‘qimachilik sanoati uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda, yassi ignadonli mashinalarni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ko‘pincha bu ishlarda to‘qish jarayonida poliakrilnitril kalava iplaridan foydalaniladi. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishida esa ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini poyabzal ustligi uchun qo‘llash va yangi ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasini yaratish va ishlab chiqarish ustida ish olib borilmoqda. Zamonaviy yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarining imkoniyatlaridan foydalanish muvofiq ravishda 12 dan 14–klassgacha bo‘lgan mashinalarda foydalansa bo‘ladi. Shunday qilib, mashinaning talab qilingan klassiga moslab bitta igna oralab yoki har bir ignada to‘qish mumkin.

Sport mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan, paxta va polipropilen ipidan tayyorlangan bir qator ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari uchun funksional harorat intervalini (atrof muhitining minimal va maksimal harorati) aniqlash natijalari ishda yoritib berilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan ma‘lum bo‘ldiki, bunda poyabzal ustligi uchun mo‘njallangan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarni olishda assortiment turlarini kengaytirish, xomashyo sarfini tejash, hamda to‘qima tarkibida aralash trikotaj to‘qimalaridan foydalanish hisobiga yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olishning yangi usullari va texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etdi.

Unga ko‘ra, yuqorida keltirib o‘tilgan dolzarb muammolarni hal qilish maqsadida poyabzal ustligi uchun yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining 3 ta varianti Xitoy davlatining Long Xing LXA 252 firmasida ishlab chiqarilgan 12–klass yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasida to‘qib olindi.

Ma‘lumki, to‘qima qatorlari yoki alohida elementlarining ma‘lum tartibda takrorlanib kelishida aralash to‘qimalarni olish, trikotaj to‘qimalarning yangi assortimentini yaratishning eng


istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ulardan biri to'quv usulida bir qavatli to'qimalarni bir-biri bilan halqa ipi yordamida birlashtirish hisoblanadi.

Aralash ikki qavatli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda ikkita ipdan to'qilgan, biri old tomon halqalarini, ikkinchisi—orqa tomon halqalarini shakllantiradigan, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan trikotaj to'qimalari t.f.n. E.P.Pospelov tomonidan ikki qatlamli to'qima deb nomlangan.


Trikotaj to'qimalari assortimentini kengaytirish, xomashyo sarfini kamaytirish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida poyabzal ustligi uchun mo'ljallangan yangi tuzilishda olingan ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalari olishning texnologiyasi ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, poyabzal ustligi uchun mo'ljallangan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalari chiziqli zichligi 20 teks x3 yigirilgan paxta ipi, 150 D x3 poliester ipi hamda 20 D neylon ipidan foydalanib to'qib olindi. Poyabzal ustligi uchun mo'ljallangan yangi tuzilishi ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalari bir-biridan ishlab chiqarish usuli va to'qima tuzilishi o'zgarishi bilan farq qiladi. Poyabzal ustligi uchun mo'ljallangan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qima namunalari yassi ikki ignadonli trikotaj mashinasida quyidagicha tartibda to'qib olindi.

Poyabzal ustligi uchun mo'ljallangan yangi tuzilishdagi I-variant ikki qatlamli trikotaj to'qimasining I-qatorini ishlab chiqarishda trikotaj mashinasining karetkasi chapdan o'ngga tomon harakatlanadi. Natijada 1-sistema lastik 1+1 to'qimasi shakllantiradi. 2-sistema esa old ignadon ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga to'liq tugallash jarayoniga ko'tarilib, poliester homashyosidan to'qimaning old qatlami uchun o'z halqalarini, orqa ignadonning oralatib tanlangan toq ignalari esa, ko'taruvchi zulfning yarimga o'chirilishi hisobiga to'liqsiz tugallash jarayonni bajarish uchun yuqoriga ko'tariladi va yarim halqalarni hosil qiladi. Jarayon yakunida old ignadon ignalarida to'liq halqalar, orqa ignadon ignalarida esa yarim halqalar hosil bo'ladi. Trikotaj to'qimasining II-qatorini to'qishda esa mashina karetkasining o'ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga tugallash jarayoniga to'liq ko'tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplarining homashyosidan glad halqalarini hosil qiladi. Trikotaj to'qimasining III-qatorini to'qishda karetkacha chapdan o'ngga harakatlanadi, old ignadon ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga to'liq tugallash jarayoniga ko'tarilib, poliester homashyosidan to'qimaning old qatlami uchun o'z halqalarini, orqa ignadonning oralatib tanlangan juft ignalari esa, ko'taruvchi zulfning yarimga o'chirilishi hisobiga to'liqsiz tugallash jarayonni bajarish uchun yuqoriga ko'tariladi va yarim halqalarni hosil qiladi. Jarayon IV-qatorni to'qishda karetkaning o'ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga tugallash jarayoniga to'liq ko'tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplarining homashyosidan glad halqalarini hosil qilish orqali yakunlanadi. Natijada to'qimaning old va orqa qatlamlari yopilmagan press yarim halqalar yordamida birlashtiriladi. (2.1-rasm). Trikotaj to'qimasi uzaytirilgan orqa qatlam halqalari 1 dan, old qatlam halqalari 2 dan, ikki qatlamli birlashtiruvchi yarim halqalar 3 va protyajkalar 4 dan tashkil topgan.



(a)




(b)

1–rasm. Poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining (I–variant) tuzilishi (a) va grafik yozuvi (b)

Bu jarayonni o‘ziga xosligi shundaki, poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini olishda trikotaj mashinasining to‘quv ignalari lastik tartibda joylashib, ishlaydilar. Bu esa ignalari lastik tartibda joylashgan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olishda yangi texnologiya ishlab chiqilganligi bilan ifodalanadi. Keyingi ikki qatlamli namunalari

yangi tuzilishdagi II–variant ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining umumiy rapporti sakkizta qatordan iborat bo‘lib, to‘qimaning I–qatorini ishlab chiqarishda trikotaj mashinasining karetkasi chapdan o‘ngga tomon harakatlanishi jarayonida, old va orqa ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va to‘qimani old va orqa qatlamlarini lastik halqa qatorlaridan hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining II–qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining o‘ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga tugallash jarayoniga to‘liq ko‘tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. To‘qimaning III–qatorini to‘qib olishda trikotaj mashinasining karetkasi chapdan o‘ngga tomon harakatlanishi jarayonida old ignadon tanlab olingan toq ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va halqa hosil qiladi, bir vaqtning o‘zida orqa ignadon tanlab olingan mos ravishda juft ignalari esa ko‘taruvchi zulfning yarmiga o‘chirilishi hisobiga to‘liqsiz tugallash jarayonini bajarish uchun yuqoriga ko‘tarilib yarim halqalarni orqa qatlam uchun hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining IV–qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining o‘ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga tugallash jarayoniga to‘liq ko‘tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. To‘qimaning V–qatorini to‘qib olishda trikotaj mashinasining karetkasi chapdan o‘ngga tomon harakatlanishi jarayonida old ignadon tanlab olingan juft ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va halqa hosil qiladi, bir vaqtning o‘zida orqa ignadon tanlab olingan mos ravishda toq ignalari esa ko‘taruvchi zulfning yarmiga o‘chirilishi hisobiga to‘liqsiz tugallash jarayonini bajarish uchun yuqoriga ko‘tarilib yarim halqalarni orqa qatlam uchun hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining VI–qatorini to‘qishda mashina karetkasining o‘ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga tugallash jarayoniga to‘liq ko‘tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. VII–qatorini ishlab chiqarishda trikotaj mashinasining karetkasi chapdan o‘ngga tomon harakatlanishi jarayonida, old va orqa ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va to‘qimani old va


orqa qatlamlarini lastik halqa qatorlaridan hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining VIII–qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining o‘ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga tugallash jarayoniga to‘liq ko‘tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. Jarayon yakunida orqa ignadon ignalarida to‘liq halqalar, old ignadon ignalarida esa glad va lastik halqalar hosil bo‘ladi. Natijada yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi ishlab chiqariladi (2.3–rasm).



2–rasm. Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining (II–variant) tuzilishi (a) va grafik yozuvi (b).

III–variant ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining umumiy rapporti ham sakkizta qatordan iborat bo‘lib, 1–3–qatorlar, 5–7 qatorlar takrorlanadi. Trikotaj mashinasi karetkasining chapdan o‘ngga tomon harakatida to‘qimaning I–qatorini old ignadon tanlab olingan toq ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va halqa hosil qiladi, bir vaqtning o‘zida oldi ignadon tanlab olingan mos ravishda juft ignalari esa ko‘taruvchi zulfning yarimga o‘chirilishi hisobiga to‘liqsiz tugallash jarayonni bajarish uchun yuqoriga ko‘tarilib yarim halqalarni hosil qiladi. Ayni vaqtda orqa ignadon uchun ham zulfning ishchi holatda bo‘lishi orqa tanlab olingan toq ignalarining ko‘taruvchi zulfning yarimga o‘chirilishi hisobiga to‘liqsiz tugallash jarayonni bajarish uchun yuqoriga ko‘tarilib yarim halqalarni hosil qiladi juft ignalari esa ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va halqa hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining II qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining o‘ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga tugallash jarayoniga to‘liq ko‘tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining III– qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining chapdan o‘ngga tomon harakatida to‘qimaning old ignadon tanlab olingan toq ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va halqa hosil qiladi, bir vaqtning o‘zida oldi ignadon tanlab olingan mos ravishda juft ignalari esa ko‘taruvchi zulfning yarimga o‘chirilishi hisobiga to‘liqsiz tugallash jarayonni bajarish uchun yuqoriga ko‘tarilib yarim halqalarni hosil qiladi. Ayni vaqtda orqa ignadon uchun ham zulfning ishchi holatda bo‘lishi orqa ignadon tanlab olingan toq ignalarining ko‘taruvchi zulfning yarimga o‘chirilishi hisobiga to‘liqsiz tugallash jarayonni bajarish uchun yuqoriga ko‘tarilib yarim halqalarni hosil qiladi juft ignalari esa ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tariladi va halqa hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining IV– qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining o‘ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi hisobiga tugallash jarayoniga to‘liq ko‘tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. Trikotaj to‘qimasining V–qatorini to‘qishda esa mashina karetkasining chapdan o‘ngga tomon harakatida to‘qimaning old ignadon tanlab olingan juft ignalari ko‘taruvchi zulfning ishchi holatda bo‘lishi

hisobiga to'liq tugallash jarayoniga ko'tariladi va halqa hosil qiladi, bir vaqtning o'zida oldi ignadon tanlab olingan mos ravishda toq ignalari esa ko'taruvchi zulfning yarimga o'chirilishi hisobiga to'liqsiz tugallash jarayonini bajarish uchun yuqoriga ko'tarilib yarim halqalarni hosil qiladi. Ayni vaqtda orqa ignadon uchun ham zulfning ishchi holatda bo'lishi orqa ignadon tanlab olingan juft ignalarining ko'taruvchi zulfning yarimga o'chirilishi hisobiga to'liqsiz tugallash jarayonini bajarish uchun yuqoriga ko'tarilib yarim halqalarni hosil qiladi toq ignalari esa ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga to'liq tugallash jarayoniga ko'tariladi va halqa hosil qiladi. Trikotaj to'qimasining VI-qatorini to'qishda esa mashina karetkasining o'ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Orqa ignadon ignalari esa, ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga tugallash jarayoniga to'liq ko'tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. Trikotaj to'qimasining VII-qatorini to'qishda esa mashina karetkasining chapdan o'ngga tomon harakatida to'qimaning old ignadon tanlab olingan juft ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga to'liq tugallash jarayoniga ko'tariladi va halqa hosil qiladi, bir vaqtning o'zida oldi ignadon tanlab olingan mos ravishda toq ignalari esa ko'taruvchi zulfning yarimga o'chirilishi hisobiga to'liqsiz tugallash jarayonini bajarish uchun yuqoriga ko'tarilib yarim halqalarni hosil qiladi. Ayni vaqtda orqa ignadon uchun ham zulfning ishchi holatda bo'lishi orqa ignadon tanlab olingan juft ignalarining ko'taruvchi zulfning yarimga o'chirilishi hisobiga to'liqsiz tugallash jarayonini bajarish uchun yuqoriga ko'tarilib yarim halqalarni hosil qiladi toq ignalari esa ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga to'liq tugallash jarayoniga ko'tariladi va halqa hosil qiladi. Trikotaj to'qimasining VIII-qatorini to'qishda esa mashina karetkasining o'ngdan chapga tomon harakatlanishida old ignadon ignalari ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lmaganligi sababli halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. (2.4 rasm).



3-rasm. Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimasining (III-variant) grafik yozuvi.

Orqa ignadon ignalari esa, ko'taruvchi zulfning ishchi holatda bo'lishi hisobiga tugallash jarayoniga to'liq ko'tariladi va yigirilgan paxta hamda neylon iplaridan glad halqalarini hosil qiladi. Ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi va sakkizinchi halqa qatorlarini ishlab chiqarishda esa orqa ignadonning barcha ignalari tugallash jarayoniga ko'tarilib orqa qatlam uchun glad halqa qatorlarini shakllantiradi. Old ignadon ignalari esa halqa hosil qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Natijada yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimasining III-varianti ishlab chiqariladi.

Yassi ignadonli trikotaj to'quv mashinasining to'quv ignalarini lastik tartibida joylashtirish, hamda trikotaj to'qimalarini olishning yangi texnologiyasini ishlab chiqilishi hisobiga yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to'qimalarining yangi assortimentlari to'qib olindi.

Sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun mo'ljallangan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining bir qatlami uchun xomashyo sifatida yigirilgan paxta ipi, ikkinchi qatlam poliester ipi hamda mustahkamligini oshirish uchun olinayotgan trikotaj to'qimasining vazifasiga qarab neylon ipidan

(nitron–poliakrilonitril) foydalangan holda yuqori sifat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan, gigiyenik xususiyatlari yuqori va mahsulot birligiga nisbatan xomashyo sarfi kam bo‘lgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini olish mumkin. Bu usul oddiy bo‘lganligi uchun, amaliy jihatdan mashinaning ish unumdorligiga ta‘sir etmasdan va konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritmasdan, uning texnologik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish hisobiga amalga oshiriladi.

Olingan trikotaj to‘qimalarining shakl va issiqlik saqlash xususiyatlari yuqoriligini hisobga olgan holda, ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Турсункулова М.С., Трикотажные волокна и их роль в жизни человека, преимущества. Imperial College London International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: Problems and solution” 2–part, 2–701 pages–659. committee list for 2021–2022.
2. Tursunkulova M.S. Xolikov.K.M., Rahmatova.S.U., To‘qimachilik–trikotaj ishlab chiqarish sanoatida tabiiy tolalar tahlili. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy – texnikaviy jurnal 2022–yil № 4 bet.
3. Tursunkulova M.S. Turli tolalar tahlili., “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti”. Ilmiy–texnikaviy jurnal. 2021 № 2, 202–208 bet.
4. M.S.Tursunkulova., Oxunov R.N., Raxmatova S.U., Xolikov K.M., Sintetik tolali yigirilgan iplarning xususiyatlari zamonaviy tahlili., “Tikuv trikotaj sanoatida Uinnovation texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi muammo tahlil va sohani rivojlantirish istiqbollari”. Halqaro ilmiy–amaliy konferensiya ning makolalar to‘plami. 7–8 oktyabr 2022 3–tom.502–507
5. Tursunkulova M.S., To‘qimachilik–trikotaj ishlab chiqarish sanoatida olimlarimizning tabiiy tolalarni tahlili xaqidagi qarashlari. Imperial College London International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: Problems and solution” 2–part, 2–701 pages–664. committee list for 2021–2022.
6. M.S.Tursunkulova., Q.M. Xoliqov, “Trikotaj mato tolalarining xususiyatlari, turlari va tahlili”. “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”ga bag‘ishlangan ilmiy maliy anjuman. 2022 yil. 27–28 may 91 bet.
7. M.S.Tursunkulova., Q.M.Xoliqov. “Poyabzal astarligi uchun ishlatiladigan materiallarning turlari, xususiyatlari va ularning afzalliklarini tahlil qilish”. “Science and Innovation” International Scientific Jurnal.2022.№4. uif–2022: 8.2. issn:2181–3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6977353>.
8. Maksuda Tursunkulova, Ne‘matjon Yoqubjanov., Kurbonali Kholikov., “Murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi”. Educational Research in Universal Sciences, volum 2 issue 4 Scientific Jurnal. St. 490–502. UIF–2023. research in universal sciences, 2(4), 490–502. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7904128>.
9. M.S.Tursunkulova., N.N. Yoqubxonov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov., Tarkibi yigirilgan paxta ipi hamda poliestr iplaridan tashkil topgan murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun olingan ikki qatlamli trikotaj olish. Educational Research in Universal Sciences 2 (7), 103–114 2023115–126. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3502>
10. M.S Tursunkulova., X.K Mamatova., N.N Yoqubxonov., Q.M Xoliqov. “Mahalliy xomashyolardan foydalanib murakkab to‘qimalar asosida poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish”. “Educational Research in Universal Sciences” International conference on teaching, education and new learning technologies” 2023/1 Page No.: 1169–1180.
11. M.S Tursunkulova., X.K Mamatova., N.N Yoqubxonov., Q.M Xoliqov. “Mahalliy xomashyolardan foydalanib murakkab to‘qimalar asosida poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish”. Spanish international scientific online conference prospects and main trends in modern science 29.11.2023.
12. M.S Tursunkulova., L.S O‘ralov., Q.M Xolikov., “Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasidan poyabzal ustligi uchun qo‘llaniladigan materiallarning texnologik va fizik–mexanik ko‘rsatkichlari”. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 3 | ISSN: 2181–4163 | UIF–2023: 8.2 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7661515>.

13. M.S.Tursunkulova., N.N. Yoqubxanov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov., “Mahalliy yigirilgan paxta ipidan murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari tahlili”. Educational Research in Universal Sciences, volum 2 issue 4 Scientific Jurnal. St. 477–489. UIF–2023. Educational research in universal sciences, 2(4),477–489. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7904123>.
14. Maksuda Tursunkulova, Ne‘matjon Yoqubjanov, Hadicha Mamatova, Kurbonali Kholikov., Technological Specifications of Double–Layer Knit Fabrics for Sport Style Shoe Upper Based on Locally Spinning Cotton Yarn Complex Fabrics”. International conference. PTLICISIWS–2 May, 2023. Scopus Web of Science indexed Indexed in leading databases – Scopus, Web of Science, and Inspec. Conference Committee.
15. M.S.Tursunkulova., N.N. Yoqubxanov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov. Xomashyo tarkibi turli variantlarda murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarni texnologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha. Educational Research in Universal Sciences 2 (7), 127–138 2023 103–114. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3501>.
16. M.S Tursunkulova, N.N Yoqubxanov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov., “Tarkibi sintetik iplardan tashkil topgan murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari”. Educational Research in Universal Sciences 2 (7), 115–126 2023. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3502>.
17. M.S Tursunkulova. Sh. Hasanova., K.M Xolikov., “Yigiruvbop paxta tolali chiqindilardan yigirilgan iplarning fizik–mexanik xossa ko‘rsatkichlarini taxlili”. “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti”. Ilmiy–texnikaviy jurnal. 2022. № 7, 93–96 bet.
18. Maksuda Tursunkulova, Ne‘matjon Yoqubjanov, Kurbonali Kholikov., Research of physical and mechanical indicators of the upper part of the shoe on the basis of knitted knitting tissue. Science and Innovation International Scientific Journal volume 1 issue 7 uif–2022: 8.2 | issn: 2181–3337.
19. M.S.Tursunkulova., H.H.Yoqubjanov., K.M.Xoliqov., Mahalliy xomashyolardan foydalanib poyabzal ustligi uchun yukori gigiyenik xususiyatli trikotaj to‘qimalari. International Conference on Teaching education and new learning technologies. ISSN 2181–3515 14 january Page No:1170–1181 – 2023. 2023/1 Page No.: 1169–1180.
20. Tursunkulova M.S O‘ralov L.S., Xolikov Q.M., Poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli g‘ovakli trikotaj to‘qimalarining nam o‘tkazuvchanlik xossasini tadqiq qilish. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 3 | ISSN: 2181–4163 UIF–2023: 8.2 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7661429>.

UO‘K: 677.05.06.02:677.6

POYABZAL USTLIGI UCHUN QO‘LLANILADIGAN MATERIALLARNING TEXNOLOGIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Турсункулова Махсуда Суяркуловна

Джураева Мухаббат Ибадовна

Бухоро давлат техника университети

“Енгил sanoat муҳандислиги ва дизайн” кафедраси катта ўқитувчиси (PhD)

E-mail: tursunkulovamaksuda83@gmail.ru

Annotasiya. Trikotaj mahsulotlari asosan to‘qima turiga qarab tayyorlanadi. Trikotaj sanoatida juda ko‘p turdagi to‘qimalar mavjud bo‘lib, issiq ichki va ustki kiyim mahsulotlari uchun asosan jakkard, press, aralash va ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari qo‘llaniladi. Ushbu maqolada trikotaj sanoatida mavjud bo‘lgan aralash va ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining tuzilishi hamda ularni olish usullari keltirilgan adabiyotlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlari: jakkard, press, aralash, ikki qatlamli trikotaj to‘qima, chiqindisiz texnologiya, termofiziologik ko‘rsatkich, texnologik va fizik–mexanik xususiyatlar, chiziqli zichligi, ikkita glad, lastik to‘qima, ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi.

Abstract. Knitted products are mainly made according to the type of fabric. There are many types of fabrics in the knitting industry, and mainly jacquard, press, mixed and double-layer knitted fabrics are used for warm underwear and outerwear products. This article analyzed the literature on the structure of mixed and two-layer knitted fabrics available in the knitting industry, as well as the methods of their production.

Key words: jacquard, press, mixed, two-layer knitted fabric, waste-free technology, thermophysiological indicator, technological and physical-mechanical properties, linear density, two glads, elastic fabric, two-layer knitted fabric.

Kirish. So‘nggi yillarda Respublikada yengil sanoatning to‘qimachilik, tikuv–trikotaj, charm va poyabzal tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab–quvvatlash bo‘yicha kompleks chora–tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko‘rilgan chora–tadbirlar Respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 80 foizdan ko‘prog‘ini va ip kalavaning 45 foizdan ko‘prog‘ini qayta ishlash bo‘yicha quvvatlarni yaratish, shuningdek, 2018 yilda tayyor mahsulot eksport hajmini 1,6 milliard AQSh dollariga yetkazish imkonini berdi.

Shu bilan birga jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish harajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora–tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta‘minlash, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega to‘qimachilik, tikuv–trikotaj, charm va poyabzal mo‘ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlarni jalb etish maqsad qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.09.2019 yildagi PQ–4453–son qarorini ijrosini ta‘minlash uchun olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizdagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar oldida turgan asosiy muammolar–mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot turlarini ko‘paytirish, sifatini oshirish, mahalliy xomashyolardan foydalanib import o‘rnini bosuvchi, fizik–mexanik va gigiyenik xususiyatlari yuqori bo‘lgan hamda fasl talablariga mos keladigan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishdir.

Trikotaj mahsulotlariga bo‘lgan asosiy talablar bevosita to‘qimaning texnologik ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi. Trikotaj to‘qimalarining tuzilishi, tashqi ko‘rinishi texnologik va fizik–mexanik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida trikotaj matolarining sifat ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi omillar ekanligi belgilab olindi. Trikotajning yuza zichligi, gorizontal va vertikal bo‘yicha zichlik (uzunlik birligiga nisbatan halqalar soni), halqa ipi uzunligi, halqa qatorlari va halqa ustunchalari kesishgan burchak, hamda qalinlik ko‘rsatkichlari trikotaj to‘qimalarining tuzilishini tavsiflovchi omillar hisoblanadi. Ma‘lumki, trikotaj to‘qimasi tarkibiga biror bir yangi turdagi ip yoki halqa elementlari kiritilsa, to‘qimaning tuzilishi va o‘lchamlari o‘zgaradi.

Olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari tarkibidagi yigirilgan paxta ipi, poliester va neylon ipi uning texnologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri o‘rganildi hamda to‘qimalarning texnologik ko‘rsatkichlari amaliy usulda hisoblandi.

Trikotaj to‘qimasining eng asosiy tavsiflaridan biri – xomashyo sarfining kamligidir. Bunda yuza zichligi, qalinligi va hajmiy zichligi e‘tiborga olinadi. An‘anaviy holda to‘qimada xomashyo sarfining eng muhim omili – trikotaj to‘qimasini yuza zichligi hisoblanadi. Trikotaj to‘qimalarining yuza zichlik ko‘rsatkichi asosiy texnologik ko‘rsatkichlardan biridir.

Yuza zichlik to‘qima tarkibida foydalanilayotgan ipning turi, chiziqli zichligi va shuningdek iplarning foiz miqdorlarini o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi.

Yigirilgan paxta ipidan poyabzal ustligi uchun yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini tuzilishi, xomashyo tarkibi, rapporti va olish usullarini o'zgarishi albatta uning texnologik va sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etadi.

Bir qator olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlaridan ma'lumki, trikotaj to'qimalarining yuza zichlik ko'rsatkichini ma'lum chegaralarda kamaytirish, unga sarflanayotgan xomashyo sarfini tejalishiga olib keladi va mustahkamlik xususiyatlariga salbiy ta'sir etmaydi, chunki trikotaj to'qimalarining absolyut chidamlilik xususiyati yuqori bo'lib, mahsulotlardan foydalanishda 20% uzilish kuchidan oshmagan kuchlanishlarga duch kelishi aniqlangan.

Har qanday yangi trikotaj to'qimasi yoki trikotaj mahsulotini loyihalashda to'qimaning halqa qadami A, halqa qatori balandligi V, halqa ipi uzunligi L kabi ko'rsatkichlarga asoslanadi. Trikotaj to'qimasining yuza zichligi va boshqa xususiyatlari ushbu ko'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi. Ushbu xususiyatlarning har biri trikotaj to'qimalarining ko'rsatkichlariga bog'liqligini bilgan holda, to'qish jarayonini optimal variantini tanlash mumkin.

Trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlarini uchta usul yordamida aniqlash mumkin:

1. Standart bo'yicha (GOST, OST, TSH) aniqlash. Trikotaj to'qima ko'rsatkichlarini hisoblash yo'li bilan aniqlash talab qilinmasa, yoki trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari mavjud formulalar yordamida hisoblanganda, haqiqiy ko'rsatkichlardan sezilarli darajada farq qilsa ushbu usuldan foydalaniladi.

2. Eksperimental yo'l bilan aniqlash. Bu usul yangi trikotaj to'qimalarini ishlab chiqish ustida olib boriladigan ilmiy ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladi.

3. Hisoblash usuli bilan aniqlash. Ushbu usuldan to'qimaning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashda qo'llash mumkin. Bu usul texnologik ko'rsatkichlarni hisoblash ketma-ketligi va halqa ipi uzunligi L ga asoslangan usuldir.

Trikotaj to'qimalarida halqalar tuzilishi uning maydon birligiga sarflangan ipning to'ldirilishi bilan tavsiflanadi. Trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishda maydon birligiga sarflangan iplar to'qimachilik gazlamalariga nisbatan kam. Shu sabab, trikotaj to'qimasining hajm zichligi ko'rsatkichi yuqoridir. Va nihoyat, iqtisodiy jihatdan trikotaj ishlab chiqarish tarmog'ining afzalligi muhim mezonlardan biridir.

Har qanday trikotaj to'qimasining ko'rsatkichlariga xomashyo xususiyati, ip o'rilishi, pardozlash usuli ta'sir etadi. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasi ikkita bir xil yoki ikkita turli bir qavatli to'qimadan tarkib topgan bo'ladi, bitta to'qimaning ko'rsatkichlari boshqa to'qimaga qaraganda, anchagina yaxshiroq ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin. Mazkur holat ikkita mustaqil qatlamlarning o'zaro ta'siriga bog'liq bo'ladi. Bitta qatlam ikkinchi qatlam bilan birlashtirilishida uning dastlabki ko'rsatkichlarini o'zgartirishi, boshqasi esa, o'z navbatida birinchi qatlam ko'rsatkichlarini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun ikki qatlamli trikotaj to'qimasi qatlamlarini shakllantiruvchi halqa ipi uzunligi va zichligini muvofiq ravishda bir qavatli to'qima uchun formula orqali aniqlab bo'lmaydi. Bundan tashqari ushbu ko'rsatkichlar birlashtirish turi va usuliga bog'liq bo'ladi.

Yigirilgan paxta ipidan poyabzal ustligi uchun yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishni o'rganish katta qiziqish uyg'otadi, chunki bu to'qimalarining ko'rsatkichlariga ta'sir etadi.

Bitta mustaqil qatlamning ikkinchi mustaqil qatlamga ta'sir etishi kalava ip turi, uning mexanik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi: qanchalik kalava ip qayishqoqligi katta bo'lsa, uning chiziqli zichligi ortishida ko'rsatkichlar shunchalik ko'p o'zgaradi.

Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining bitta mustaqil qatlami ikkinchi mustaqil qatlamga ta'sir etish darajasini aniqlovchi boshqa omil, halqa ipi uzunligi hisoblanadi. Dastavval belgilab qo'yilgandek, bunda bitta qatlamni shakllantiruvchi halqa ipi uzunligi o'zgarimas bo'lganda, to'qish jarayonida ikkinchi qatlam halqa ipini katta chegaralarda o'zgartirishga yo'l qo'yiladi.

Ko'ndalang va yassi to'qilgan trikotaj to'qimalari uchun xomashyo sarfini quyidagi formula bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi:

$$M_s = l \cdot T / A \cdot B \quad (1)$$

bu yerda: M_s –trikotaj to‘qimasining yuza zichligi;


l – $A \cdot V$ halqa yuzasiga to‘g‘ri keladigan, halqa ipi uzunligi (mm);

T –ipning chiziqli zichligi (teks).

Har bir trikotaj to‘qimasi uchun halqa ipi uzunligi halqa yuzasiga bevosita bog‘liq. Har qanday ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi uchun qatlamlarning bir–biri bilan o‘zaro tasir etishi va ular turli darajada bo‘lganligi sababli boshqacha tavsifli o‘zaro bog‘liqliklar yuzaga keladi.

Poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini to‘qish zichligi bir xil bo‘lganda trikotaj to‘qimalari turli xil halqa uzunligi l qiymatiga ega bo‘lishi demak, 1 m^2 to‘qima birligiga nisbatan turlicha xomashyo sarfiga ham, ega bo‘lishi yoki aksincha, to‘qish zichligi qiymati turlicha bo‘lganda, o‘zgarmas yuza zichlik qiymatiga ega bo‘lishi mumkin.

Poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining teskari tomon glad to‘qimasi halqa ipi uzunligi ortishi bilan halqa yuzasi parabolikka yaqin qonun bo‘yicha ortib borishi va ma‘lum chegaraga intilishi sababli, formuladagi birinchi qo‘shiluvchi asta–sekin kamayib boradi, ikkinchi qo‘shiluvchi esa, avval kamayadi, so‘ngra esa, ortib boradi.



Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan trikotaj to‘qimasining assortiment turlarini kengaytirish, xomashyo sarfini tejash va sifatini oshirish maqsadida yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining 7 ta varianti Xitoy davlatining Long Xing LXA 252 firmasida ishlab chiqarilgan 12–klass yassi ikki ignadonli ikki sistemali trikotaj to‘quv mashinasida to‘qib olindi. Xomashyo sifatida chiziqli zichligi 20 tex x 3 bo‘lgan yigirilgan paxta ipi, 150 D x 3 bo‘lgan poliester ipi hamda 20 D bo‘lgan neylon ipidan foydalanildi.

Trikotaj to‘qimalarini olinish usuli va to‘qima tuzilishini trikotajning texnologik ko‘rsatkichlariga ta‘siri tadqiq etildi.

Poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari Namangan to‘qimachilik sanoati instituti “Trikotaj texnologiyasi” kafedrasida trikotaj ishlab chiqarish laboratoriyasi ishlab chiqildi hamda trikotaj sinov laboratoriyasida standart usulda sinovdan o‘tkazildi, olingan natijalar keltirildi.

Tahlil natijalari bo‘yicha halqa qadami, halqa qatori balandligi, gorizont va vertikal yo‘nalish bo‘yicha zichlik, halqa ipi uzunligi kabi texnologik ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Yuza zichlik to‘qima tarkibida foydalanilayotgan ipning turi, chiziqli zichligi va shuningdek iplarning foiz miqdorlarini o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Halqadagi ip uzunligi qanchalik kichik bo‘lsa, trikotaj o‘lchamlari stabilligi shunchalik katta, kirishuvchanligi esa shunchalik kam bo‘ladi. Shuning uchun halqa o‘lchami kichik bo‘lgan to‘qima olish imkoni mavjud bo‘lgan yuqori klass mashinalarida to‘qilgan trikotaj to‘qimalarining shakl saqlash xususiyati yuqori bo‘ladi. Trikotaj

to‘qimalarida o‘lchamlarning barqarorligi trikotajning halqalar qatoriga sarflanadigan iplar miqdoriga bog‘liq. Har bir elementar qatorning ma‘lum halqa ustunchalari soniga sarflanadigan ip qanchalik aniq o‘lchangan bo‘lsa, trikotaj to‘qima stabiligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ip sarfini bir xil o‘lchovda beradigan ip uzatish moslamalari, qatorlar bo‘yicha sarflanadigan ip miqdorini bir xilda ushlab turish imkoniyatini beradi.

Poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining old qatlami bo‘yicha halqa ipi uzunligi 7,1 mm dan 11,7 mm gacha, orqa qatlamning halqa ipi uzunligi esa 5,3 mm dan 7,6 mm gacha o‘zgardi. Bu esa qatlamlarni to‘qib olishda bir xil shaklga ega bo‘lgan glad halqalari va press yarim halqalaridan tashkil topganligi bilan ifodalanadi. Poyabzal ustligi uchun mo‘ljallangan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari orasida asos to‘qima sifatida birinchi varianti tanlab olindi (I–variant, 2.1–rasm). Olingan trikotaj to‘qimasi old qatlami glad va press yarim halqasidan tashkil topgan bo‘lib, orqa qatlamdagi glad to‘qimasi bilan birikkan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Турсункулова М.С., Трикотажные волокна и их роль в жизни человека, преимущества. Imperial College London International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: Problems and solution” 2–part, 2–701 pages–659. committee list for 2021–2022.
2. Tursunkulova M.S. Xolikov.K.M., Rahmatova.S.U., To‘qimachilik–trikotaj ishlab chiqarish sanoatida tabiiy tolalar tahlili. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy – texnikaviy jurnal 2022–yil № 4 bet.
3. Tursunkulova M.S. Turli tolalar tahlili., “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti”. Ilmiy–texnikaviy jurnal. 2021 № 2, 202–208 bet.
4. M.S.Tursunkulova., Oxunov R.N., Raxmatova S.U., Xolikov K.M., Sintetik tolali yigirilgan iplarning xususiyatlari zamonaviy tahlili., “Tikuv trikotaj sanoatida Uinnovation texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi muammo tahlil va sohani rivojlantirish istiqbollari”. Halqaro ilmiy–amaliy konferensiya ning makolalar to‘plami. 7–8 oktyabr 2022 3–tom.502–507
5. Tursunkulova M.S., To‘qimachilik–trikotaj ishlab chiqarish sanoatida olimlarimizning tabiiy tolalarni tahlili xaqidagi qarashlari. Imperial College London International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: Problems and solution” 2–part, 2–701 pages–664. committee list for 2021–2022.
6. M.S.Tursunkulova., Q.M. Xoliqov, “Trikotaj mato tolalarining xususiyatlari, turlari va tahlili”. “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”ga bag‘ishlangan ilmiy maliy anjuman. 2022 yil. 27–28 may 91 bet.
7. M.S.Tursunkulova., Q.M.Xoliqov. “Poyabzal astarligi uchun ishlatiladigan materiallarning turlari, xususiyatlari va ularning afzalliklarini tahlil qilish”. // “Science and Innovation” International Scientific Jurnal.2022.№4. uif–2022: 8.2. issn:2181–3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6977353>.
8. Maksuda Tursunkulova, Ne‘matjon Yoqubjanov., Kurbonali Kholikov., “Murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi”. Educational Research in Universal Sciences, volum 2 issue 4 Scientific Jurnal. St. 490–502. UIF–2023. research in universal sciences, 2(4), 490–502. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7904128>.
9. M.S.Tursunkulova., N.N. Yoqubxonov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov., Tarkibi yigirilgan paxta ipi hamda poliestr iplaridan tashkil topgan murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun olingan ikki qatlamli trikotaj olish., // Educational Research in Universal Sciences 2 (7), 103–114 2023 115–126. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3502>
10. M.S Tursunkulova., X.K Mamatova., N.N Yoqubxonov., Q.M Xoliqov. “Mahalliy xomashyolardan foydalanib murakkab to‘qimalar asosida poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish”. “Educational Research in Universal Sciences” International conference on teaching, education and new learning technologies” 2023/1 Page No.: 1169–1180.
11. M.S Tursunkulova., X.K Mamatova., N.N Yoqubxonov., Q.M Xoliqov. “Mahalliy xomashyolardan foydalanib murakkab to‘qimalar asosida poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini

- olish texnologiyasini takomillashtirish”. Spanish international scientific online conference prospects and main trends in modern science 29.11.2023.
12. M.S Tursunkulova., L.S O‘ralov., Q.M Xolikov., “Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasidan poyabzal ustligi uchun qo‘llaniladigan materiallarning texnologik va fizik–mexanik ko‘rsatkichlari”. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 3 | ISSN: 2181–4163 | UIF–2023: 8.2 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7661515>.
 13. M.S.Tursunkulova., N.N. Yoqubxanov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov., “Mahalliy yigirilgan paxta ipidan murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari tahlili”. Educational Research in Universal Sciences, volum 2 issue 4 Scientific Jurnal. St. 477–489. UIF–2023. Educational research in universal sciences, 2(4),477–489. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7904123>.
 14. Maksuda Tursunkulova, Ne‘matjon Yoqubjanov, Hadicha Mamatova, Kurbonali Kholikov., Technological Specifications of Double–Layer Knit Fabrics for Sport Style Shoe Upper Based on Locally Spinning Cotton Yarn Complex Fabrics”. // International conference. PTLICISIWS–2 May, 2023. Scopus Web of Science indexed Indexed in leading databases – Scopus, Web of Science, and Inspec. Conference Committee.
 15. M.S.Tursunkulova., N.N. Yoqubxanov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov. Xomashyo tarkibi turli variantlarda murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarni texnologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha. Educational Research in Universal Sciences 2 (7), 127–138 2023 103–114. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3501>.
 16. M.S Tursunkulova, N.N Yoqubxanov, X.K Mamatova, Q.M Xoliqov., “Tarkibi sintetik iplardan tashkil topgan murakkab to‘qimalar asosida sport uslubidagi poyabzal ustligi uchun olingan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari”. Educational Research in Universal Sciences 2 (7), 115–126 2023. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3502>.
 17. M.S Tursunkulova. Sh. Hasanova., K.M Xolikov., “Yigiruvbop paxta tolali chiqindilardan yigirilgan iplarning fizik–mexanik xossa ko‘rsatkichlarini taxlili”. “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti”. Ilmiy–texnikaviy jurnal. 2022. № 7, 93–96 bet.
 18. Maksuda Tursunkulova, Ne‘matjon Yoqubjanov, Kurbonali Kholikov., Research of physical and mechanical indicators of the upper part of the shoe on the basis of knitted knitting tissue. // Science and Innovation International Scientific Journal volume 1 issue 7 uif–2022: 8.2 | issn: 2181–3337.
 19. M.S.Tursunkulova., H.H.Yoqubjanov., K.M.Xoliqov., Mahalliy xomashyolardan foydalanib poyabzal ustligi uchun yukori gigiyenik xususiyatli trikotaj to‘qimalari. // International Conference on Teaching education and new learning technologies. ISSN 2181–3515 14 january Page No:1170–1181 – 2023. 2023/1 Page No.: 1169–1180.
 20. Tursunkulova M.S O‘ralov L.S., Xolikov Q.M., Poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli g‘ovakli trikotaj to‘qimalarining nam o‘tkazuvchanlik xossasini tadqiq qilish. // International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 1 issue 3 | ISSN: 2181–4163 UIF–2023: 8.2 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7661429>.

UDK 330.34:004.738.5:316.42

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING MINTAQADAGI INKLYUZIV
IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIRI**

Nizamov Akmal Aslitdinovich

ZARMED Universiteti «Iqtisodiyot va aniq fanlar» kafedrası mudiri, PhD., dotsent

akmal.aslitdinovich@gmail.com

***Annotatsiya:** raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanib, hududlarning samaradorligi, innovatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, kichik va o‘rta biznes uchun imkoniyatlarni kengaytirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan inklyuziv iqtisodiy o‘sishni shakllantirishga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Infratuzilmani*

rivojlantirish, raqamli platformalar va yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek ularning barqaror va inklyuziv iqtisodiy modellarni yaratishdagi roli kabi raqamli transformatsiyaning asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli asr sharoitida uyg'un o'sish va ijtimoiy integratsiyaga yordam beradigan raqamli tashabbuslarni amalga oshirishning mintaqaviy xususiyatlari, muammolari va istiqbollari alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, inklyuziv iqtisodiy o'sish, mintaqaviy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, iqtisodiy inklyuziya, ijtimoiy integratsiya, Raqamli ma'lumotlar infratuzilmasi, kichik va o'rta biznes (korxonalar), Ijtimoiy tenglik, barqaror rivojlanish, raqamli platforma, texnologik modernizatsiya.

DIGITAL TRANSFORMATION AND ITS IMPACT ON INCLUSIVE ECONOMIC GROWTH IN THE REGION

Nizamov Akmal Aslitdinovich

Head of the Department of "Economics and Exact Sciences" of ZARMED University,
PhD, Associate Professor
akmal.aslitdinovich@gmail.com

Abstract: Digital transformation has become a key factor in modern economic development, contributing to increased efficiency, innovation, and competitiveness of regions. This article examines the impact of digital technologies on the formation of inclusive economic growth aimed at reducing social and economic inequality, expanding opportunities for small and medium-sized businesses, and improving the quality of life of the population. The main aspects of digital transformation, such as infrastructure development, the introduction of digital platforms and new technologies, as well as their role in creating sustainable and inclusive economic models, are analyzed. In the context of the modern digital age, special attention is paid to the regional features, problems, and prospects of implementing digital initiatives that contribute to harmonious growth and social integration.

Keywords: digital transformation, inclusive economic growth, regional development.

Uzoq vaqt davomida dinamik iqtisodiy o'sishga erishish hamda shu asosda ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatni oshirish ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar rivojlanishining asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy dinamikaning sezilarli sur'atlariga erishish kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy tanglikni yengillashtirish, daromadlar tengsizligini kamaytirish, umr ko'rish davomiyligini oshirish va boshqa ko'plab muhim ko'rsatkichlarni yaxshilashning kafolati emas [1].

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti va uning mintaqalari kontekstida shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yigirma yillikda iqtisodiy o'sishning sezilarli bo'lishiga qaramay, aholi pul daromadlarining farqlanishi Yevropa davlatlari o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha yuqori darajada qolmoqda [3, 4]. Ushbu nomutanosiblik jiddiy xatarlarni yuzaga keltiradi va taraqqiyotning yangi yo'liga – inklyuziv (hammani qamrab oluvchi) rivojlanish modeliga o'tishni talab qiladi. Aks holda, yaqin istiqbolda ijtimoiy norozilik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, iqtisodiy siyosat paradigmasi yo'nalishi, mexanizmlari va ustuvor yo'nalishlari jihatidan qayta ko'rib chiqilishi va yangidan o'ylab chiqilishi muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning inklyuziv modelini kuchaytirish bo'yicha yechimlar izlanishini o'rganish hududiy/mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib borilishi kerakligi alohida ta'kidlanadi. Bu esa selektiv (tanlab qo'llaniladigan) siyosat yuritish imkonini beradi [6]. Ushbu yondashuvning dolzarbligi shundan iboratki, inklyuziv iqtisodiy o'sish barcha mintaqalar uchun yagona bo'lishi mumkin emas – u hududiy tartib va omillarni inobatga olgan holda shakllanadi. Ularning eng muhimlaridan biri – to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarni iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiya qilish jarayonlari va intensivligidir [5].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mintaqaviy iqtisodiy o'sishning inklyuziv modelini shakllantirish jarayonlariga ta'sir qiluvchi omil sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar raqamli transformatsiyasining rolini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda.

Shuni qayd etish kerakki, inklyuziv iqtisodiy o'sish nazariyasining mashhurligi ortib borayotganiga qaramay, hozirgi kunda bu sohada bir qator metodologik masalalar saqlanib qolmoqda – ham tushunchaning mazmunini talqin qilish bo'yicha (uning mazmuni hali ham faol muhokamada), ham iqtisodiy tizimlarning inklyuziv o'sishini empirik o'lchash usullarini asoslashda, shuningdek, mesodarajada (ya'ni mintaqaviy darajada) inklyuziv modelni shakllantirish intensivligini belgilovchi omillarni, shu jumladan, albatta, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmaning raqamli transformatsiyasi omillarini aniqlash borasida [4].

Ushbu vazifani hal qilish mintaqa uchun raqamli transformatsiyaning asosiy va moslashuvchan yo'nalishlarini aniqlashda, ularni inklyuziv rivojlanish modeliga maksimal darajada samarali integratsiya qilishda, jamiyat, mamlakat va uning mintaqalari rivojlanishida raqamli transformatsiyaning roli va ahamiyatini anglashda katta hissa qo'shadi.

Tadqiqotning **nazariy ahamiyati** shundaki, u mintaqaviy iqtisodiy o'sishni raqamlashtirish jarayonlarining hududiy iqtisodiy dinamikaning inklyuziv modeliga ta'siri prizmasi orqali o'rganish metodologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu jarayonda umumilmiy va maxsus tamoyillar qo'llaniladi, nazariy vositalar yangi tadqiqot obyekti uchun moslashtiriladi, yangi dalillar ilgari suriladi va ayrim ilmiy gipotezalarning ishonchliligi asoslanadi, shuningdek, faktik va metodologik bazaning doirasi kengaytiriladi. Shuningdek, mintaqaning raqamli transformatsiyasi inklyuziv iqtisodiy o'sish parametrlarini belgilovchi tizimshakllantiruvchi omillarga qanday ta'sir ko'rsatishini baholovchi metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** esa quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi: unda ishlab chiqilgan xulosalar va olingan natijalar asosida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy muhitini raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini kuchaytirish yo'nalishida davlat mintaqaviy siyosatini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu jarayon oltinchi texnologik inqilob va unga mos asosiy ishlab chiqaruvchi omillar, xususan, mintaqaning ekologik-iqtisodiy muhitini raqamli transformatsiya qilish bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ijtimoiy rivojlanish sohasida yuzaga kelgan inqiroz shuni ko'rsatmoqdaki, davlat boshqaruvi organlari an'anaviy tarzda iqtisodiy dinamika faolligiga yo'naltirilgan rivojlanish modellari doirasida yuzaga kelayotgan muammolarga to'liq javob bera olmayapti. Investitsiya faolligi, odatda, yuqori foydali iqtisodiy faoliyat tarmoqlarida to'plangan bo'lib, ijtimoiy yo'naltirilgan sohalar "ikkinchi darajali" tus olmoqda. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy o'sish jarayonlari tashkil etilishida muvozanatsizlik (nomutanosiblik) keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan, so'nggi yillarda rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta ko'rib chiqish va iqtisodiy o'sishning inklyuziv deb ataluvchi modeliga o'tish g'oyasi mutaxassislar va ilmiy doiralar orasida keng ommalashib bormoqda. Bu model, soddalashtirilgan talqinda, iqtisodiy dinamika bilan turli iqtisodiy agentlar manfaatlarini muvozanatlashgan holda yuqori hayot sifatiga erishishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning inklyuziv rivojlanishi konsepsiyasi ommalashib borayotganiga qaramay, uning mazmunli xususiyatlari, aniqlash va o'lchash uslublari hali ham faol ravishda muhokama qilinmoqda va takomillashtirilmoqda. Hozirgacha bu borada umumiy fikrga kelinmagan.

Quyida (1-jadvalda) keltirilgan yondashuvlarni – xalqaro rivojlanish institutlari va individual olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlarni – tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu tushuncha ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, unga nisbatan turli talqinlar mavjud.

Umuman olganda, inklyuziv o'sish nazariyasini o'rganishga doir qarash va yondashuvlar tizimlashtirilgan holda tayanilgan holda, shuningdek, muallifning gipotezalari va taxminlariga asoslanib, quyidagicha xulosa qilish taklif etiladi: to'rtinchi sanoat inqilobi davrida ijtimoiy-

iqtisodiy tizimlarning taraqqiyoti va tarkibiy rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim omil bu – iqtisodiy munosabatlarning raqamli transformatsiyasidir.

Shu asosda, “mintaqaviy inklyuziv iqtisodiy o‘shish” tushunchasining mualliflik talqini, boshqalar qatorida, aholining davlat xizmatlari va ommaviy ne'matlarga teng imkoniyatlar asosida kirishiga erishishni ham o‘z ichiga oladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“Inklyuziv o‘shish” tushunchasiga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirilishi

| № | Yondashuv | Yondashuvning mazmuni va mohiyati |
|--|---|--|
| Xalqaro tashkilotlar yondashuvi | | |
| 1 | Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) | “Inklyuziv iqtisodiy o‘shish” – bu faqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shishiga emas, balki aholining bugungi va kelajakdagi turmush darajasi va sifatining yaxshilanishiga xizmat qiluvchi iqtisodiy o‘shishdir (ya’ni, kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olgan holda). |
| 2 | Jahon banki | Inklyuziv o‘shish – bu jamiyatda resurslar va bozorlarga teng kirish imkoniyati orqali ijodiy va samarali salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy o‘shishdir. |
| 3 | Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) | Inklyuziv o‘shish – bu YAIMning ijobiy dinamikasidir, u jamiyatning barcha qatlamlariga foyda keltiradi. Bu tushuncha odatda iqtisodiy o‘shish natijasida yuzaga keladigan umumiy farovonlikni anglatadi. |
| 4 | Osiyo taraqqiyot banki (ADB) | Inklyuziv o‘shish – bu milliy mahsulotni yaratish va undan foydalanishda jamiyat a‘zolariga teng imkoniyatlar taqdim etilishi asosida barqaror iqtisodiy dinamika bilan kechadigan o‘shishdir. |
| Chet ellik olimlar yondashuvi | | |
| 5 | R. Samans | Inklyuziv o‘shish – bu jamiyatning barcha a‘zolari o‘rtasida moddiy va nomoddiy resurslarni adolatli taqsimlash orqali millatning umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy o‘shishdir. |
| 6 | C. Habito | Inklyuziv o‘shish – yaratilgan milliy boylikni adolatli taqsimlash orqali qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy o‘shishdir. |
| 7 | M. Feshari | Inklyuziv o‘shish – bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muvozanatli rivojlanish modeli bo‘lib, u ijtimoiy va ekologik farovonlikni ta‘minlaydi. |
| Rossiyalik olimlar yondashuvi | | |
| 8 | A. Levenkov | “Inklyuziv o‘shish” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi asosiy tarkibiy qismlar: kengroq maqsadlar (faqat daromad yoki YAIM o‘shishini emas); inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish; tengsizlik va qashshoqlikni kamaytirish; faqat daromad taqsimotida emas, balki iqtisodiy hayotda faol ishtirokning ahamiyati; aholining keng qatlamlari, ayniqsa bolalar, ayollar, keksalar uchun foydalar; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish. |
| 9 | N.V. Paxomova, K.K. Rixter, G.B. Malishkov | “Inklyuziv” (kompleks) o‘shish faqat iqtisodiyotning tarkibiy rivojlanishi va davlat tomonidan kamsitishga qarshi siyosat olib borilishi sharoitidagina shakllanadi. |
| 10 | M.A. Ibragimov, G.A. Ibragimova | Inklyuziv iqtisodiy o‘shish – bu faqat daromad yoki YAIM o‘shishini emas, balki aholining iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ham asosiy maqsad sifatida belgilovchi yondashuvdir. |
| Muallif yondashuvi | | |
| 11 | A.A. Nizomov | “Inklyuziv mintaqaviy iqtisodiy o‘shish” – bu mintaqaning iqtisodiyoti barqaror, ijtimoiy yo‘naltirilgan tarzda rivojlanadigan |

| | | |
|--|--|---|
| | | <p>model bo'lib, unda iqtisodiy dinamika va iqtisodiy agentlar uchun shakllanayotgan imkoniyatlar o'rtasida optimal muvozanat ta'minlanadi. Bu jarayon, xususan, gender tengligi, hozirgi va kelajakdagi davrlarda yaratilgan ne'matlardan adolatli foydalanish imkoniyati bilan ifodalanadi. Eng muhim mexanizm – bu iqtisodiy munosabatlarning raqamli transformatsiyasidir. U davlat boshqaruvida kamsitishga qarshi uslublarni, mintaqaviy yakuniy mahsulotni muvozanatli taqsimlash jarayonlarini va raqamli texnologiyalar orqali bozorlarga hamda resurslarga kirishni faollashtirish asosida ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlaydi.</p> |
|--|--|---|

Keling, hayotimizga mustahkam kirib kelgan va bozor mexanizmini nafaqat asosiy daromad olish maqsadi bilan, balki jamiyat tomonidan qo'yilayotgan qo'shimcha talablar bilan to'ldiruvchi inklyuziv iqtisodiyot tushunchasiga e'tibor qaratamiz. Bundan tashqari, iqtisodiy inklyuzivlik tobora ko'proq bozor iqtisodiyotining barqaror va progressiv rivojlanishi sharti sifatida talqin qilinmoqda. Masalan, ayrim mualliflar, xususan, Mikheev N.N., inklyuzivlik darajasini yalpi ichki mahsulot (YAIM)ga muqobil sifatida, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi sifatida qarashni taklif qiladi [1].

Umuman olganda, inklyuziv iqtisodiyotning mohiyatini aniqlashda 4 ta ilmiy va amaliy yondashuv mavjud:

- ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv;
- tadbirkorlik yondashuvi;
- innovatsion yondashuv;
- va psixologik yondashuv (shaxsiy fazilatlarni inobatga olgan holda) [5].

Biroq, amaliyotda iqtisodiyotning inklyuzivligi haqida gap ketganda, odatda aholining qashshoqlik darajasi va jamiyatdagi tengsizlik muammosi asosiy e'tiborga olinadi. Shunday qilib, "inklyuzivlik" tushunchasi ostida jamiyatning har bir a'zosining iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishi va natijada mavjud resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Inklyuziv bozor iqtisodiyoti har bir kishiga – jinsidan, tug'ilgan joyidan, ijtimoiy-iqtisodiy muhitidan, yoshidan va boshqa omillardan qat'i nazar – mehnat bozori, tadbirkorlik va kengroq ma'noda iqtisodiy imkoniyatlarga teng kirish imkoniyatini taqdim etadi [11].

To'rtinchi sanoat inqilobi davrida taraqqiyot va tarkibiy rivojlanishni ta'minlovchi eng muhim omil iqtisodiy munosabatlarning raqamli transformatsiyasi ekanligi haqidagi asosli pozitsiyaga tayanib, muallif tomonidan ilgari surilayotgan "inklyuziv mintaqaviy iqtisodiy o'sish" tushunchasi quyidagicha talqin etiladi: bu — mintaqaning barqaror, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanishidir, unda iqtisodiy dinamika va iqtisodiy agentlar uchun yuzaga kelayotgan imkoniyatlar o'rtasidagi optimal muvozanat ta'minlanadi. Bu imkoniyatlar, xususan, yaratilgan ne'matlarga hozirgi va kelajakda adolatli kirish huquqi orqali ifodalanadi. Eng muhim mexanizm esa — iqtisodiy munosabatlarning raqamli transformatsiyasidir, u esa davlat boshqaruvining kamsitishga qarshi uslublarini, mintaqaviy yakuniy mahsulotni muvozanatli taqsimlashni va bozorlarga hamda resurslarga raqamli kirish asosida ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlaydi.

"Inklyuziv iqtisodiyot" kategoriyasi jamiyatda kechayotgan barcha jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi, lekin ayni vaqtda ish o'rinlarining qisqarishiga va kam malakali mehnatning yo'q bo'lishiga olib keladi. Iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan bu yo'nalish progressiv hisoblanadi, biroq inklyuzivlik nuqtayi nazaridan bu adolat tamoyilining buzilishi hisoblanadi, chunki kam malakali ishtirokchilar teng mehnat va jamiyatda teng ishtirok huquqidan mahrum bo'lishadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, **bugungi kunda makro- va mezo-darajadagi iqtisodiy tizimlarning raqobatbardosh va barqaror rivojlanishini faollashtiruvchi eng muhim mexanizmlar qatoriga raqamli transformatsiya hamda raqamli texnologiyalarni iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiya qilish kiradi. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiy muhitga integratsiya qilish jarayoni o'z-o'zidan XX va XXI asrlar kesishmasida butun dunyoni**

qamrab olgan to'rtinchi sanoat inqilobi bilan bog'liq texnologik o'zgarishlarga ob'ektiv javobdir.

Raqamli transformatsiya, bir qator ilmiy tadqiqotlarda qayd etilganidek, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning yechimlarini ta'minlaydi, aholining hayot sifati oshishining asosini yaratadi hamda jamiyat hayotining ko'plab sohalarida yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bularning barchasi, yakunda, hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot yaqindagina faol rivojlanish bosqichiga kirganini inobatga olsak, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar barqaror rivojlanishidagi ahamiyati, ayniqsa, hududlar uchun inklyuziv rivojlanish effektlarini keltirib chiqarish masalasidagi roli, odatda, falsafiy mulohazalar yoki rasmiylashtirilgan tadqiqot uslublarining cheklangan ko'rinishida ifodalanadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ushbu tadqiqot hududiy ekotizimning raqamlashtirilishi inklyuziv iqtisodiy o'sish parametrlarini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini baholovchi nazariy va metodologik yondashuvlarning ilmiy salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.N.Mikheeva Inclusivity and sustainability of economic growth: a comparative assessment of the EAEU countries. <https://ecfor.ru/wp-content/uploads/2023/01/inklyuzivnyj-ekonomicheskij-rost-v-stranah-eaes.pdf>.
2. Yelshin L.A., Gafarov M.R. Stimulating the economic dynamics of the region within the framework of the implementation of the concept of inclusive creative growth. *Creative economy*. 2021. Volume 15. No. 11. pp. 4201-4214. doi: 10.18334/ce.15.1137.
3. R.T.Burganov Assessment of environmental research in block chain technology / M.R.Safiullin, L.A.Elshin, A.A.Abdukaeva, R.T.Burganov // *Procedia Environmental Science, Engineering and Management*. – 2022. – Vol. 8. – No 4. – P. 979-986.
4. R.T.Burganov, L.A.Yelshin, A.R.Sharapov "The concept of inclusive growth as a mechanism for ensuring sustainable development of the national economy". *Economics, entrepreneurship and law*. 2022. Volume 12. No. 10. pp. 2623-2640. doi: 10.18334/epp.12.10.116352.
5. O.V.Skudalova Prospects for the development of an inclusive economy in Russia. *Fundamental scientific research as a factor of ensuring the competitiveness of society and the state: collection of scientific papers based on the materials of the International Scientific and Practical Conference on April 10, 2020 Belgorod: Agency for Advanced Scientific Research (APNI), LLC, 2020. URL: <https://apni.ru/article/549-perspektivi-razvitiya-inclusive-economy>.*
6. Methodology for assessing the inclusivity of the economies of the member States of the Eurasian Economic Union. Recommendation of the Board of the Eurasian Economic Commission No. 32 dated October 14, 2019. URL: <https://eec.eaeunion.org/upload/medialibrary/1fb/Protokol-NTS.pdf>.
7. E.A.Khairova METHODOLOGY FOR DETERMINING AN INCLUSIVE ECONOMY. *Bulletin of the Altai Academy of Economics and Law*. 2019. № 11-3. S. 90-94; URL: <https://vaael.ru/ru/article/view?id=930> (accessed date: 23.02.2024).
8. P.Minty, & B.Lessaer, Indicators of inclusive growth to complement GDP growth. *Employment and Social Developments in Europe*. 2013. Catalog N.: KE-BD-13-001-EN-C. Bruselas. URL: <https://ec.europa.eu/social/BlobServlet?docId=12781&langId=en>.
9. Report on the OECD. Framework for Inclusive Growth. Meeting of the OECD Council at ministerial level. Paris. 6–7 may 2014. URL: https://www.oecd.org/mcm/ig_mcm_eng.pdf.
10. World Economic Forum (2020). *Digital Transformation in Regions: Enabling Inclusive Growth*. — Report on the role of digital technologies in stimulating inclusive development of regions.
11. Project Strategy for Economic Inclusion (SEI). <https://www.ebrd.com/documents/policy/economic-inclusion-strategy-russian.pdf>.

12. International Telecommunication Union (2021). Digital Smart Regions: Pathways to Inclusive Growth. — Analysis of digital strategies for regions and their impact on socio-economic inclusion.

13. Klaus Schwab (2016). The Fourth Industrial Revolution. — About the new technological era and its impact on society and the economy.

14. OECD (2019). The Digitalisation of Regional Economies. — A report on digitalization trends and their impact on regional development.

European Commission (2019). Shaping Europe's Digital Future. — Strategic documents on the development of digital technologies in the EU regions.

UDK 748

DAVLATNING INNOVATSION SIYOSATI

Ikramova Nasiba Axmadovna

Zarmed universiteti “Iqtisodiyot va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Beshimov Yorqin Olim o‘g‘li

Zarmed universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat innovatsion siyosati, innovatsion faoliyatni kuchaytirish, uning samaradorligini oshirish va natijalarini mamlakatning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy ehtiyojlarni to‘liq qondirish maqsadida keng qo‘llashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui ko‘rsatilgan. Shu bilan bir qatorda davlat innovatsiya siyosatining maqsadi – investitsiyalarni jalb qilish va undan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar, ya’ni YaIM o‘shirishini, turmush darajasini va aholi farovonligini oshirish kabi masalalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, innovatsiya, sun‘iy intellekt, investitsiya, raqamli iqtisodiyot, siyosat, innovatsion loyihalar, start-up dasturlar, investorlar, investitsion faoliyat.

Аннотация. В данной статье освещены суть государственной инновационной политики, меры по усилению инновационной деятельности, повышению её эффективности и широкому применению её результатов в целях ускоренного социально-экономического развития страны и полного удовлетворения социальных потребностей. Наряду с этим, особое внимание уделено основной цели государственной инновационной политики — привлечению инвестиций и их эффективному использованию для осуществления структурных изменений в экономике, обеспечения роста валового внутреннего продукта (ВВП), повышения уровня жизни и благосостояния населения.

Ключевые слова: государство, инновация, искусственный интеллект, инвестиция, цифровая экономика, политика, инновационные проекты, стартап-программы, инвесторы, инвестиционная деятельность.

Abstract. This article highlights the essence of the state innovation policy, measures to strengthen innovation activities, improve their efficiency, and widely apply their results in order to accelerate the country’s socio-economic development and fully meet social needs. In addition, special attention is given to the main goal of the state innovation policy — attracting investments and using them effectively to implement structural changes in the economy, ensure GDP growth, and improve the standard of living and well-being of the population.

Keywords: state, innovation, artificial intelligence, investment, digital economy, policy, innovative projects, start-up programs, investors, investment activity.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali mexanizmlar o‘z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida to‘siq bo‘lmoqda”[1], deya ta’kidlab o‘tgan.

Shu o'rinda, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, innovatsiya faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi. Demak, innovatsiyani hayotga joriy qilishdan maqsad biror bir ijobiy natijaga erishishdir. Bundan shuni anglash mumkinki, innovatsiya sohasi o'z-o'zidan investitsiya sohasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovatsion-investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

— korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

— eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;

— ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan real sektor korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

— elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;

— ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Albatta, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, uning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning o'rni beqiyos. Lekin mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va bajarilishi talab etiladi[2]:

— davlat innovatsiya siyosati;

– O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;

— investitsiya salohiyati;

– davlat, tarmoq, korxonalar va tashkilotning turli ko'rinishdagi resurslar yig'indisi (moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va boshqalarni qamrab olgan holda);

— innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o'z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning faoliyat sohalari;

— innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar;

— innovatsiya dasturi (korxonalar, tarmoq, hudud, davlat, mintaqalar, davlatlararo) – innovatsiya loyihalari resurslari, ijrochilari va ularni amalga oshirish muddatlari bo'yicha kelishilgan hamda yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish va joylashtirish bo'yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta'minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi. U uch bosqichdan iborat:

* innovatsion faoliyat rivojlanishining ilmiy asoslangan konsepsiyalari (qarashlar tizimi) ning ishlanmasi – innovatsion salohiyat holatining tahlili asosida amalga oshiriladi;

* davlat tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

* innovatsion faollikni oshirishga qaratilgan qo'yilgan maqsadlarni bajarish bo'yicha amaliy harakatlarni amalga oshirish.

Innovatsion siyosatda ikki yo'nalishni ajratish lozim – strategik va taktik. Davlat innovatsion siyosat strategiyasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining uzoq muddatli konsepsiyalari asosida shakllanadi. Innovatsion siyosat strategiyasini tanlash davlat tomonidan innovatsion faoliyatni tartibga solishning asosiy yo'nalishlarni belgilashni va ilmiy

salohiyatni qo'llashni, innovatsion rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga muvofiq bosh maqsadlarni belgilashni taqozo etadi. Taktika esa ulkan samaradorlik bilan ushbu maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan joriy maqsadlar va aniq chora-tadbirlarni belgilashni taqozo etadi. Taktik vositalar – bu tadqiqot va loyihaviy-konstruktorlik ishlanmalarni moliyalashtirish, moddiy-texnik va axborot ta'minoti, kadrlarni saralash, innovatsion rivojlanish choratadbirlarini amalga oshirish uchun huquqiy va tashkiliy shartsharoitlarni yaratish. Davlat innovatsion siyosatining, uning shakllanish usullari va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarining samaradorligi ma'lum darajada ilmiy-texnik yetakchilikda o'z aksini topadi. U xalqaro miqyosda namoyon bo'ladi: ilmiy-texnik axborot natijalari (litsenziyalar, patentlar va h.k.)ni eksportini kengaytirish, tayyor yangiliklar eksportini ko'paytirish, boshqa mamlakatlarga beg'araz ilmiy-texnik innovatsion keng yordam ko'rsatish. Ilmiy-texnik yetakchilik – bu davlat innovatsion siyosatini shakllantirish va olib borish bo'yicha tanlangan strategik yo'l va taktik harakatlar to'g'riligini isbotlashdir. Ilmiy-texnik yetakchilik tadqiqotlar yo'nalishlarining to'g'ri tanlanganligi natijasidir (selektiv va frontal usullarini qo'llash). To'g'ri tanlov rivojlanishida ustuvorlikka ega bo'lgan yo'nalishlarda yetakchilikka olib kelishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining innovatsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari:

➤ O'zbekistonda investitsion faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani yaratish va takomillashtirish;

➤ respublika iqtisodiyotining tarkibiy qayta qurilishi, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish;

➤ chet el sarmoyalarini jalb qilish uchun qulay innovatsiya muhiti va imtiyozli imkoniyatlarni yaratish;

➤ mahalliy aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish;

➤ investorlarning huquqlarini himoya qilish va ularning majburiyatlarini bajarish monitoringini olib borish, normativ-huquqiy va nazorat funksiyalarini bajaruvchi davlat boshqaruv organlarining faoliyatini takomillashtirish.

Innovatsiya siyosati davlat tomonidan yuqorida qayd etilgan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng innovatsiya siyosati bir necha bosqichda rivojlana boshladi: 1-bosqich (1991–1994-yillar) – bu bosqich yirik xususiylashtirish va mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va ko'p tarmoqli iqtisodiyotning asoslarini shakllantirish, xususiylashtirishning aralashgan turlari shakllanishi jarayoni bilan ajralib turdi, bu bosqichda davlat budjeti mablag'lari ijtimoiy sohaga ajratilgan; 2-bosqich (1995–2003-yillar) – bu bosqichda quyidagilar rivojlana boshladi: – investitsiyalar sohasida qonunchilik bazasini yaratish; – turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanish;

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

– xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarni tashkil etish jarayoni; – iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar oqimi ortib borishi; – bevosita ajratmalar va davlat kafolatlari orqali innovatsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash; – loyihalarni moliyalashtirish tanlov asosida amalga oshirilishining boshlanishi.

3-bosqich (2004–2008-yillar) – bu bosqich quyidagilar bilan tavsiflanadi: – valuta va kredit munosabatlarini erkinlashtirish; – investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ishlab chiqarish faoliyati uchun qo'shimcha imtiyoz va imkoniyatlar yaratish; – korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish; – import o'rnini bosadigan va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha mezonlar qabul qilish; – bank tizimida ichki jamg'armalarni va mablag'larni tejashni mobilizatsiya qilish; – mahalliy investorlarga kichik korxonalar tashkil qilish uchun iqtisodiy imtiyozlar berish.

4-bosqich (2008–2016-yillar) – bu bosqich quyidagilar bilan tavsiflanadi: – inqirozga qarshi chora-tadbirlardan foydalanish; – banklarning investitsion faolligini oshirish; – erkin iqtisodiy hududlarni yaratish; – investitsion faoliyatni takomillashtirish. 5-bosqich (2017-yildan –

hozirgi kunga qadar) – bu bosqich quyidagilar bilan tavsiflanadi: – valuta munosabatlarini liberallashtirish; – soliq islohotlari konsepsiyasini qabul qilish;

– davlat korxonalarini isloh qilish, shu jumladan samarasiz faoliyat yuritayotgan korxonalar va ishlab chiqarish obyektlarini qo‘llab-quvvatlash yoki qayta tashkil etish; – biznesni yuritish uchun sharoitlarni soddalashtirish; – erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini yaratish; – investitsion faoliyatni takomillashtirish. So‘nggi yillarda tarkibiy o‘zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol innovatsiya siyosati olib borilmoqda. Shu o‘rinda modernizatsiya va diversifikatsiya atamalariga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Modernizatsiya – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarining texnologik qoloqligini bartaraf etish vositasi bo‘lib, mehnat, moddiy va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish darajasiga keskin ta‘sir ko‘rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatbardosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi. Diversifikatsiya lotincha (diversificatio)dan olingan bo‘lib, o‘zgartirish, xilma-xillik degan ma‘noni beradi. Diversifikatsiya – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimenti, ya‘ni turini ko‘paytirish, yangi iste‘mol bozorlarini izlab topish, ishlab chiqarishning yangi ko‘rinishlarini o‘zlashtirish. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy foyda ko‘rish, inqiroz xavfining oldini olish hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash mamlakatni innovatsion rivojlantirishning asosiy va muhim sharti hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida barqarorlashuv hukm surayotgan bir paytda iqtisodiyotning chuqur modernizatsiyalashuviga erishmay turib innovatsiyalar diffuziyasiga, ya‘ni yangi g‘oya, ishlanma va texnologiyalar joriy etilishi va jadal tarqalishiga erishish qiyin. Buning uchun esa, avvalo, ta‘lim, ilm-fan va sanoat integratsiyasini ta‘minlash, shuningdek, innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshiradigan yangi kompaniyalar tashkil etilishini rag‘batlantiruvchi yangi sanoat tarmoqlarini yaratishga ko‘maklashadigan bir qator aniq texnik yechimlarni joriy qilish talab etiladi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyot oldida turgan dolzarb masalalardan biri ham qisqa muddatda mamlakatning innovatsion rivojlanishiga erishishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun ham barcha dasturlar va loyihalarni bosqichma bosqich o‘z vaqtida bajarish kerak. Shundagina yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi PF-5614-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil, 7maydagi PQ-3698-sonli qarori.
3. Abdullaev, A. M. (2018). Activation of foreign economic relations on the basis of innovative development. Practice of Uzbekistan. *Mauritius: International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group*, 160 p. ISBN 978-613-9- 88371-4.
4. Davlyatova, G. M. (2020). Issues of effective use of employees of industrial enterprises. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 6(4), 86.
5. Gimush, R. I., & Matmurodov, F. M. (2008). Innovatsion menejment. *T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti*.
6. Абдуллаев, А.М. и др. (2016). Перспективы развития свободных экономических зон и условия инвестиционной привлекательности в реальные сектора экономики Республики Узбекистан. *Новый университет. Серия: Экономика и право*. 12(70). – С. 20-24. – Doi: <https://dx.doi.org/10.15350/2221-7347.2016.1>

7. Курпаяниди, К.И. (2022). Цифровая трансформация как перспективное направление развития промышленности Узбекистана. Экономика и бизнес: теория и практика-Economy and Business: Theory and Practice, vol. 9 (91). С.120-124, ISSN 2411-0450. Doi <https://doi.org/10.24412/2411-0450-2022-9-120-123>

8. <http://economyandbusiness.ru/wp-content/uploads/2022/10/Ekonomika-i-biznes-9.pdf>

9. Михайлов, А. Б. К вопросам инвестирования в человеческий капитал / А. Б. Михайлов, Д. Э. Муниров // Экономика и социум. – 2021. – № 12-2(91). – С. 239- 249.

**8-SHO‘BA. SANOAT VA TEXNIKA,
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDA
RAQOBATBARDOSH KADRLAR
TAYYORLASHNING IJTIMOIY,
PEDAGOGIK-MA‘NAVIY OMILLARI**

UDC:37.013.46

THESIS: PEDAGOGY IN THE WORK OF A HISTORIAN AND HIS CIVIC RESPONSIBILITY

Djanabaev Ajiniyaz Tolibaevich

Phone: +99897-868-9104

Email: ajiniyaza75@gmail.com

Assistant Lecturer at the Department of "Humanities and Languages"

Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Abstract: *This article raises the question of the importance of pedagogy in the professional activities of a historian. The author emphasizes that a historian is not only a researcher but also an educator responsible for shaping the historical consciousness of society. Special attention is given to the issue of silence regarding totalitarian tendencies in contemporary politics by some members of the historical community. The author analyzes the reasons for such behavior: fear of repression, self-censorship, academic detachment. In the final part of the text, the concept of "jihad of knowledge" is introduced in the context of Islamic pedagogy as a moral and civic duty of the historian to fight for truth, honesty, and justice, even under pressure and threats. The author views jihad not as physical struggle, but as a conscious effort to preserve moral values in education and science.*

Keywords: *pedagogy, historian, civic responsibility, totalitarianism, jihad of knowledge, Islamic pedagogy, moral resilience, academic ethics, critical thinking, enlightenment.*

DISSERTATSIYA: TARIXCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIKA VA UNING FUQAROLIK MAS'ULIYATI

Djanabayev Ajiniyoz Tolibayevich

Telefon: +99897-868-9104

E-mail: ajiniyaza75@gmail.com

"Gumanitar fanlar va tillar" kafedrasida dotsenti

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixchining kasbiy faoliyatida pedagogikaning ahamiyati masalasi ko'tarilgan. Muallifning ta'kidlashicha, tarixchi nafaqat tadqiqotchi, balki jamiyatning tarixiy ongini shakllantirishga mas'ul bo'lgan tarbiyachi hamdir. Tarixiy hamjamiyatning ayrim a'zolari tomonidan zamonaviy siyosatdagi totalitar tendensiyalarga nisbatan sukut saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muallif bunday xatti-harakatlarning sabablarini tahlil qiladi: repressiyadan qo'rqish, o'z-o'zini senzura qilish, akademik betaraflik. Matnning so'nggi qismida islom pedagogikasi kontekstida "ilm jihodi" tushunchasi tazyiq va tahdidlar ostida ham haqiqat, halollik va adolat uchun kurashish tarixchining axloqiy va fuqarolik burchi sifatida kiritilgan. Muallif jihodni jismoniy kurash emas, balki ta'lim va fanda axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish uchun ongli harakat sifatida ko'radi.*

Tayanch iboralar: *pedagogika, tarixchi, fuqarolik mas'uliyati, totalitarizm, ilm jihodi, islom pedagogikasi, ma'naviy barqarorlik, akademik etika, tanqidiy fikrlash, ma'rifat.*

Introduction: Many historians work in schools, universities, museums, archives — and everywhere they act not only as researchers but also as teachers. To transmit knowledge effectively, it is essential to understand:

The psychology of learners,

Methods of teaching and motivation,

Principles of organizing the learning process.

Pedagogy is essential for a historian because it transforms a researcher into a teacher. A good history teacher is not just someone who knows the facts, but someone who can bring the past to life and convey its meaning to new generations. However, there are historians who avoid discussing totalitarian aspects of modern politics, and there may be several reasons for this. In countries with authoritarian or semi-authoritarian regimes, open criticism of the authorities can be dangerous. Some believe their role is to study the past, not interfere in politics — a position of

academic detachment: “We study, we do not judge.” Historians may fear: Job loss, persecution, problems with publishing or access to archives.

But the problem is that history is not only about the past — it’s also about the present, because its interpretations shape public consciousness. Silence, in this case, becomes a position in itself.

Core Idea: If a historian consciously remains silent about injustice, falsification, authoritarianism — he is refusing the ethical mission of knowledge. In this sense, “jihad” for a historian is a struggle for truth, even when it is uncomfortable. This is not a call to violence, but a call for: Moral resilience, honesty in research, civic responsibility. Within Islamic pedagogy, the “jihad of knowledge” means the obligation to seek the truth and convey it to others. For a historian, this is especially important: silence in the face of injustice is complicity. The true jihad of a scholar lies in the courage to speak the truth and to educate generations capable of discerning lies from justice.

Thus, pedagogy plays a key role in the professional work of a historian, shaping not only teaching skills but also moral values. A historian must be not only a bearer of knowledge, but also an active participant in public dialogue — especially under growing threats of authoritarianism and distortion of historical truth. Silence in such conditions is a form of complicity.

Conclusion: In the context of Islamic pedagogy, the concept of the jihad of knowledge gives this responsibility a spiritual dimension: it is a struggle for truth, for honesty, for the education of a free-thinking and just generation. A true historian must not fear speaking the truth — even when it comes with risks. This is what makes him a genuine scholar, educator, and citizen. A historian, equipped with pedagogical skills, fulfills not only the role of researcher but also the role of moral guide and must recognize his ethical responsibility to represent historical truth in the present and actively resist authoritarian distortions — a duty that, within Islamic pedagogy, is expressed through the concept of “jihad of knowledge” as a moral and civic struggle for honesty, justice, and the formation of a free-thinking generation. Example: In the 19th century, the Karakalpak people had outstanding figures who contributed not only to literature but also to the historical comprehension of the nation's life. Among them, Berdaq, Kunkozha, and Azhiniyaz stand out in particular. Although they are primarily known as poets, their works also have historical-documentary significance.

Berdag was the greatest Karakalpak poet, often called “the people’s chronicler.” In his poems and songs, he reflected real events — the plight of the Karakalpak people, the struggle against colonization, and harsh living conditions. His social critique openly addressed injustice and oppression by landlords and local rulers, making his work a kind of “people’s history.” Berdaq was a poet-historian who honestly portrayed the suffering and hopes of the Karakalpak people. His poems are a struggle for the people’s truth. He opposed social oppressors — landlords, rulers, and colonizers. His word was a weapon: he exposed injustice and defended the poor. Meaning: Berdaq’s jihad was a poetic struggle for the rights of the people and the preservation of their dignity.

References:

1. Bim-Bad, B. M. *Pedagogy: An Encyclopedic Dictionary*. — Moscow: Great Russian Encyclopedia, 2002.
2. Vygotsky, L. S. *Psychology and Pedagogy*. — Moscow: Prosveshchenie, 1996.
3. Kasyanov, G. V. *The Historian in Conditions of Unfreedom: Dilemmas and Compromises*. // *Vestnik Istorii*, No. 3, 2019.
4. Todorov, Tzvetan. *Memory of Evil, Temptation of Good*. — Moscow: New Literary Review, 2002.
5. Shlapentokh, V. *Sociology of Totalitarianism*. — St. Petersburg: Aleteya, 2001.
6. Kolakowski, L. *If There Is No God: Religion, Atheism, and Modern Culture*. — Moscow: RGGU, 2004.
7. Al-Ghazali. *Revival of the Religious Sciences (Ihya' Ulum al-Din)*. — Cairo: Dar al-Ma'arif, 2005.
8. Ramadan, Tariq. *Islam and the Islamization of Knowledge: Contemporary Challenges*. // *Islamic Quarterly*, Vol. 50, No. 2, 2006.

UDK 37.013

TA'LIM KLASTERI TUSHUNCHASI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA PEDAGOGIK TIZIMDAGI O'RNI

V.E.Ubaydova¹, N.Q.Uralbayeva²

¹Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) amikomjon@mail.ru

²Buxoro davlat texnika universitet 304-24 Diz (LG) guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim klasteri tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni tahlil qilingan. Klaster yondashuvi orqali ta'lim tizimining integratsiyalashgan, hamkorlikda faoliyat yurituvchi subyektlari o'rtasida samarali aloqalarni shakllantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, integratsiya, pedagogik tizim, hamkorlik, innovatsion muhit, sifatli ta'lim.

ПОНЯТИЕ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ

В.Э.Убайдова¹, Н.К.Уралбаева²

¹Доцент Бухарского государственного технического университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам amikomjon@mail.ru

Студент группы 304-24 Diz (LG) Бухарского государственного технического университета

Аннотация. В настоящей статье проанализированы сущностное содержание понятия образовательного кластера, этапы его исторического развития, а также место в современной педагогической системе. Кластерный подход раскрывает возможности формирования эффективных связей между интегрированными и взаимодействующими субъектами образовательной системы.

Ключевые слова: образовательный кластер, интеграция, педагогическая система, сотрудничество, инновационная среда, качественное образование.

THE CONCEPT OF AN EDUCATIONAL CLUSTER, ITS DEVELOPMENT STAGES, AND ITS ROLE IN THE PEDAGOGICAL SYSTEM

V.E.Ubaydova¹, N.K.Uralbayeva²

¹ Associate Professor of Bukhara State Technical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences amikomjon@mail.ru

Student of group 304-24 Diz (LG) of Bukhara State Technical University

Abstract. This article analyzes the essential content of the concept of an educational cluster, the stages of its historical development, and its role in the modern pedagogical system. The cluster-based approach reveals the potential for establishing effective connections among the integrated and interacting subjects of the educational system.

Key words: Educational cluster, Integration, Pedagogical system, Collaboration, Innovative environment, Quality education.

Global ta'lim makonida raqobatbardoshlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va uzviy metodik hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurati ta'lim klasteri tamoyillarini keng joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, pedagogik tizimda sifat, mazmun va natijaviylik ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun ta'lim subyektlarining integratsiyalashuvi muhim omilga aylanmoqda.

"Klaster" atamasi iqtisodiyotni boshqarish tizimidan olingan bo'lib, bir-biri bilan yaqin bog'liq va birgalikda raqobatbardosh mahsulot yaratishga qodir subyektlar majmuini anglatadi (Porter, 1990). Ta'lim tizimi doirasida esa ta'lim klasteri – bu maktab, kollej, oliy ta'lim muassasasi, ilmiy tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish korxonalarini va jamiyat institusiyalarining o'zaro hamkorlikda faoliyat yurituvchi yagona ta'lim-tarbiya va innovasiya makoni sifatida tushuniladi.

Ta'lim klasteri — birlashtiruvchi, ko'p bosqichli, tizimli va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik hamkorlik modeli bo'lib, unda bilim, tajriba va innovatsiyalar almashinuvi muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim klasteri — bu o'quv muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy institutlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik tizimidir. U yagona hudud yoki soha doirasida tashkil etilib, ta'lim sifati va mazmunini ishlab chiqarish va mehnat bozori talablariga moslashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda ta'lim klasteri iqtisodiy klasterning bir tarmog'i sifatida qaraladi, bunda asosiy diqqat ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va innovatsiyalar integratsiyasiga qaratiladi.

Ilmiy-adabiy manbalar tahliliga tayangan holda, ta'lim klasterining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1-bosqich. G'oya shakllanishi – Tashabbuskorlar tomonidan hududiy yoki sohaviy ehtiyoj asosida klasterning maqsad va tamoyillari belgilanadi.

2-bosqich. Tashkiliy integratsiya – Ta'lim muassasalari va manfaatdor tomonlar (mahalliy hokimlik, ishlab chiqarish sohasi, nodavlat tashkilotlar) o'rtasida hamkorlik memorandumlari tuziladi.

3-bosqich. Resurslar birlashtirilishi – Kadrlar, moddiy-texnik baza, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar va malaka oshirish tizimi integratsiyalashadi.

4-bosqich. Barqaror faoliyat bosqichi – Klasterning boshqaruv, monitoring, tashabbus va natijadorlik tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu bosqichda ta'lim sifati oshadi, ilmiy tadqiqotlar amaliyot bilan uyg'unlashadi.

Ta'lim klasterining asosiy maqsad va vazifalari o'quv muassasalari, ilmiy markazlar va korxonalar o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash; nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish; mehnat bozori talablariga mos malakali mutaxassislar yetishtirish; ilmiy-texnik salohiyatni hududiy darajada rivojlantirish.

Ta'lim klasterining pedagogik tizimdagi o'rni uning quyidagi asosiy funksiyalarida namoyon bo'ladi:

- **Integratsion funksiyasi** – turli bosqichdagi ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi;
- **Kooperatsion funksiyasi** – ilmiy, metodik va innovatsion faoliyatda hamkorlik muhitini shakllantiradi;
- **Innovatsion funksiyasi** – yangi pedagogik технологияларни синовдан ўтказиш ва жорий этиш имкониятини яратadi;
- **Tarbiya va ijtimoiylashtirish funksiyasi** – Naqshbandiya ta'limoti asosida ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni shakllantiradi;
- **Monitoring va tahliliy funksiyasi** – o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini baholash imkonini beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, ta'lim klasteri orqali inson kapitalini rivojlantirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va o'quvchi-yoshlarni hayotga tayyorlash jarayoni samarali amalga oshiriladi.

Ta'lim klasteri bugungi kunda pedagogik tizimning sifatli rivojlanishini ta'minlovchi innovatsion model sifatida maydonga chiqmoqda. Uning samarali faoliyat yuritishi uchun tizimli hamkorlik, resurslar integratsiyasi va ilmiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Naqshbandiya ta'limoti bilan uyg'unlashgan holda, klaster modeli ta'lim va tarbiya jarayonining ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Porter M. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*.
2. Karimov I.A. (1997). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*.
3. Abdullaev Sh. (2021). Ta'lim klasteri – zamonaviy pedagogik tizimlar integratsiyasi. // *Pedagogika va psixologiya*.
4. Qurbonov A. (2022). Klaster yondashuv asosida innovatsion o'quv muhiti tashkil etish masalalari. // *O'zbekiston ta'limi*.
5. Naqshbandiy B. (XIV asr). *Maqolot va hikmatlar* (manba sifatida).
6. Убайдова В. Э., Нарзуллоева У. этапы обучения студентов технике выполнения золотого шитья stages of teaching students on the technique of gold sewing // *Дизайн, технологии и*

инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2022): сборник материалов Международной научно-технической конференции. Часть 1.–М.: ФГБОУ ВО «РГУ им. – 2022. – С. 135.

7. Erkinovna, U. V. (2023). Methodological foundations for the application of the doctrine of Naqshbandi in the improvement of professional competencies of future engineers in light industrial areas. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 11(3), 3.мс

UDK. 37.088

TA'LIM TIZIMIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA MA'NAVY QADRIYATLARNING ROLI

Raxmatova Munisa Bekjonovna

Buxoro davlat texnika universiteti, 312-23 Diz guruh talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur ishda ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni tahlil qilingan. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'siri, uning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli va yosh avlod ongida vatanparvarlik, halollik, mas'uliyat kabi qadriyatlarni singdirish orqali raqobatbardosh mutaxassis yetishtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ta'lim muassasalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, bu orqali nafaqat bilimli, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega kadrlar tayyorlash zarurligi asoslangan.*

***Kalit so'zlar:** raqobatbardoshlik, kadrlar tayyorlash, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, kasbiy kompetensiyalar, ta'lim tizimi, milliy qadriyatlar, shaxs tarbiyasi.*

***Аннотация.** В данной работе проанализирована роль духовных ценностей в процессе подготовки конкурентоспособных кадров в системе образования. Раскрыто значение нравственно-духовного воспитания в формировании личности, его влияние на развитие профессиональных компетенций и важность воспитания таких ценностей, как патриотизм, честность и ответственность у молодежи. Обоснована необходимость интеграции национальных и общечеловеческих ценностей в образовательные учреждения для подготовки не только квалифицированных, но и морально устойчивых специалистов.*

***Ключевые слова:** конкурентоспособность, подготовка кадров, духовные ценности, нравственное воспитание, профессиональные компетенции, система образования, национальные ценности, воспитание личности.*

***Annotation.** This paper analyzes the role of moral and spiritual values in training competitive personnel within the education system. It highlights the influence of ethical and spiritual upbringing on personality development and its contribution to building professional competencies. Emphasis is placed on fostering values such as patriotism, honesty, and responsibility in youth as essential elements in preparing not only skilled, but also ethically grounded specialists. The importance of integrating national and universal values into the educational process is substantiated.*

***Keywords:** competitiveness, personnel training, spiritual values, moral education, professional competencies, education system, national values, character development.*

Bugungi globalashuv va texnologik taraqqiyot jarayonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash har bir mamlakatning strategik vazifasiga aylandi. Raqobatbardoshlik faqat kasbiy ko'nikmalar va bilimlar bilan emas, balki shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqligi, ma'naviy barkamolligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlar - mustahkam ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Jahon miqyosida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot shiddat bilan kechayotgan, raqobat tobora kuchayayotgan bugungi zamonda har qanday mamlakatning taraqqiyoti, eng avvalo, uning bilimli, kasbga ega va ma'naviy barkamol kadrlariga bog'liq. Zamonaviy mutaxassis nafaqat o'z sohasi bo'yicha bilimga ega bo'lishi, balki umuminsoniy qadriyatlarga, milliy va ma'naviy asoslarga sodiq, yetuk shaxs bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarni

shakllantirish va mustahkamlash orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat va jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Raqobatbardosh kadr - bu faqatgina kasbini puxta biluvchi mutaxassis emas, balki tez o'zgaruvchan bozor sharoitiga moslasha oladigan, mustaqil fikr yurituvchi, mas'uliyatli va fidoyi shaxs hamdir. Unda quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lishi kerak:

- mukammal kasbiy bilim va ko'nikmalar;
- yangilikka ochiqlik va innovativ fikrlash;
- jamoaviy ishlash qobiliyati;
- yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlar;
- vatanparvarlik va fidoyilik.

Bu kabi sifatlarning shakllanishida ta'lim tizimidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

Zamonaviy mutaxassisga qo'yiladigan asosiy talablar: kasbiy yetuklik va mulohazali qaror qabul qilish qobiliyati, innovatsion va kreativ fikrlash, axloqiy barkamollik va madaniyatli muomala, jamoaviy ishlay olish va yetakchilik xususiyatlari, milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat, tez o'zgaruvchan muhitga moslasha olish qobiliyati.

Bu talablarning deyarli barchasi faqat nazariy bilim emas, balki shaxsning ichki dunyosi, ya'ni ma'naviyati, falsafasi, hayotiy pozitsiyasi bilan bog'liq.

Ma'naviy qadriyatlar - bu xalqning ma'naviy boyligi, axloqiy mezonlari va tarixiy merosidir. Ular avloddan-avlodga o'tib, jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va islohotlarga sodiqlikni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ushbu qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish:

- shaxsni yuksak ma'naviy ong va mas'uliyat bilan tarbiyalaydi;
- yosh avlodda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi;
- kasbiy faoliyatda halollik, adolat va sadoqat kabi fazilatlarini mustahkamlaydi.

Ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalangan mutaxassislar faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-siyosiy sohalarida ham samarali faoliyat yurita oladi.

Ma'naviy qadriyatlarning ta'limga ta'siri: shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi, yoshlarda hayotdagi maqsad va ma'noni shakllantiradi, kasbiy faoliyatda halollik va mas'uliyatni kuchaytiradi, yoshlarni jamiyatda faol fuqaro sifatida shakllantiradi, bilimlarni insonparvarlik va foyda keltirish yo'lida qo'llashni targ'ib qiladi (1-rasm).



1-rasm. Ta'limda qadriyatlar

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun quyidagi mexanizmlarga e'tibor qaratish zarur:

Fanlararo yondashuv: Har bir fanni o'qitishda ma'naviy mazmunlarni qamrab olish.

Ma'naviyat soatlari va tarbiyaviy tadbirlar: Doimiy ravishda ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, kitob mukolamalari, teatr va kino ko'rgazmalari uyushtirish.


O'qituvchi shaxsiyati: O'qituvchilar o'z ma'naviy yuksakligi bilan talabalarga namuna bo'lishlari zarur.

Ta'limda milliy merosga tayanish: Alisher Navoiy, Ibn Sino, Bobur, Imom Buxoriy kabi ulug' allomalar hayoti va merosini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish.

Ma'naviy qadriyatlar:

- yoshlarni yo'ldan adashishdan asraydi;
- insoniylik va adolatga tayangan mustahkam jamoatchilik ongini shakllantiradi;
- ishchi muhitda halollik va ishonchni ta'minlaydi;
- mehnat unumdorligini oshiradi va sog'lom muhit yaratadi;
- tashqi davlatlar bilan hamkorlikda milliy yuzni saqlash imkonini beradi.

Mazkur omillar raqobatbardoshlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. G'arb mamlakatlarida qadriyat

Hozirgi kunda g'arb ta'limi ko'p hollarda texnokratik xususiyatga ega - ya'ni shunchaki bilim va malakaga asoslanadi. Ammo bu bilimlar insonning ma'naviy dunyosi boy bo'lmasa, jamiyatda turli muammolarga sabab bo'ladi.

O'zbekiston tajribasida ta'limni ma'naviyat bilan uyg'unlashtirish modeli - shaxsning barcha jabhada rivojini ta'minlashga qaratilgan. Ya'ni, raqobatbardosh mutaxassis - bu faqat yaxshi mutaxassis emas, balki yaxshi inson ham bo'lishi shart.

Shu tariqa, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ma'naviy qadriyatlar hal qiluvchi omillardan biri ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lim faqat nazariy bilimlar emas, balki to'g'ri dunyoqarash, axloqiy barqarorlik va jamiyat oldidagi mas'uliyatni shakllantirishi lozim.

Ma'naviyatli mutaxassis - bu jamiyatni olg'a yetaklovchi kuch, millatning faxri va kelajak kafolatidir. Ta'lim muassasalari ma'naviyatni tarbiyalash markaziga aylanishi kerak. Bu jarayonda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va davlat tashkilotlari hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida ma'naviy qadriyatlar muhim asos vazifasini bajaradi. Zamonaviy bilim va innovatsiya bilan birgalikda shaxsiy ma'naviyat va milliy o'zlikni saqlash barqaror rivojlanish va global raqobatda muvaffaqiyat kalitidir. Shu bois ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaga jiddiy yondashish, uni fanlar, faoliyat va hayot tarziga to'liq integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev. "Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan jamiyat va xalqparvar davlat". Toshkent, "O'zbekiston", 2021.
2. "O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha maktab ta'limi sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" — Toshkent, 2022.
3. Juraev R. "Ma'naviyat asoslari". – T.: "O'qituvchi", 2001.
4. Abdurahmonov Q. "Kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari". – Toshkent, 2019.
5. Yuldoshev Q.X. "Milliy taraqqiyot va ma'naviy qadriyatlar". – T.: "Ma'naviyat", 2007.
6. Falsafa. Darslik / Tahrir hay'ati: Hamidov A. va boshqalar. – Toshkent: "O'qituvchi", 2020.

7. Sharipova N. "Ta'limda ma'naviy tarbiyaning roli" // "Pedagogika va psixologiya" jurnali. – T., 2021, №3.
8. UNESCO. "Rethinking Education: Towards a global common good?" – Paris: UNESCO Publishing, 2015.
9. Axmedova G.M. "Ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik asoslari". – Toshkent, 2020.
10. G'afurov U. "Inson kapitalini shakllantirishda ta'lim va ma'naviyat uyg'unligi" // "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali. – Toshkent, 2022, №2.

UDK. 37.087

RAQOBATBARDOSH MUTAXASSIS YeTISH TIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI (DIZAYN SOHASI MISOLIDA)

Nurboyeva Mohinur, 312-23 Diz guruh talabasi

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur ishda zamonaviy ta'lim jarayonida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlarning tutgan o'rni tahlil qilingan. Ayniqsa, dizayn sohasi misolida kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalar va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishda interaktiv usullar, loyihalashga asoslangan o'qitish va STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi) kabi metodlarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, pedagogning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi roli, ta'lim muhiti, AKT vositalaridan foydalanish va talabalarning bozor talablariga mos kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ish natijalari, dizayn yo'nalishida yuqori malakali va raqobatga bardoshli kadrlar tayyorlashda zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar. raqobatbardoshlik, mutaxassis tayyorlash, pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar, dizayn sohasi, kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalar, interaktiv ta'lim, STEAM, loyiha asosidagi o'qitish, kasbiy kompetensiyalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, bozor talablari, ijodiy yondashuv.

Аннотация. В данной работе проанализирована роль педагогических подходов и инновационных методов в подготовке конкурентоспособных специалистов в условиях современного образовательного процесса. Особенно выделена эффективность таких методов, как интерактивное обучение, проектное обучение и STEAM (интеграция науки, технологий, инженерии, искусства и математики) в формировании креативного мышления, практических навыков и творческого подхода на примере области дизайна. Также рассмотрена роль педагога в развитии личности обучающегося, образовательная среда, использование ИКТ и формирование профессиональных компетенций студентов в соответствии с требованиями рынка. Результаты исследования обосновывают необходимость интеграции современных педагогических и инновационных подходов для подготовки высококвалифицированных и конкурентоспособных кадров в области дизайна.

Ключевые слова: конкурентоспособность, подготовка специалистов, педагогические подходы, инновационные методы, область дизайна, креативное мышление, практические навыки, интерактивное обучение, STEAM, проектное обучение, профессиональные компетенции, современные образовательные технологии, рыночные требования, творческий подход.

Annotation. This study analyzes the role of pedagogical approaches and innovative methods in training competitive specialists within the modern educational process. Special attention is given to the effectiveness of methods such as interactive learning, project-based teaching, and STEAM (integration of science, technology, engineering, art, and mathematics) in fostering creative thinking, practical skills, and a creative approach, particularly in the field of design. The paper also examines the teacher's role in student personality development, the learning environment, use of ICT tools, and the formation of professional competencies aligned with market demands. The

findings justify the necessity of integrating modern pedagogical and innovative approaches in training highly qualified and competitive personnel in the design field.

Keywords: *competitiveness, specialist training, pedagogical approaches, innovative methods, design field, creative thinking, practical skills, interactive learning, STEAM, project-based teaching, professional competencies, modern educational technologies, market demands, creative approach.*

Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyat qozona oladigan mutaxassis – bu faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega inson emas, balki tanlagan sohasida innovatsion fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, dunyoviy tendensiyalardan boxabar va raqobatchi sifatida yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsdir.

XXI asr — innovatsiyalar, raqamlashuv va ijodiy fikrlash asri. Bugungi kunda har qanday mutaxassisdan faqat bilim emas, balki tez o‘zgaruvchan bozor muhitiga moslashish, yangilik yaratish va muammolarga kreativ yondashish salohiyati talab etiladi. Shu nuqtai nazardan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash — ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Bu jarayonda pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta‘lim texnologiyalari va kasbiy amaliyot bir-biriga uyg‘un ravishda qo‘llanilishi kerak. Ayniqsa, **dizayn** kabi ijodiy, texnologiyaviy va estetik bilimlarni birlashtiruvchi sohada bu talablar yanada sezilarlidir.

Aynan dizayn sohasi bu talablarning deyarli barchasini talab qiladigan, ilmiy, estetik, ijtimoiy va texnologik bilimlarni sintez qilgan holda ishlaydigan sohalardan biridir. Shunday ekan, dizayn yo‘nalishida raqobatbardosh mutaxassis yetishtirishda pedagogik yondashuvlar va innovatsion ta‘lim metodlarining ahamiyati beqiyosdir.

Dizayner – bu faqat vizual obraz yaratuvchi shaxs emas. U:

- estetik qadriyatlarni texnologik yechim bilan uyg‘unlashtiruvchi;
- inson ehtiyojini tushunib, muammolarga ijodiy yechim topuvchi;
- raqamli texnologiyalar bilan ishlaydigan, ko‘p sohalarni o‘rganuvchi;
- jahon tendensiyalarini tahlil qila oladigan va innovatsiya yaratuvchi mutaxassisdir.

Bunday sifatlarni mutaxassisda shakllantirish uchun an‘anaviy pedagogik yondashuv yetarli emas, balki **kreativ, amaliyotga yo‘naltirilgan va raqamlashgan ta‘lim** talab etiladi.

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Har bir talabaning ijodiy salohiyati, dunyoqarashi va vizual ta‘bir imkoniyatlari har xil. Bu holatda shaxsiy portfolio asosida ishlash, mustaqil izlanish va individual yondoshuv asos qilib olinadi.

2. Konstruktiv yondashuv

Bu metodda talabaga tayyor ma‘lumot berilmaydi, balki u muammoni tahlil qilib, yechim yaratishiga rag‘batlantiriladi. Masalan: "Fuqarolar uchun inklyuziv yo‘riqnoma dizaynini yarating" – kabi real vazifalar orqali.

3. Kollaborativ ta‘lim

Jamoaviy loyihalarda ishlash dizayner uchun juda muhim. Bu jamoa ichida rol taqsimoti, yetakchilik va kommunikatsiya salohiyatini oshiradi.

4. Tafakkurni rivojlantiruvchi (critical thinking) yondashuv

Talaba faqat yaratmasligi, balki "Nega shunday qildim?", "Nima uchun bu tarzda jamoatchilikka ta‘sir ko‘rsataman?" – degan savollarga javob berishga o‘rgantiriladi.

1. Dizayn-tafakkur (Design Thinking)

Bu innovatsion yondashuv muammoni inson nuqtai nazaridan tushunish, yechimni tez sinovdan o‘tkazish va ijodiy fikrlashni qamrab oladi. Uni o‘qitish jarayoniga kiritish – talabalarni real dunyoga tayyorlashda katta qadam hisoblanadi.

2. STEAM-integratsiyasi


STEAM – Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics. Dizayn fanlarini tabiatshunoslik va texnologiya bilan bog‘lash — yangi mahsulotlar, multimedia, AR/VR, eko-dizayn yaratishda muhim.

3. Sifrlashtirilgan o‘quv muhiti

Photoshop (a), Illustrator (b), Blender (c), Figma (d), AutoCAD (e), CorelDraw (f) va boshqa dizayn dasturlari orqali ta'limni tashkil etish — zamonaviy standart. Talabalar loyihalarini digital portfolio ko'rinishida taqdim etadi (1-rasm).



A




B



C



D



E
F

4. Virtual studiyalar va onlayn kuratsiya

Talabalar o'z ishlarini Behance, ArtStation, Dribbble kabi xalqaro platformalarda namoyish etish orqali global bozorga chiqishi mumkin. Onlayn kurslar, MOOC (Coursera, Domestika, Skillshare) bilan integratsiya ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.

To'g'ri pedagogik va innovatsion yondashuvlar natijasida:

- Talaba mustaqil ravishda buyurtmachi bilan ishlay oladi;
- Frilans, startap yoki branding sohalarida o'zini topadi;
- Xalqaro tanlovlarda ishtirok etish qobiliyati shakllanadi;
- Vizual savodxon, ijtimoiy mas'ul va texnologik jihatdan zamonaviy mutaxassisga aylanadi;
- Milliy elementlar asosida global mahsulot yaratish salohiyati o'sadi (masalan, “navoiylik shrift” yoki “buxoriy ornamentlar bilan interfeys”).

Xulosa qilib aytganda dizayn – bu kelajak kasblaridan biri, va bu sohada raqobatbardosh mutaxassis yetishtirish uchun ta'limda zamonaviy, innovatsion va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llanilishi shart. Ana shu yondashuvlar talabalarda nafaqat bilim va ko'nikma, balki global fikrlash, ijodiy muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash va estetik mas'uliyatni ham shakllantiradi. Shuningdek, raqobatbardosh dizayner yetishtirish – bu birgina rasm chizishni

o'rgatish emas. Bu – shaxsni kreativ, global fikrlaydigan, texnologik va madaniy jihatdan barkamol qilib shakllantirishdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaev Q.Q. (2021). *Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ulardan samarali foydalanish usullari*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Sharipov B.R. (2020). *Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
3. Fayzieva D.S. (2019). *Kreativ ta'lim muhitida dizayner kadrlar tayyorlash muammolari*. – "Ta'lim innovatsiyalari" jurnali, №3, 45–50-betlar.
4. Mahkamova G.N. (2022). *Dizayn sohasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda integrativ yondashuv*. – "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №2, 32–36-b.
5. De Bono E. (2017). *Lateral fikrlash – kreativlikni rivojlantirish usuli*. Moskva: Alpina Publisher.
6. Brown, T. (2009). *Change by Design: How Design Thinking Creates New Alternatives for Business and Society*. Harvard Business Review Press.
7. Liedtka, J., & Ogilvie, T. (2011). *Designing for Growth: A Design Thinking Tool Kit for Managers*. Columbia Business School Publishing.
8. Pink, D.H. (2006). *A Whole New Mind: Why Right-Brainers Will Rule the Future*. Riverhead Books.
9. Nazarov F.F. (2023). *Ta'limda STEAM yondashuvining dizayn sohasidagi tatbiqi*. – "Ilm va taraqqiyot yo'lida" jurnali, №4, 51–57-b.
10. UNESCO. (2021). *Design Education for the 21st Century: Developing Creative and Critical Thinkers*. Paris: UNESCO Publishing.

UDK: 377.8

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA MAXSUS FANLARNI MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Uzoqova Laylo Polvonovna

Buxoro davlat texnika universiteti

"Yengil sanoat muhandisligi va dizayni" kafedrasida dotsenti, p.f.n.

Mail.: laylo.uzakova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada muammoli o'qitishda muammoli vaziyatlarni yaratish yo'li bilan o'quvchining izlanish faoliyati va ijodiy fikrlashining rivojlanish shartlari to'g'risida ilmiy ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli o'qitish, muammoli vaziyat, bilim, ko'nikma, malaka, raqobatbardosh kadr, intellektual faollik.

Abstract: This article presents scientific information on the conditions for the development of the student's research activity and creative thinking by creating problem situations in problem-based learning.

Keywords: Problem-based learning, problem situation, knowledge, skills, competence, competitive personnel, intellectual activity.

Respublikada amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi inson, uning uyg'un rivojlanishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar va ta'sirchan mexanizmlar yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor stereotiplarini o'zgartirishdan iboratdir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Maxsus fanlarni muammoli o'qitish texnologiyasi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi, muayyan sohada ixtisoslashuv va chuqur bilimlarni ta'minlaydi, bu esa muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni oshiradi.

Muammoli o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish yo'li bilan o'quvchining izlanish faoliyati va ijodiy fikrlashining rivojlanish sharti modellashtiriladi. Bilishning obyekt va subyekt hamda ularning fikran o'zaro harakati, vaziyatning komponentlari bo'lib hisoblanadi hamda uning xususiyatlari o'quv materialiga va bilish faoliyatini tashkil etishning didaktik usullariga bog'liq bo'ladi. Muammoli o'qitishda o'quvchilarning fikrlashini boshqarish vositasi sifatida - muammoli va axborotli masalalar xizmat qiladi. Muammoli masalalar o'quv muammosining mavjudligini va o'quvchilarga ma'lum bo'lmagan bilimlarni izlash sohasini ko'rsatadi. Muammoli o'qitishda muammolik tamoyili o'quvfani mazmunida ham, mazmunning o'quv jarayonida tarqalishida ham joriy qilinadi. Birinchisiga, fanning asosiy mazmunini aks ettiruvchi muammolar tizimini ishlab chiqish bilan; ikkinchisiga, muloqot turidagi muammoli o'qitishni tashkil etish bilan erishilib, unda o'qituvchi ham, o'quvchilar ham intellektual faollik va tashabbuskorlik ko'rsatadilar, bir-birlarining fikrlashlariga qiziqadilar, yechimlarning teng ehtimolligi variantlarini muhokama qiladilar. Bunday muammoli o'qitishda o'quv muammolari tizimi va muammoli vaziyatlar yordamida tadqiqot qilinadigan maxsus fan faoliyati va ular ishtirokchilarining ijtimoiy o'zaro ta'siri va muloqotli muomalasi modellashtiriladi. Shu bilan birga sarmahsul fikrlash, o'quvchi shaxsi va uning ijtimoiy munosabatidan rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Maxsus fanlarni o'qitishda tashkil qilinadigan muammoli amaliy mashg'ulot muammoli o'qitish texnologiyasining ikkinchi va uchinchi darajasini amalga oshirish shakli bo'lib, muammoli topshiriqlar uslubini qo'llash orqali ta'lim maqsadlariga muvaffaqiyat bilan erishiladi.

Muammoli topshiriqlar asosan muammoli vaziyatlarni yaratish, baholash, tahlil qilish hamda yechimini qabul qilishdan iborat bo'lgan o'quvchilarning faol o'rganish faoliyatiga asoslangan.

Muammoli vaziyatning mohiyati o'quvchilarga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar va tushunishi hamda tushuntirilishi uchun oldingi bilimlar etarli bo'lmagan yangi omillar va hodisalar o'rtasidagi dialektik ziddikni yuzaga keltirish ekanligini nazarda tutib, maxsus fanlarni o'qitishda tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarda bunday ziddiyatlar o'quvchilarning maxsus fandan olgan bilimlarini ijodiy o'zlashtirilishini harakatlantiradi va muammoli topshiriqni yechish jarayonida o'qituvchi bilan birga izchil ochib beriladi.

Bu uslubni amalga oshirish doirasiga o'quvchi muammoni hal etishga intiladi va quyidagi bir qator ishlarni bajaradi:

- muammoli vaziyatni o'rganish;
- muammoni ifodalash;
- muammoni hal etish usulini izlash;
- muammoni hal etish;
- muammo yechimini tekshirish, xulosalar qabul qilish;

Shundagina o'quv maqsadi muammoning muvaffaqiyatli yechimini o'quvchiga mavzu bo'yicha chuqur bilim hosil qilish va nazariyani amaliyotda ijodiy qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga erishishga imkon yaratadi.

Maxsus fanlardan muammoli tahlil ko'nikmalariga ega bo'lishi o'quvchilarga muammolarini yechishda muvaffaqiyatga erishishga imkon beribgina qolmay, balki o'quvchilarga ta'lim jarayonida muammoli topshiriqlar uslubi asosida tahlil qila olishi uchun yo'l ham ochib beradi.

Muammoli tahlil bosqichlari. Dastlabki bosqich muammoli vaziyatning asosiy jihatlarini ajratilishini ko'zda tutadi. Maxsus fan amaliy mashg'ulotlarida berilgan muammoli topshiriqlarni bajarish odatda o'quvchi tomonidan barcha taklif etiluvchi materiallarni diqqat bilan o'rganishdan boshlanadi. Keyin tahlilning o'zi boshlanadi, ya'ni muammoning barcha ko'rsatkichlari (asosiy muhim mazmun jihatlar va muammoli vaziyat batafsil) tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich-muammoli vaziyatni tahlil qilish, ya'ni obyekt holatini aniqlash.

Tahlilli jarayonlar operatsiyalar uch blokni o'z ichiga oladi:

- 1) Tanlangan ko'rsatkichlarga mos obyektning haqiqiy holatini ta'riflash.
- 2) Shu ko'rsatkichlar bo'yicha ob'ektning kerakli holatini aniqlash.
- 3) Haqiqiy va kerakli holatlarni taqqoslash hamda ob'ektning sabablari, yo'nalishlari va usullarini aniqlash.

Uchinchi bosqichda, alternativ maydonni shakllantirib muammoni hal etishning barcha mumkin variantlari aniqlanadi.

So'ngra, muammo yechimini baholash va muqobil variantini tanlash amalga oshiriladi. Muammoli topshiriqni ishlab chiqish katta mehnat va pedagogik mahoratni talab etadi. Muammoli topshiriq (vaziyat "Q" muammo) o'quvchilar o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarning tanishtiruv materiallari juda katta hajmda yoki murakkab bo'lsa, o'quvchilar barcha ma'lumotlarni qabul qila olmaydilar, yechimini ham topish qiyinchilik tug'diradi, hamda ularda o'quvfaoliyatiga bo'lgan har qanday motivatsiya yo'qoladi. To'g'ri ishlab chiqilgan muammoli topshiriqlar o'quvchilarga nazariyani haqiqiy vaziyat bilan bog'lashga imkon beradi, ularga o'rganilayotgan nazariy materialning kelgusi kasbiy faoliyat uchun amaliy ahamiyatini tushunib olishga ko'maklashadi.

Muammoli o'qitishning asosiy afzalligi o'qituvchining (muammoli savollar qo'yish, farazlarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, o'quvchilarga murojaat etish) orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga va munozaraga chorlaydi.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi aniq o'quvmaqsadlariga yo'naltirilgan savollar va topshiriqlar ishlab chiqish, savollarni hal etishda yoki topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarning aniq maqsadga yo'naltirilgan harakatiga turtki berish va jarayonni nazorat qilish, o'quvchi esa o'z ta'limining faol qatnashchisi bo'lib, ishtirok etishi lozimligi asoslab berildi. O'tkazilgan pedagogik tajribalarning natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchilar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar va takliflar kiritadilar. Oldin olgan bilimlarini umumlashtirib, hodisalarning sabablarini aniqlaydilar, ularning kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu uslub, o'quvchilarni maxsus fanlarga qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi, bilish faolligini ortiradi.

Muammoli o'qitish ta'lim jarayoniga asta-sekin, o'quvchilarni muammoli bayon qilish jarayonida va qisman izlanma faoliyatidan foydalanish jarayonida tayyorlash yo'li bilan kiritilishi kerakligi keltirib o'tildi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, butun o'quvmaterialini muammoli o'rganish mumkin deb o'ylab bo'lmaydi, chunki o'quvmateriali o'qituvchining oddiy bayoni yordamida, o'quvchilarning darslik va boshqa axborot vositalari orqali materialni mustaqil ta'limi yordamida ham o'rganiladi. Maxsus fanlarni o'qitayotgan o'qituvchilarining asosiy vazifasi malum ma'lumotni uzatish emas, balki o'quvchilarni ilmiy bilimlarini rivojlantirishdagi ob'ektiv ziddiyatlar va ularni hal etish usullariga o'rgatishdan iborat bo'lishi kerak. Bu o'quvchilar tafakkurida ilmiy-izlanuvchanlik uslubini shakllantiradi, ularning bilim olish faolligini rag'batlantiradi. O'qituvchi bilan hamkorlikda o'quvchilar o'zlari uchun yangi bilimlarni ochadilar, fanlarning nazariy asoslarini egallaydilar.

Maxsus fan o'qituvchisi o'zi o'qib turgan muammoli ma'ruzani shunday tuzishi kerakki, unda o'quvchining ongida o'quvmaterialida berilgan unga notanish bilim haqida quyidagi savollar tug'ilsin: «Uni bilib olish uchun nima qilish kerak? ushbu muammo yechimi tamoyili qanday? Aynan shu tufayli o'quvmateriali o'quvmuammosi shaklida qanday beriladi?. Bu savollar zamirida ma'lum ziddiyatlarni qayd etuvchi va bu ziddiyatlarni aniqlovchi bilan yakunlanuvchi ta'limiy masalaning mantiqiy shakli yotadi. Ziddiyatni hal etuvchi savolga javob noma'lum bo'lib, uni aniqlashda o'quvchi intellektual qiyinchilikni his etadi. O'quvmuammosi boshlang'ich muammolarida ziddiyatlarni aniqlashdan keyin muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Maxsus fan o'qituvchisi o'quvchini muammoning faol yechimi jarayoniga jalb etgandagina o'quvchining mustaqil ijodiy faoliyati rag'batlantiriladi. O'qituvchi yordamchi (ma'lumotli, muammoli) savollarni qo'yadi, o'quvchilarning ular muhokamasida faol ishtirokini ta'minlaydi. Munozara boshlanishini rag'batlantiradi, hammani birgalikdagi fikrlash ishiga jalb etadi va fanda aks ettirilgan ma'lum yechim yo'llarni ko'rsatib, o'quvchilarni muammo yechimiga tomon izchil olib keladi.

Maxsus fanlardan tashkil etilayotgan muammoli ma'ruzalarda yangi bilim o'quvchilar uchun noma'lum tarzda kiritiladi. Muammoni hal etish jarayonida o'quvchi ma'lumotni oddiy qayta ishlabgina qolmay, uning o'zlashtirishini his etadi va o'zi uchun yangi bilimning sub'ektiv «kashf etilishini» amalga oshiradi.

Muammoli ma'ruza savollari va topshiriqlari «Charm buyumlari texnologiyasi» fani mazmuniga mos holda didaktik asoslangan holda tuzilishi bilan ta'minlanadi. Maxsus fan muammoli ma'ruzalarida, har qanday boshqa ma'ruzadagi kabi, maxsus fanning asosiy qoidalarini aniq va chuqur yoritilishi, uning mazmunini to'liqliligi va tizimliliigi, harakatga keltiruvchi kuchlar va rivojlanish manbalarini mantiqan to'g'ri og'zaki bayon etish asosiy belgi hisoblanadi.

O'qituvchi tomonidan ma'ruzagacha tuzilgan o'quvmuammsi va o'zaro bog'liq kichik muammolar tizimi ma'ruzada o'qituvchining jonli nutqida ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Махмутов М.И. Проблемное обучение. - М.: Педагогика, 1975. – 11 с.
2. Olimov Q.T., Uzoqova L.P. Muammoli vaziyatni boshqarish yo'llari // Fan va ishlab chiqarish integratsiyasini jadallashtirish muammolari: Respublika ilmiy–amaliy anjuman materiallari.- Buxoro, 2007.- B. 316-317.
3. Uzoqova L.P. Maxsus fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish // Uzluksiz ta'lim.- Toshkent, 2006.- №6.- B.66-69.
4. Uzoqova L.P. Muammoli o'qitishni tashkil etish bosqichlari // Kasb-hunar ta'limi.- Toshkent, 2007.- №3.- 8 b.
5. Uzoqova L.P. O'quv materialining muammoli qo'yilishi // O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari .- Buxoro, 2006.- B.45-47.

UDK 372.834

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA HUQUQ FANINI O'QITISH METODIKASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TAKLIFLAR

N.N.Tohirov - Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida huquq fanini o'qitishning metodik jihatlari, samarali pedagogik usullar, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, interaktiv va amaliy mashg'ulotlar orqali ularning faol ishtirokini ta'minlash metodlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maktab o'quvchilari uchun moslashtirilgan huquqiy ta'lim mazmuni, darslik va qo'llanmalar, sinfdan tashqari ishlar mazmuni hamda huquq fanini o'qitishda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Huquqiy ong, metodika, o'quv dasturi, raqamli ta'lim vositalari, pedagogik texnologiya.*

METHODOLOGY OF TEACHING LAW IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS: MODERN APPROACHES AND PROPOSALS

***N.N.Tohirov** -Independent researcher of Bukhara State Technical University*

***Abstract:** This article analyzes the methodological aspects of teaching law in general education schools, effective pedagogical methods, and ways to organize the educational process based on modern technologies. In particular, methods of forming legal culture in students, developing critical thinking, ensuring their active participation through interactive and practical classes are considered. Also, the content of legal education adapted for schoolchildren, textbooks and manuals, the content of extracurricular activities, as well as problems encountered in teaching law and their solutions will be discussed.*

Keywords: *Legal consciousness, methodology, curriculum, digital learning tools, pedagogical technology.*

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish bugungi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Aynan shu boisdan, huquq fanining umumta'lim maktablari o'quv rejasiga kiritilishi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning davlat va jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini tushunishi, o'z huquq va erkinliklarini himoya qila olishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquq fanini o'qitishda metodika tanlovi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, darsning maqsadi, mavjud vositalar va muhitga asoslanishi lozim. An'anaviy ma'ruza uslubida o'qitish bilan cheklanib qolmasdan, interaktiv yondashuvlar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, debatlar, keyslar va sud imitatsiyalari orqali darslar o'tkazish, o'quvchilarni faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Masalan, "Huquqiy nizolarni hal qilish tartibi" mavzusi bo'yicha sinfda sud muhokamasi imitatsiyasi o'tkazilishi, "Voyaga yetmaganlarning huquqlari" bo'yicha keys-stadi ishlanmasi berilishi mumkin. Bu kabi mashg'ulotlar huquqiy bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki real hayotga qo'llash ko'nikmasini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, huquqiy mavzular bo'yicha infografika, video lavhalar, hujjat namunalari tahlil qilish, "Elektron qonunchilik bazasi"dan foydalanishni o'rgatish orqali darslar texnologik boyitiladi.

Huquq fanining samaradorligi o'quv dasturining puxta tuzilganligiga ham bog'liq. Ayni vaqtda, huquq darsliklari ayrim hollarda murakkab til va yuridik atamalar bilan to'ldirilgani sababli o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi tomonidan moslashtirish zarur. Shu maqsadda, o'quvchilar uchun sodda, vizual vositalar asosida yaratilgan qo'shimcha materiallar – slaydlar, diagrammalar, interaktiv testlar, huquqiy lug'atlar ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, huquq fanini o'qitishda sinfdan tashqari ishlar muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning maktabda "Huquqiy klub"lar tashkil qilinishi, Adliya yoki IIV vakillari bilan uchrashuvlar, sudlar va mahalliy kengashlarga ekskursiyalar, huquqiy viktorinalar o'tkazish orqali darsda o'rganilgan bilimlar mustahkamlanadi va real hayotda qo'llanilishi ta'minlanadi.

Bugungi kunda raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish huquq fani uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, "Ziyonet", "Huquqiy portal", "Lex.uz" kabi saytlardan darsda foydalanish, onlayn viktorina va test platformalari orqali o'quvchilarning bilimini baholash o'qituvchiga qulaylik yaratadi. Raqamli resurslar yordamida o'quvchilar o'z huquqlari va majburiyatlarini mustaqil o'rganadi, bu esa ularni mas'uliyatli fuqaroga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, huquq fanini o'qitishda o'qituvchilarning malakasi alohida o'rin tutadi. Har bir huquq fani o'qituvchisi nafaqat yuridik bilimga, balki didaktik va metodik kompetensiyalarga ham ega bo'lishi zarur. Malaka oshirish kurslari, o'zaro tajriba almashish, interaktiv dars ishlanmalari banki yaratish o'qituvchilar salohiyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, huquq fanining umumta'lim maktablarida o'qitilishi, mazmun va metodika jihatidan yangilanib borilishi orqali o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati, huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollik rivojlanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etgan holda bu fanni o'qitish yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqiy demokratik jamiyat qurishda muhim bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Karimova Maktablarda huquqiy ta'limni tashkil etish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi 2021.
2. A.Yusupov Huquqiy ongni shakllantirishda maktab ta'limining roli. *Ta'lim va huquq* jurnali, 2022 №3(17), 24–29.
3. UNESCO Education for Justice: Teaching Rule of Law through Education Systems 2020. [<https://en.unesco.org>]
4. OECD Civic and Legal Education in Schools: Best Practices Report. Paris 2021.
5. R.Zokirov Huquq fanini interaktiv usullar bilan o'qitish tajribalari. *Pedagogik mahorat*, 2023 №2(8), 61–66.

UDK: 373.61

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING PEDAGOGIK OMILLARI
To‘xtayeva Zebo Sharifovna – Buxoro davlat texnika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimi sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy pedagogik omillari tahlil qilingan. Kadrlar tayyorlashda innovatsion metodlar, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kadrlar tayyorlash, pedagogik omillar, innovatsion yondashuv, kompetensiya, ta’lim sifati, mehnat bozori, axborot texnologiyalari.

PEDAGOGICAL FACTORS OF TRAINING COMPETITIVE PERSONNEL
Tukhtaeva Zebo Sharifovna - Professor of Bukhara State Technical University, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)

Annotation. This article analyzes the main pedagogical factors in training competitive personnel in the context of the modern education system. It highlights the importance of innovative teaching methods, practice-oriented approaches, effective use of information technologies, and learner-centered education.

Keywords: personnel training, pedagogical factors, innovative approach, competency, quality of education, labor market, information technologies.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОДГОТОВКИ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ

Тухтаева Зебо Шарифовна - профессор Бухарского государственного
технического университета, доктор педагогических наук (DSc)

Аннотация. В данной статье анализируются основные педагогические факторы подготовки конкурентоспособных кадров в условиях современной образовательной системы. Освещается значимость инновационных методов обучения, практикоориентированного подхода, эффективного использования информационных технологий и лично-ориентированного образования.

Ключевые слова: подготовка кадров, педагогические факторы, инновационный подход, компетенция, качество образования, рынок труда, информационные технологии.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta’lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta’limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta’limning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimining rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo‘shgan MDH olimlaridan S.G.Vershlovsiy, N.V.Vasilenko, S.M. Vishnyakova, V.I.Ilina, O.M. Nikandrov, V.I. Podobeda va boshqalarning nomlarini keltirib o‘tish mumkin [2].

Aholi turli toifalarini “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi bo‘yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo‘lib qolishiga olib kelmoqda. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o‘quv- uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimi, fan va

ishlab chiqarish o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Innovatsion jamiyatning o'ziga xos xususiyati o'zida har xil yosh kategoriyasidagi insonlar bilimni doimiy tizimli ravishda to'ldirib borish va kengaytirishni ta'minlaydigan hayot davomida va bosqichma-bosqich jarayondan iborat bo'lgan uzluksiz ta'lim hisoblanadi [3].

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

O'qituvchi faoliyatining innovatsiyalarga yo'nalganligi psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Pedagogik tadqiqotlar natijasini ommalashtirish uchun amaliyotchilarni olingan natijalar bilan maxsus tanishtirish talab etiladi. O'qituvchilarni yangi tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligiga ishontirish asosida ularda yangiliklarni o'zlashtirish ehtiyoji hosil qilinadi. "Yangi pedagogik g'oyalar va texnologiyalarning ommalashtiruvchisi va targ'ibotchisi kimlar bo'lishi kerak?" degan haqli savol tug'iladi. Alohida o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi tajribasini o'rganish, ommalashtirish oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, umumta'lim muassasalarida ishlaydigan ilg'or pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday guruhlarni tashkil etish zaruriyati bir qator holatlar bilan ifodalanadi:

1. Pedagogik yangilik muallifi uning istiqboli haqida zarur ma'lumotlar va aniq bahoni bera olmaydi.

2. Ilg'or g'oyalarni ommalashtirish pedagogdan qo'shimcha vaqt, kuch-quvvat va og'ir mehnatni talab qiladi.

3. Muayyan yangilik har doim ham uning muallifi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaydi.

4. Mualliflar o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari, yondashuvlarini bayon qilishda o'zlari va hamkasblarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq holda to'xtalishlarga va to'siqlarga duch keladilar.

5. Ijodiy guruh o'z zimmasiga nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida o'qituvchilar faoliyatiga tuzatishlar kiritish, talabalarning kasbiy bilimdonligi va mahoratini boyitish vazifasini ham oladi.

Tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyatni boshqarishda innovatsiya muallifining o'zi ishtirok etmaydi. Bunday yondashuv ijodkor o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytirish va uni muayyan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi. Shu tariqa pedagogik innovatsiyalar yaratuvchilari va ommalashtiruvchilarining quvvatlari bir nuqtaga jamlanib, muayyan maqsadga yo'naltiriladi. Pedagogik innovatsiyalar o'zining muayyan tavsifiga ega [1].

O'qituvchilik – bu dinamik va ko'p qirrali kasb bo'lib, u turli ko'nikmalarni talab qiladi. Mavzu bo'yicha bilimlardan tashqari, o'qituvchilar samarali ta'lim muhitini yaratish va talabalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator professional ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ta'lim manzarasi rivojlanishda davom etar ekan, yangi muammolar va imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan o'qituvchining roli tobora murakkablashib bormoqda. Ushbu maqola pedagogika, muloqot, moslashuvchanlik va hissiy intellektga e'tibor qaratib, o'qituvchilar muvaffaqiyatga erishishlari kerak bo'lgan asosiy kasbiy ko'nikmalarni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalarni tushunish va rivojlantirish yangi boshlanuvchilar uchun ham, tajribali o'qituvchilar uchun o'qitishning mukammalligiga erishishda juda muhimdir. Samarali o'qitishning zamirida pedagogika – ta'lim san'ati va fanini chuqur anglash yotadi.

O'qituvchilar talabalarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil ta'lim strategiyalari va o'rganish nazariyalarini yaxshi bilishlari kerak. Pedagogik bilimlar o'qituvchilarga qiziqarli va ta'limiy jihatdan asosli bo'lgan darslarni loyihalash imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning nafaqat materialni o'zlashtirib olishini, balki tanqidiy fikrlash va muammoni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Mustahkam pedagogik asos, shuningdek, o'qituvchilarga

o'quvchilarning muvaffaqiyatini to'g'ri baholash va mazmunli fikr bildirish imkonini beradi. Ta'lim uchun samarali muloqot muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar murakkab g'oyalarni turli xil qobiliyat va bilimlarga ega bo'lgan talabalar uchun ochiq bo'lgan usullarda yetkazishlari kerak. Bu og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotni, shuningdek, faol tinglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Aniq muloqot tushunmovchiliklarni kamaytirishga, ijobiy sinf muhitini yaratishga va talabalar, ot-onalar va hamkasblar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Bundan tashqari, malakali muloqotchi bo'lgan o'qituvchilar talabalarni rag'batlantirish va ularni o'qishlarida faol ishtirok etishga undash uchun yaxshi jihozlangan.

Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi pedagogikaning dolzarb vazifasidir. Bunday kadrlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, ta'lim sifati, o'quv jarayonining amaliyot bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim pedagogik omillar hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda talabalar faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish orqali ularni real hayotga tayyorlash mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini doimiy oshirib borish, ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi omillardandir. Shu asosda aytish mumkinki, pedagogik omillarni chuqur tahlil qilish va ularni samarali qo'llash orqali ta'lim sifati yuksaladi, mehnat bozorida talabga javob beradigan kadrlar yetishtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova S.Yu. Innovation In Science, Education, And Production Integration As A Successor // International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 8, 2020, pp. 3167- 3172.

<http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/issue/view/290>

2. Муминов А.Г. Ўзбекистонда таълим тизими: ҳолати ва истикболлари. Журнал: Academic research in educational sciences, 2022, №3, 34-37 б.

3. Тихомирова О.Б., Кобелева Е.М. Организация национально ориентированной деятельности детей старшего дошкольного возраста в условиях ДОО как средство поликультурного образования// Синергия 2016.№4. - С. 14-18.

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING IJTIMOY, PEDAGOGIK VA MA'NAVY OMILLARI (BUXORO JADIDLARI ILMIY MEROSI MISOLIDA)

A.Saloxov, Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedراسи dotsenti

***Annotatsiya** Mazkur maqolada raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy omillarning o'rni Buxoro jadidlari ilmiy merosi asosida tahlil qilingan. Jadidlar ta'lim-tarbiyaga doir asarlarida shakllangan g'oyalar zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayoniga integratsiya qilinishi mumkinligi ilmiy asosda ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqobatbardosh kadr, Fitrat, ma'rifat, pedagogika, ijtimoiy omillar, ma'naviy asoslar, ta'lim, tarbiya.*

***Аннотация** В данной статье на основе научного наследия бухарских джадидов проанализирована роль социальных, педагогических и духовных факторов в подготовке конкурентоспособных кадров. Научно обосновано, что идеи, сформированные в произведениях джадидов по образованию и воспитанию, могут быть интегрированы в процесс подготовки современных кадров.*

***Ключевые слова:** конкурентоспособный персонал, Фитрат, образование, педагогика, социальные факторы, духовные основы, образование, воспитание*

***Abstract** This article analyzes the role of social, pedagogical and spiritual factors in the training of competitive personnel based on the scientific heritage of the Bukhara Jadids. It is scientifically substantiated that the ideas formed in the works of the Jadids on education and upbringing can be integrated into the process of training modern personnel.*

Key words: competitive staff, Fitrat, education, pedagogy, social factors, spiritual foundations, education, upbringing.

Globalshuv jarayonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy fazilatlar ham muhim o'rin tutadi. Buxoro jadidlari tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalasi har qaysi mamlakat taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, *"BIZ IQTISODIY ISLOHOTLARNI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISH UCHUN ENG AVVALO, ZAMONAVIY BILIM VA KO'NIKMALARGA EGA BO'LGAN RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHIMIZ ZARUR"*⁷. Shu nuqtai nazardan ta'lim tizimidagi ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy omillarni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy omillar doirasida ta'lim olishdagi shaffoflik, gender tengligi, mehnat bozori talablariga mos mutaxassis yetishtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: *"YOSHLARIMIZ HAYOTDA O'Z O'RNINI TOPISHI, MEHNAT BOZORIDA TALABGA JAVOB BERADIGAN KASB EGASI BO'LISHI UCHUN ULARGA BARCHA SHAROITLARNI YARATIB BERISH – BIZ UCHUN USTUVOR VAZIFA"*⁸. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, raqobatbardosh kadr tayyorlashning markazida ta'lim mazmuni, o'qitish uslublari va pedagog kadrlar malakasi turadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Ta'lim sifatini yaxshilash – mamlakatning kelajagini belgilaydigan eng muhim ustuvor masaladir"⁹. Bu borada kredit-modul tizimini joriy etish, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar malakasini oshirish, ilmiy izlanishlarga sharoit yaratish kabi yo'nalishlar asosiy ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Raqobatbardosh kadrni yetishtirishda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar, muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa interfaol ta'lim usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Ma'naviy tarbiya masalasi ham raqobatbardosh kadr tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: *"YOSH AVLODNI YUKSAK MA'NAVIYAT, MUSTAQIL FIKRLASH, VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH – BARCHA DARAJADAGI TA'LIM MUASSASALARINING USTUVOR VAZIFASIDIR"*¹⁰. Ma'naviy tarbiyada milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim, tolerantlik va bag'rikenglik ruhida tarbiya, inson huquqlari va jamiyatdagi burchni anglash kabi yo'nalishlar e'tibor markazida bo'lishi lozim. Raqobatbardosh kadr tayyorlashda ijtimoiy imkoniyatlar, pedagogik sifat va ma'naviy qiyofa bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu jarayonga davlat siyosati darajasida yondashish, ta'lim muassasalarida ijtimoiy va ma'naviy muhitni rivojlantirish, innovatsion usullardan foydalanish orqali muvaffaqiyatli natijalarga erishish mumkin.

Jadidlar ta'limni jamiyat islohotining asosiy omili sifatida qarashgan. Abdurauf Fitrat o'zining "Rahbar-i najat" asarida ta'lim orqali jamiyatni uyg'otish, uni isloh qilish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ilmsiz jamiyat modernizatsiyaga qodir emas.¹¹ Bugungi kunda ham raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ta'limning jamiyat ehtiyojlari bilan uyg'unlashuvi dolzarb masaladir.

Muhim pedagogik masala – ta'lim mazmuni va metodlaridir. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Tarixi Muhammadiya" va "Madaniyat yo hurriyat"¹² kabi asarlarida yangi

⁷ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон — янги тараққиёт йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 2022. – Б. 45.

⁸ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизда халқимиз розилиги – энг олий мақсадимиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2018. – Б. 76.

⁹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2023. – Б. 51.

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. Ёшлар – келажгимиз пойдевори. – Т.: «Ўзбекистон», 2019. – Б. 64.

¹¹ Абдурауф Фитрат. *РАҲБАР-И НАЖАТ*. — Т.: Фан, 1993.

¹² Мунавварқори Абдурашидхонов. *МАДАНИЯТ Ё ҲУРРИЯТ*. — Т.: Маънавият, 2000.

maktablarni tashkil etish, fanlar va tillar o'qitilishining zamonaviy usullarini joriy etish zarurligi qayd etilgan. Bu fikrlar zamonaviy o'quv dasturlarini tuzishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ham ta'limda interfaol metodlar, muloqotli darslar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi yondashuvlar raqobatbardosh kadr tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Jahon miqyosida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, raqamli transformatsiya va mehnat bozorida tub o'zgarishlar raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni har qaysi mamlakatning ustuvor vazifasi sifatida belgiladi. O'zbekistonda ham milliy kadrlar salohiyatini yuksaltirishda ma'rifatparvar jadidlar, xususan, Abdurauf Fitratning ta'limga oid ilmiy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Fitrat o'zining "Ta'limga oid" maqolalarida raqobatbardosh shaxs tarbiyalash uchun ta'lim mazmuni zamon talablariga javob berishi, yangi fan va texnologiyalarga ochiq bo'lishi shartligini ta'kidlaydi.¹³

Abdurauf Fitrat raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy omillar sifatida ta'lim va tarbiyani keng jamiyat manfaati uchun deb ko'radi. Uningcha: jamiyatdagi adolat va tenglik muhiti, oila, mahalla va maktabning hamkorligi, ta'limda fuqarolik ongi va jamiyat oldidagi mas'uliyatni singdirish jarayoni raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Fitrat yosh avlodni "millat xizmatkori" sifatida tarbiyalash tarafdori bo'lib, shaxsiy manfaat emas, ijtimoiy manfaatni ustuvor qiymat sifatida belgilaydi¹⁴.

Fitrat ta'limning ma'naviy vazifasi sifatida: millatning tarixiy xotirasini tiklash, milliy madaniyat, urf-odat, tilini asrash, bag'rikenglik va hamkorlik ruhida tarbiyalash g'oyalarini ilgari surgan.

Fitrat asarlari raqobatbardosh kadr tayyorlash jarayonida mustahkam nazariy asos hisoblanadi. Uning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari bugungi kunda ham pedagogik jarayonlar uchun dolzarbdir. Zamonaviy ta'lim tizimida Fitratning ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy tamoyillarini qo'llash orqali kelajak avlodni jahon miqyosida raqobatlasha oladigan salohiyatli kadr sifatida tayyorlash mumkin. Uning ta'kidlashicha, ma'naviy jihatdan yetuk shaxs – ichki intizomga ega, ezigulikka intiluvchi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi shaxsdir.

Jadidlar ta'limni faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsni ma'naviy komillikka yetaklovchi yo'l sifatida ham ko'rishgan. Fitratning "Maktubat"¹⁵ asarida talaba yoshlarni milliy o'zligini anglagan, fidoiy va mas'uliyatli inson sifatida tarbiyalash maqsadi qo'yilgan. Shu asosda, raqobatbardosh kadr — faqat kasbiy bilimga ega shaxs emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan qurollangan barkamol shaxsdir. Buxoro jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy asoslarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jadidlarning ta'lim orqali jamiyatni uyg'otish, shaxsni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan faoliyati bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhim pedagogik asoslardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston — yangi taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 2022. – B. 45.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizda xalqimiz roziligi – eng oliy maqsadimiz. – T.: «O'zbekiston», 2018. – B. 76.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023. – B. 51.
4. Mirziyoev Sh.M. Yoshlar – kelajagimiz poydevori. – T.: «O'zbekiston», 2019. – B. 64.
5. Abdurauf Fitrat. *RAHBAR-I NAJAT*. — T.: Fan, 1993.
6. Munavvarqori Abdurashidxonov. *MADANIYAT YO HURRIYAT*. — T.: Ma'naviyat, 2000.
7. Fitrat A. "Oila", Toshkent, 1923. – B. 12–13
8. Rahimova N. "Fitrat ta'lim konsepsiyasida fuqarolik tarbiyasi", "Pedagogika jurnali", 2021, №3. – B. 41–43

¹³ Фитрат А. "Оила", Тошкент, 1923. – Б. 12–13

¹⁴ Раҳимова Н. "Фитрат таълим концепциясида фуқаролик тарбияси", "Педагогика журналі", 2021, №3. – Б. 41–43

¹⁵ Фитрат А. *МАКТУБАТ*. — Тошкент: ЎзФА, 1995. — Б. 44–46.

УДК 1751

РОЛЬ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Казимова Г.Х. доцент кафедры узбекского и иностранных языков БГТУ

Аннотация: раскрываются проблемы важности и роли применения различных медиатехнологий при обучении русскому языку. Концепции медиаобразования также учитывают образовательные, педагогические и творческие подходы к использованию медиа-возможностей в целом.

Ключевые слова: медиатехнология, теория, производственная деятельность, интеграция, художественный аспект, эстетическое восприятие, информация.

THE ROLE OF MEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE

Bukhara Institute of Engineering and Technology, Uzbekistan

Abstract: the problems of the importance and role of the use of various media technologies in teaching the Russian language are revealed. The concepts of media education also take into account educational, pedagogical and creative approaches to the use of media opportunities in general.

Key words: media technology, theory, production activity, integration, artistic aspect, aesthetic perception, information.

RUS TILI O‘QITISHDA MEDIA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.

**Xo‘jayeva X.S. O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O‘zbekiston**

Annotatsiya: rus tilini o‘qitishda turli xil media texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va roli muammolari ochib berilgan. Media-ta’lim konsepsiyalarida umuman media imkoniyatlaridan foydalanishga ta’lim, pedagogik va ijodiy yondashuvlar ham e’tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: mediатехнологиялар, nazariyalar, ishlab chiqarish faoliyati, integratsiya, badiiy jihat, estetik idrok, axborot

В совершенствовании информационных навыков будущих инженеров к производственной деятельности на русском языке, основанного на медиатехнологий в высших технических образовательных учреждениях, является важным фактором в их подготовке к технической профессиональной деятельности и повышении качества методики обучения русскому языку.

Анализируя упомянутые выше теории медиаобразования в обучении русского языка, можно сделать следующие выводы:

1. “Теория «инъекции» медиаобразования поощряет акцент на негативных эффектах средств массовой информации, а также на негативных последствиях насилия. В этом случае СМИ рассматриваются как «агент культурной деградации» на примере комиксов, рекламы, ненадежных СМИ.

2. Многие теоретические подходы имеют сходство с теорией «развития профессионально-критического мышления»:

Медиаобразование помогает студентам понять основные законы и язык художественного аспекта медиаинформации, эстетическое восприятие художественных текстов, умение анализировать их с профессиональной точки зрения при обучении английскому языку.

В результате интеграции медиаобразования в преподавание русского языка должны произойти следующие действия: профессионально-критический подход к знаниям, полученным на основе медиаобразования.


Интерпретировать информацию, точно понимать, на какую профессиональную деятельность она направлена, “цель информации, определять свою позицию в отношении информации, искать необходимую информацию из различных источников; систематизация

информации по определенным признакам; уметь преобразовывать визуальную информацию в словесную знаковую систему и наоборот.

Эффективное использование информационно-коммуникационных технологий в развитии профессиональных знаний, навыков и умений студентов в процессе подготовки студентов к профессиональной деятельности за счет обеспечения интеграции естественных наук и специальностей в системе высшего образования при обучении русского языка [1].

В результате анализа методики зарубежного медиаобразования уделяется внимание проблеме способа взаимодействия преподавателя и студента.

Минимальный уровень медиаобразования для студентов должен быть следующим:

- 
- понимание и понимание задач в разных определениях и контекстах;
 - поиск необходимой информации из различных источников;
 - систематизировать предложенную или самостоятельно выбранную информацию по определенным характеристикам;
 - сбор и систематизация тематической информации за длительный период времени (ежеквартально, по совместительству, по очной или иной форме);
 - преобразовывать вербальную информацию в визуальную размеченную систему и наоборот;
 - понимать цель общения, направление информационного потока;
 - писать обзоры и анонсы важных новостей;
 - спланировать сообщение, отвечающее требованиям к информации, предложить форму, соответствующую его значению;
 - извлечение информации из предложенной информации и представление ее в табличной или иной форме;
 - работа с оборудованием для подготовки, передачи и приема информации на примитивном уровне.

В результате анализа методики зарубежного медиаобразования уделяется внимание проблеме способа взаимодействия преподавателя и студента.

Медиаобразование преследует две равные цели - развитие интегративного подхода к медиатекстам, а также развитие коммуникативных, профессиональных, творческих способностей студентов, то есть умение получать, создавать и передавать медиатексты. В результате анализа методики зарубежного медиаобразования уделяется внимание проблеме способа взаимодействия преподавателя и студента.[2]

Навыки медиакоммуникации (компетенция, осведомленность) - это компетенция в восприятии, создании и передаче сообщений через технические и семиотические системы с учетом их ограничений. Он основан на профессионально-критическом подходе, а также на способности участвовать в медиа-коммуникациях с другими на основе их профессиональных знаний.

Особенно актуальной была проблема влияния массовой коммуникации на формирование ценностей и нравственных норм у студентов; «Для студента уже невозможно подготовиться

к профессиональной деятельности без формирования референциальной системы ценностей и интегративного отношения к сообщениям, передаваемым по каналам массовой коммуникации» [3].

На наш взгляд, студентам необходимо выполнять творческие и практические задания с использованием различных медиа-форм при изучении русского языка. Все это позволяет развивать умение понимать, оценивать, интерпретировать различные медиа, раскрывать коммуникативные способности студентов.

Список использованной литературы:

1. Ковшарова Т.В. Формирование медиаобразованности старшеклассников в эколого-информационном педагогическом пространстве урока. Диссертация .кандид. пед. наук. – Иркутск, 2006. – 186 с.
2. Мuryюкина Е.В., Челышева И.В. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в рамках специализации «Медиаобразование»: учеб. пособие для вузов / отв. ред. А.В. Федоров. Таганрог: Изд-во Кучма, 2007. -162 с.
3. Новикова А.А., Федоров А.В. Медиаобразовательные квесты// Инновации в образовании. 2008.№10. – С.71-93.

УДК 1751

ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Ходжаева Х.С. преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков БГТУ
Сувонов Самохиддин, студент группы 612-24 ЭЭЭ**

Аннотация: В данной статье говорится об использовании средств информационно-коммуникационных технологий в качестве инструмента означает появление новых форм мыслительной, мнемической, творческой деятельности, что можно рассматривать как историческое развитие психических процессов человека и продолжить разработку принципов исторического развития деятельности применительно к условиям перехода к постиндустриальному обществу.

Ключевые слова: развитие, технология, общество, цель, достижение, система образования, процессы, трудовая деятельность, познание, коммуникация, средства.

USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Khodzhaeva Kh.S. Teacher of the Department of Uzbek and Foreign Languages of
BSTU**

Suvonov Samohiddin, student of group 612-24 EE

Abstract: This article discusses the use of information and communication technology tools as a tool, signifying the emergence of new forms of mental, mnemonic, and creative activity, which can be considered as the historical development of human mental processes and the continuation of developing the principles of the historical development of activity in relation to the conditions of transition to a post-industrial society.

Keywords: development, technology, society, goal, achievement, education system, processes, labor activity, cognition, communication, means.

Развитие деятельности человека обуславливается изменением того или иного ее структурного компонента: предмета, цели, содержания деятельности, системы действий, обеспечивающих достижение цели, средств выполнения этих действий. При этом изменение происходит не в каком-либо отдельно взятом звене, а во всей структуре деятельности. В результате преобразуются традиционные и возникают новые формы человеческой деятельности в сфере труда, познания и коммуникации. Современные средства информационно-коммуникационных технологий стали новым средством, орудием человеческой деятельности.

Использование средств информационно-коммуникационных технологий в качестве инструмента означает появление новых форм мыслительной, мнемической, творческой

деятельности, что можно рассматривать как историческое развитие психических процессов человека и продолжить разработку принципов исторического развития деятельности применительно к условиям перехода к постиндустриальному обществу. Усвоение знаний предполагает овладение системой обобщений, составляющих основное содержание знаний. Подлинное усвоение основ наук невозможно, если обобщения, обладая чувственным наглядным характером, остаются неосознанными, слитыми с предметом и действием; оно невозможно и тогда, когда обобщения, оторвавшись от действительности, которую они отражают, абсолютизируются в сознании. Для полного и сознательного усвоения нужно уметь не только увидеть общее в единичном, но и единичное, и конкретное в общем”.

Трудность реформирования образования заключается в том, что нельзя просто добавить существующие средства информационно-коммуникационных технологий к существующей дидактической системе и надеяться, что революция в образовании произойдет сама по себе. Необходимо, как пишут английские ученые, осуществить интеграцию информационно-коммуникационных технологий - с инфраструктурой образования с учетом исторических, психологических и философских аспектов проблемы, опираться на определенные теоретические концепции учебного процесса.

Природа средств информационно-коммуникационных технологий вполне определенным образом влияет на формирование и развитие психических структур человека, в том числе мышления. Печатный текст, до последнего времени являвшийся основным источником информации, строится на принципе абстрагирования содержания от действительности и организуется как последовательность фраз в порядке чтения слева направо, что формирует навыки мыслительной деятельности, обладающей структурой, аналогичной структуре печатного текста, которой свойственны такие особенности, как линейность, последовательность, аналитичность, иерархичность.

Компьютерная технология основывается на использовании некоторой формализованной модели содержания, которое представлено педагогическими программными средствами, записанными в память компьютера, и возможностями телекоммуникационной сети. Главная особенность - наличие компьютерной информационной среды, включающей на современном уровне базы информации, гипертекст и мультимедиа (гипермедиа), микромиры, имитационное обучение, электронные коммуникации (сети), экспертные системы.

Базы данных - технологии ввода, систематизации, хранения и предоставления информации с использованием компьютерной техники.

Базы данных могут включать в состав информационного массива различную статистическую, текстовую, графическую и иллюстративную информацию в неограниченном объеме с обязательной ее формализацией (представлением, вводом и выводом в компьютер определенной, характерной для данной системы форме — формате).

Базы данных используются в обучении для оперативного предоставления учителю и учащимся необходимой, не вошедшей в учебники и пособия информации, как непосредственно в дидактическом процессе, так и в режиме свободного выбора информации самим пользователем (сервисный режим).

Способы систематизации и поиска информации в базе данных

Иерархическая база данных в качестве классификационной основы использует каталоги и рубрикаторы, т. е. информационно-поисковые языки иерархического типа.

В реляционной базе данных каждой единице информации присваиваются определенные атрибуты (автор, ключевые слова, регион, класс информации, дескриптор тезауруса и т. п.) и ее поиск производится по какому-либо из них или по любой их комбинации. Статистические базы данных оперируют с числовой информацией, организованной с помощью двухмерной (реже — трехмерной) матрицы, так, что искомая информация находится в системе путем задания ее координат. Статистические базы данных более известны под названием электронные таблицы.

Другие средства массовой коммуникации - фотография, кино, радио, телевидение – имеют структуру, значительно отличающуюся от структуры печати. Образы и звуки не направляют ход мыслей слушателя или зрителя от одного объекта к другому с промежуточными выводами, как при восприятии печатной информации. Вместо этого они создают модели узнавания, обращены к чувственной стороне субъекта.

Подобно тому, как печатные материалы и технические средства массовой коммуникации привели к гигантскому расширению возможностей человеческого познания, фиксации и передачи опыта, компьютер увеличивает потенциал человеческого мышления, вызывает определенные изменения в структуре мыслительной деятельности. В обучающей среде, созданной информационно-коммуникационных технологий, основными являются процессы организации и интерпретации информации. Она может быть закодирована и представлена на экране дисплея в виде математических символов, таблиц, графиков и диаграмм, изображения процессов, дополняемых звуком, цветным изображением и т.п.

Таким образом, в связи с использованием информационно-коммуникационных технологий пересмотру подвергаются представления не только о мышлении; но и о других психических функциях: восприятии, памяти, представлениях, эмоциях и др. Перед психологами и педагогами встают задачи концептуального описания развития человеческой деятельности и психических функций человека в условиях широкой информатизации всех отраслей знания и использования средств информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе.

Список использованной литературы

1. Бидайбеков Е.Ы., Ибашова А.Б.//Вестник КазНПУ им. Абая. – 2004. - № 1(9). – С.88-94.
2. М.С. Малибековой. Педагогическая инноватика как теория и практика нововведений в системе образования. – Алматы, 2001.
3. Послание Президента страны народу Казахстана «Казахстан – 2030.
4. Еляков А.Д. Феномен информационного общества. (Учебное пособие) Самара. Изд-во СГЭА, 2002 (15 п.л.)
5. Корнеев И.К., Ксандопуло Г.Н., Машурцев Г.А. – Информационные технологии, 2008 г.
6. Возможности использования новых информационных технологий в процессе преподавания машиностроительных дисциплин // Вестник КарГУ, серия Педагогика, 2005. - №2 (38). - С.80-85 (в соавторстве с Тажигуловой Г.О., Казимовой Д.А.).

UDK: 377.8

MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA SAMARALI METODLARNI QO'LLASH

Murodova Zulfizar Olimjonovna

Buxoro davlat texnika universiteti

“Yengil sanoat muhandisligi va dizayni” kafedrası o`qituvchisi

Mail: z.murodova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydani lub o'qitish metodlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, fan, ta'lim, loyiha, metod, dars, talaba.

APPLICATION OF EFFECTIVE METHODS IN TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS

Murodova Zulfizar Olimjonovna

Bukhara State Technical University

Lecturer of the Department of "Engineering and Design of Light Industry"

Email: z.murodova@mail.ru

Abstract. *This article presents methods for teaching specialized subjects in higher education institutions using modern pedagogical technologies.*

Keywords: *pedagogy, science, education, project, method, lesson, student.*

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Bu borada oliy ta'lim tizimida malakali, intellektual, zamonaviy, keng tafakkurli kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim masalariga kiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiya-lari bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Ushbu masalalarni amalga oshirishda respublikamizning pedagog-olim va amaliyotchilari tomonidan ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish borasida muhim ahamiyatga molik ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida faoliyat ko'rsataётgan o'qituvchi, metodistlardan, matbuotdan ёki boshqa axborot tarqatuvchi vositalaridan «Texnologiya», «Pedagogik texnologiya», «O'qitish texnologiyalari», «Ta'lim texnologiyalari», «Innovatsion texnologiyalar», «O'qitishning interfaol metodlari», «Ta'limga texnologik yondashuv» kabi, shuningdek, «YAngi», «Zamonaviy», «Ilg'or», «Progressiv» so'zlari ishlatilgan ko'pgina yangi tushun-chalarni eshitamiz. Xo'sh, texnologiyaning o'zi nima?

Agar ta'limga texnologik yondashuv haqida to'xtaladigan bo'lsak, o'tgan asrning 70-yillarida pedagogikada yuzaga kelgan o'quv jarayonini to'liq boshqarish g'oyasi - pedagogik amaliyotda aniq maqsadlar va natijalarga yo'naltirilgan o'quv jarayonini boshqarish orqali didaktik muammolarni echish mumkinligini ko'rsatdi.

O'qitishga texnologik yondashuv o'quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishish kafolatini nazarda tutadi. Bu muammo butun dunyo pedagog-olimlari tomonidan hozirga qadar tatqiq etib kelinmoqda.

Pedagogikada texnologik yondashuv doirasida ba'zi hal qilinmagan muammoli masalalar mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda texnologik yondashish asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida amalga oshirilgan o'qitish vaziyatlariga urg'u beriladi.

Ta'lim texnologiyasining ishlab chiqarish texnologiyasidan farqi shundaki, unda dastlabki va so'nggi natijalarga erishishda shaxs (inson) turishidadir. Masalan, an'anaviy o'qitish texnologiyasida o'qituvchi ta'lim jarayonlarida ba'zi o'quvchilardagi o'quv materialini o'zlashtirish davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va ularga yakkama-yakka yondashgan holda qo'shimcha mashg'ulotlar olib boradi. Bunda shaxsni to'laqonli shakllantirish usuli, metodika yoki texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydanilyapti. Loyihalar metodi bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni amaliy qo'llashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy metodini amalga oshiradi. Boshqa metodlarga qaraganda, bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko'proq ishtirok etadilar.

Loyihalar metodida ta'lim berishda faqat natijalar emas, balki jarayonning o'zi ko'proq qimmatliroqdir. Loyiha individual bo'lishi mumkin, lekin, odatda har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha bir fanga oid, fanlar orasida yoki fandan tashqari bo'lishi mumkin.

Loyiha ustida ishlash jarayonida, sizning faoliyatingiz quyidagilardan iborat bo'ladi: ta'lim oluvchilarga axborot qidirishga yordam berish; o'zingiz axborot manbai bo'lishingiz; butun

jarayonni muvofiqlashtirishingiz; ta'lim oluvchilarni quvvatlashingiz va taqdirlashingiz; uzluksiz qaytar aloqani qo'llab-quvvatlashingiz.

Loyihali ta'lim berish o'quv jarayonini faollashtiradi, chunki u:

- shaxsga yo'naltirilgan;
- juda ko'p didaktik yondashuvlardan foydalaniladi;
- o'zini-o'zidan motivlaydigan, bu ishga qiziqish va jalb qilinishni uning bajarilishiga qarab ortishi demakdir;
- o'zining va o'zgalarning tajribasidan kelib chiqqan holda va aniq ishda o'rganishga imkon beradi;
- o'z mehnatlari samarasini ko'rib turgan ta'lim oluvchilarga qoniqish keltiradi.

Loyiha asosan o'rganishga xizmat qilish, nazariya bilan amaliyotni bog'lash, korxonada uchraydigan biron ish jarayoniga taaluqli bo'lishi, o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtira olinadigan, mehnatni tashkillashtirishni va amalga oshira oladigan bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'zlarining kasbiy ravishda muammoni yechish usullarini ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'lishadi.

Talabalar kichik guruhlarda loyihani mustaqil ravishda rejalashtirishdan boshlab amalga oshirish va xulosa chiqarishgacha birgalikda ishlashadi. Loyiha topshirig'i berilgan vaqtdan boshlab, uning bajarilishiga qadar o'qituvchi talabalarni mustaqil ishlashga va o'rganishga jalb etib turishi lozim. O'qituvchisi loyihani bajarish jarayonini nazorat qiladi va boshqaradi.

Loyiha topshirig'ini ishlab chiqishda o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak: fanga oid turli loyiha topshiriqlarini ishlab chiqishi;

loyiha ishini mustaqil ishlar jadvaliga kiritishi; loyihaning bajarilish tartibini belgilashi va o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib ishlab chiqish; o'quvchilarni loyiha ishi mohiyati bilan tanishtirishi lozim. Loyiha usuli quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Ma'lumot yig'ish. Bu bosqich uchun o'qituvchi quyidagi materiallarni tayyorlashi lozim:

- loyiha;
- loyihaga tegishli topshiriqlar ta'rifi;
- loyihaga oid ma'lumot yig'ishga oid yo'naltiruvchi savollar;
- mavzuning o'quv maqsadlari haqida ma'lumotlar.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarni yo'naltiruvchi savollardan foydalanib topshiriq mohiyatini tushunishga jalb etishi, talabalar esa mustaqil ravishda darslik, o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar va boshqa manbalardan foydalanib ma'lumot yig'ishlari kerak. Bundan tashqari loyihani bajarish uchun kerak bo'lgan va qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihozlar, asboblardan va kerakli materiallarga oid hujjatlardan foydalanishlari mumkin. Talabalarga foydalanish uchun texnik chizmalar ham berilishi mumkin. So'ngra o'quvchilar mustaqil ravishda loyihani bajarishdagi ish bosqichlarini tuzishlari kerak.

Rejalashtirish. Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda ish rejasini to'ldirishadi. Rejada ish bosqichlari, ya'ni ularni amalga oshirishning texnologik ketma-ketligi va ajratilgan vaqt kerakli jihozlar va uskunalar hamda mehnat va texnika xavfsizligiga oid tadbirlar haqida ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak. Bu erda ham o'quvchilar yo'naltiruvchi savollarni qo'llab, o'zlarining shaxsiy yozuvchilardan foylanishlari mumkin.

O'zlari ish rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqishlari ham mumkin. Ish rejasida – bu berilgan loyiha topshirig'ini bajarish uchun kerakli bosqichlar ketma-ketligining ta'rifi berilgan. Ish rejasi biror ish jarayonini bajarilishini bir qismi bo'lishi ham mumkin.

Qaror qabul qilish. Bu bosqichda talabalar o'qituvchi bilan natijalarni birgalikda rejalashtirish bosqichida amalga oshirilgan ishi yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilishadi. Muhokama doirasida turli yechimlar bir-biri bilan taqqoslanadi va eng yaxshi variant tanlab olinishi kerak.

Amalga oshirish. O'quvchilar yakka tartibda yoki kichik guruhlarda topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda bajarishlari lozim. O'qituvchi ish jarayonini nazorat qilish va natijalarini «Nazorat» daftariga qayd qilib borish kerak.

O'quvchi taqlid qilish orqali va o'rgangan amaliy ko'nikmani o'qituvchi ishtirokisiz bevosita amalda qo'llay oladi. Talaba loyihani bajaradiki, bu topshiriqlarda u eski va yangi

bilimlarini bir biriga qo'shib ishlatadi. Natijada u sabab va oqibat orasidagi o'zaro aloqalarni aniqlay oladi.

Talaba o'rganib olgan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llay va sistematik ravishda rivojlantira oladi. Baholashni va tanlashni biladi hamda yangi ijodiy echimlarni topa oladi.

Talabalar loyiha bo'yicha bajargan ishlari natijalarini o'zlari tekshirishadi. Masalan, ish natijalarini sifat mezonlari yoki me'yorlar asosida baholashi mumkin. SHuningdek talabalar bir birining ish natijalarini o'zaro tekshirishga ham jalb etiladi. O'qituvchi loyiha natijalarini mahsus «Xulosalar varog'i»da qayd etadi va o'zining «Nazorat bayonnomasi» asosida xulosalar chiqaradi.

Xulosa . Talaba va o'qituvchi loyiha bo'yicha bajarilgan ish jarayoni va natijalarini birgalikda tahlil qilishadi. Natijalar muhokama qilinadi. Loyihani bajarish davomida yuzaga kelgan muammolarni yechish bo'yicha ko'nikma taklif va tavsiyalar beriladi. Har bir guruhda yoki individual bajarilgan loyiha natijalari baholari nazorat varaqalariga va qaydnomalari o'qituvchi tomonidan kiritiladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokni ta'minlashda yuqorida keltirilgan faol metodlarni qo'llash orqali natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva K.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Ped.fan.nom.diss. avtoreferati. –T.: - 2006.- 21 b.
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro: Matbaa, 2001.- 68 b.
3. Uzoqova L.P., Bibutova N.N. , Jalolova DF. Maxsus fanlarni o'qitishda guruhiy ishlarni tashkil etish shakllari // Oliy va o'rta maxsus ta'limda sifat va samaradorlikni oshirish muammolari: Resp. il.-amal. konf. materiallari. 1-qism, - Samarqand , 2004.- B.59-60
4. Uzoqova L.P. Ta'limiy psixologik o'quv nazariyalarining yutuqlari // O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining ehtiyojiga asoslangan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi istiqbollari: Resp. il.-amal. konf. materiallari. –Toshkent, 2005.– B.49-50.
5. Uzoqova L.P. Ta'lim jarayonini vizuallashtirish // Zamonaviylik kontekstida pedagogika fani va uning metodologik muammolari: Resp. il.-naz. konf. materiallari. – Toshkent, 2005.- 244-b.
6. Z.O.Murodova “Ta'lim mazmunini tuzilishiga qo'yilgan zamonaviy talablar” “Uzacademia” scientific-methodical journal issn (e) – 2181 – 1334 “Ilm-fan va ta'limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yechimlar” mavzusidagi 24-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi materiallari to'plami 30-may, 2022-yil 3-qism.

УДК 663.885

ОСНОВНЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ НУТРИЦИОЛОГИИ К ПИТАНИЮ ГИПЕРАКТИВНЫХ ДЕТЕЙ

Хабибуллаев Н.А., Амонова З.М.

Бухарский государственный технический университет

e-mail: habibullayevnazarjon@gmail.com

***Аннотация.** Работа посвящена выявлению причин гиперактивности детей и обобщению основных рекомендаций по их питанию. Описаны составляющие сбалансированного рациона и продукты, оказывающие стимулирующее (возбуждающее) воздействие на центральную нервную систему. Установлена целесообразность ограничения обработанных продуктов (снеки, колбасы, фастфуд), часто содержащих вредные добавки и трансжиры, которые негативно влияют на поведение. Показана целесообразность использования лекарственных растений с седативным эффектом в превентивной терапии, но проблема по-прежнему актуальна и исследования в данном направлении имеют научную и практическую значимость.*

***Ключевые слова:** дети, гиперактивность, причины, биологические факторы, внешние факторы, питание, рекомендации,*

***Annotation.** This work is devoted to identifying the causes of hyperactivity in children and summarizing key dietary recommendations. It describes the components of a balanced diet and the types of foods that have a stimulating effect on the central nervous system. The study highlights the advisability of limiting the consumption of processed foods (snacks, sausages, fast food), which often contain harmful additives and trans fats that negatively affect behavior. The use of medicinal plants with sedative effects in preventive therapy is shown to be beneficial. However, the problem remains relevant, and research in this area continues to have both scientific and practical significance.*

Keywords: children, hyperactivity, causes, biological factors, external factors, nutrition, recommendations.

Гиперактивность (от греч. *hyper* – над, сверх + активность) - это состояние, при котором ребенок проявляет чрезмерную активность, импульсивность и трудности с концентрацией внимания. Причины данного состояния могут быть как биологические, так и внешние (средовые или социальные) [1, 2].

Биологические причины связаны, в основном, с нарушениями в работе центральной нервной системы, а именно проблемы с развитием или функционированием мозга, например, дефицит дофамина или серотонина. Немаловажными также являются генетическая предрасположенность, гипоксия плода во время беременности или родов, токсическое воздействие (курение, алкоголь или наркотики во время беременности), инфекции или осложнения в период беременности и особенности обмена веществ (повышенная чувствительность к сахару или другим добавкам в пище).

Психологические факторы, способствующие развитию синдрома гиперактивности, также имеют значительное значение. Особенно опасны эмоциональные стрессы из-за частых конфликтов в семье, давления со стороны родителей или учителей, буллинга, травматических ситуаций; дефицит внимания, то есть если ребенок не получает достаточного внимания от родителей, он может искать его через гиперактивное поведение; недостаток стабильности, связанный с частыми переездами, смены окружения или отсутствия стабильного режима дня.

Следующими являются средовые (экологические) и социальные факторы, связанные, в основном, с переизбытком стимуляции: избыточное время, проведенное перед экранами (телевизор, планшет, телефон), может провоцировать гиперактивное поведение.

Также немаловажным является правильное воспитание детей. Слишком строгие или, наоборот, попустительские методы воспитания, отсутствие границ провоцирует ребенка на импульсивное поведение.

Гиперактивность часто сопровождается такие состояния, как синдром дефицита внимания с гиперактивностью (СДВГ), тревожные расстройства, расстройства аутистического спектра или даже нарушения сна.

Питание играет важную роль в управлении гиперактивностью у детей. Рацион должен быть сбалансированным, обеспечивать организм необходимыми веществами и исключать продукты, которые могут усиливать гиперактивность. В соответствии с требованиями современной нутрициологии и физиологии разработаны основные рекомендации по питанию гиперактивных детей [3]:

1. Сбалансированный рацион:

Белки: Они помогают стабилизировать уровень сахара в крови, что влияет на поведение и концентрацию. Источники: яйца, нежирное мясо, рыба, орехи, бобовые.

Полезные жиры: Омега-3 жирные кислоты благоприятно влияют на работу мозга. Источники: жирная рыба (лосось, скумбрия), льняное семя, грецкие орехи, авокадо.

Сложные углеводы: Они помогают поддерживать энергию и предотвращают резкие колебания сахара в крови. Источники: цельнозерновые продукты, овсянка, овощи, фрукты.

2. Исключение или ограничение стимулирующих продуктов:

Сахар и продукты с высоким гликемическим индексом: Сладости, газированные напитки и белый хлеб могут усиливать гиперактивность.

Пищевые добавки: Искусственные красители, консерванты (например, бензоат натрия), усилители вкуса могут негативно влиять на поведение.

Кофеин: Его содержат шоколад, кола и некоторые энергетические напитки.

3. Режим питания:

Регулярный прием пищи: каждые 3–4 часа, чтобы поддерживать стабильный уровень сахара в крови.

Полноценный завтрак с высоким содержанием белка и сложных углеводов.

Легкие перекусы: фрукты, орехи, натуральные йогурты.

4. Обогащение рациона важными микроэлементами:

Магний: Снижает нервозность (шпинат, орехи, бананы и др.).

Цинк: Улучшает когнитивные функции (мясо, тыквенные семечки, морепродукты и др.).

Железо: Нормальное функционирование мозга (мясо, бобовые, зелень).

Витамины группы В: Способствуют здоровью нервной системы (цельнозерновые продукты, орехи, рыба).

Витамин D: Поддерживает когнитивное здоровье (жирная рыба, яйца, солнечный свет).

5. Исключение аллергенов. Некоторые продукты могут провоцировать гиперактивность у детей с непереносимостью или аллергией. Распространенные аллергены: молочные продукты, глютен, соя, цитрусовые. Важно консультироваться с врачом для определения возможной непереносимости.

6. Ограничение обработанных продуктов (снеки, колбасы, фастфуд) часто содержат вредные добавки и трансжиры, которые негативно влияют на поведение.

7. Фитотерапия. Так, лекарственные травы содержат широкий спектр биологически активных веществ, которые оказывают влияние на нервную систему, способствуя успокоению, улучшению сна и снижению гиперактивности. Вот основные фармакологически активные вещества, содержащиеся в перечисленных выше травах: апигенин (седативное и спазмолитическое действие), бисаболол (противовоспалительный и успокаивающий эффект), флавоноиды (успокаивающий и антиоксидантный эффект), ментол (анестетический эффект), танины: (способствуют снятию стресса), эфирные масла (седативный и расслабляющий эффект) и др..

Общие свойства этих веществ:

- Седативный эффект: Уменьшение нервной возбудимости.
- Антиоксидантное действие: Защита клеток мозга от повреждений.
- Противотревожное действие: Снижение уровня стресса и тревожности.
- Улучшение сна: Облегчение засыпания и улучшение качества сна.

Фармакологические вещества в травах работают мягко и имеют накопительный эффект, поэтому для получения выраженного результата требуется регулярное применение в течение нескольких недель. Регулярное соблюдение этих рекомендаций поможет снизить гиперактивность и улучшить общее состояние ребенка.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гиперактивность у детей. – URL: <https://ufa.medsu.ru/articles/giperaktivnost-u-detej/> (дата обращения 12.10. 2024 г.).
2. Гиперактивный ребёнок Иванова С. В. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/giperaktivnyy-rebyunok/viewer> (дата обращения 12.10. 2024 г.).
3. Болотовский Г.В. Лечебное питание при гиперактивности/ Г.В. Болотовский, Л.С. Чутко, Ю.Д. Кропотов. – 2022. – URL: <https://psychologos.ru/articles/view/lechebnoe-pitanie-pri-giperaktivnosti> (дата обращения 08.10. 2024 г.).

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy dars loyihasi va mezonlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Bilim, ko'nikma, malaka, o'quv jarayoni, texnik vosita, dastur, o'quv rejasi, taqvimiy reja, darslik, metodik qo'llanmalar, dars ishlanmasi.

Abstract: This article provides information on modern lesson plans and criteria.

Keywords: Knowledge, skills, abilities, educational process, technical means, program, curriculum, calendar plan, textbook, methodological manuals, lesson plan.

O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy, ma'naviy meroslarini o'rganish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib berildi. Shu bilan birgalikda, milliy g'ururimiz qayta tiklandi. Respublikamizda ilm - fan, shu jumladan pedagogika fani ham o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotiga tadbiq etish kabi ko'plab ulug' ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb bejizga aytmaganlar. Bu fikr esa, hozirda demokratik jamiyat qurayotga,

Dars rasmiy ta'lim-tarbiya sohasining birlamchi asosi, uzluksiz ta'limtarbiya jarayonining tashkil qiluvchi g'ishti, o'qituvchi va pedagoglarning faoliyat ko'rsatish joyi hisoblanib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. O'quvchi yoki talabalar.
2. O'qituvchi yoki pedagog.
3. O'qitishning texnik vositalari.
4. Darsda kerak bo'ladigan me'yoriy hujjatlar (dastur, o'quv rejasi, taqvimiy reja, darslik, metodik qo'llanmalar, dars ishlanmasi yoki bir so'z bilan aytilganda - kuruyukluyum).
5. Usul va uslublar.

Dars mezonlarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Ta'lim maqsadi, undan kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi va oluvchilar, ta'lim mazmuni, metodi, shakli, vositalar, nazorat va baholashga. Ta'lim jarayoni – ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanib, uning maqsadi ta'lim-tarbiya natijasi sifatida o'quvchi erishishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini belgilaydi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayonining oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi doimiy rag'batlantirilib turilishi, o'quv mavzusini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda "Bahs-munozara", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin" metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi.

Noan'anaviy darsni o'tish jarayonida asosiy e'tibor o'quvchi shaxsiga qaratiladi va bu real hayotda hamda jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod hisoblanadi.

Bolaga shunday narsa berish kerakki, o'sha narsasiz bugun, hozir yashash mumkin bo'lmasin va shu bilganiga doimo, uzoq yillardan so'ng ham qayta-qayta nigoh tashlasin. SHunday holatlar bo'ladiki, dars davomida o'rinli-o'rinsiz ravishda ko'plab usul va metodlar qalashtirib tashlanadi.

O'qitish usullarini tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. CHunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil usullar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa usullar qo'llaniladi.

Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullarni qo'llash juda muhim. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashini amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keying so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi.

Dastlab, savollarga batafsil javob bera oladigan talabalardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham ayni shunda. Garchi har bir pedagogning ishida anchagina usul va uslublar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdan iborat.

O'qituvchining vazifasi samarali usullardan foydalanib, o'quvchilarda faollik sifatlarini tarkib toptirish va qiyinchiliklarni engishga o'rgatishdir. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda o'qitilayotgan fanga bo'lgan, undan esa amaliy faoliyatga aylantiradi va o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan sinf - dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib borilmoqda: 1. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi. 2. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi. 3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi. 4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma - xil usullar orqali olib boriladi. Ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib tashkil etiladi. Sinf - dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materiallarini tizimli bayon qilib berishni, xilma - xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim va ko'nikma, malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi dars materiallarini bayon qilish jarayonida o'quvchilarga muammoli vaziyat tug'diradigan savollar bersa va javob qidirsas, fikrlash va izlanishlar yo'li bilan mavzu materiallari puxta o'zlashtirilib oladigan bo'ladi. Bunday holatda umumsinf jamoasi va har qaysi o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda darsda uzoqdan - uzoq vaqt sarflab o'quvchilarning bilimini aniqlash va baholash, bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashda o'quvchilar ishtirokini cheklab qo'yish habi holatlarga barham berildi. Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi (og'zaki yoki yozma mashqlar, laboratoriya - tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilimlarini ham ishga tushirishga xizmat qiladi va to'g'ri baholash uchun katta imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birgalikda, o'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikr yuritishlari, qunt, irodani mustahkamlash, nutq madaniyatini rivojlantirish, tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda mustaqil ishning ahamiyati doim diqqat markazida bo'lishi, dars jarayonini shu maqsadga muvofiq qurish nazarda tutilishi kerak. Dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallarining boshqa fanlarga aloqador mavzulari bilan bog'liqligini ko'rsatish ham eng muhim ahamiyatga egadir. Komil shaxsni rivojlantirishda darsning ahamiyati va yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko'ra zamonaviy darsning o'ziga xos xususiyatlari.

Dars - yuqorida aytib o'tilgandek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyotida va pedagogik tafakkur doimo darsni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Turli - tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi kerak bo'ladi:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lishi kerak.
2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy - siyosiy yo'nalishlarga ega bo'lishi kerak.
3. Har bir dars hayot bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Har bir dars xilma - xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalanish holda olib borilishi kerak.

5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejash, undan unumli foydalanish kerak.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi va birligini ta'minlab berishi kerak.

7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish kerak bo'ladi.

8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan umumiy olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.

Darsni tashkil etish va uning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining o'zni juda ham beqiyos bo'lgan. Chunki, o'quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlariga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o'qiganligiga emas, balki o'tilgan darslarni qanchalik o'zlashtirganliklariga tayanilgan. Turkiston maktablarida ta'limning dars shakli bo'lganligi bilan mashg'ulotlarni sinf - dars tizimi tarzida tashkil etish tajribasi bo'lmagan. Shuningdek, darsning davomiyligi, predmetlarning o'rinlashuvi, kundalik mashg'ulotlarning miqdori singari ta'limiy chegaralar har bir o'qituvchining o'zi tomonidan belgilangan. Qadimda ta'lim muassasalari uchun darsning jamoa va individual shakllari mavjud bo'lgan. Dars ta'limining jamoa bo'lib amalga oshirilish tarzini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro: Matbaa, 2001.- 68 b.
2. Бабанский О.Е. Проблемное обучение: обоснование и реализация. // Наука и школа.- Москва, 2000. - №1 – С.19-25.
3. Ziyomhammadov B., Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik – texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001. – 80 b.
4. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001.-507 b.

UDK:331.5-056.26:364

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN BANDLIK IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI

Tilavova Munisa Maxmudovna

Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti, Zarmed Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha samarali strategiyalar tahlil qilingan. Jumladan, huquqiy bazani mustahkamlash, ta'lim va kasbga tayyorlash tizimini rivojlantirish, ish beruvchilarni rag'batlantirish, moslashtirilgan ish joylarini yaratish, masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy ongini oshirish orqali ularning mehnat bozoriga integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Mazkur strategiyalar ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda inklyuziv jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan shaxslar, bandlik, inklyuziya, mehnat bozori, kasbga tayyorlash, masofaviy ish, huquqiy baza, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

СТРАТЕГИИ РАСШИРЕНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЗАНЯТОСТИ ДЛЯ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Тилавову Мунису Махмудовну

базовый докторант Бухарского государственного технического университета, преподаватель Университета Зармед

Аннотация. В данной статье проанализированы эффективные стратегии расширения возможностей трудоустройства лиц с ограниченными возможностями. Рассмотрены такие направления, как укрепление правовой базы, развитие системы образования и профессиональной подготовки, стимулирование работодателей, создание адаптированных рабочих мест, расширение возможностей дистанционной работы и повышение социальной

осведомленности для интеграции этих лиц на рынке труда. Эти стратегии способствуют обеспечению социальной справедливости и построению инклюзивного общества.

Ключевые слова: лица с ограниченными возможностями, трудоустройство, инклюзия, рынок труда, профессиональная подготовка, дистанционная работа, правовая база, социальная поддержка.

STRATEGIES FOR EXPANDING EMPLOYMENT OPPORTUNITIES FOR PERSONS WITH DISABILITIES

Tilavova Munisa Makhmudovna

basic doctoral student of Bukhara State Technical University, teacher of Zarmed University

Annotation. This article analyzes effective strategies to expand employment opportunities for persons with disabilities. Specifically, it discusses strengthening the legal framework, developing education and vocational training systems, incentivizing employers, creating adapted workplaces, expanding remote work opportunities, and raising social awareness to facilitate their integration into the labor market. These strategies serve to ensure social equity and build an inclusive society.

Keywords: persons with disabilities, employment, inclusion, labor market, vocational training, remote work, legal framework, social support.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda inson huquqlari va ijtimoiy tenglikni ta'minlash ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, imkoniyati cheklangan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularni jamiyat hayotining barcha jabhalariga to'liq jalb etish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ularning mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlash va munosib ish bilan ta'minlanishini qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat ijtimoiy adolatni qaror toptirish, balki iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli hissa qo'shish mumkin. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, imkoniyati cheklangan fuqarolarning mehnat faoliyati orqali o'z-o'zini ta'minlashi, mustaqil hayot kechira olishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun tegishli infratuzilma, huquqiy asos va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur [1]. Biroq ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham, bu borada hali mavjud to'siqlar, stereotiplar va infratuzilmaviy muammolar to'liq bartaraf etilgan emas. Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha dolzarb strategiyalar ko'rib chiqiladi. Jumladan, qonunchilikni takomillashtirish, kasbga tayyorlash tizimini rivojlantirish, ish beruvchilarni rag'batlantirish, moslashtirilgan ish joylarini yaratish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ularning mehnat bozoriga integratsiyasini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlar imkoniyati cheklangan fuqarolarni ijtimoiy va iqtisodiy hayotga faol jalb etish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha mavjud yondashuvlar, siyosiy qarorlar va xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Imkoniyati cheklangan shaxslarning bandlik sohasidagi holati, muammolari va mavjud siyosiy chora-tadbirlar chuqur o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi va qator xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirma asosda ko'rib chiqildi. Mehnat va bandlik sohasiga oid qonun hujjatlari, jumladan, "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi qonun, Mehnat kodeksi va tegishli hukumat qarorlari o'rganilib, ularning amaliyotdagi tatbiqi baholandi. Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilgan bandlik tizimlari turli mamlakatlar misolida solishtirilib, muvaffaqiyatli amaliyotlar aniqlangan va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan [3]. Soha mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari va ijtimoiy himoya tizimi xodimlari fikrlari tahlil qilindi va maqolada tegishli tavsiyalar shakllantirishda asos sifatida foydalanildi. Mavjud statistik ma'lumotlar (O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa manbalar) asosida imkoniyati cheklangan shaxslar bandligi darajasi va dinamikasi o'rganildi. Mazkur metodologik yondashuvlar asosida maqolada nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular imkoniyati cheklangan shaxslarning bandligini oshirish va mehnat bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi [4].

Tadqiqot muhokamasi. O'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, imkoniyati cheklangan shaxslarning bandlik darajasi hali ham ko'plab mamlakatlarda, jumladan,

O'zbekistonda past bo'lib qolmoqda. Bunga bir necha asosiy omillar sabab bo'lmoqda: infratuzilmaning yetarli darajada moslashtirilmaganligi, ijtimoiy stereotiplar, ish beruvchilarning past tayyorgarligi va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining zaifligi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, qonunchilikda nogironlar mehnat huquqlari kafolatlangan bo'lsa-da, amaliyotda bu huquqlar to'liq amalga oshmayapti. Ko'pgina ish beruvchilar imkoniyati cheklangan shaxslarni ishga olishdan cho'chiydi, chunki ular qo'shimcha xarajatlar yoki maxsus sharoitlar talab etiladi deb hisoblashadi. Shu bois, davlat tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Xalqaro tajriba tahlili asosida aniqlanishicha, Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda imkoniyati cheklangan shaxslarni bandlikka jalb etish bo'yicha yuksak natijalarga erishilgan. Ular uchun yaratilgan maxsus ish joylari, rehabilitatsiya markazlari, masofaviy ish imkoniyatlari va inklyuziv ta'lim tizimi orqali mehnatga layoqat darajasi oshirilmoqda. Shuningdek, texnologik taraqqiyot, ayniqsa, masofaviy ish va raqamli platformalar orqali imkoniyati cheklangan shaxslarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligini ko'rsatdi [6]. IT sohasida, dizayn, tarjimonlik va masofadan boshqariladigan xizmatlar orqali bu guruh vakillari o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi. Muhokama davomida aniqlanganki, imkoniyati cheklangan fuqarolarning bandligini ta'minlash — bu faqat ijtimoiy masala emas, balki iqtisodiy barqarorlik va barqaror rivojlanish omillaridan biri hisoblanadi. Ularning mehnatga faol jalb etilishi nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi, balki davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytiradi va inson kapitalining samarali foydalanilishiga olib keladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlash, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishning muhim yo'nalishidir. Ularning mehnat bozoriga to'laqonli integratsiyalashuvi uchun kompleks yondashuv zarur: qonunchilikni takomillashtirish, moslashtirilgan ish joylarini yaratish, zamonaviy kasbga tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish va ish beruvchilarni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, imkoniyati cheklangan shaxslarning bandligi masalasi ko'p qirrali bo'lib, uni hal qilishda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Ayniqsa, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali masofaviy ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy ongni oshirishga qaratilgan ma'rifiy kampaniyalarni kuchaytirish va inklyuziv ijtimoiy muhitni shakllantirish kelgusida muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bandlik strategiyalarini amalga oshirishda faqat joriy muammolarni bartaraf etish emas, balki ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatda faol, munosib va teng huquqli hayot kechirishlariga zamin yaratish asosiy maqsad bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2022). Imkoniyati cheklangan shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha hisobot. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. (2021). Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti.
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). (2020). Nogironligi bo'lgan shaxslar va mehnat bozorida imkoniyatlar. Jeneva.
4. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). (2019). Nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun bandlik siyosati: eng yaxshi tajribalar. Geneva.
5. Karimov, O. (2021). "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inklyuziv ta'lim va kasbga tayyorlash tizimi". Ijtimoiy fanlar jurnali, 4(12), 45–53.
6. Tursunova, M. (2020). "Ish beruvchilarni rag'batlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy aspektlari". Mehnat va bandlik masalalari, 2(7), 22–29.

UDK 37.017.93

**XOJA ORIF REVGARIYNING “ORIFNOMA” ASARI VA UNING YOSH AVLOD
TARBIYASIDAGI O’RNI**

Рахматова Дилдора Садриевна
Зармед университети “Ижтимоий фанлар”
кафедраси ўқитувчиси
+99850-889-59-96

dildorarahmatova946@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xoja Orif Revgariyning “Orifnoma” asari mohiyati, undagi hikmatli soʻzlar, tasavvuf ahli va ularning faoliyati hamda qarashlarining inson kamolotidagi oʻrni haqida maʼlumot beriladi.

Kalit soʻzlar: Orif Revgariy, “Orifnoma” asari, maʼrifat, tassavuf, ruhiy tarbiya, toliblik, riyozat

Annotation:

This article provides an insight into the essence of Khoja Orif Revgari’s work “Orifnoma”, highlighting its wise sayings, the role of Sufi figures and their activities, as well as their perspectives on human spiritual perfection.

Keywords: Orif Revgari, Orifnoma, enlightenment, Sufism, spiritual education, seekerhood, asceticism

Har bir xalq maʼnaviyatining yuksalishi va barqaror taraqqiyoti, avvalo, uning maʼrifiy va falsafiy merosiga bogʻliqdir. Oʻzbek xalqining tasavvufiy-maʼrifiy taʼlimot tarixi uzoq oʻtmishga borib taqaladi va bu tarixiy-madaniy merosning muhim qismini Xojagon taʼlimotining yetuk namoyandalari yaratgan asarlar tashkil etadi. Shulardan biri — Xoja Orif Revgariyning “Orifnoma” asaridir. Ushbu asar nafaqat tasavvuf tarixi, balki umumiy falsafa tarixi uchun ham muhim manba hisoblanadi. Xoja Orif Revgariy oʻzidan «Orifnoma» nomli fors tilida yozilgan bir asar qoldirgan.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ma'ruza darsi nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish vositasi, balki talabalarda mustaqil fikrlash, kasbiy motivatsiya va ijodiy yondashuvni shakllantirishning muhim pedagogik shaklidir. Ma'ruza -bu ijodiy jarayon bo'lib, u o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, bilim almashinuvi va fikrlar to'qnashuvi orqali amalga oshadi. Bunday yondashuvlar nafaqat talabalarda nazariy bilimlarni chuqur egallash, balki ularni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarga tatbiq etish malakasini ham rivojlantiradi. Ma'ruzada foydalaniladigan ko'rgazmali, video va interaktiv vositalar, shuningdek, muammoli tahlilga asoslangan topshiriqlar, talabalarni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shu bois, ma'ruza darslarini isloh qilish va ularni ijodiy, interaktiv shakllarda olib borish zamonaviy oliy ta'lim tizimining dolzarb vazifasiga aylanmoqda. O'qituvchining vazifasi - talabalarni faollikka undovchi, ularda mustaqil fikrlash va ilmiy izlanishga qiziqishni kuchaytiruvchi ma'ruzalar orqali, ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Вербицкий А.А. Деловая игра как метод активного обучения // «Современная высшая школа». – 2005, №3. - С.23-28.

2. Зарипова И.Р. Профессионально значимые качества личности как залог конкурентоспособности специалиста социальной работы/ И.Р.Зарипова, Р.Н. Зарипов // Вестник Казан. технол. ун-та. - 2010. -№ 3.- С. 172-182.

3. Gafurova N. T, Saidova X. X., Djalolova D.F., Makhmudova S.N, Muminova M.S. Practical expertise in methodology of educational literature of specialties, Journal of Critical Reviews, ISSN- 2394-5125, Vol 7, Issue 13, 2020, s. 508-512

TO'G'RI OQIMLI TOLAAJRATISH MASHINASIDAN TOLA SIFATIGA TABSIR QILADIGAN OMILLAR

Nurboev Rashid Xudayberdievich. YeSM va D kafedrasi professori

Salomov Ilxom Salimovich. YeSM va D kafedrasi assistenti

Anvarova Kamolaxon Axtamjon qizi. YeSM va D kafedrasi 1-kurs magistranti

Buxoro Davlat Texnika universiteti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada—paxta tolalarini uzilishi, tukliligi, mexanik shikaslanishi asosiy sabablarini paxta tozalash zavodlari sharoitida, paxtani tabiiy xossalarni saqlagan holda, tola ajratish mashinalarini unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Xomashyo, tola, qurilma mashina, ishchi qism, ishlab chiqarish korxonasi, elektr yuritma, mexanik shikastlanish.

THE SUMMARY

In dissertation work are considered main reasons of the origin of the breakage of fibers, hairiness, and mechanical damageability of fibers to conservations of natural properties of cotton in condition of cotton plants – in the purpose of increasing of capacity of fiber-extracting machines analysis of the work of worker organs, mechanisms of the machines, established technical factors, state of working, as well as theoretical capacity of the machines are conducted.

Key words: Raw material, fiber, machine tool, workpiece, manufacturing plant, electrical drive, mechanical damage.

Respublikamizda Klaster tizimida paxta xom ashyosini qayta ishlash, ip-kalava undan yuqori sifatli gazlamalar ishlab chiqarish va tayyor maxsulotni esport qilishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda ekspluatatsiya qilinib kelayotgan, korxonalarda chigitli paxtani qayta ishlash mashina va agregatlarini zamonaviy texnologik mashinalar bilan qayta jihozlash muhim ahamiyatga egadir. SHu bilan birgasanoat korxonalarida jaxon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishdir. Respublikamizning sifatli mahsulot ishlab chiqarishi asosan paxtani qayta ishlash zavodlariga ham bog'likdir. Xozirgi paytda ekspluatatsiya qilinib

kelinayotgan texnologik mashina va jihozlarda, paxtani dastlabki ishlov berishda jahon andozasi talablari asosida chigit va tola sifatini ta'minlash ishlab chiqarish korxonalarida oldiga qo'yilgan mas'uliyatli vazifa bo'lib kelmoqda. Yuqori samarali texnologiya va mashina jihozlarini yaratmasdan bu muammolarni texnik yechimiga erishish ancha murakkabdir. Paxta sanoatida paxtani dastlabki ishlov berish texnologik tizimida, asosiy bo'g'in zveno tola ajratish mashinasi bo'lib hisoblanadi.

Paxta tozalash korxonalarida paxta xom ashyosini g'aramlash va tayyorlash mashina va mexanizmlari; paxtani quritish agregatlari, mayda va yirik chiqindilarni tozalash mashinalari, tola ajratish mashina va tola tozalagichlar, gidravlik preslar xamda, pnevmosistemalar hisoblanadi. Zamonaviy tola ajratish mashinalariga 5DP-130, 5DP-130 va aylanuvchi kolosnikli (to'g'ri oqimli) konstruksiyalari kiradi. Ularning asosiy uzellari – ta'minlagich, arrali tsilindr va tola chiqazish hisoblanib, ular ratsional parametrlarga ega. Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan tolaajratish mashinalarida paxta valigining zichligi $420-450 \text{ kg/m}^3$ ni tashkil qiladi. Bunday yuqori zichlikda ishlash quyidagi salbiy ko'rsatkichlarga olib keladi.

- Tola va chigitning mexanik shikastlanishi-20%gacha;
- Yuqori elektr energiyaning iste'mol qilinishi;
- Kalta tolalarning ko'payishi;

Paxta valigining ichki va tashqi ishqalanish natijasida arralar yeyiladi. Buning xisobiga har 2-3 smenada arralarni almashtirishga to'g'ri keladi. Tola ajratish mashinasi ish kamerasiga chigitli paxtani bir me'yorda yetkazib berish, paxta valigining zichligini kamaytirish va arra bilan xom ashyo valigi o'rtasidagi o'zaro mexanikaviy ta'sirlarini, arra tishlarini, tolani yulib olish qobiliyati bilan birgalikda o'rganish zarur.

SHuni ta'kidlab aytish lozimki, hozirgi paytgacha tolaajratish mashinasi ish unumdorligini oshirish, tola va chigitni sifatini jahon andozalariga va ko'rsatkichlariga yetkazish uchun, konstruksiyalarini takomillashtirish ishchi organlarini boqiy va barqaror ishlashini ta'minlash paxta sanoat korxonalarini hamda, Oliy ta'lim muassasalari olimlarining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Bu muammolarni yechish: texnologik jarayonlar bilan tola ajratish mashinalarni ishchi organlarini parametrlarini chuqur ilmiy asoslab, yangi loyihalananayotgan mashina va mexanizmida zamonaviy «Nou-Xau» larni qo'llash yo'li bilan amalga oshirish kutiladi. To'g'ri oqimli arrali tolaajratish mashinasi qabul barabani (birinchi aylanuvchi kolosnik) optimal geometriyasini tanlash va ularni chigit va paxta tolasini sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan tasvirlarni tekshirish shu bilan arrali tola ajratish mashinasi yordamida tolani chigitdan uzib olish, chigit tukdorligini nazorat qilish, tolani arra tishlaridan ajratib olish muommolarini yechish zarurdir. Yaratilgan yangi zamonaviy texnologik mashinalar yuqori darajada avtomatlashtirilgan, robotlashgan sistemalar bilan jihozlanishi talab etiladi.

Xulosa. Tola ajratish mashinasi ta'minlagichini xar xil geometrik parametrlarini, tola ajratish jarayoniga va sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'siri darajasi o'rnatilgan. Xar xil sharoitlarda tola va chigitni ajralish jarayonlari, chigit tarog'i, yo'naltirgich va qabul barabani geometriyasini aniqlashda o'tkazilgan tekshirishlar keng imkoniyat ochib berdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramjon, S., Rustam, M., Akmal, U. and Dilmurat, K. (2018) Movement Differential Equation of Seed Roller which Has Been Installed Stake Accelerator on the Roll Box of Gin Machine. Engineering, 10, 521-529. <https://doi.org/10.4236/eng.2018.108038>
2. Abdumazhitovich, M. A., Shalola, A., & Abdunabi, M. S. (2024). KOLOSNIK BOYLAB CHIGITLAR LEGAL MOVEMENT OF ORGANISH. Valeology: International Journal of Medical Anthropology and Bioethics (2995-4924), 2(5), 7-11.
3. Mamasharipov A. A., Anafiyaeva, S. (2023). Yangi konstruksiya tola ajratgichida qiya kolosnikning roli. Science and Education, 4(7), 77-80. European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS 126
4. G.D.Djabbarov, S.D.Baltayev, D.A.Kotov, N.D.Solovyev "Paxtani kayta ishlash" M; 1978. -S. 148-163.

TOLA AJRATISH JARAYONIDA PAXTA TOLASI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Nurboyev Rashid Xudoyberdiyevich. "YeSMD" kafedrası professori
Anvarova Kamolaxon Axtamjon qizi. BuxMTI "YeSMD" kafedrası 1-kurs magistranti.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotatsiya: ushbu maqolada jinlash jarayonida paxta tolasi sifatiga ta'sir etuvchi omillar, jinlash qurilmalarining asosiy ishchi oraganlarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinlash, paxta tolasi, sifat, nav, fizik- kimyoviy xususiyat.

Annotation: This article discusses the factors affecting the quality of cotton fiber during the ginning process, as well as ways to improve efficiency by enhancing the main working components of ginning machines.

Keywords: ginning, cotton fiber, quality, grade, physico-chemical properties.

Paxta tozalash texnologik jarayoni — bu ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladigan operatsiyalar tizimi bo'lib, xomashyo va mahsulotlarning oqimlari orqali bir-biri bilan bog'langan mashinalar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon materiallarni jihozdan jihozga tashish va yuklash, mexanik ta'sir orqali ularning xususiyatlarini o'zgartirish (masalan, tozalash), issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari (masalan, quritish yoki namlash), aerodinamik jarayonlar va xomashyo massasidan maqsadli mahsulotlar (masalan, tola, chigit, lint) ajratish kabi jarayonlardan tashkil topadi.

Paxta tozalash korxonalarimizda o'rta tolali paxta navlarini jinlash, chigitdan tolalarni ajratib olinishi asosan 4DP-130, 5DP-130 rusumli arrali jin mashinalarida amalga oshirilmoqda. Arrali jin-larni AQSHdagi "Kontenental" va "Lyummus" kompaniyalarida ishlab chiqarilgan jinlarni Xitoydagi va AQSHdagi mashinalarini ishlash prinsipi deyarli bir hil bo'lib, paxta tolalari chigitdan jinning arrali silindrida ajratilib olin-moqda. [9;10]

Paxta tolasini tabiiy sifat ko'rsatkichlari hamda shu tolalarni arrali jin mashinasidan keyingi sifat ko'rsatkichlari zamonaviy HVI 900 SA instrumental laboratoriya tizimida aniqlanib, tajriba va tadqiqot ishla- ri o'tkazildi. Tajriba va tadqiqotlarni o'tkazilishidan asosiy maqsad, ar- rali jin mashinasida chigitlardan to-lalarni xomashyo kamerada arrali silindr yordamida ajratilishi jara- yonida arralar tola sifatiga qay darajada yoki qancha foizda mexanik shikastlanish keltirayotganini aniqlashdan iborat

M. Tillaev o'z tadqiqotlarida xomashyo valigining zichligini oshirish, tolaning mexanik shikastlanishining ortishi bilan bog'liq ekanligini aniqladilar. O'zgartirilgan jin konstruksiyasida xomashyo valigining tezlatgichi qo'llanilganda jinning samaradorligi oshgan bo'lsa-da, xomashyo valigining zichligi kamaygan. Natijada, zichlikning pasayishi tolaning mexanik shikastlanish darajasini 19-20% ga kamaytirish imkonini bergan. Tadqiqotchilar, shuningdek, xomashyo valigi zichligining oshishi tolaning mexanik shikastlanishining ortishiga olib kelishini ko'rsatganlar. Ularning tadqiqotlarida xomashyo valigini aylantiruvchi tezlatgichning jinlash jarayonidagi asosiy ko'rsatkichlarga ta'siri ham o'rganilgan. Bu ko'rsatkichlarga mashinaning ish unumi, chigitlarning ishchi kamerada qolish vaqti, tarkibi, toladorligi, European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS 124 massasi, xomashyo valigining zichligi va uning ishchi kamerasi devorlariga bo'lgan bosimi kiradi 37

Tola sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlar

| <i>Tola sifati mezonlari</i> | <i>Jinlash jarayonidagi bog'liqlik</i> |
|------------------------------------|--|
| Uzunligi | Notog'ri tezlik va bosim tolani qisqartiradi |
| Changal (kuchlanishga chidamlilik) | Mo'rt tolalar yirtiladi, chidamlilik pasayadi |
| Yigirish xossalari | Chigallik va uzilgan tolalar sifatli ip olishga xalal beradi |
| Rang (tozaligi) | Ko'p bosim va iflos paxta tolani qoraytiradi |

| <i>Tola sifati mezon</i> | <i>Jinlash jarayonidagi bog‘liqlik</i> |
|--------------------------|--|
| Ifloslik darajasi | Yetarli tozalovchi qurilmalar bo‘lmasa, chiqindi ko‘p qoladi |

Jinlash jarayonida paxta tolası sifatiġa tasir etuvchi omillar ko‘p va turlicha bo‘lishi mumkin. Ular paxta tolası sifati, uzunligini, kuchini va boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlarini bevosita ta'sir qiladi. Quyida jinlash jarayonida paxta tolası sifatiġa tasir etuvchi asosiy omillarni keltiraman:

1. Paxtaning turi va navlari

Paxta navlari jinlash jarayonining yakuniy sifatiġa bevosita ta'sir etadi. Har bir paxta navining tolası uzunligi, toza tolası miqdori, ko‘rinishi va boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlari o'ziga xosdir. Paxtaning yuqori sifatli navlari (masalan, Uster, Pima yoki Giza) tolalarining uzunligi va kuchi yuqori bo‘ladi, bu esa jinlash jarayonining samaradorligini oshiradi.

2. Paxta tolasining uzunligi

Paxta tolası uzunligi jinlash jarayonida muhim omil hisoblanadi. Uzun tolali paxta osonlik bilan jinlanadi, chunki ularning tola uzunligi katta, bu esa ularni sinishdan va qirqilishdan saqlaydi. Kichik uzunlikdagi tolalar esa jinlash jarayonida ko‘proq qirqiladi va isrof bo‘ladi.

3. Paxta tolası tozaligi

Paxtaning tozaligi, ya'ni paxta tolası ichidagi noxush moddalar (xamir, tuproq, chang va boshqa aralashmalar) miqdori ham sifatiġa ta'sir qiladi. Ko'proq toza paxta tolası jinlash jarayonida ancha sifatli natijalar beradi, chunki aralashmalar tolanı qiyshiq qilib, tolalar orasida mustahkamlanishni kamaytiradi.

4. Paxtaning namligi

Paxta tolası namligi ham jinlash jarayoniga ta'sir qiladi. Paxta tolası juda nam yoki juda qurigan bo‘lsa, jinlash jarayoni samarali bo‘lmasligi mumkin. Paxta tolası optimal namlikda (odatiy ravishda 8–10% gacha) bo‘lishi kerak, chunki bu tolalar orasida yaxshi bog‘lanishga yordam beradi va jinlash jarayonini yengillashtiradi.

5. Jinlash tezligi

Jinlash jarayonining tezligi paxta tolası sifatiġa ham tasir qiladi. Agar jinlash jarayoni juda tez amalġa oshirilsa, tolalar o'zlarini to'liq ajralib chiqish uchun vaqt topa olmaydi, bu esa tolalar sifatiġing pasayishiga olib keladi. Aksincha, juda sekin jinlash jarayonlari tolalar orasida ko‘p isrofnı keltirib chiqarishi mumkin. Optimal tezlikda jinlash amalġa oshirilganda tolalar sifatiġni saqlab qolish mumkin.

6. Jinlash usuli va uskunalari

Jinlashda foydalaniladigan uskunalar va usullar ham paxta tolası sifatiġa ta'sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda yuqori sifatli va samarali jinlash mashinalari tolalarnı minimallashtirilgan qirqilishlar bilan ajratadi, bu esa tolalar uzunligini va kuchini saqlashga yordam beradi. Eski yoki yomon holatda ishlov beradigan uskunalar esa tolalarnı zararlantirishi, xususan, qisqartirishi yoki sifatiġni pasaytirishi mumkin.

7. Havoning harorati va namligi

Jinlash jarayoni paxta tolalarining haroratiga va atrof-muhitning namligiga ham sezilarli darajada bog‘liq. Harorat va namlik darajasi juda yuqori bo‘lsa, paxta tolası namlanib, yumshashi mumkin, bu esa jinlash jarayonini qiyinlashtiradi. Ideal sharoitda, havoning harorati va namligi boshqarilgan holda bo‘lishi kerak.

8. Mexanik jarayonlar

Jinlash jarayonida mexanik kuchlar (masalan, silkitish, burish, maydalash) paxta tolalarining sifatiġa ta'sir qiladi. Ko'proq mexanik kuchlar tolalarnı zanglashiga yoki qisqarishiga olib kelishi mumkin. Jinlash jarayonida tolalar ustida haddan tashqari mexanik kuchlarnı qo‘llashdan saqlanish kerak.

9. Paxtaning kimyoviy tarkibi

Paxtaning kimyoviy tarkibi, xususan, tolalardagi mikrobyal moddalar, guruch tarkibi va boshqa kimyoviy aralashmalar ham jinlash jarayoniga ta'sir qiladi. Agar paxta tolasida ko‘p miqdorda zararli kimyoviy moddalar bo‘lsa, bu jinlash jarayonida noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Jinlash jarayonida paxta tolası sifatiġa ta'sir etuvchi omillar juda ko‘p. Paxtaning turi,

tolasi uzunligi, tozaligi, namligi, jinlash tezligi, uskunalar sifati va mexanik jarayonlar paxta tolasi sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Paxtaning eng yuqori sifatini saqlash uchun barcha shu omillarni e'tiborga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. Akramjon, S., Rustam, M., Akmal, U. and Dilmurat, K. (2018) Movement Differential Equation of Seed Roller which Has Been Installed Stake Accelerator on the Roll Box of Gin Machine. Engineering, 10, 521-529. <https://doi.org/10.4236/eng.2018.108038>
2. Abdumazhitovich, M. A., Shalola, A., & Abdunabi, M. S. (2024). KOLOSNIK BOYLAB CHIGITLAR LEGAL MOVEMENT OF ORGANISH. Valeology: International Journal of Medical Anthropology and Bioethics (2995-4924), 2(5), 7-11.
3. Mamasharipov A. A., Anafiyaeva, S. (2023). Yangi konstruksiya tola ajratgichida qiya kolosnikning roli. Science and Education, 4(7), 77-80. European science international conference: STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS 126
4. G.D.Djabbarov, S.D.Baltayev, D.A.Kotov, N.D.Solovyev "Paxtani kayta ishlash" M; 1978. -S. 148-163.

UO'K: 338.43

QISHLOQ XO'JALIGI RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI OPTIMALLASHTIRISH MODELI

Kojalepesov Sultanbay Serjanovich

sultanbay@umail.uz

*O 'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası, katta o'qituvchi, Nukus*

Kalit so'zlar: Optimallashtirish, model, minimallashtirish, maksimallashtirish, daromad, yer resurslari, chorvachilik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi yerlaridan optimal foydalanish, xarajatlarni minimallashtirish va daromadni maksimallashtirishning nazariy-uslubiy asoslari haqida masalalar keltirilgan.

THE MODEL OPTIMIZATION OF USING RESOURCES OF AGRICULTURE

Kojalepesov Sultanbay Serjanovich

sultanbay@umail.uz

*Nukus branch of Uzbekistan state institute of arts and culture, from the department "Social
gumanitarian discipline" senior lecturer, Nukus*

Keywords: Optimization, model, minimization, maximization, profit, land resources, livestock.

Abstract: This article raises issues of the theoretical and methodological foundations of optimal use of agricultural land, cost minimization and profit maximization.

Qishloq xo'jaligida optimallashtirish masalalarini yechishda chiziqli dasturlash masalalaridan keng qo'llanilgan holda turli tadqiqotchilar tomonidan turli muammolarni yechishda foydalanilmoqda. Ammo ko'pchilik holatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda muhim omil hisoblangan yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish masalalari ko'proq uchrab turadi. Shuni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ya'ni yer resurslaridan qanday nisbatlarda foydalanilganida maksimal daromadga erishi mumkinligini aniqlash bo'yicha chiziqli dasturlash masalasining qo'yilishi qarab chiqiamiz.

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni optimallashtirishda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi, chunki tuproq tarkibiga qarab mahsulot

yetishtirish unumdorligi hamda sarflanadigan xarajat miqdori o'zgaradi. Natijada ikki xil holat qarab chiqilishi mumkin ya'ni mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatni minimallashtirish yoki daromadni maksimallashtirish mumkin. Ushbu masalani qo'yilishini nazariy jihatdan ko'rib chiqamiz.

Modelning maqsad funksiyasi xarajatni minimallashtirishga qaratilgan:

$$f = \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} c_{ijk} x_{ijk} \rightarrow \min \quad (1)$$

Bu yerda: c_{ijk} - i hududdagi k maydonda j mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi (shartli birlikda/kg); x_{ijk} - i hududning k maydonidan olingan j mahsulotning hajmi (tonna).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qator cheklovlar mavjud bo'lib, bular yer maydoni, har bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarishning minimal darajasi, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi, o'g'it miqdori, ruxsat etilgan ishlab chiqarish xarajatlari. Ushbu keltirib o'tilgan cheklovlarni quyidagi ko'rinishda berib o'tish mumkin:

$$\begin{aligned} \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} \frac{x_{ijk}}{y_{ijk}} &\leq S_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} x_{ijk} &\geq V_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} k_{ijk} x_{ijk} &\leq K_j \\ \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} w_{mijk} x_{ijk} &\leq W_{mi} \\ \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} d_{ijk} x_{ijk} &\leq D \\ x_{ijk} &\geq 0 \end{aligned} \quad (2)$$

Bu yerda:

y_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinining hosildorligi (tonna/ga);

S_j - j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun mavjud ekin maydoni (ga);

V_j - j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirishning minimal hajmi (tonna);

k_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekin birligini yetishtirish uchun zarur mehnat sarfi (kishi soat/tonna);

K_j - j qishloq xo'jaligi ekinini ishlab chiqarish xarajatlarini cheklash (mln so'm);

w_{mijk} - m turdagi o'g'itning i hududda j ekin turi birligini yetishtirish uchun zarur miqdori (tonna/ga);

W_{mi} - m turdagi o'g'itning i hudud uchun ajratilgan limiti (tonnada);

d_{ijk} - i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini olish uchun xarajat (mln. so'm/tonna);

D - ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan xarajat miqdori (mln.so'm).

Yuqorida keltirib o'tilgan chiziqli dasturlash masalasi qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish xarajatlarini minimallashtirishda keng qo'llaniladi. Biroq qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishga tabiiy va iqlim o'zgarishlari ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ularni ham hisobga olishni talab qiladi. Chunki, ushbu omillar yetishtiriladigan mahsulot hosildorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Buni hisobga olish maqsadida ularning ehtimoliy qiymatlaridan foydalanadigan bo'lsak, bunda mazkur muammoni optimallashtirish modeli sifatida quyidagi shaklda yozilgan chiziqli stoxastik dasturlar muammosidan foydalanish lozim bo'ladi:

$$\begin{aligned} f = \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} (c_{ijk} + c'_{ijk}) x_{ijk} &\rightarrow \min \\ \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} \frac{x_{ijk}}{(y_{ijk} - y_{ijk}^p)} &\leq S_j \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
& \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} x_{ijk} \geq V_j - V_j^p \\
& \sum_{k \in K} \sum_{i \in I} (k_{ijk} + k_{ijk}^p) x_{ijk} \leq K_j \\
& \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} (w_{mijk} + w_{mijk}^p) x_{ijk} \leq W_{mi} \\
& \sum_{k \in K} \sum_{j \in J} \sum_{i \in I} (d_{ijk} + d_{ijk}^p) x_{ijk} \leq D \\
& x_{ijk} \geq 0
\end{aligned} \tag{3}$$

Ushbu modelda:

c_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlari sababli hosilning yo'qotilishi natijasida vujudga kelgan qo'shimcha xarajat;

y_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinining hosildorligini pasayish ko'rsatkichi;

V_j^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida j qishloq xo'jaligi ekinini ishlab chiqarishni yo'qotish;

k_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirishda qo'shimcha texnologik operatsiyalarni bajarish uchun zarur mehat resurslari;

w_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun o'g'it va o'simliklarni himoya qilish vositalariga qo'shimcha xarajatlar;


d_{ijk}^p - tabiiy va iqlim o'zgarishlarining p ehtimolligi sharoitida i hududning k maydonidagi j qishloq xo'jaligi ekinini yetishtirish uchun qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari.

Keltirib o'tilgan ko'rinishdagi optimallashtirish modellari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Chunki, optimallashtirish modellari murakkab jarayonlarni tushunish va ularning samarli yechimini izlab topish uchun eng kuchli vositalardan hisoblanadi. Shunday bo'lsada, real vaziyatlarda muammolarni hal qilish uchun mos modelni shakllantirish, to'g'ri cheklovlarni tanlab olish bilan bog'liq muammolar ushbu usuldan foydalanishni murakkablashtiradi.

Optimallashtirish masalasini to'g'ri shakllantirish va zaruriy yechimga ega bo'lishi uchun avvalo maqsad funksiyasini aniqlashtirish talab qilinadi. Undan keyin esa har bir o'zgaruvchi bo'yicha cheklovlar miqdorini aniqlash, har bir o'zgaruvchining ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan omillar me'yorlarini to'g'ri tanlash talab qilinadi. Bunda o'zgaruvchilar modeldagi boshqariladigan holatlarni ifodalasa, maqsad funksiyasi esa qaror qabul qiluvchining maqsadini o'zgaruvchilar funksiyasi sifatida o'lchaydi. Cheklovlarning asosiy vazifasi noma'lum bo'lgan o'zgaruvchilarning maksimal chegarasini matematik ifodasi sifatida qaraladi.

Ushbu optimallashtirish masalasini chorvachilik sohasiga qo'llash masalalariga to'xtalib o'tamiz. Chorvachilikda chiziqli dasturlashdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin, ya'ni mavjud yer maydonidan foydalangan holda maksimal daromad olish imkonini beradigan chorva tarkibini tanlash, chorvani oziqlantirish jarayonida xarajatlarni minimallashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Chorvani oziqlantirishda yuqori sifatga ega va eng kam xarajat sarflanadigan ratsionni tanlash masalasi ko'p qo'llanilgan optimallashtirish masalasidir. Chorvani minimal xarajat bilan oziqlantirish muammosining shakllantirilishini ko'rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Chorvachilikda oziqlantirish muammosi: chiziqli dasturlash modeli va energiyaning sarflanishi.

Dastlab oziqlantirish muammosi bilan bog'liq qator ko'rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Ya'ni xom ashyo miqdori hamda zaruriy ehtiyoj hajmi aniqlanishi va ularning mosligini ta'minlanishi talab qilinadi. Bunda fermer xo'jaligining asosiy maqsadi mavjud ehtiyojni qondirish uchun sarflanishi lozim bo'lgan xarajatni minimallashtirish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki aniqlangan miqdorlardan kelib chiqqan holda chiziqli dasturlash amalga oshiriladi, ya'ni ratsionni shakllantirishda foydalaniladigan xom ashyolar o'zgaruvchilar sifatida tanlab olinadi. Ozuqaviy ehtiyoj esa optimallashtirish masalasini yechishda cheklov vazifasini bajarib bersa, fermerning maqsadi optimallashtirishdagi maqsad funksiyasining asosini tashkil qiladi. Ushbu muammoning yechimi optimal hisoblanadi va eng kam xarajat bilan chorvani zaruriy ozuqa va energiya bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zhang C., Li X., Guo P and Huo Z 2021 Balancing irrigation planning and risk preference for sustainable irrigated agriculture: A fuzzy credibility-based optimization model with the Hurwicz criterion under uncertainty (Agricultural Water Management vol 2541); Ivanyo Y., Petrova S. and Polkovskaya M. 2020 Mathematical and information support of the program complex for planning of the harvesting of wild-growing products (Journal of Physics: Conference Series vol 1611(1))

2. Segura Marina & Maroto, Concepción & Ginestar, Concepción & García del Río, Baldomero. (2018). Optimization Models to Improve Estimations and Reduce Nitrogen Excretion from Livestock Production. Sustainability. 10. 2362. 10.3390/su10072362.

3. Freund JE (1994). Mathematical Statistics. Seventh edn. Prentice-Hall of India, Pte. Ltd., New Delhi.

4. Sauxanov J.K, Gabbarov S.N., “Chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlardan samarali foydalanishni takomillashtirish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani misolida”, ISBN 978-9910-03-044-4, Monografiya, Metodist Nshriyoti, 2023-y.

UDK 631.3(575.1)

**O‘RISH – TASHISH TEXNIKALARINI UZOQ MUDDATLI SAQLASHGA
TAYYORLASH TEXNOLOGIYASIGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI**

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dotsent J.Sh.Achilov

Orcid ID: 0009-0006-1456-102X

O‘qituvchilar T.N. Samandarov, U.M. Rahmanov

Nozimjonov.A.L, Bank ishi-24/01 talabasi

Email: achilovjamolidin@gmail.com

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE TOSHKENT FILIALI

Annotatsiya. G‘alla kombayn va yuk avtomobillarni saqlash ularni korroziyaga uchrashini oldini olish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda o‘rish-tashish guruhi hamda uning tarkibidagi g‘alla kombaynlari va yuk avtomobil vositalarining ratsional ko‘rsatkichlari va parametrlari, jumladan ularni soni va ish unumini uning texnik holatiga bog‘liq. Ushbu operatsiyalarni bajarish mashina saroyida saqlash qoidalari va ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha adabiyotlar tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, saqlash, mashina, korroziya, fermer xo‘jaliklari, agroklastlar, o‘rish-tashish, ish unumi, tahlil, adabiyot, texnik xizmat ko‘rsatish.

**ANALYSIS OF THE LITERATURE ON THE PREPOSIN HORVESTING
TECHNOLOGY PREPARING HARVESTING AND TRANSPORTATION
EQUIPMENT FOR LONG-TERM STORAGE**

Achilov J. Sh

Doctor of philosophy (PhD) in technical sciences, Associate Professor of

Teachers T.N. Samandarov, Rakhmanov U. M

Nozimjonov.A.L, M Banking-24/01 of student

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE TOSHKENT BRANCH

Annotatsion. Storing and preventing corrosion of grain harvesters and trucks is an important task. When performing these tasks, the rational indicators and parameters of the harvesting and transportation group and the grain harvesters and trucks included in it, including their number and productivity, depend on its technical condition. An analysis of the literature on the rules for storing these operations in the machine yard and carrying out repair work was conducted.

Keywords: agriculture, storage, machinery, corrosion, farms, agro-clusters, harvesting and transportation, labor productivity, analysis, literature, maintenance.

Kirish. Jahonda ko‘plab mamlakatlarda g‘alla o‘rish – tashish tizimi texnika vositalarini saqlash va undan foydalanish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. G‘alla hosilini yig‘ishtirib olish guruh tarkibidagi g‘alla kombaynlari va yuk avtomobillarini g‘alla o‘rimi mavsumidan keyin saqlash parametrlarini asoslash muhim vazifalaridan biridir.

Shu jihatdan jahon miqyosida o‘rish – tashish tizimi texnika vositalarini saqlash oldidan TS ko‘rsatib mashina saroyida ochiq va yopiq saqlashni tashkil etish bo‘yicha adabiyotlar tahlili qilingan.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Mashinalarni saqlash, mashina-traktor parkini ishlatish texnologik jarayonining eng muhim elementlaridan biridir. Mavsumlar oralig‘ida texnikaning saqlanishini ta‘minlash uchun. Tashkiliy tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- mashinalarni saqlash va korroziyaga qarshi himoya qilish uchun zarur baza yaratish;

- konservatsiyalash va saqlash bo'yicha ish o'rinlarini zarur mexanizatsiya vositalari va asbob-uskunalar bilan butlash, ularni ishga tayyorlash, moylash va konservatsiyalash materiallari bilan ta'minlash;

- yong'in xavfsizligini nazorat qilish va texnikani saqlashda band bo'lgan xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish.

Texnologik tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- mashinalarni tozalash va yuvish;

- agregatlar va mashinalarning alohida qismlarini konservatsiya qilish;

- mashinalarni saqlash joylariga yetkazib berish va ularni tagliklarga o'rnatish;

- saqlash vaqtida texnik xizmat ko'rsatish;

- mashinalarni saqlashdan chiqarish va konservatsiyadan chiqarish [2].

Ekspluatatsion ishonchlilikni saqlash muammosini takomillashtirish, yangi tashkiliy va texnologik yo'llar va yechimlarni izlash, mashinalarning yuqori saqlanuvchanligini va korroziyon yeyilish, eskirishdan himoya qilishni ta'minlaydigan mehnat va moddiy xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan yangi texnologik jarayonlar va mexanizatsiya vositalarini tadqiq qilish va ishlab chiqish bo'yicha muntazam ishlarni o'z ichiga oladi [3].

Tadqiqot bo'yicha adabiyotlar tahlili. Dunyo omillarining agressiv ta'siriga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqishga I.Rozenfeld, N.Tomashov, Ya.Kolotirkin, N.Juk, Yu.Shexter, Yu.Evans, F.Todd, G.Ulig, M.Shluger va boshqa olimlarning ishlari bag'ishlangan. A. Gerasimenko, A. Gureev, Ye. Lyublinskiy, M. Severnev, A. Severniy va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarining katta qismini texnikalarni (shu jumladan qishloq xo'jaligi) saqlashga tayyorlash, saqlash texnologik jarayonlarini mexanizatsiyalash vositalarini ishlab chiqishga va xususan, ularni korroziyaga qarshi himoya qilishni tashkil etishga bag'ishlaganlar [4].

Olimlarning tadqiqodlarida agraklaster va fermer xo'jaliklarida g'alla o'rim-yig'im mashinalarini to'g'ri, standartlar talablari asosida saqlash sharoitlarining yetarli darajada tashkil etilmagani texnika xavfsizligi bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarni olishga imkon bermayapti. Bu esa undan foydalanish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, birinchi navbatda, dala ishlari mavsumi va saqlashdan keyin mashinalarni yuvish va tozalash ishlarini olib borish kerak, bu operatsiyalarsiz keyingi mavsumda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash mumkin emas. Ishlaydigan yuzalar organik va mineral kelib chiqadigan chang zarralari bilan ifloslanadi. Bu esa muddatining va o'tishi oshiradi va mashinalarning xizmat muddatini qisqartiradi. Sarlavha, g'altak, yig'ish va yonilg'i kameraning ishchi qismlarida o'simlik qoldiqlari atrof-muhit namligi bilan birgalikda korroziya jarayonlarini tezlashtiradigan, qismlarning asinma qarshiligini pasaytiradigan va fizik-mexanik xususiyatlarning yo'qolishiga olib keladigan reagentlarga aylanadi. Bunkerda, paluba va shneklardagi don massasining qoldiqlari namlikni to'plagan holda, qoplamani buzadi va korroziya jarayonini tezlashtiradi. Bundan tashqari, zarur tayyorgarlik ishlari olib borilmasdan, g'alla yig'ish mashinalarining texnik holati parametrlarining o'zgarishi intensivligi ish sharoitida ushbu parametrlarning o'zgarishi intensivligidan bir necha baravar yuqori bo'ladi. Bu omillarning barchasi mashinalarning xizmat qilish muddatini qisqartirishga olib keladi[5].

Ochiq atmosfera sharoitida qishloq xo'jaligi texnikasini uzoq muddat saqlash davrida mashina detallarining uchma-uch va payvand birikmalari ekspluatatsiya jarayonida hosil bo'ladigan birikmalar oralig'ida doimiy namlik to'planishi natijasida buzuvchi iqlim omillarining eng jadal ta'siriga uchraydi.

Shu sababli, korroziyon-eskirish yemirilishi bilan bog'liq texnik nosozliklarning 80% gacha sodir bo'ladi. Bu borada mashina detallari birikmalariga suv va havoning kirishini to'xtatish hisobiga ularning korroziyon yemirilishini oldini olish muammosi qo'yilmoqda[6].

Ushbu ish mashinalar birikmalarini konservatsiyalashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va uni qo'llash uchun mexanizatsiya vositasini yaratish orqali qishloq xo'jaligi texnikalarini korroziyaga qarshi himoyalashning mavjud tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Ushbu ilmiy tadqiqotining maqsadi qishloq xo'jaligi texnikalarini uzoq muddatli saqlash davrida korroziyaga qarshi himoyalash samaradorligini ikki qatlamli himoya qoplamasini tanlash va uni qo'llash qurilmasini yaratish orqali oshirishdan iborat[7].

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada saqlash davrida mashina detallari birikmalarining korroziyon yemirilishining fizik-kimyoviy jarayonlari bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot davomida tegishli standartlar bilan tartibga solingan va ushbu maqsadlar uchun yechimi alohida ishlab chiqilgan usullardan foydalanildi. Tadqiqotlar zamonaviy ilmiy asbob-uskunalar va qurilmalar yordamida amalga oshirildi. O'rish – tashish tizimi tarkibidagi texnikalarni saqlashni to'g'ri tashkil etish va undan foydalanish darajasini oshirish nazariy eksperiment asoslari bo'yicha, adabiyotlar tahlil qilindi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Синицин В.В. Подбор и применение пластичных смазок. М.: Химия, 1974.
2. Тошболтаев М., Рустамов Р., Қобулов М. Қишлоқ хўжалигида худудий фирмавий техник сервис системаси. (Монография). – Т.:Фан, 2007. – 182 б.
3. Тошболтаев М., Рустамов Р., Сейтимбетова З. Математические и статистические модели системы оказания фирменного технического сервиса сельскохозяйственным машинам. Ташкент: “Фан”. 2011. 156 с.
4. Тошболтаев М., Рустамов Р. Теоретико-статистические принципы совершенствования системы оказания регионального фирменного технического сервиса сельскохозяйственным машинам. Ташкент: “Fan va technology”. 2018. 269 с.
5. А.Е.Северный и др. Справочник по хранению сельскохозяйственной техники – М.: Колос, 1984.
6. <http://www.dissercat.com/content/razrabotka-ustanovki-dlya-dvukhsloinoi-konservatsii-selskokhozyaistvennoi-tekhniki-i-obosnov>
7. А.В.Моршин, А.Е. Северный. Хранение сельскохозяйственной техники – М.: Колос, 1976.

UO'K :687.3

TRIKOTAJ MATOLARINING FIZIK-MEXANIK VA STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI, KENG QAMROVLI TAHLILI

Shodmonova Mijgona Salimovna

Buxoro davlat texnika universiteti

tayanch doktorant,

shodmonovamijgona27@gmail.com

Kalit so'zlar: Trikotaj, ilmoqli tuzilma, fizik-mexanik xususiyatlar, strukturaviy xususiyatlar, ko'ndalang trikotaj, to'quv trikotaj, cho'ziluvchanlik, elastiklik, havo o'tkazuvchanligi, issiqlik izolyatsiyasi, mato sifati.

Annotatsiya: Ushbu maqola trikotaj matolarining fizik-mexanik va strukturaviy xususiyatlarini atroflicha tahlil qiladi. Maqolada trikotajning ilmoqli tuzilishi, asosiy to'qilish turlari va ularning mato sifatiga ta'siri batafsil yoritilgan. Shuningdek, matoning cho'ziluvchanligi, elastikligi, yumshoqligi, havo o'tkazuvchanligi, issiqlik izolyatsiyasi kabi muhim fizik-mexanik ko'rsatkichlari, hamda ularning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi. Maqola trikotaj matolarining noyob afzalliklari va mavjud kamchiliklarini ochib berib, ularni takomillashtirish yo'llariga e'tibor qaratadi.

PHYSICAL AND MECHANICAL AND STRUCTURAL PROPERTIES OF KNITTED FABRICS, COMPREHENSIVE ANALYSIS

Shodmonova Mijgona Salimovna

Bukhara State Technical University,

base doctoral student

shodmonovamijgona27@gmail.com

Keywords: Knitwear, loop structure, physical-mechanical properties, structural properties, weft knit, warp knit, extensibility, elasticity, air permeability, thermal insulation, fabric quality.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the physical-mechanical and structural properties of knitted fabrics. It elaborates on the loop structure of knitwear, fundamental knitting types (weft and warp knit), and their impact on fabric quality. Furthermore, crucial physical-mechanical indicators such as the fabric's extensibility, elasticity, softness, air permeability, and thermal insulation are discussed, along with their practical significance. The article highlights the unique advantages and existing drawbacks of knitted fabrics, focusing on avenues for their improvement.

Kirish

To'qimachilik sanoatining eng ko'zga ko'rinarli va innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lgan trikotaj matolar, o'zining noyob ilmoqli tuzilishi tufayli keng qo'llaniladi. Ushbu matolar ipning bir-biriga bog'lanib, halqalar hosil qilishi orqali yaratiladi, bu esa ularga to'qima matolardan keskin farq qiluvchi xususiyatlarni beradi. Trikotaj buyumlari kundalik kiyim-kechaklardan tortib, texnik matolargacha bo'lgan keng assortimentni qamrab oladi. Ularning qulayligi, ergonomik xususiyatlari va estetik jozibasi iste'molchilar orasida alohida e'tiborga sazovor qiladi. Trikotaj matolarining asosiy strukturaviy va fizik-mexanik xususiyatlarini chuqur tahlil qilinganda, ularning to'qimachilik sanoatidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Trikotaj matolarining strukturaviy xususiyatlari

Trikotaj matoning o'ziga xosligi uning ilmoqli tuzilishida yotadi. Har bir halqa o'zidan oldingi va keyingi ilmoqlar bilan bog'lanib, uzluksiz zanjirni hosil qiladi. Ilmoqlarning o'zaro joylashuvi va bog'lanish usuli matoning makro va mikro tuzilishini, shuningdek, uning xususiyatlarini belgilaydi. Trikotaj to'qilishining ikki asosiy turi mavjud: ko'ndalang trikotaj va to'quv trikotaj.

Ko'ndalang trikotaj eng keng tarqalgan va oddiy to'qilish usuli bo'lib, bunda ip mato eni bo'ylab gorizontall ravishda bir qatordan ikkinchi qatorga o'tib, ilmoq hosil qiladi. Bitta ip butun mato qatorini to'qishi mumkin. Ushbu turdagi trikotajga futbol kalar, sviterlar, paypoqlar va boshqa turli aksessuarlar kiradi. Ko'ndalang trikotajning o'ziga xos xususiyatlari:

Yuqori cho'ziluvchanlik: Halqalarning erkin harakatlanishi tufayli mato barcha yo'nalishlarda yaxshi cho'ziladi.

Yumshoqlik va moslashuvchanlik: Bu xususiyatlar kiyimning tanaga yaxshi o'rnatishini ta'minlaydi.


Kamchiliklari: Matoning bir joyidan ip uzilsa, butun qator bo'ylab ilmoqlar ochilib ketishi mumkin, bu matoning buzilishiga olib keladi. Chunki mato bir ipdan hosil bo'lgan trikotaj mato.

To'quv trikotaj. To'quv trikotajda bir nechta iplar bir vaqtning o'zida mato uzunligi ya'ni o'rish yo'nalishi bo'ylab ishlatiladi. Har bir ip o'z halqasini hosil qiladi va yonma-yon joylashgan ilmoqlar bilan bog'lanadi. Bu usul yordamida ichki kiyimlar, sport kiyimlari, dantel va astar matolari ishlab chiqariladi. Xususiyatlari:

Yuqori barqarorlik: ko'ndalang trikotajga nisbatan kamroq cho'ziluvchan bo'lib, shaklini yaxshi saqlaydi.

Kam g'ijimlanish: Matoning strukturasi mustahkamligi tufayli kamroq g'ijimlanadi.

Kamchiliklarga chidamlilik: Bir ilmoq shikastlansa ham, matoning butunlay tarqalib ketishi ehtimoli past bo'ladi, chunki har bir ip mustaqil ravishda bog'lanadi.



1-rasm a) bir ipli trikotaj to'qilish, b) ikki va undan yuqori ipli trikotaj to'qilish
Boshqa strukturaviy omillar

Ilmoq zichligi: Matoning har bir santimetrdagi ilmoqlar soni uning zichligi va og'irligini belgilaydi. Zich ilmoqli matolar mustahkamroq va kamroq cho'ziluvchan bo'ladi.

Iplarning turi va yo'g'onligi: Paxta, jun, ipak, sintetik tolalar (polyester, neylon,) va ularning aralashmalari matoning xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yupqa iplar nafisroq va og'irligi jihatdan ancha yengilroq mato hosil qilsa, yo'g'on iplar qalinroq va issiqroq mato beradi.

Trikotaj matolarining fizik-mexanik xususiyatlari ularning iste'mol xususiyatlarini, jumladan, qulayligi, chidamliligi va tashqi ko'rinishini belgilaydi.

Trikotaj matolarining eng muhim xususiyati bu – ularning yuqori cho'ziluvchanligi va elastikligidir. Bu xususiyatlar ilmoqlarning deformatsiyalanishi va ipning bir-biriga nisbatan siljishi hisobiga yuzaga keladi. Kiyim kiyishda matoning tanaga moslashishi, harakat erkinligi va yuqori qulaylikni ta'minlaydi. Ayniqsa, sport kiyimlari va ichki kiyimlarda bu xususiyatlar juda muhim sanaladi.

Yumshoqlik va yengillik. Trikotaj matolarining ilmoqli tuzilishi va ularning nisbatan past zichligi ularga yumshoqlik va yengillik bag'ishlaydi. Bu esa kiyimning teriga yoqimli bo'lishini va uzoq muddat kiyishda qulaylik yaratishini ta'minlaydi.

Havo va namlik o'tkazuvchanligi. Ilmoqli struktura mato ichida ko'p havo bo'shliqlari hosil qiladi, bu esa trikotaj matolariga yaxshi havo o'tkazuvchanligini beradi. Natijada, tana terisi nafas oladi, namlik bug'lanadi va kiyish jarayonida qulay mikroiklim saqlanadi. Namlikni tez shimib, tez bug'lantirish qobiliyati ham ko'plab trikotaj turlari uchun tegishlidir.

Issiqlik izolyatsiyasi. Matoning ichidagi havo bo'shliqlari tufayli trikotaj matolar yaxshi issiqlik izolyatsiyasi xususiyatiga ega. Havo yomon issiqlik o'tkazgich bo'lgani sababli, mato sovuq havoni ichkariga o'tkazmaydi va tananing issiqligini saqlaydi. Bu xususiyat qishki kiyimlar va sport kiyimlarida yani bular termokiyimlar deb ham yuritiladi.

G'ijimlanishga chidamlilik

Trikotaj matolar to'qima matolarga nisbatan kamroq g'ijimlanadi. Buning sababi ilmoqlarning deformatsiyalanish qobiliyati va ularning asl holatiga qaytishidir.

Xulosa

Trikotaj matolar o'zining noyob ilmoqli tuzilishi tufayli o'ziga xos va qimmatli fizik-mexanik xususiyatlarga ega. Yuqori cho'ziluvchanlik, elastiklik, yumshoqlik, havo o'tkazuvchanligi va issiqlik izolyatsiyasi kabi afzalliklari ularning keng qo'llanilishini ta'minlaydi. Biroq, pilling hosil bo'lishi va dimensionsional barqarorlik kabi muammolar mavjud bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlar va texnologik takomillashtirishlar orqali bartaraf etilishi lozim. Trikotaj ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish, yangi tolalar va pardozlash usullarini joriy etish orqali ushbu matolarning sifatini yanada oshirish va ulardan foydalanish sohasini kengaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ванникова А.А. Основы теории и технологии трикотажа. – Иваново: ИВГПУ, 2012.
2. Talimova, N. Textile Materials Science. – Tashkent: National University of Uzbekistan, 2018.

3. Sh.P. Shumkarova, T.A. Ochilov “Tikuv buyumlari materialshunosligi” o’quv qo’llanma Jizzax-2022
4. Temirova M., Qodirov T. “Charm va mo’yna texnologiyasi” O’quv qo’llanma - 2005
5. Ruzmatov B.Sh., Qodirov Sh.U. “Charm va mo’yna xom ashyolariga dastlabki ishlov berish” O’quv qo’llanma Toshkent - 2023
6. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). Production technology from natural power on the full-termological technology. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 44-48).
7. 6. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). An analysis of art decoration used in sewing items. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 41-44).

Internet manbaalar

8. <http://www.ziyonet.uz/>
9. www.wearefur.com
10. <https://www.fureurope.eu/>
11. <https://www.unep.org/publications-data>

UO’K:687.8

**MO’YNA SANOATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA CHIQUINDI
MO’YNALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Shodmonova Mijgona Salimovna.

Buxoro davlat texnika universiteti,
tayanch doktorant

shodmonovamijgona27@gmail.com

Kalit so’zlar: mo’yna sanoati, rivojlanish bosqichlari, chiqindi mo’yna, qayta ishlash, barqarorlik, ekologiya, mo’yna texnologiyasi, resurslardan foydalanish.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mo’yna sanoatining tarixi, rivojlanishi, bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada mo’yna mahsulotlariga bo’lgan ijtimoiy va iqtisodiy talablarning o’zgarishi, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi keng yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy mo’yna sanoatida duch kelayotgan ekologik muammolar, chiqindi mo’ynalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengroq tadbiiq qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Unda chiqindi mo’ynalardan kichik aksessuarlar, innovatsion to’qimachilik materiallarini yaratish, qishloq xo’jaligida o’g’it sifatida qo’llash hamda biogaz ishlab chiqarish kabi turli yo’nalishlar ko’rib chiqiladi. Maqola chiqindi mo’ynani qayta ishlash orqali resurslarni tejash, atrof-muhitni himoya qilish va sanoatda yangi iqtisodiy qiymat yaratishning ahamiyati haqida bevosita ta’kidlanadi.

**STAGES OF DEVELOPMENT OF THE FUR INDUSTRY AND
OPPORTUNITIES FOR THE USE OF WASTE FUR**

Shodmonova Mijgona Salimovna

Bukhara State Technical University,
base doctoral student.

shodmonovamijgona27@gmail.com

Keywords: fur industry, development stages, fur waste, recycling, sustainability, ecology, fur technology, resource utilization

Abstract. This article thoroughly analyzes the historical development stages of the fur industry, examining its evolutionary process from primitive times to the Industrial Revolution and the modern era. It comprehensively covers the changes in social and economic demands for fur products, as well as advancements in production technologies. Furthermore, special attention is given to the opportunities for utilizing fur waste in the context of the ecological and ethical challenges faced by the contemporary fur industry. Various applications for fur waste are explored,

including the creation of small accessories, innovative textile materials (insulation, composite fibers), use as fertilizer in agriculture, and biogas production. The article emphasizes the importance of recycling fur waste to conserve resources, protect the environment, and create new economic value within the industry.

Mo'yna – qadim zamonlardan buyon inson hayotida muhim o'rin tutgan, nafaqat sovuqdan himoyalovchi, balki ijtimoiy maqom va yuqori martabali insonlarning ramzi bo'lib xizmat qilgan noyob materialdir. Uning sanoat sohasidagi rivojlanishi asrlar davomida texnologik yutuqlar, iqtisodiy o'zgarishlar va turli ijtimoiy talablarga moslashgan holda kechdi. Hozirgi zamonda mo'yna sanoati global ekologik muammolar va barqaror rivojlanish tamoyillari sharoitida o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ayniqsa chiqindi mo'ynalardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mo'yna sanoatining evolyutsiyasini turli bosqichlarga bo'lish mumkin. Bu bosqichlarni ya'ni mo'yna sanoatining rivojlanishini shartli ravishda bir necha asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlar va yangiliklar bilan ajralib turadi:

❖ Ibtidoiy davr va an'anaviy ovchilik davri: bu davrda mo'yna asosan tirik qolish vositasi bo'lgan. Odamlar sovuq ob havoda omon qolish uchun ovchilik bilan shug'ullanganlar va ovlangan hayvonlarning mo'ynasidan turli ust-bosh, yashash uchun boshpana va hatto uy-ro'zg'or buyumlari yasashgan. Mo'ynaga ishlov berish usullari bu davrda juda oddiy bo'lib, asosan terini tozalash, tuzlash va quritish orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonlar bilimlarning avloddan avlodga o'tishi orqali takomillashgan. Mo'yna bu davrda tovar almashish uchun ham ishlatilgan, lekin uning asosiy qiymati amaliy ahamiyatida bo'lgan.

❖ Mo'yna savdosi davri: bu davr buyuk geografik kashfiyotlar davri deb ham aytiladi va bu mo'yna savdosiga yangi inqilob berdi. Shimoliy Amerika, Skandinaviya va Sibir mintaqalarining boy mo'yna resurslari Yevropa bozorlariga yetib keldi. Bu davrda mo'yna savdo yo'llari shakllandi va London, Parij hamda Germaniyaning Leyptsig kabi shaharlar mo'yna bozorining markazlariga aylandi.

Kanadada mo'yna savdosi: Shimoliy Amerika bo'ylab mo'yna savdosi, ayniqsa qunduz mo'ynasi uchun, Hudzon ko'rfazi kompaniyasi kabi yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy o'zgarishlarga ham olib keldi.

Sibirning mo'yna boyligi: Rossiya imperiyasining Sibirga kengayishi ham asosan mo'yna resurslari bilan bog'liq edi.

Bu davrda mo'ynaga ishlov berish texnologiyalari ancha takomillashdi: teri oshlash va bo'yash usullari rivojlandi, bu esa mo'ynaning chidamliligi va estetik xususiyatlarini oshirdi. Mo'yna nafaqat kiyim, balki status belgisi sifatida ham keng tarqaldi.

❖ Sanoatlashgan ishlab chiqarish va mo'yna fermalari: XX asr boshlarida sanoat inqilobining ta'siri mo'yna sanoatini ham chetlab o'tmadi. Mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish paydo bo'ldi, bu esa o'z navbatida mo'yna buyumlarini tezroq va arzonroq ishlab chiqarish imkonini berdi.

Mo'yna fermalari: Yovvoyi hayvonlarga bo'lgan talabning ortishi va ularning mo'ynalaridan foydalanish keyinchalik hayvonlarni sonining kamayishiga olib keldi, bu borada mo'yna fermalarining tashkil etilishi muhim bosqich bo'lib qoldi. Norka, tulki kabi hayvonlar maxsus fermalarda o'stirilgan. Bu yovvoyi hayvonlar populyatsiyasini saqlashga yordam bergan bo'lsa-da, biroq keyinchalik hayvonlarning farovonligi borasidagi turli bahs-munozaralarni o'rta qoldirdi.

Yangi ishlov berish texnologiyalari: kimyoviy ishlov berish usullari takomillashdi, mo'ynaga yumshoqlik, porloqlik va turli serjilo ranglar berish imkoniyatlari kengaydi. Mo'ynadan qilingan paltolar, bosh kiyimlar va boshqa aksessuarlar keng tarqaldi.

❖ Barqarorlikka intilish va bu borada paydo bo'lgan to'siqlar: XXI asrda mo'yna sanoati misli ko'rilmagan muammolar bilan yuzlashmoqda. Ekologik (atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqlik), hayvonlar huquqlarini himoya qilish harakatlari va iste'molchilarning o'zgaruvchan didi sanoatni tubdan o'zgartirishga undamoqda.

Axloqiy va ekologik bosim: Ko‘plab dizaynerlar va brendlar tabiiy mo‘ynadan voz kechmoqda. Bu esa sun‘iy mo‘yna ishlab chiqarishining keskin o‘shishiga olib keldi.

Barqaror ishlab chiqarish: Sanoat endi nafaqat mahsulot sifatiga, balki uning ishlab chiqarish jarayonining ekologik iziga ham e‘tibor qaratmoqda. Bu chiqindisiz texnologiyalar, kam energiya sarfi va kimyoviy moddalardan minimal foydalanish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Chiqindi mo‘ynalardan foydalanish imkoniyatlari:

Mo‘yna sanoatida chiqindilar nafaqat ishlab chiqarish jarayonida, balki eskirgan mo‘yna buyumlaridan ham hosil bo‘ladi. Bu chiqindilarni qayta ishlash ekologik muammolarni kamaytiradi va yangi qiymat zanjirini yaratadi.

Yuqori qiymatli qo‘shimcha mahsulotlar yaratish:

Dizaynerlik aksessuarlari: Kichik mo‘yna bo‘laklari yuqori estetik qiymatga ega bo‘lgan noyob buyumlarga aylantirilishi mumkin. Bularga sumkalar uchun bezaklar, shlyapa, qo‘lqop bezaklari, yoqalar, manjetlar va hatto soch aksessuarlari ham kiradi. Dizaynerlar turli rang va teksturadagi mo‘yna parchalarini birlashtirib, kreativ va eksklyuziv mahsulotlar yaratishlari mumkin.

Uy dekoratsiyasi:

Mo‘yna chiqindilari gilamchalar, yostiq g‘iloflari, mebel qoplamalari elementlari kabi uy dekoratsiyasi uchun ishlatilishi mumkin. Bu interyerga hashamat va ko‘zni quvnatadigan iliqlik bag‘ishlaydi.

Qayta ishlash:

Eskirgan mo‘yna paltolar va boshqa buyumlar yangi, zamonaviy dizayndagi kiyimlar, masalan, kurtkalar, jiletlar yoki aksessuarlar qilib qayta tiklanishi mumkin. Bu buyumning umrini uzaytiradi va iste‘molchilik madaniyatida barqarorlikga urg‘u beradi.

Mo‘yna tolalaridan innovatsion materiallar yaratish

Mo‘yna asosan keratinga boy oqsilli tolalardan iborat bo‘lib, bu unga maxsus xususiyatlar beradi. Chiqindi mo‘ynani parchalash va qayta ishlash orqali yangi turdagi materiallar olish mumkin: Bularga to‘qimachilik uchun aralash tolalar, maydalangan mo‘yna tolalarini jun, paxta yoki sintetik tolalar bilan aralashtirib, yangi turdagi iplar va matolar ishlab chiqarish mumkin. Bu matolar tabiiy mo‘ynaning issiqlikni saqlash xususiyatini saqlab qoladi va ularga noyob tekstura beradi. Ayniqsa, sport kiyimlari yoki yuqori unumdorlik talab qilinadigan to‘qimachilik mahsulotlarida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Izolyatsiya materiallari: Mo‘ynaning ajoyib issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlari tufayli, maydalangan mo‘yna chiqindilarini qurilish sanoatida ekologik toza izolyatsiya panellari yoki ovoz yutuvchi materiallar sifatida ishlatish mumkin. Bu tabiiy, nafas oluvchi va biologik parchalanuvchi muqobil hisoblanadi.

Kompozit materiallar: Mo‘yna tolalari polimer matritsalar bilan birgalikda kuchaytirilgan kompozit materiallar yaratishda qo‘llanilishi mumkin. Bunday materiallar avtomobilsozlikda (ichki qoplama), mebel sanoatida yoki hatto qadoqlash materiallarida foydalanish imkoniyatiga ega.

Geotekstil va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari: Mo‘yna tolalaridan tuproq eroziyasini nazorat qilish uchun geotekstil materiallar yoki o‘simliklar uchun o‘g‘itlar tayyorlash mumkin. Mo‘yna tarkibidagi azot va boshqa mikroelementlar tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Biologik aktiv moddalar: Mo‘yna tarkibidagi keratin va boshqa oqsillardan gidroliz yo‘li bilan aminokislotalar, peptidlar kabi biologik aktiv moddalar olish mumkin. Bu moddalar kosmetika, farmatsevtika yoki oziq-ovqat qo‘shimchalari sanoatida foydalanish imkonini beradi.

Xulosa

Mo‘yna sanoati uzoq tarixga ega bo‘lib, doimiy ravishda o‘zgarib borgan. Bugungi kunda, barqarorlik va ekologik muvozanatsizlik sharoitida, chiqindi mo‘ynalardan samarali foydalanish nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga, balki iqtisodiy jihatdan yangi imkoniyatlarni yaratishga ham xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ilmiy tadqiqotlarni olib borish orqali mo‘yna chiqindilarini yuqori qiymatli mahsulotlarga aylantirish, resurslardan oqilona foydalanish va sanoatning kelajagini yanada barqaror qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. (Bu kitob mamlakatimizning umumiy iqtisodiy rivojlanishi va sanoatga oid yo‘nalishlari bo‘yicha kontekst yaratishi mumkin).
2. Petrova L.I. Технология мехового производства. – Moskva: 1987.
3. Kanits L. Furs: A Global History. – London: Reaktion Books, 2017.
4. Turovets A.I., Solovyov A.N. Основы технологии кожи и меха. – Moskva: Legprombytizdat, 1986. (Teri va mo‘ynaga ishlov berishning fundamental asoslari).
5. Chernysheva N.P. Переработка вторичного сырья в легкой промышленности. – Moskva: Legprombytizdat,. (Yengil sanoatda ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash bo‘yicha umumiy ma’lumotlar berishi mumkin).
6. Xoliqov A.A. O‘zbekistonda mo‘yna sanoatini rivojlantirish istiqbollari. – "Yengil sanoat muammolari" ilmiy-texnik jurnal.
7. Smirnova E.V. Инновационные подходы к переработке пушно-мехового сырья. – "Tekhnologiya i dizayn" ilmiy jurnal.
8. Jones R., White M. Sustainable Practices in the Fur Industry: A Review of Waste Utilization. – Journal of Sustainable Textiles, (Mo‘yna sanoatida chiqindilardan foydalanish bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar).
9. A.B. Olimov, Z.F. G‘aniyeva. Mo‘yna sanoati chiqindilarini qayta ishlashning ekologik va iqtisodiy samaradorligi. – "Texnika fanlari va texnologiyalar" ilmiy jurnal,).
10. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). Production technology from natural power on the full-termological technology. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 44-48).
11. 6. Temirova, G. I., & Tashpulatov, S. S. (2018). An analysis of art decoration used in sewing items. In The latest research in modern science: experience, traditions and innovations (pp. 41-44).

Internet manbalari:

12. <http://www.ziyonet.uz/>
11. www.wearefur.com
12. <https://www.fureurope.eu/>
13. <https://www.unep.org/publications-data>

УДК: 631.675.2

ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ КОРРЕКТИРОВКИ ПЛАНОВ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В ХОЗЯЙСТВАХ

Темиров Рустам Уктам угли,

*“Мелиорация и орошение сельское хозяйство” специализация базовый докторант
(Ph.D.), Бухарский Государственный Технический Университет
электронная почта: rutemirov0822@gmail.com*

Аннотация. В данной статье представлены принципы и методы оперативной корректировки планов водопользования в хозяйстве и результаты исследований по существующему техническому уровню ирригационных систем и системы оперативного прогнозирования дефицита влаги.

Ключевые слова: площадь фермы, дефицит влаги, режим полива, продолжительность полива, норма полива, расход воды, фильтрация, план водопользования, циркуляция воды, атмосферный жир, критическая влажность.

PRINCIPLES AND METHODS OF OPERATIONAL ADJUSTMENT OF WATER USE PLANS IN FARMS

Temirov Rustam Uktam ugli, "Land reclamation and irrigation agriculture" specialty base doctoral student (Ph.D.), Bukhara State Technical University

Abstract. This article presents the principles and methods of operational adjustment of water use plans in agriculture and the results of research on the existing technical level of irrigation systems and the system of operational forecasting of moisture deficiency.

Keywords: farm area, moisture deficiency, irrigation regime, duration of irrigation, irrigation rate, water consumption, filtration, water use plan, water circulation, atmospheric fat, critical humidity.

Введение. Указ Президента Республики Узбекистан от 17 июня 2019 года № ПФ-5742 «о мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве», постановления Правительства Республики Узбекистан от 5 января 2024 года № ПФ-5 «О мерах по совершенствованию системы управления водными ресурсами и повышению эффективности использования водных ресурсов в нижнем звене» повышение эффективности водопользования в целях реализации задач, установленных другими нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности, доказательством этого является реализация задач, поставленных в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 9 февраля 2024 года № ВМ-79 О мерах по организации деятельности государственных учреждений "служба водоснабжения" в развитии научно-исследовательских работ и совершенствованию внедрения научных разработок в практику.

Глобальное изменение климата оказывает значительное влияние на нехватку воды. В рейтинге стран, страдающих от водного стресса, опубликованном Институтом мировых ресурсов (World Resource Institute), Узбекистан входит в число 25 стран, подверженных водному стрессу, с индексом водного стресса 3,82 из 164 стран. В то время как среднемировая обеспеченность водой на душу населения составляет 24 600 м³/чел., Узбекистан является одной из стран, где наблюдается дефицит воды, с показателем 1457 м³/чел. Сегодня в нашей республике растет численность населения (по состоянию на 2025 года (37 млн. 543 тыс. человек)), вместе с ростом населения растет и спрос на сельскохозяйственную продукцию, но водные ресурсы из года в год сокращаются. В такой ситуации одним из актуальных вопросов на сегодняшний день является обеспечение растущей потребности сокращающимся ресурсом.

Цель исследования. Повышение эффективности использования водно-энергетических ресурсов в ирригационных системах на основе теоретического обоснования и развития информационных технологий планирования водопользования и оперативного управления водораспределением.

Стили исследования. Теоретические исследования проводились с использованием методов моделирования и математического моделирования, системного анализа, теории оптимального решения, теории подобия для обобщения решений систем уравнений Сен-Венана на основе современных информационных технологий. Полевые исследования проводились с использованием современных стандартных методов и соответствующего оборудования, используемых в мелиоративной промышленности. Экспериментальные данные обрабатывались с помощью математической статистики.

Теоретическое и практическое значение исследования. Он заключается в научном обосновании регулярности функционирования ирригационных систем. Установлено, что проектирование ирригационных систем представляет собой сложные природно-технические объекты, жизненный цикл которых обусловлен общими закономерностями развития техники и технических объектов. Это позволило обосновать их основную подсистему-подсистему взаимодействия с природной средой. Доказано, что ирригационные системы обладают свойствами "больших" или "сложных систем", а потому применяются методы системного

анализа, обеспечивающие поиск оптимальных решений в управлении технологическими процессами.

Практическая значимость заключается в том, что исследования завершаются разработкой конкретных приемов, технологий, практических рекомендаций, функциональных структур, алгоритмов, баз данных, компьютерных программ значительно повышают технический уровень ирригационных систем, хорошее амелиативное состояние орошаемых земель, экономию водных и энергетических ресурсов, нормальную экологическую обстановку в сельскохозяйственных ландшафтах.

Предмет исследования. Технологические процессы составления и реализации планов водопользования для ирригационных систем, информационные технологии планирования водораспределения и оперативного управления отгрузкой.

Эксплуатационные принципы и методы планов водопользования в хозяйствах: Принципы и методы оперативной корректировки планов водопользования в хозяйстве, которые фактически базируются на двух основных допущениях, выработанных в орошаемом сельском хозяйстве засушливой зоны Средней Азии: на существующем техническом уровне ирригационных систем и на наличии системы оперативного прогнозирования дефицита влаги.

Существующий технический уровень оросительных систем, характерный для большей части орошаемых сельскохозяйственных угодий, характеризуется почти полным отсутствием технических средств прогнозирования орошения и учета воды в рамках экономики. Существующие в этих условиях методы основаны на субъективной оценке требуемой площади орошения, опираясь на интуицию и опыт практикующих, с последующей оценкой величины расхода воды в соответствии с плановыми нормами орошения.

Предлагается обозначить требуемую площадь как целую площадь, полив которой не выполняется за этот эксплуатационный период. Это правило вытекает из характера ратификации водопотребления сельскохозяйственных культур и исключает субъективный подход к оценке его стоимости. Величину расхода воды определяют с учетом фактической нормы полива данного хозяйства

$$Q_t^H = m_p(\Omega_x - W_n)/tp \quad (1)$$

здесь Ω_x - ва W_n - общая площадь фермы, включая орошаемую площадь, га;

tp - расчетная продолжительность полива оставшейся площади, секунд;

m_p - расчетная норма полива хозяйства м³/ га;

Окончательные значения определяются на основании статистических данных по использованию поливной воды в хозяйстве, которые ведутся в органах ирригационных систем.

$$m_p = m_{cp} - \partial \quad (2)$$

здесь

$$m_{cp} = n_x * \frac{\sum_{i=1}^n W_{if} / W_{if}}{n} \quad (3)$$

∂ - среднее квадратичное значение средней нормы полива фактических норм полива;

n - количество фактических значений;

W_{if} - i - фактический сток воды, поступающей в ферму за декады, м³

W_{if} - настоящая орошаемая территория, га.

=1,2,..., n индексы десятилетия периода полива;

n_x - эффективность ирригационной сети хозяйства.

Примерный срок полива при нормальном водоснабжении хозяйства определяется результатом качественного орошения и состоянием многих оросительных культур.

Показатели водоснабжения и ирригационных задач для элементов оросительных систем и структурных подразделений хозяйств устанавливаются аналогично предыдущим.

В условиях ограниченных водных ресурсов, когда подача воды в хозяйство осуществляется исходя из заданной величины, продолжительность забора воды по расчетной величине определяется по выражению:

$$tp = \frac{m_p(\Omega_x - W_{\Delta n})}{Q_{\Delta x} * n_x} \quad (4)$$

здесь $Q_{\Delta x}$ – установленный объем водозабора на ферму м³/с.га.

Распределение воды по структурным подразделениям хозяйства и, соответственно, по звеньям ирригационной сети может быть определено на основе следующих критериев: - в соответствии с реальной потребностью в площади для полива;

- пропорционально запланированным потребностям.

В первом случае ущерб от нехватки воды будет минимальным во всем хозяйстве. При этом она компенсируется другими структурными подразделениями, имеющими лучшие показатели, нарушает принцип хозяйственно-бухгалтерских отношений между структурными подразделениями хозяйств как недостаток эффективного использования их орошения и воды. При этом граница водоснабжения структурных подразделений устанавливается пропорционально ее требуемым поливным площадям

$$Q_{st} = \frac{\Omega_s - W_{sn}}{\Omega_x - W_{xn}} Q_{\Delta x} \quad (5)$$

здесь s - индекс структурного деления хозяйств.

Распределение воды структурными подразделениями пропорционально их плановым потребностям отвечает принципам самофинансируемых отношений между ними. подача воды в структурное подразделение в этом случае определяется выражением

$$Q_{st} = L_x * Q_{sn} \quad (6)$$

здесь Q_{sn} - плановое водоснабжение системы, м³/с.

L_x - обеспеченность хозяйства водой определяется

$$L_x = Q_{\Delta x} / Q_{nx} \quad (7)$$

Q_{nx} - плановый водозабор на ферме, м³/с.

Если наблюдается значительное снижение во

доснабжения хозяйств (более чем на 70%), целесообразно ввести межхозяйственный круговорот воды вместо постоянного притока воды. Это позволяет уменьшить общую потерю воды, идущей из каналов на фильтрацию, за счет прохождения принудительного водотока, что сокращает длину и время работы ирригационной сети. Оптимальная схема расхода воды должна быть приведена исходя из следующих принципов:

- в каждом цикле круговорота воды водоснабжение должно быть обеспечено для структурного подразделения хозяйств или их группы в целом;

- продолжительность полива при каждом круговороте воды должна обеспечивать необходимое качество полива;

- продолжительность водозабора водопользователей должна быть размещена таким образом, чтобы продолжительность каждого цикла круговорота воды была примерно одинаковой. На практике наиболее эффективной считается подача воды в два такта. Трехтактный круговорот воды и выше является организационно сложным и может привести к развитию сельскохозяйственных культур с негативными последствиями. Чтобы рассчитать оборот воды, в первую очередь необходимо скорректировать план водопользования в соответствии с установленным пределом забора воды в хозяйство, как рекомендовано выше. Стоимость доставки воды равна предельному количеству воды, подаваемой на такт, или их общей стоимости. Непрерывное водоснабжение на протяжении каждого цикла и на протяжении всего цикла воды

$$tb = Q_{i\Delta s} * Tb / Q_{i\Delta p} \quad (8)$$

$Q_{i\Delta s}$ - расчетный лимит водоснабжения структурного подразделения хозяйства м³/с.

$Q_{i\Delta p}$ - расход воды в круговороте воды м³/с.

Орошение определяется с учетом общего водоснабжения хозяйства

$$W_{ins} = L_x * W_{ins} \quad (9)$$

Документы представлены в виде идентичных оперативных графиков полива и водоснабжения, которые заполняются по срокам полива. Основная функция системы быстрого анализа дефицита влаги состоит в том, чтобы связать информацию, полученную от ирригационных систем, с требованиями ирригационных систем и методами орошения.

Обзор модели оперативного прогнозирования дефицита влаги в почве форма

$$\Theta_t = \Theta_o + E_o(t) + E_2(t) - E_u(t) \quad (10)$$

здесь Θ_t - текущая влажность почв, м3/ га;

Θ_o - начальные запасы влаги в почве м3/ га;

$E_o(t)$ - м3 / атмосферные осадки м3/ га;

$E_2(t)$ - насыщение грунтовыми водами, м3/ га;

$E_u(t)$ - испарение с поверхности почвы за счет транспирации, м3/ га;

В то время как многие модели быстро исправляют дефицит влаги последние два компонента оцениваются как постоянные в течение среднего короткого периода времени. Если в засушливой зоне Средней Азии осадки в течение вегетационного периода практически не влияют на водный баланс почв, то это можно выразить следующим образом

$$\frac{E_o(t)+E_2(t)-E_u(t)}{tk} = \frac{\Theta_o-\Theta_k}{tk} \quad (11)$$

здесь Θ_k - пограничная влажность почвы, при которой развитие растений застывает, м3/ га;

tk - критическая влажность почвы продолжительность жизни;

$$\Theta_t = \Theta_o - (\Theta_o - \Theta_k)t/tk \quad (12)$$

здесь t - ордината продолжительности времени, суточный.

Эти данные охватывают очень широкий диапазон климатических условий, механического состава почвы и глубины залегания сточных вод.

От начала полива до достижения критической влажности определяется примерная норма полива для любого участка полива

$$m_p = \frac{(\Theta_b - \Theta_H) + (\Theta_b - \Theta_k)}{2} \quad (13)$$

Примерная норма полива выражается через характеристику расхода системы полива в соответствии с условием

$$m_p = \frac{Q_i(t_k - t_H)}{W_i} \quad (14)$$

$$Q_i = \frac{(2\Theta_b - \Theta_k - \Theta_H)W_i}{2(t_k - t_H)} \quad (15)$$

здесь

Θ_b - максимальная ёмкость для полива воды ,

$t_k - t_H$ - даты начала и окончания полива.

Θ_H - влажность почвы и начало полива, м3/ га;

Q_i - расчетный расход воды на полив, м3/ га;

Полив расчетных показателей эксплуатационных графиков водоснабжения определяют при достаточно широком ограничении исходной влажности почвы по отношению к длительности водных ресурсов, а также с учетом осадков в период вегетации. Начальная влажность почвы для последующего полива учитывается как фактическая норма полива предыдущего полива. Во избежание дорогостоящих и трудоемких работ по непосредственному определению поливной влажности почвы предлагается расчетный метод определения фактических норм полива с учетом практически полного отсутствия объектов учета воды в оросительной сети хозяйства

$$m_{jf} = \frac{Q_f * t_{fi} * T_f * n_v}{\sum_{i=1}^n W_{fi} * t_{fi}} \quad (16)$$

здесь Q_f - фактический расход воды хозяйственного канала, по которому ведется учет воды, м³/ га;

t_{fi} - срок полива расчетной площади, суточный;

T_f - общая продолжительность работы межхозяйственного канала, суточный;

n_v - межхозяйственного канала КПД;

$\sum_{i=1}^n W_{fi} * t_{fi}$ - площадь оросительных участков, подвешенных к межхозяйственному каналу, и сроки их орошения.

Заключение. Комплексный подход к процессу планирования водопользования в ирригационных системах с использованием информационных технологий основан на многообразии различных факторов, реализация которых обеспечивает рациональность забора, распределения и доставки воды потребителям в необходимом объеме.

Благодаря оперативным данным о состоянии водного хозяйства на фермах оперативное принятие решений по распределению воды и контролю за их выполнением повысит качество использования водных ресурсов на 20-25%.

Обоснован состав и структура информационного обеспечения планирования водопользования, создана базовая имитационная модель ирригационной системы с учетом особенностей ее проектирования и структуры участков севооборота.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан "О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве", ПФ-5742 от 17.06.2019
2. Исмаил Дж. Худаев и Рустам Темиров. Использование канавной воды для орошения. Веб-конференция E3S. Том 390, 2023 г. VIII Международная конференция по передовым агротехнологиям, экологической инженерии и устойчивому развитию (AGRITECH-VIII 2023)
3. Ирригация: справочник, изд. Шумаков Б.Б. - М.: Колос, 1999. -432 с
4. Альт В.В. Информационные технологии как фактор повышения эффективности выбора технологических решений // Сборник научных трудов. Научно-практический. конф. - Самара, 2005.
5. Израэль Ю.А., Сиротенко О.Д. Моделирование влияния изменения климата на продуктивность сельского хозяйства в России // Метеорология и гидрология. - № 6. - 2003.
6. Капустина Т.А., Аванесян И.М., Спирина Е.Ю. Изменения показателей потенциала природных ресурсов, тепло-, влагообеспеченности за долгосрочный период, их влияние на агроклиматические условия и биопродуктивность: Сборник тезисов докладов междунар. науч.-практ. конф. Конгресс "Вода: экология и технологии" (ЭКВАТЕК). - Москва: Международный выставочный центр "Крокус Экспо", 2008.
7. Хамидов М., Хамраев К. Водосберегающие технологии орошения хлопчатника 2020 в условиях глобального изменения климата и нехватки водных ресурсов. Серия конференций IOP: Материаловедение и инженерия. 883(1) 012077.
8. Ольгаренко В.И., Колганов А.В., Ольгаренко Г.В. Эксплуатационные режимы орошения агроценозов степной зоны Нижнедонской области // НГМА. - Мелиоводинформ, 2001. - 149 с.
9. Левенко А.А. К вопросу расчета испаряемости и влагозапасов почвы на основе метеорологических данных / Вопросы агроклиматологии: сборник научных трудов Украинского научно-исследовательского института гидротехники и мелиорации. - - Москва: СГидрометеиздат. - Выпуск 105. - С. 51-59.155.
10. Хамраев К.Ш ., Худойназаров И.А., Азимбоев С.А., Тураев А.С. Роль полианионного полимера при промывке засоленных почв//Сборник статей традиционной 15-летней научно-практической конференции ученых, аспирантов и талантливых студентов на тему "Современные проблемы сельского и водного хозяйства". управление". Ташкент-2016.

полевых условиях, экспериментальному оборудованию и методологии исследований//Актуальные проблемы фундаментальных и прикладных исследований: достижения и инновационные решения Международная научно-техническая конференция коллекция материалов Бухара, 16-17 мая 2024 г, 14-18 с

14. <http://www.fao.org/home/en/> (Продовольственная и сельскохозяйственная организация).

UO‘K: 687

3D LOYIHALASH USULI YORDAMIDA VIRTUAL KIYIMLARNI LOYIHALASH USULLARI

Temirova Gulnoz, dotsent
Buxoro davlat texnika universiteti
Esanova Ma’rifat, doktorant
Buxoro davlat texnika universiteti

Аннотация

Во многих развитых странах размерные стандарты уточняются и совершенствуются с использованием передовых цифровых технологий. Проведение антропометрических исследований — дорогостоящий процесс. Традиционные контактные методы измерения теряют свою актуальность в век передовых информационных технологий. Увеличивается число стран-лидеров по производству и экспорту швейной продукции. В частности, внедрена национальная программа по установлению размерных стандартов для промышленного производства одежды, отражающих классификацию особенностей телосложения населения на основе технологий 3D-сканирования.

Ключевые слова: размер, одежда, размер, технология, дизайн, мода, изделие, кожа, мех, безотходный.

Abstract

In many developed countries, size standards are being refined and improved using advanced digital technologies. Conducting anthropometric studies is an expensive process. Traditional contact measurement methods are losing their relevance in the age of advanced information technologies. The number of countries leading in the production and export of clothing products is increasing. In particular, a national program has been introduced to establish size standards for industrial clothing production, reflecting the classification of the body features of the population based on 3D scanning technologies.

Key words: size, clothing, size, technology, design, fashion, product, leather, fur, waste-free.

Har bir ommaviy tayyorlash uchun qabul qilingan model uchun buyumning o‘rtacha razmer, rost va to‘lalikdagi namunasi tikiladi, shu model uchun etalon andazalar tayyorlanadi, tashqi ko‘rinishining yozuvi beriladi va o‘lchov tabeli, ya’ni andazalar va tayyor buyumning hamma razmer va rostlarining o‘lchov jadvali tuziladi.

Modelning texnik yozuviga quyidagilar kiradi:

- modelning tashqi ko‘rinishining yozuvi va rasmi, taklif etiladigan razmer, rost, to‘laligi, detallar spetsifikatsiyasi, taklif etiladigan avra, astar, qotirmalik gazlamalar va furnituralar, buyum tikish texnologiyasi haqida yo‘l- yo‘riqlar .

O‘lchov tabelida andazalar va tayyor buyumning asosiy o‘lchov joylari va o‘lchov iymatlari, ishlov berish uchun haqlar va og‘ishlar beriladi. Bu hujjatlar ishchi andazalarini nazorat qilish va tayyor buyumlarni qabul qilish uchun ishlatiladi.

Kiyimning uch o‘lchovli dizaynini amalga oshirish uchun kompyuterda ko‘rish, kompyuter grafikasi, uch o‘lchovli modellashtirish, vizualizatsiya (renderlash), ob’ektlarni uch o‘lchovli rekonstruktsiya qilish qo‘llaniladi.

Tejamli joylashma tayyorlash uchun ma'lum qoidalarga rioya qilish kerak. Ayniqsa bunga andazalarning shakli katta ta'sir ko'rsatadi. Murakkab shaklli andazalarni joylashtirganda chiqindilar soni ko'payadi. Kiyimning mayda detallari ko'p bo'lsa, ularni bo'sh joylarga joylashtirib, chiqindi sonini kamaytirish mumkin. Kiyimdagi simmetrik joylashgan detallarning gullari bir xil joyga to'g'ri kelishi kerak. Bobrik, baxmal, yarimbaxmal, chiyduxoba kabi gazlamalardan tikilgan kiyimlar barcha detallarining tuki yuqoriga yo'nalgan bo'lishi kerak, aks holda kiyimning ko'p ishqalanadigan joyi yaltirab ketadi. Tuki uzun bo'lsa pastga qarab turadigan qilib bichish kerak.

Gulsiz sidirg'a gazlamalarni bichishga mo'ljallangan joylashmada andazalar qarama-qarshi joylashtirilsa ham bo'ladi. Agar bichiladigan gazlama yo'l-yo'l yoki katak bo'lsa, tikilayotganda yo'llari yoki kataklarini to'g'ri keltirish uchun detallar mo'ljaldagidan kattaroq qilib bo'rlanadi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishning strategik yo'nalishi sifatida qator mamlakatlarda, jumladan respublikada ham ularni tezkor hal etish muhim ahamiyatga ega. Xalqni sifatli tikuv buyumlari bilan ta'minlash, jumladan tabiiy mahsulotlarini ko'paytirishga katta ahamiyat berilmokda. Aholining tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ularni sifatini oshirish va tayyor mahsulotlar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda, ishlab chiqarish hajmini va uning sifatini yanada oshirish talab etiladi [1-4]. Raqobatbardosh tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda mahsulot sifatini ta'minlovchi texnologik mashinalar va texnologiyalarni takomillashtirish evaziga mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, jumladan tabiiy charm va mo'ynadan resurstejamkorlik asosida muammolarini kompleks hal etish shu bilan birga ishlab chiqarishning innovatsion usullarini yaratish yengil sanoatni rivojlanishiga asos bo'ladi.

Hozirda sanoat korxonalarida resurslarni tejash (kamchiqitli yoki chiqindisiz) va ekologik jihatdan yuqori samaradorlikka ega mahsulotlarni ishlab chiqarish dolzarb bo'lib bormoqda [1-2].

Mahalliy xom ashyolardan (tabiiy charm va mo'yna chiqindilari) tayyor sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarni takomillashtirish, ular samaradorligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiy sharoitini yuksaltirishning asosiy printsiplaridan biriga aylanmoqda [5].

Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida ilg'or raqamli texnologiyalarni qo'llagan holdarazmerli standartlarga aniqliklar kiritilib takomillashtirilmoqda. Antropometrik tadqiqotlarni o'tkazish serharajat jarayon hisoblanadi. An'anaviy kontaktli o'lchash usullari esa rivojlangan axborot texnologiyalari asrida o'z dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Ma'lumki, bugungi kunda Turkiya tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha lider mamlakatdan biri hisoblanadi. Turkiya tadqiqotchilari tomonidan 3D skanerlash texnologiyalari asosida aholining tana tuzilishi xususiyatlari tasnifini ifodalaydigan kiyimlarni sanoatda tayyorlashning razmerli standartlarini asoslovchi milliy dastur joriy qilingan[1].

Ushbu maqola 3D texnologiyalaridan foydalanadigan kompaniyalarda ishlaydigan yoki frilanser sifatida ishlaydigan moda dizaynerlarining tajribasini quyidagi tadqiqotlarga javob berish orqali o'rganishga qaratilgan: moda industriyasida 3D raqamli texnologiyalarni dizaynerlarning dizayn jarayoniga tatbiq etishning ijobiy va salbiy tomonlari nimada?" [2].

Haqiqiy dunyoning ko'p o'lchovli ob'ektlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va ularning raqamli tasvirini yaratish uchun avtomatlashtirilgan integratsiya usullari kompyuter ko'rish (Computer vision) deb ataladi, bu sanoat nazorati yoki axborotni tashkil qilish uchun avtomatlashtirilgan tasvirni tahlil qilish, masalan, ma'lumotlar bazalarini yaratish. axborotni indekslash yoki tasvirlar ketma-ketligi, ob'ektning tanib olish tufayli [3].

Haqiqiy dunyodan olingan vizual axborotni qayta ishlash va kompyuterlar yordamida tasvirlarni sintez qilish (yaratish) uchun kompyuter grafikasi deb ataladigan texnologiya qo'llaniladi. 3D kompyuter grafikasi va ikki o'lchovli grafika o'rtasidagi farq 2D vektor grafika usullari yoki uch o'lchovli grafika usullaridan foydalangan holda simli ramka modellarini yaratish algoritmlari asosida 2D tasvirlarni vizualizatsiya qilish uchun kompyuterda saqlanadigan geometrik ma'lumotlarni (ko'pincha Dekart) grafik uch o'lchovli tasvirlash imkoniyatidir. 2D rastr grafik usullaridan foydalangan holda o'lchovli modellar [4].

Bugungi kunda ommaviy va individual ishlab chiqarishning integratsiyasi asosida uch o'lchamli tizimlarni qo'llagan holda kiyimlarni manzilli loyihalash prinsiplarini joriy qilish bilan

asoslanadi. Moda tendensiyalari, marketing tadqiqoti natijalari va 3D skanerlash texnologiyalaridan foydalanish yo‘li bilan olinadigan tipaviy va individual qomatning antropometrik xarakteristikalarini qayd etishga asoslangan kiyimni raqamli loyihalash usuli taklif qilingan.

Shunday qilib, kiyim-kechaklarni kompyuter yordamida loyihalash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni o‘rganish kiyim-kechak sanoatida uch o‘lchovli virtual dizayn usullariga bo‘lgan talabni, kiyim-kechak dizaynerlari va dizaynerlarining amaliy faoliyatiga 3D modellashtirishni joriy etishni, mavjud muammoni ko‘rsatadi. loyihalashtirilgan kiyimning tashqi shaklining 3D modellarining ishonchligini va mahsulotlarning virtual joylashuvining to‘g‘riligini ta‘minlash. berilgan raqamlar bo‘yicha.

Ilm-fanning rivojlanishi tikuvchilik sanoatining rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Xalqning moddiy va ma‘naviy o‘sishi uning yuqori sifatli tayyor mahsulotlarga bo‘lgan talabining o‘sishiga olib keladi. Bu esa tikuvchilik sanoatining rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Yangi materiallarni, asbob-uskunalarni, uzluksiz texnologik jarayonlarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish, xom-ashyo va materiallardan unumli foydalangan holda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, pardozlash jarayonini takomillashtirish, progressiv texnologiyalarni qo‘llash bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan[5-6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamilova И.И. Systemic projecting of the clothes in the conditions of high temperatures. VI International Izmir textile symposium. Izmir, 1992 Г.

2. The role and use of 3D-simulations in fashion design Authors: Linda Eriksson, Khalil Kabakibi 2023 y

3. GI, T. (2021). Mathematical Modeling of the Stress-Deformed State of a Fur Package With a Constant Cross Section Under the Action of a Heat Field and External Forces. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(04).

4. Kodirova, D. X., Mamatova, D., & Temirova, G. I. (2019). Specifications for working on detailsof heat exchanged natural fur. *Вестник магистратуры*, (4-3 (91)), 35-36.

5. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. *Вопросы науки и образования*, (2 (3)), 37-39.

6. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). PRODUCTION TECHNOLOGY FROM NATURAL POWER ON THE FULL-TERMOLOGICAL TECHNOLOGY. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 44-48).

UO‘K: 687

**TEXNIK VOSITALARNING TEBRANISHLARI TA'SIRIDAN HIMOYALOVCHI
MAXSUS KIYIM ISHLAB CHIQISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Temirova Gulnoz, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Muxammadova Zebiniso, doktorant

Buxoro davlat texnika universiteti

Аннотация

Применение клеевых соединений при изготовлении специальной одежды является эффективным методом, причем влияние температуры на величину клеевой связи следует отличать от влияния температуры, при которой образуется клеевая связь. Согласно диффузионной теории адгезии, с повышением начальной температуры прочность адгезии должна снижаться за счет усиления теплового движения и облегчения извлечения клеевых макромолекул из подложки. Использование инновационных методов изготовления специальной одежды, защищающей от воздействия вибраций технических средств, является

одним из основных процессов, облегчающих технологическую последовательность обработки срезов и узлов деталей и повышающих качество продукции.

Ключевые слова: адгезия, полимерная композиция, методы нанесения, технология, механика, конструкция, контакт, прочность.

Abstract

The use of adhesive bonds in the manufacture of special clothing is an effective method, and the effect of temperature on the magnitude of the adhesive bond should be distinguished from the effect of the temperature at which the adhesive bond is formed. According to the diffusion theory of adhesion, with an increase in the initial temperature, the adhesion strength should decrease due to increased thermal movement and easier extraction of adhesive macromolecules from the substrate. The use of innovative methods for the manufacture of special clothing that protects against the effects of vibrations of technical equipment is one of the main processes that facilitate the technological sequence of processing cuts and assemblies of parts and improve the quality of products.

Keywords: adhesion, polymer composition, application methods, technology, mechanics, design, contact, strength.

Texnik vositalarning tebranishlari ta'siridan himoyalovchi maxsus kiyim tayyorlashning innovatsion usullarini qo'llash asosiy jarayonlaridan bo'lib, detal qirqimlariga va tugunlariga ishlov berish texnologik ketma-ketligini osonlashtiradi va mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi.

Kiyim taqilma joyini pishiqligi oshirish maqsadida yelimli va qotirmalar yordamida ishlov beriladi. Kiyimlarning taqilma bilan ishlov berilgan qismi kiyim borti deyiladi. Bortlarga ishlov berishda turli xildagi mashina chok turlari qo'llaniladi, qo'llaniladigan mashina choklari har xil xarakteristikaga ega.

Kiyimlarga shakl berishning uch xil usuli mavjud:

- kiyim detallarga qotirma yordamida shakl berish;
- kiyim detallariga namlab isitib ishlov berish orqali shakl berish;
- kiyim detallarini bo'laklab (kaketka, kiritma, qirqma v.h) shakl hosil qilish.

Ustki kiyimlarga ishlov berish jarayonini sifatli tashkil etish tikuvchilik korxonasi bosh vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Sintetik smolalar paydo bo'lgandan beri tikuvchilik sanoatida yelimlab ulash keng tarqaldi. Ilgarilari yopishqoq modda sifatida un yoki kraxmaldan qilingan sirach ishlatilar edi. Yelimli materiallar kiyim detallariga uqa qo'yish, detal chetlarini pishiqlash (baxyaqator yuritilganda yolg'on qaviq o'rniga), yoqa, manjet, yeng uchiga qotirma yopishtirish, kiyim etagini bukib yopishtirish, bort qotirmalarini tayyorlash cho'ntak qopqoq, yoqa va shu kabilarni yelimlab yig'ishda ishlatiladi.

Asosi qizdirilganda suyuqlanib, sovitilganda yana qotadigan yelimlar termoplastik yelimlar deyiladi. Asosi qizdirilganda qotadigan yelimlar termoaktiv yelimlar deyiladi. Bunday yelimlarni qotgandan keyin suyuqlatib bulmaydi.

Yelim tanlashda uning ommaviy kiyim tikish sharoitida detallarni ulash talablarga to'g'ri keladigan bo'lishiga e'tibor qilish kerak.

Yelimlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- chokning pishiq chiqishi;
- yuqori elastiklik;
- mayinlik;
- suvga va kiyimlarni kimyoviy tozalashda ishlatiladigan moddalarga chidamlilik;
- fizik-mexanikaviy xossalarning kiyim kiyadigan sharoitdagi haroratga chidamliligi;
- yorug'lik va havo o'zgarishlariga chidamlilik;
- qimmat va defitsit bo'lmaslik.

Detallarni yelimlab ulaganda yelimdagi ulash kuchi (kozegiya) va yelimning gazlama sathiga yopisha olish xususiyati (adzeziya) gazlamalar pishiqligidan kamroq bo'lsa, zo'riqqan vaqtda gazlama butun qolib, yelimlangan chok ajralib ketadi.

Bog'lovchi va qo'shimcha moddalar yelimning asosini tashkil etadi. Bu asos yumshoqrok, elastikroq, yumshalish harorati pastroq bo'lishi uchun, unga qo'shimcha plastifikatorlar aralastiriladi. Masalan: dibutilftolat, kamfara, kanakunjut moyi, glitserin, etilyenglikol. Yelimning asosi issiqqa va sovuqqa chidamli bo'lishi uchun unga qorakuya, kaolin, talk, bo'r kabi to'ldiruvchi moddalar qo'shiladi. Fizikaviy jihatdan yelim suyuq, quyuc, yuqori elastik, qattiq va dag'al qattiq bo'ladi. Tikuvchilik sanoatida sintetik yelimlardan polialidli P-54, P-548, P-12/66, P-12AKR va polietilenli PVD (yuqori bosimli polietilen) keng qo'llanilmoqda.

Kiyimni kiyib yurish sharoiti va qo'llanilishiga qarab, u yoki bu turdagi yelimlar ishlatiladi. Masalan: pagon, xlyastiklar qattiq bo'lishi, palto va pidjaklar yelimli ziy choklari yuqori elastik va egiluvchan bo'lishi, qoplama cho'ntaklarni tayyorlashda esa, yelimli biriktirma chok pishiq bo'lishi, ko'p yuviladigan va qaynatiladigan kiyimlarda (erkaklar ko'ylagi, bluzkalar) ishlatiladigan, yelimlar pishiq va elastik bo'lishi lozim. Ayniqsa kiyim tikishda yelimli birikmalarning kimyoviy tozalashga chidamliligiga katta ahamiyat beriladi. Hozirgi paytda kimyoviy tozalashda xlorli erituvchilar va og'ir byonzin (uayt-spirit) ishlatiladi. SHuning uchun kimyoviy tozalanadigan palto va kostyumlarni tayyorlash P-54, P-548 markali yelimlar ishlatiladi, chunki ular hamma organik erituvchilar ta'siriga chidamli.

Yelimli birikmalar atmosfera sharoitlari ta'sirida (quyosh yorug'ligi, havo kislorodi, namlik, harorat) eskiradi va o'z xususiyatlarini o'zgartiradi va qattiq bo'lib elastiklik va pishiqligini yuqotadi. Poliomid yelimlarining eskirish muddati 3-5 yil bo'lib, ustki kiyimlarning eskirish muddatiga teng. Yelimli birikmalarning hammasi sovuqqa juda chidamli bo'ladi.

Yelimlab biriktirish uchun yelimli gazlama, yelimli uqa, o'rgimchak uya tipidagi noto'qima yelim material, yelim ip va yelim plynka ishlatiladi.

Assortimenti va mavsumbopligi, bichimi, estetik ko'rinishi, sifati jihatdan aholi talablariga mos keladigan kiyim-kechaklarni ishlab chiqarish yengil sanoat sohasining asosiy mezonidir.

Mahsulot tayyorlashda texnologik jarayon asosan gazlama bichishdan, kiyim tikishdan, pardozlashdan va sifatini tekshirishdan iborat. Bular quyidagilardan tashkil topgan:

- bichish, dazmollash va bug'lash yo'li bilan kiyim detallari yoki uzellarining shaklini o'zgartirish va hosil qilingan shakllarni mustahkamlash;
- kiyim detallarini ip, yelim bilan yoki payvandlash usuli bilan ulash;
- kiyim detallariga zarur fizik-mexanikaviy xossalarni hosil qilish;
- kiyim detallari ziylariga ishlov berish, qavib berish, yupqalashtirish, gazlama qirqimlarini titilmaydigan qilish;
- kiyimni tikma gullar, bezak baxyalar, qoplama bezaklar bilan bezash [1,2].

Kiyim tayyorlash jarayonlarining eng asosiy bosqichlaridan kiyim bortlarini tayyorlashdir. Ustki kiyim bortlarini tayyorlash va yig'ish nihoyatda ko'p jarayonli bo'lib, bitta kiyim tikish uchun sarflanadigan vaqtning 25 foizini tashkil qiladi. Kiyimlarning tashqi ko'rinishlari va sifati bortga qanday yordamchi materiallar ishlatilganligiga, texnologiyasiga, konstruksiyasiga bog'liq.

Bort taqilmasiga ishlov berish eng asosiy jarayon bo'lib uning konstruksiyasiga qarab: qirqma va osma izmali, «molniya» tasmali, yashirin bo'lishi mumkin.

Ust kiyim bortlarni tayyorlash 3 bosqichdan iborat:

1. Adiplarni tayyorlash.
2. Bort qotirmasini tayyorlash.
3. Bortni tikib yig'ish.

Bort qotirmasi old bo'lakning shakli buzilib ketmasligi uchun xizmat qiladi va tugma qadash, izma yo'rmalashda bortning mustahkamligini oshiradi. Ayollar kiyimida bort qotirmasi qo'shimcha qatlamlarsiz tayyorlanadi, chunki kiyimlarga hajmli shakl berish uchun ularga vitachkalar tikiladi.

Ust kiyimlar uchun ishlatiladigan qotirma yarim jun, zig'ir va yarim zig'ir matolardan tayyorlanadi. Qotirmalar yelimli yoki yelimsiz bo'lishi mumkin. Qotirmalarning xossasiga qarab mo'ljallanishi 1- jadvalda aks etgan.

Qotirmalarning xossasiga qarab mo'ljallanishi

| T/r | Markasi | Xossasiga qarab mo'ljallanishi |
|-----|---------------|---|
| 1 | N180 | yumshoq mayin matolar (ipak, viskoza) uchun yupqa, yumshoq flizelin. |
| 2 | N200, N250 | zichroq yupqa matolar (tafta, sarja va boshqalar) uchun zichroq, ammo yumshoq flizelin. |
| 3 | G405 | zich matolar uchun, masalan, jun, flanel, velyur |
| 4 | H31G | jinsi, shimlar, kurtkalar va paltolar uchun mato. |
| 5 | F220 | zich, qaynashga chidamli matolar uchun |

Yuqorida ko'rsatilgan yelimli qotirmalardan tashqari yelimli yoki yelimsiz noto'qima matolarning Syunt-100, Syunt-140, Viva, Liyva kabi materiallar ham keng tarqalgan. Barcha qotirmalik materiallar namga, bug'ga, kimyoviy tozalashga bardoshli, berilgan shaklni tez oladigan bo'lishi kerak.

Bort qotirmasining uloqlari va vitachkalari tutashtirilib, yelimli gazlama parcha qo'yib dazmollab yopishtiriladi. Adip qaytarmalmi bortlarning qotirmasi qaytariladigan qismisiz bichiladi. Yelka tagligi ham yelim kukuni sepilgan qotirma gazlamadan alohida bichiladi [3,4].

Yelimlab yopishtirishda yig'ish bilan bir vaqtda maxsus yostiqlari bor pressda bort qotirmasining kerakli shakli hosil qilib boriladi. Presslar shakl berishga moslashtirilgan ularni yostiqlarini biri qabariq, ikkinchisi botiq bo'ladi [5, 6].

Press ostki yostig'iga asosiy qotirma qo'yilib yopishtiriladi. Bort qotirmasi yig'ilgandan keyin, uning adip qaytarmasi universal mashinada yelimli tomonini pastga qilib 1 sm. kenglikdagi qo'yma chok bilan qotirmaning asosiy qismiga ulanadi [7].

Ustki kiyim bortlarini tayyorlashning innovatsion usullarini qo'llash asosiy jarayonlaridan bo'lib, detal qirqimlariga va tugunlariga ishlov berish texnologik ketma-ketligini osonlashtiradi va mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi. Bortlarga ishlov berishda turli xildagi mashina chok turlari qo'llaniladi, qo'llaniladigan mashina choklari har xil xarakteristikaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Темирова, Г. И. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СПОСОБОВ НАНЕСЕНИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ ДЕКОРАТИВНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ИЗ НАТУРАЛЬНОГО МЕХА. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 1(2), 52-58.

2. TEMIROVA, G. (2019). THE IMPORTANCE OF PREPARING A NATURAL FUR COAT. *EURASIAN JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY*, 1(2).

3. GI, T. (2021). Mathematical Modeling of the Stress-Deformed State of a Fur Package With a Constant Cross Section Under the Action of a Heat Field and External Forces. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(04).

4. Ташпулатов, С. Ш., Темирова, Г. И., Черунова, И. В., Расулмухамедова, Б. А., & Азимова, М. Н. (2021). РАЗРАБОТКА СПОСОБА ИЗГОТОВЛЕНИЯ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ. *Universum: технические науки*, (11-3 (92)), 55-59.

5. Темирова, Г. И. (2020). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОЛЛАГЕНСОДЕРЖАЩИХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ КАЧЕСТВЕННЫХ И РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ. In *Всероссийская конференция молодых исследователей с международным участием «Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации» (Социальный инженер-2020)* (pp. 152-158).

6. Сайитова, У. С., & Темирова, Г. И. (2017). Конструктивные приемы трикотажной формы и элементы формообразования одежды. *Вопросы науки и образования*, (2 (3)), 37-39.

